1. Epistemologik asos.

Epistemologik asos – bilim va idrokning shakllanish mexanizmlarini tushuntiradi. Unga ko'ra, bilish jarayoni insonning hissiy tajribasi, idrok va tafakkuri orqali amalga oshadi.

Tasviriy san'at ta'limida bu quyidagicha namoyon bo'ladi:

– O'quvchi rang, shakl, yorug'lik, hajm va kompozitsiyani bevosita ko'rish va chizish jarayonida biladi. Masalan, "Tabiat manzarasini kuzatish va tasvirlash" mashg'ulotida talaba rang o'zgarishlarini ko'z bilan idrok etadi, bu esa bilishning sezgi orqali amalga oshishini namoyon etadi. Shu tariqa, epistemologik asos o'quvchida badiiy bilishning vizual modelini yaratadi.

2. Ontologik asos.

Ontologik asos – ta'lim mazmunining tabiatini va san'at mohiyatini o'rganadi. San'at borliqning estetik ifodasidir, u mavjudlikni obrazlar orqali anglash imkonini beradi. Misol tariqasida: – "Inson siymosini tahliliy chizish" mavzusida o'quvchi inson borlig'ining jismoniy va ruhiy jihatlarini tasvirlash orqali "borliqni badiiy anglash"ni o'rganadi;

– San'at orqali u "narsa qanday mavjud?" degan falsafiy savolga ijodiy shaklda javob topadi. Shu tariqa, ontologik asos tasviriy san'atni mavjudlikni anglash

2 Ushbu fikr "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nutqidan

vositasi sifatida namoyon etadi.

3. Aksiologik asos.

Aksiologik asos – estetik va badiiy qadriyatlarning ahamiyatini belgilaydi. U san’atning axloqiy, ma’naviy va estetik qiymatini shakllantirishga qaratilgan.

Amaliy misollar: – “Milliy naqshlar kompozitsiyasi” yoki “Me’moriy meros manzaralarini tasvirlash” mavzularida talaba milliy qadriyatlarni vizual obraz orqali anglaydi. Shu orqali u go‘zallik, nafislik va milliy o‘zlik tushunchalarini ichki hissiyot bilan idrok etadi. Natijada aksiologik asos talabada estetik did va ma’naviy tafakkur shakllantiradi.

4. Pragmatik asos.

Pragmatik asos – o‘quv jarayonining amaliy yo‘nalishini ta’minlaydi. Unga ko‘ra, bilim amaliyotda qo‘llanilgandagina haqiqiy qiymatga ega bo‘ladi.

Amaliy misollar: – Talaba grafik dizayn, vizual kommunikatsiya, interyer loyihasi kabi yo‘nalishlarda olgan bilimlarini amalda qo‘llaydi. Masalan, “Reklama plakati yaratish” yoki “O‘quv qo‘llanma uchun vizual illyustratsiya tayyorlash” bo‘yicha loyiha ishlari orqali bilim amaliy qiymat kasb etadi. Shu orqali pragmatik asos tasviriy san’at ta’limini amaliy ijod va innovatsion faoliyat bilan bog‘laydi.

Demak, tasviriy san’at ta’limining metodologiyasi ushbu to‘rtta falsafiy asosga tayangan holda shakllanadi. Ularning o‘zaro sintezi o‘qituvchiga ta’lim jarayonini nafaqat didaktik, balki falsafiy, estetik va ijodiy kontekstda tashkil etish imkonini beradi.

Bu yondashuv magistratura bosqichida o‘quvchilarni bilim yaratish, mavjudlikni anglash, qadriyatni his etish va amaliy ijod orqali ifoda etish kabi jarayonlarga yetaklaydi.

Shunday qilib, metodologiya pedagogik faoliyatning “tayanch tayanchidir”. O‘qituvchining ilmiy salohiyati, uslubiy mahorati va ijodiy yondashuvi aynan metodologik tafakkur darajasiga bog‘liq.

Zamonaviy metodologik yondashuvlarning ilmiy tahlili.

XXI asr ta’limi yangi pedagogik paradigmalarga asoslanmoqda. Ular orasida kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, konstruktivistik va refleksiv yondashuvlar muhim o‘rinni egallaydi.

1. Kompetensiyaviy yondashuv.

Bu yondashuv bilim emas, balki amalda qo‘llash qobiliyatini o‘rganish va baholashga qaratilgan. Tasviriy san’at ta’limida bu ijodiy kompetensiyalar, estetik tahlil, kompozitsiya tuzish, rang uyg‘unligini his etish orqali namoyon bo‘ladi. Kompetensiyaviy model o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, o‘z ijodiy qarashini ifoda eta oluvchi shaxs sifatida shakllantiradi.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

Har bir talaba o‘zining individual imkoniyatlariga ega. Bu yondashuv o‘quvchining ichki motivatsiyasi, ehtiyoji va qobiliyatini hisobga olib, uni ijodiy faoliyat markaziga qo‘yadi. O‘qituvchi bu jarayonda “bilim beruvchi” emas, balki “yo‘l ko‘rsatuvchi” sifatida faoliyat yuritadi.

3. Faoliyatga asoslangan yondashuv.

“Bilish – bu harakat” tamoyiliga asoslanadi. O‘quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki uni amaliy faoliyat orqali egallaydi. Masalan, tasviriy san’at darslarida nazariy ma’lumotlar bevosita rangtasvir, kompozitsiya yoki loyihaviy ishlar bilan uyg‘unlashadi.

4. Konstruktivistik yondashuv.

Bu yondashuvda bilim o‘qituvchi tomonidan berilmaydi, balki talaba tomonidan “quriladi”. Talaba tajriba asosida yangi g‘oyalarni yaratadi. Konstruktivizm ijodiy fikr, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda o‘rganishni rivojlantiradi.

5. Refleksiv yondashuv.

Refleksiya – bu o‘qituvchi va talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini anglab, yangicha yo‘l topa olishidir. San’at ta’limida bu yondashuv ijodiy natijani tahlil qilish, o‘z ishiga tanqidiy nazar bilan qarash madaniyatini shakllantiradi.

1.10-jadvalda an’anaviy metodlar bilan zamonaviy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilib chiqamiz.

1.10-jadval.

An’anaviy metodlar bilan zamonaviy yondashuvlarni qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	An’anaviy yondashuv	Zamonaviy yondashuv
O‘qituvchi roli	Asosiy axborot manbai	Yo‘l ko‘rsatuvchi, fasilitator
Talaba faolligi	Passiv tinglovchi	Faol ishtirokchi
O‘qitish shakli	Monolog, izoh	Dialog, muhokama, hamkorlik
Natija	Bilim eslab qolish	Bilimni amalda qo‘llash
Nazorat usuli	Test va imtihon	Refleksiya, portfolio, loyihaviy ishlar

Tanqidiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy metodologiya – bu o‘qituvchining ijodkor sifatida o‘zini qayta anglashidir. Unga moslashgan o‘quv jarayoni doimiy innovatsion izlanishni talab etadi.

Metodologik sintez va integratsiya.

Bugungi ta’limda eng samarali yondashuv – metodologik sintez, ya’ni turli usul va yondashuvlarning ilmiy uyg‘unligi. Masalan: – dars boshida an’anaviy namoyish usuli orqali mavzuga kirish, so‘ng interfaol muhokama va ijodiy topshiriqlar, yakunda esa refleksiya va portfolio baholashni qo‘llash – bu integratsiya namunasidir.

Sintezlash natijasida o‘quv jarayoni tizimli, dinamik va ijodiy tus oladi. O‘qituvchi turli metodlardan foydalangan holda talabaning badiiy tafakkurini chuqurlashtiradi, mustaqil izlanishga undaydi.

Xorijiy tajribalarni ham ko‘rib o‘tsak. Rivojlangan mamlakatlar (Finlyandiya, Yaponiya, Fransiya) da tasviriy san’at ta’limida kompetensiyaviy va refleksiv

yondashuvlar asosiy o‘rinda. Masalan, Finlyandiya tajribasida har bir darsdan so‘ng o‘quvchilar “ijodiy hisobot” topshiradi. Bu o‘z ishini tahlil qilish, o‘zlashtirish jarayonini chuqurlashtiradi. Yaponiya ta’limida esa “Sensei modeli” qo‘llaniladi: o‘qituvchi o‘quvchini kuzatadi, yo‘naltiradi, lekin uning o‘rniga qaror qabul qilmaydi – bu refleksiv metodologiyaning namunasi hisoblanadi.

1.11-jadval.

Tanqidiy tahlil va sintez jadvali

№	Yondashuv nomi	Asosiy mohiyat	Kuchli jihatlari	Zaif jihatlari	Sintezda qo‘llanilishi
1	Kompetensiyaga asoslangan yondashuv	Bilim, ko‘nikma va malakani amaliy faoliyatga yo‘naltirish	Amaliy samaradorlikni oshiradi, mehnat bozoriga tayyorlaydi	Nazariy tayyorgarlikka kam e’tibor beriladi	Innovatsion yondashuv bilan sintezda natijaviylik ortadi
2	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv	Talabaning individual qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan	Ijodiy fikrlashni kuchaytiradi, motivatsiyani oshiradi	Dars jarayonini boshqarish murakkablashadi	Kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashadi
3	Integrativ yondashuv	Fanlararo bog‘liqlik asosida o‘qitish	Kompleks tafakkurni shakllantiradi	Har bir fan chegarasini aniqlash qiyinlashadi	Pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashadi
4.	Konstruktivistik yondashuv	Talaba bilimni o‘zi kashf etadi	Mustaqillikni oshiradi, tanqidiy fikrni rivojlantiradi	O‘qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlik talab etadi	Innovatsion texnologiyalar bilan birlashtiriladi
5	Innovatsion yondashuv	Zamonaviy AKT va vizual texnologiyalar asosida o‘qitish	Darsni interaktiv qiladi, ijodiy muhit yaratadi	Texnik resurslar talab etiladi	Konstruktivistik va integrativ yondashuvlar bilan sintezda samarali

Metodologiya – bu nafaqat ta’lim tizimining ilmiy asosi, balki o‘qituvchi ijodiy salohiyatining mezonidir.

Tasviriy san’at yo‘nalishida metodologiyani tanqidiy tahlil qilish va sintezlash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. O‘qitish jarayonida ijodiy muhitni shakllantirish;
2. Talabalarning badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish;
4. Metodik madaniyat va refleksiv tafakkurni mustahkamlash.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari bu fikrni yanada teranlashtiradi: – “Ijodiy fikrlovchi, tashabbuskor va bilimli yoshlar – bizning eng katta boyligimizdir.”

Demak, tasviriy san’at ta’limida metodologik yondashuvlarni tahlil qilish va sintezlash – bu nafaqat ilmiy zarurat, balki milliy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur bo‘limda metodologiya va zamonaviy yondashuvlarning tanqidiy tahlili shundan dalolat beradiki, tasviriy san’at ta’limida kompetensiya, innovatsiya va ijodiy fikrlash o‘zaro uzviy bog‘liq jarayondir. Shu bois, metodik tizimni yangilashda nazariy asoslar amaliyot bilan uyg‘un bo‘lishi shart.

Sintez jarayoni oliy ta’limda faqatgina ilmiy qarashlarni emas, balki badiiy fikr va estetik dunyoqarashni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, pedagogik metodologiyaning global rivojlanishi shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at ta’limi uchun yagona va o‘zgarmas yondashuv mavjud emas. Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish pedagogdan tanqidiy tahlil, innovatsion yechim, tajribaviy faoliyat va sintezlay olish ko‘nikmasini talab qiladi.

Zamonaviy metodologik yondashuvlarni tahlil etish shuni tasdiqlaydi:

– an’anaviy akademik tamoyillar (ilmiylik, tarixiylik, kompozitsion qonunlar) hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan;

– yangi pedagogik texnologiyalar (AKT, multimedia, interaktiv modellar, STEAM yo‘nalishi) ta’limni rag‘batlantiruvchi qudratli vositadir;

– shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika ijodkorlik va emotsional-intellektual rivojlanishni kuchaytiradi;

– integratsiya va interdissiplinarlik san’atni hayotiy faoliyat bilan bog‘laydi;

– faoliyatga asoslangan yondashuv amaliy natijani kafolatlaydi.

Shu jihatdan, metodologik yondashuvlarning samaradorligi ulardni to‘g‘ri tanlash va o‘zaro sintezlashga bog‘liqdir.

Tasviriy san’at ta’limining metodologiyasi fanlararo sintez, innovatsion yondashuv va milliy-ahloqiy qadriyatlar asosida takomillashib bormoqda. Tanqidiy tahlil jarayoni orqali metodlarni saralab qo‘llash: – ijodiy tafakkur, estetik idrok, kommunikativ va tadqiqotchi qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi sharoitda pedagog uchun eng muhim vazifa: – “metodlar jamlanmasiga ega bo‘lish emas, balki ularni vaziyatga mos holda sintezlay olish”dir. Bu esa san’at ta’limini: – ijodiy, zamonaviy talablarga mos, shaxsni rivojlantiruvchi yo‘nalishga olib chiqadi.

1.4-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Metodologiya tushunchasiga beriladigan asosiy ta’riflarni keltiring.
2. Tasviriy san’at ta’limida zamonaviy yondashuvlar qaysi tamoyillarga asoslanadi?
3. Tanqidiy tahlil va sintez jarayoni metodik tadqiqotda qanday ahamiyatga ega?
4. An’anaviy va innovatsion metodologiyalarni taqqoslang.

5. Metodologik yondashuvlarni sintezlash nima uchun fan rivojida muhim?

Tafakkur va tahlilni rivojlantiruvchi savollar

6. Tasviriy san’at ta’limida metodologiyani yangilashga olib kelayotgan omillar nimalar?

7 Innovatsion metodologiyalar o‘quvchi ijodiy fikrlashining qaysi jihatlarini rivojlantiradi?

8. Zamonaviy metodologiyalarni qo‘llashda uchraydigan muammolarga misol keltiring va ularni hal etish takliflarini bering.

1.5 § Oliy ta’limda va ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlarni o‘qitishning xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimi bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida yangicha mazmunda rivojlanmoqda. Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: – “San’at va madaniyat xalq qalbiga ezgulik urug‘ini sepadi, yoshlarning estetik didini, dunyo qarashini boyitadi.”[3]

Bu fikr tasviriy san’at ta’limining oliy bosqichda o‘qitilishida nafaqat texnik mahorat, balki estetik tafakkur, badiiy qadriyat va milliy o‘zlikni shakllantirishning muhimligini anglatadi.

Hozirda, Oliy ta’lim muassasalarida «Tasviriy san’at» tsikli quyidagi asosiy fanlarni o‘z ichiga oladi:

1. Rangtasvir (I-IV bosqichlar)
2. Kompozitsiya
3. Chizmachilik (perspektiva va shakl tahlili asoslari)
4. San’atshunoslik va san’at tarixi
5. Pedagogika va metodika fanlari
6. Dizayn asoslari va raqamli san’at
7. Natürmort, portret, figura, manzara ishlash amaliyoti

Bu fanlar talabalarda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, estetik qarash va ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘qitishning epistemologik, ontologik, aksiologik va pragmatik asoslari

Epistemologik asos – bilim, idrok va badiiy tafakkurning shakllanish mexanizmini anglatadi. Misol: “Rangtasvir-III” fanida talabalar yorug‘lik va rang o‘zgarishlarini kuzatish orqali idrokiy kuzatuvchanlikni rivojlantiradilar.

Ontologik asos – san’at mohiyati va tasviriy jarayonning tabiiy qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Misol: – “Kompozitsiya” fanida talabalarga shakl, proporsiya, muvozanat tushunchalari orqali mavjudlik estetikasi o‘rgatiladi.

Aksiologik asos – san’atdagi qadriyatlar, go‘zallik va estetik didning shakllanishini ta’minlaydi. Misol: “San’at tarixi” fanida o‘zbek miniatyura maktabi, Kamoliddin Behzod merosi orqali milliy badiiy qadriyatlar yoritiladi.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqidan, 2023-yil 15-iyun

Pragmatik asos – o‘qitish jarayonini amaliy yo‘nalishga qaratib, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashga xizmat qiladi. Misol: “Raqamli san’at” modulida talabalar Adobe Photoshop, Corel Painter kabi dasturlar orqali zamonaviy dizayn loyihalari yaratadi.

Oliy ta’limda tasviriy san’atni o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlar ustuvor o‘rin tutadi. Talabalar ijodiy mustaqillik asosida ishlaydi.

Professor A. Sulaymonovning ta’kidlashicha: – “Ijodiy fikrlashni o‘rgatish uchun o‘qituvchi talaba ongida go‘zallikni his etish jarayonini uyg‘otishi lozim.”[4]

S. Abdirasilov esa metodik yondashuvning amaliy jihatiga urg‘u beradi: – “O‘quvchi yoki talaba san’at asarini nafaqat chizadi, balki uni tahlil qiladi, mohiyatini anglaydi – bu jarayon estetik tafakkurning o‘sishidir.”[5]

Amaliyot va integratsiya tajribalari xususida ham to‘xtalib o‘tsak.

Ixtisoslashgan san’at maktablaridagi tajribalar oliy ta’lim uchun namuna bo‘ladi. Masalan: Toshkent san’at kollejida “Inson qomati va plastika” mavzusida talabalar real model asosida rasm ishlaydi, bu orqali inson anatomiyasini tasviriy tahlil asosida anglaydi. Navoiy san’at maktabida esa “Milliy liboslarda rang uyg‘unligi” mavzusida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilib, milliy estetik tafakkur rivojlantiriladi. Bu kabi integratsiya – tasviriy san’at, dizayn, musiqiy va teatr san’ati bilan bog‘liq faoliyat orqali talabalarda ko‘p yo‘nalishli estetik dunyoqarashni shakllantiradi.

Prezident qarorlarida tasviriy san’at ta’limiga e’tibor katta ekanligini dalillaydi. Masalan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-maydagi PQ–250-son “Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish konsepsiyasi”da ta’kidlanadi: – “Ijodiy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini xalqaro tajriba asosida tashkil etish, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir.[6]”

O‘z navbatida, bu qaror oliy ta’lim tizimida zamonaviy metodlar, interfaol yondashuv, raqamli texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi.

1.12-jadval.

Oliy ta’limdagi fanlarning uzviy bog‘liqligi

Fan nomi	O‘qitish maqsadi	Amaliy ko‘nikma misoli
Rangtasvir	Rang, yorug‘lik, kompozitsiya orqali badiiy ifoda	“Milliy manzara” mavzusida rang uyg‘unligini topish
Kompozitsiya	Obraz va fazoni tashkil etish	“Oila qadri” mavzusida sahna kompozitsiyasi
San’atshunoslik	Tarixiy va madaniy merosni tahlil qilish	“Benkov maktabi” asarlari tahlili

4 A. Sulaymonov. “Tasviriy san’at pedagogikasi”, Toshkent, 2021.

5 S. Abdirasilov, “San’at ta’limi metodlari”, Samarqand, 2020.

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-maydagi PQ–250-son “Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish konsepsiyasi”

Pedagogika va metodika	O‘qitish jarayonini tashkil etish	“Ijodiy yondashuv” mashg‘uloti ishlanmasi
Raqamli san’at	Zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash	“Virtual galereya” loyihasi yaratish

Oliy ta’lim va ixtisoslashgan san’at maktablarida tasviriy san’at fanlarini o‘qitish – ijodiy tafakkur, estetik did va milliy o‘zlikni shakllantirishning muhim bosqichidir.

Professor B. Boymetov ta’kidlaganidek: – “San’at ta’limida ijodiy mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash – bu shaxsni erkin fikrlashga tayyorlash demakdir.[7]”

Shuningdek, S. Shovdirovning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha: – “Tasviriy san’at ta’limi bosqichma-bosqich yondashuv orqali tashkil etilganda, u o‘quvchi va talabada badiiy idrokning izchil o‘sishini ta’minlaydi.”

Oliy ta’lim hamda ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlarni o‘qitish o‘z mohiyatiga ko‘ra nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlovchi ijodiy jarayondir. Bu yo‘nalishda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi, estetik idrokni uyg‘otuvchi, milliy qadriyatlarni singdiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Birinchidan, zamonaviy oliy ta’lim tizimida tasviriy san’atni o‘qitish jarayoni epistemologik, ontologik, aksiologik va pragmatik asoslarga tayangan holda tashkil etilishi zarur. Bu asoslar o‘quv jarayonining ilmiy poydevorini mustahkamlaydi va uni har tomonlama kompleks tizimga aylantiradi. Masalan, epistemologik asos – bilim va idrokning shakllanish mexanizmini ochib berar ekan, aksiologik asos esa o‘quvchi va talabada estetik qadriyatlarning shakllanishini kafolatlaydi.

Ikkinchidan, tasviriy san’at ta’limida integrativ yondashuv muhim o‘rin tutadi. Bunda tasviriy san’at fanlari musiqa, dizayn, teatr, tarix va madaniyat fanlari bilan uzviy bog‘lanib, talabada ko‘p qirrali badiiy dunyoqarashni shakllantiradi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalar vositasida ta’lim berish bu yo‘nalishda samaradorlikni yanada oshiradi.

Uchinchidan, Prezident qarorlari va davlat siyosatida san’at va madaniyat sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tasviriy san’at ta’limi mazmunini yangilash va interfaol usullarni joriy etishga keng imkoniyat yaratib bermoqda. Jumladan, PQ–250-sonli qaror asosida oliy ta’limda xalqaro tajriba, zamonaviy metodika va raqamli vositalar joriy qilinmoqda.

To‘rtinchidan, professor-o‘qituvchilarning ilmiy-metodik faoliyati bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilaydi. A. Sulaymonov, S. Abdirasilov, B. Boymetov, S. Shovdirov kabi olimlar tadqiqotlarida tasviriy san’at o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslari batafsil yoritilgan bo‘lib, ularning ishlari bugungi metodik yangilanishlar uchun tayanch manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Beshinchidan, amaliy mashg‘ulotlar tizimi oliy ta’limdagi eng muhim bosqich hisoblanadi. “Rangtasvir”, “Kompozitsiya”, “San’atshunoslik”, “Pedagogika va metodika” fanlari orqali talabalar real obyekt asosida ish olib borish, rang, shakl va kompozitsiyani tahlil qilish, badiiy fikrni mustaqil ifoda etish ko‘nikmalariga

7 B. Boymetov, “Rangtasvir nazariyasi”, 2022.

ega bo‘ladi. Shu jarayonlarda ijodiy mustaqillik, tafakkur mustaqilligi va estetik tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi.

Oltinchidan, san’at maktablaridagi amaliy tajribalar oliy ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi zarur. Chunki, o‘quvchilarning o‘rta bosqichda egallagan badiiy ko‘nikmalari oliy bosqichda mukammal shaklda rivojlantiriladi. Bu bosqichma-bosqichlik S. Shovdirov ta’kidlaganidek, “tasviriy san’atda izchillik, nazariya va amaliyot birligi” tamoyilini mustahkamlaydi.

Yettinchidan, baholash va refleksiya tizimi ham yangicha yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. Talabalar ijodiy ishlari faqat texnik mukammallikka ko‘ra emas, balki ularning badiiy g‘oyaviy yechimi, estetik talqini va innovatsion izlanishlari asosida baholanishi kerak. Bu, o‘z navbatida, kompetensiyaviy ta’lim tamoyillariga mos keladi.

Shunday qilib, oliy ta’lim hamda ixtisoslashgan san’at maktablarida tasviriy san’at tsiklidagi fanlarni o‘qitish: – estetik va badiiy qadriyatlarni anglashni chuqurlashtiradi, milliy san’at an’analarini saqlagan holda zamonaviy metodlar bilan uyg‘unlashtiradi, talabalarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantiradi, ta’limni milliy va global san’at rivoji bilan bog‘laydi, o‘qituvchi faoliyatida metodik, texnologik va refleksiv madaniyatni rivojlantiradi.

Demak, tasviriy san’at fanlarini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari – bu faqat dars o‘tish usuli emas, balki estetik tarbiya, milliy ong, badiiy tafakkur va ijodiy mustaqillikni shakllantirish tizimidir. Shu bois bu yo‘nalishdagi ta’limni ilmiy-metodik asosda yanada rivojlantirish, xalqaro tajriba bilan boyitish – zamonaviy san’at pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Oliy ta’lim va ixtisoslashgan san’at maktablarida tasviriy san’at ta’limi maqsad, mazmun, metod va kompetensiya natijalari jihatdan umumiy birlashuvga ega bo‘lsa-da, o‘quv jarayonining tashkil etilishida bir qator o‘ziga xos xususiyatlar mavjud.

Ixtisoslashgan san’at maktablarida ta’lim: – ijodiy qobiliyatlarni erta aniqlash, plastik, vizual va badiiy ko‘nikmalarni intensiv rivojlantirish, san’at texnikasi va materiallar bilan amaliy ishlash tajribasini kuchaytirishni maqsad qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida esa: – ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi, badiiy-me’yoriy tahlil, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish kasbiy mustaqillik va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim tizimlari tahlilidan kelib chiqadigan asosiy xulosalarni 1.13-jadvalda ko‘rsatib o‘tamiz.

1.13-jadval.

Yo‘nalish	Ixtisoslashgan san’at maktabi	Oliy ta’lim
Maqsad	Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish	Professional san’atkor va pedagog tayyorlash
Metod	Amaliy ijodga yo‘naltirilgan klassik va zamonaviy texnika	Ilmiy tahlil + ijodiy innovatsiyalar sintezi

Baholash	Texnika va badiiylik darajasi	Ijodiy mustaqillik, tadqiqot va professional kompetensiya
Natija	Ijodning amaliyotiy poydevori	San’at fani va kasbiy ijodda liderlik

Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda: – amaliy mashg‘ulot – har ikki bosqichda ham asosiy omil, estetik did, obrazli tafakkur, san’at tilini anglash – uzluksiz shakllanadi, lekin talabalarning mantiqiy tahlil, ijodiy mustaqillik va metodologik kompetensiyalari oliy ta’limda mustahkamlanadi.

Demak, san’at ta’limining uzluksiz tizimi – ijodiy qobiliyatni bolalikdan professional darajagacha rejali rivojlantirishni ta’minlaydi. Shu o‘rinda: – ixtisoslashgan san’at maktablari – ijodiy poydevor, oliy ta’lim – kasbiy cho‘qqi vazifasini bajaradi. Bularning barchasi san’atkor shaxsining: – badiiy-ma’naviy kamoloti, estetik idroki, ijodkor sifatidagi professional yetukligini ta’minlashga qaratilgan yagona strategiyaning tarkibiy bo‘g‘inlaridir.

1.5-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Oliy ta’limda «Tasviriy san’at» tsikl fanlarini o‘qitishning negiziy maqsadlari nimalardan iborat?

2. Ixtisoslashgan san’at maktablarida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalar bilan farqlanadi?

3. «Amaliy mashg‘ulotlar»ning mazkur ta’lim bosqichlaridagi roli nimada?

4. Oliy ta’limdagi tasviriy san’at dasturlarida nazariya va amaliyot qanday uyg‘unlashadi?

5. Pedagogning kasbiy mahorati bu jarayonda qanday ahamiyat kasb etadi?

Tafakkur va tahlilni rivojlantiruvchi savollar

6. Ixtisoslashgan san’at maktablarida shaxsning ijodiy rivojlanishi uchun qanday imkoniyatlar mavjud?

7. Oliy ta’limda tasviriy san’atni AKT asosida o‘qitishning afzalliklari nimada?

8. Har ikki ta’lim turida mavjud umumiy va farqli jihatlarni taqqoslangan holda tushuntiring.

1.6 § Tasviriy san’at fanidan pedagogik tadqiqot metodlari: pedagogik tajribalarni o‘rganish metodlari

Tasviriy san’at ta’limida olib boriladigan pedagogik tadqiqotlar – bu o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish, metodik yondashuvlarni takomillashtirish hamda o‘quvchilarda badiiy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy asoslarini ochib beruvchi muhim yo‘nalishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4306-son qarorida[8] ta’kidlanganidek, “Ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda o‘quvchilar ijodkorligini rag‘batlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.”

Shu bois, tasviriy san’at sohasidagi ilmiy tadqiqotlar zamonaviy pedagogik metodlarni chuqur o‘rganish, ularni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish orqali o‘z samarasini beradi.

8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4306-son qarori

Pedagogik tadqiqot metodlarining mazmuni borasida gap borganda quyidagilarni aytib o‘tish lozimdir.

Pedagogik tadqiqot metodlari – bu o‘qitish jarayonida kuzatish, tahlil qilish, solishtirish, eksperiment o‘tkazish, so‘rovnoma, suhbat, diagnostika, hamda statistik tahlil orqali ilmiy xulosaga keluvchi usullar majmuidir.

Tasviriy san’at fanida bu metodlar nafaqat bilim sifatini, balki ijodiy tafakkurning rivojlanish dinamikasini ham tahlil qilishga xizmat qiladi.

Kuzatish (observatsiya) metodi. Kuzatish – o‘quvchi yoki talabalar faoliyatini tabiiy sharoitda o‘rganishdir. Masalan, dars jarayonida talabaning rang tanlashdagi mustaqilligi, kompozitsiyani yaratishdagi ijodiy qarashlari kuzatilib, ularning rivojlanish darajasi aniqlanadi. Misol: – Navoiy davlat universiteti tasviriy san’at ta’lim yo‘nalishida o‘tkazilgan kuzatish tajribasida aniqlanishicha, individual yondashuv asosida ishlovchi talabalar kompozitsion tafakkurda 30-35% yuqori natijani ko‘rsatgan[9].

Eksperimental metod. Eksperiment – yangi metodikani sinovdan o‘tkazish, uning samaradorligini aniqlash jarayonidir. Misol: – A.Sulaymonov tomonidan olib borilgan tadqiqotda “Kompozitsiyani modulli o‘qitish” tizimi joriy etilganda, talabalar ijodiy fikrlash ko‘nikmasi 1,4 barobarga oshgani aniqlangan.

Bundan tashqari, S.Abdirasilov o‘z tadqiqotida “kollej va oliy ta’limda uzluksiz tasviriy tayyorgarlik tizimi”ni tajriba asosida tahlil qilib, integratsion yondashuvning ustunligini asoslab bergan.

So‘rovnoma va suhbat metodlari. Bu metodlar o‘qituvchi, talaba va o‘quvchilarning fikrini o‘rganish, ularning ta’lim jarayonidagi motivatsiyasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Misol: – B.Bo‘ymetov tomonidan ixtisoslashgan san’at maktablarida o‘tkazilgan so‘rovnomalarda o‘quvchilarning 68 foizi amaliy mashg‘ulotlarda “ko‘rgazmali namuna asosida ishlash” metodini eng samarali deb topgan.

Diagnostika va monitoring metodlari. Tasviriy san’atda diagnostika o‘quvchining estetik didi, tasviriy ifoda vositalarini qo‘llay olish darajasini baholaydi. Misol: – S. Shovdirov tomonidan ishlab chiqilgan “Ijodiy kompetensiyani aniqlash mezonlari” modeli asosida o‘qituvchilar uchun maxsus baholash mezonlari ishlab chiqilgan[10]. Ushbu modelda badiiy fikrlash, rang sezgisi, obrazli tafakkur, shaklni ifodalash kabi ko‘rsatkichlar tizimli baholangan.

Statistik va kontent-tahlil metodlari. Tajriba natijalarini umumlashtirishda statistik metodlardan foydalanish zarur. Ma’lumotlarni foiz, ko‘rsatkich, grafik tahlil shaklida qayta ishlash ilmiy natijaning ishonchliligini ta’minlaydi. Misol: – Toshkent davlat san’at institutida o‘tkazilgan tadqiqotda grafik dizayn yo‘nalishida amaliy mashg‘ulotlarga interfaol metodlarni joriy etish natijasida o‘quvchilar

9 Shovdirov S., 2023
10 Shovdirov S., 2024

faolligi 40% ga oshgani statistik tahlil orqali isbotlangan.

Ilmiy manbalar va tajriba almashish. Pedagogik tadqiqotlar jarayonida mahalliy olimlar – A. Sulaymonov, S. Abdirasilov, B. Bo‘ymetov, S. Shovdirovlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ularning tadqiqotlarida quyidagi xulosalar ilgari surilgan:

A. Sulaymonov – “Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda integrativ metodlar” samaradorligini asoslagan;

S. Abdirasilov – “Amaliy mashg‘ulotlarda pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash” yo‘nalishini tizimlashtirgan;

B. Bo‘ymetov – “Rassomlikni o‘qitishda nazariya va amaliyot birligining didaktik asoslari”ni ishlab chiqqan;

S. Shovdirov – “Bosqichma-bosqich ta’lim asosida tasviriy san’at o‘qitish metodikasini takomillashtirish” konsepsiyasini yaratgan.

San’at maktablaridagi amaliy tajribalar. Ixtisoslashgan san’at maktablarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasida, quyidagi metodlar eng samarali deb topilgan:

– “Ko‘rsatma asosida mustaqil ijod” metodi – o‘quvchilarning obrazli tafakkurini rivojlantiradi;

– “Raqamli chizmachilik” mashg‘ulotlari – zamonaviy texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi;

– “Badiiy tahlil asosida rasm chizish” – o‘quvchilarning analitik fikrlashini kuchaytiradi.

Tasviriy san’at fanidan pedagogik tadqiqot metodlari – bu nafaqat ilmiy izlanish vositasi, balki ta’lim jarayonining sifatini oshiruvchi, o‘qitish metodikasini takomillashtiruvchi asosiy manbadir.

Zamonaviy tadqiqot yondashuvlari orqali san’at ta’limida ijodiy kompetensiya, estetik tafakkur va milliy qadriyatlarni anglash darajasi sezilarli oshmoqda.

Bu jarayon O‘zbekiston Prezidentining ta’lim sifatini oshirishga oid qarorlarida belgilangan vazifalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, pedagogik tadqiqotlar natijalari milliy san’at maktabining rivojlanish poydevorini mustahkamlaydi.

Quyida “Tasviriy san’at fanidan pedagogik tadqiqot metodlari” yuzasidan turkumlangan va ilmiy asoslangan 1.14-jadvalni ishlab chiqdek. Unda har bir metodning nazariyosi, maqsadi, amaliy qo‘llanilishi va tadqiqot misoli berilgan.

1.14-jadval.

Tasviriy san’at fanidan pedagogik tadqiqot metodlari tasnifi va amaliy qo‘llanishi

№	Metod turi	Nazariy asos	Maqsad va vazifasi	Amaliy qo‘llanish misoli	Manba yoki tadqiqot
1	Kuzatish (observatsiya)	Pedagogik jarayonni tabiiy sharoitda o‘rganish nazariyasiga asoslanadi	Talabalarning ijodiy faoliyatini kuzatish, o‘zgarish dinamikasini aniqlash	Talabalarning rang tanlashdagi mustaqilligi va kompozitsion fikrlashini baholash	Shovdirov S. Navoiy DU tajriba natijalari
2	Eksperimental metod	Nazariy farazni amalda sinovdan o‘tkazish tamoyiliga asoslanadi	Yangi metod yoki texnologiyaning samaradorligini aniqlash	“Kompozitsiyani modulli o‘qitish” tajribasini o‘tkazish	A. Sulaymonov
3	So‘rovnoma (anketlash)	Psixologik va sotsiologik tadqiqot metodlariga asoslanadi	O‘quvchilarning fikr, motiv va ehtiyojlarini aniqlash	O‘quvchilar orasida “interfaol metodlar” samaradorligi haqida so‘rov	B. Bo‘ymetov
4	Suhbat (intervyu)	O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida kommunikativ tahlil asosida olib boriladi	O‘qitish jarayonidagi shaxsiy tajriba va qarashlarni aniqlash	Rassom-o‘qituvchilar bilan metodik suhbatlar	S. Abdirasilov
5	Diagnostika	Psixodiagnostika va kompetensiyalarni baholash nazariyasiga asoslanadi	O‘quvchilarning badiiy tafakkur va estetik didini o‘lchash	“Ijodiy kompetensiya” mezonlari orqali baholash	S. Shovdirov
6	Monitoring va tahlil	Ta’lim sifatini uzluksiz nazorat qilish konsepsiyasiga asoslanadi	Ta’lim natijalarini dinamik kuzatish va tahlil qilish	San’at maktablarida yillik ijodiy rivojlanishni kuzatish	O‘zbekiston San’at ta’lim markazi hisobotlari
7	Statistik tahlil	Miqdoriy ma’lumotlarni ilmiy tahlil qilish metodologiyasi	Tadqiqot natijalarini ishonchli raqamli asosda ifodalash	Interfaol metodlarni joriy etishdan oldin va keyingi farqlarni tahlil qilish	Toshkent DSPI

8	Kontent-tahlil	Matn, rasm va tasviriy ifodalarni semantik jihatdan o‘rganish nazariyasiga asoslanadi	O‘quvchilarning badiiy ishlarini mazmunan tahlil qilish	Talabalarning asarlarida milliy motivlarning ifodalanish darajasini aniqlash	S. Abdirasilov
9	Tajriba-sinov ishlari	Innovatsion pedagogik faoliyat nazariyasiga asoslanadi	Yangi metodik tizimni sinovdan o‘tkazish	Bosqichma-bosqich ta’lim asosida tasviriy mashg‘ulotlarni tashkil etish	Shovdirov S.
10	Kompleks (integrativ) metod	Fanlararo yondashuv va sintez prinsipi	Nazariya, amaliyot va tahlilni uyg‘unlashtirish	“San’at turlari integratsiyasi” darsi orqali kompleks tadqiqot	A. Sulaymonov, B. Bo‘ymetov

1.14-jadval, tasviriy san’at sohasidagi pedagogik tadqiqotlarni ilmiy tizimga soladi. Unda har bir metodning nazariy va amaliy qirralari ochiq ko‘rsatilgan. Xususan, A. Sulaymonov, S. Abdirasilov, B. Boymetov va S. Shovdirov tadqiqotlari orqali metodlar ilmiy jihatdan asoslangan va san’at ta’limi amaliyotida sinovdan o‘tkazilgan.

1.15-jadval.

Tasviriy san’at fanidan pedagogik tadqiqot metodlarini tanlash va qo‘llash algoritmi

Bosqich	Bosqich mazmuni	Tadqiqotchi faoliyati	Qo‘llaniladigan metod(lar)	Natija
1	Muammoni aniqlash bosqichi	Tadqiqot mavzusi va dolzarbligini belgilaydi, ilmiy muammo qo‘yadi	Kuzatish, suhbat, kontent-tahlil	Tadqiqot yo‘nalishi va asosiy muammosi aniqlanadi
2	Nazariy tahlil bosqichi	Mavzuga oid ilmiy manbalarni, normativ hujjatlarni o‘rganadi	Nazariy tahlil, kontent-tahlil	Tadqiqotning nazariy bazasi shakllanadi
3	Faraz (gipoteza) ishlab chiqish bosqichi	Tadqiqotning ilmiy taxminini ilgari suradi	Analitik tahlil, kuzatish	Tajriba yo‘nalishi aniqlanadi
4	Tajriba-sinov (eksperimental) bosqichi	Yangi metodikani amalda sinovdan o‘tkazadi	Eksperiment, so‘rovnoma, diagnostika	Yangi metodning samaradorligi aniqlanadi
5	Ma’lumotlarni tahlil qilish bosqichi	Tajriba natijalarini qayta ishlaydi, statistik tahlil o‘tkazadi	Statistik tahlil, monitoring	Ilmiy asoslangan dalillar shakllanadi

6	Natijalarni solishtirish va umumlashtirish	Tajriba va nazariy natijalarni qiyoslaydi, umumiy xulosalar chiqaradi	Qiyosiy tahlil, kontent-tahlil	Tadqiqot gipotezasi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi
7	Metodik tavsiyalar ishlab chiqish	Tadqiqot asosida amaliy qo‘llanma, metodik tavsiya tayyorlaydi	| Kompleks (integrativ) metod	Yangi metodika yoki darslik bo‘limi ishlab chiqiladi
8	Natijalarni joriy etish va baholash	Olingan natijalarni ta’lim amaliyotiga tadbiq etadi, natijalarni baholaydi	Diagnostika, monitoring	Ilmiy yangilik amaliyotda o‘z aksini topadi

Ushbu 1.15-jadvalda keltirilgan algoritm tasviriy san’at sohasida olib boriladigan har qanday pedagogik tadqiqotning ilmiy izchilligini ta’minlaydi.

Unda metodlarni tanlash: – muammo xarakteriga, tadqiqot bosqichiga, o‘quv faoliyatining turiga (amaliy, nazariy, tahliliy) asoslanib belgilanadi. Masalan: – boshlang‘ich bosqichda – kuzatish va suhbat metodlari muhim, tajriba jarayonida – eksperiment va so‘rovnoma asosiy, tahlil bosqichida – statistik va kontent-tahlil yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san’at fanida pedagogik tadqiqot metodlarini tanlash va qo‘llash algoritmi – bu ilmiy izlanishlarning samaradorligini oshiruvchi tizimli yo‘nalishdir. U tadqiqotchiga: – ilmiy fikrda izchillikni saqlash, metodlarning mosligini ta’minlash, tadqiqot natijalarini ishonchli va qayta qo‘llanadigan shaklda olish imkonini beradi.

Tasviriy san’at ta’limida pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanish – fanni rivojlantirishning eng muhim shartidir. Zero, san’at ta’limi nafaqat badiiy-ijodiy faoliyat, balki o‘quvchi shaxsini estetik, tafakkuriy va emotsional-irodaviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan murakkab pedagogik jarayondir. Bu jarayonning samaradorligini oshirish va ilmiy asoslash esa kuzatish, tajriba, diagnostika, tahlil va modellashtirish kabi tadqiqot metodlarini maqsadga muvofiq qo‘llashni talab etadi.

Ta’lim amaliyotida pedagogik tadqiqot shunday imkoniyatlarni yaratadi: – metod va texnologiyalarning afzal va kamchilik tomonlarini aniqlash, yangi amaliy texnika va vositalar samaradorligini sinovdan o‘tkazish, o‘quvchilarning ijodiy rivojlanish dinamikasini kuzatish va baholash, san’at ta’limida individual yondashuv va psixologiyaning o‘rnini aniqlash, pedagogik qarorlarni ilmiy asosga tayagan holda qabul qilish.

Natijada, tasviriy san’at ta’limini takomillashtirish jarayoni: – tasodifiy emas – ilmiy tajriba va dalillarga asoslangan holda olib boriladi. Bu esa oliy va o‘rta maxsus san’at ta’lim tizimida: – zamonaviy va innovatsion metodlarning kirib kelishiga, o‘qituvchi faoliyatining ilmiy darajada rejalashtirilishiga, san’at ta’lim sifati va raqobatbardoshligining oshishiga, ijodiy shaxs sifatida o‘quvchi rivojining kafolat-

lanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tadqiqot – san’at ta’limidagi metodik yangiliklarni ilmiy baholaydigan, shu orqali ijodiy tafakkurni rivojlantira oladigan zamonaviy ta’lim muhitini yaratishning bosh mezonidir.

1.6-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Pedagogik tadqiqot metodlari deganda nima tushuniladi?
2. Tasviriy san’at ta’limida kuzatish usulining o‘rni nimada?
3. Tajriba-sinov (eksperimental) metodning maqsadi va vazifalarini aytib bering.
4. Suhbat va anketa metodlarining pedagogik tadqiqotdagi roli nimada?
5. Pedagogik kuzatishdan olingan ma’lumotlar qanday tahlil qilinadi?

Tahlil va ijodiy fikrlashni talab qiluvchi savollar

6. Amaliy mashg‘ulot jarayonini tadqiq etishda qaysi metodlar samaraliroq deb hisoblaysiz? Izohlang.
7. O‘quvchilar ishlarini tahlil qilish orqali qanday ilmiy xulosalar chiqarish mumkin?
8. Pedagogik tadqiqotda bir nechta metodni integratsiyalash qanday afzallik beradi?

1.7 § Tasviriy san’at fanidan pedagogik tadqiqot metodlari: nazariy tadqiqotlar metodlarini tashkil qilish

Tasviriy san’at ta’limining nazariy asoslarini tadqiq etish – bu fan metodologiyasining eng muhim bo‘g‘inidir. Nazariy tadqiqot metodlari yordamida o‘quv jarayonining qonuniyatlari, san’atning idrok etilishi, badiiy tafakkurning rivojlanish mexanizmlari hamda estetik tarbiya tamoyillari chuqur o‘rganiladi.

Prezident Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek: – “Ilmiy asosga tayangan ta’limgina jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi. Har bir pedagog o‘z faoliyatida ilmiy yondashuvni bosh mezon qilib olishi zarur[11]”

Mazkur fikr tasviriy san’at ta’limi tizimida ham o‘z aksini topadi. Chunki, tasviriy san’atni o‘rgatish jarayoni nafaqat ijodiy, balki chuqur ilmiy-nazariy tahlilni ham talab etadi. Nazariy tadqiqot metodlari orqali biz ta’limning ichki mexanizmlarini, badiiy idrokning shakllanish bosqichlarini va estetik qadriyatlarning ilmiy asoslarini anglaymiz.

Nazariy tadqiqot metodlari – bu mavjud fakt, g‘oya, qonuniyat va nazariy konsepsiyalarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish orqali yangi ilmiy bilimlar yaratish vositalaridir. Ularning mohiyati shundaki, ular bevosita empirik kuzatishlardan farqli ravishda fikr, tushuncha, konseptual model darajasida ishlaydi.

Bu metodlar san’at ta’limining ilmiy manbalarini chuqur anglash va uning asosiy nazariy poydevorini yaratishda qo‘llaniladi, buni quyidagi 1.16-jadvalda ko‘ramiz.

11 “Ta’lim sifatini oshirish – yangi O‘zbekistonning taraqqiyot kafolati”, 2023

1.16-jadval.

Asosiy nazariy tadqiqot metodlari

№	Metod nomi	Ilmiy mazmuni	Qo‘llanilish sohasi	Misol
1	Tahlil va sintez	Pedagogik, psixologik, badiiy-nazariy manbalarni tahlil qilib, ularni umumlashtirish	San’at darslarining ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash	S. Shovdirovning “Ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim modeli”da sintez asosida konseptual tizim yaratilgan
2	Abstraksiya (mavhumlashtirish)	Tasodifiy belgilarni chetlashtirib, muhim qonuniyatlarni ajratish	Estetik idrokning nazariy asosini ishlab chiqish	Ranglar uyg‘unligini nazariy tahlil qilish jarayoni
3	Modellashtirish	Haqiqiy o‘quv jarayonining nazariy modelini yaratish	Dars jarayonida pedagogik va badiiy jarayonni modellashtirish	“Badiiy tafakkurni bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli”
4	Taqqoslash va umumlashtirish	Turli nazariy konsepsiyalarni solishtirib, umumiy qonuniyatni topish	O‘zbekiston va xorijiy tajribalarni tahlil qilish	Finlyandiya san’at maktablari bilan taqqoslash asosida milliy model ishlab chiqish
5	Kategoriyalar va tushunchalar tahlili	Ilmiy tushunchalarning mohiyatini aniqlash va ularning tizimini yaratish	“Ijodiy fikrlash”, “estetik tafakkur”, “badiiy idrok” tushunchalarini tahlil qilish	A. Sulaymonovning “San’at didaktikasi” konsepsiyasi asosida tushunchalar tizimi shakllantirish
6	Gipotetik tahlil	Faraz (gipoteza) asosida ilmiy fikr yuritish	Yangi metodik yondashuvni sinovdan o‘tkazishdan avvalgi nazariy bosqich	“Kompetensiyaga yo‘naltirilgan san’at darsi” modelini sinovdan oldin nazariy asoslash
7	Deduksiya va induksiya	Umumiydan xususiyga, yoki xususiydan umumiyga fikr yuritish	Nazariy xulosalarni dalillar bilan bog‘lash	San’at ta’limining umumiy qonuniyatlarini xususiy misollar asosida asoslash

Nazariy tadqiqotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Quyidagi 1.17-jadval bu jarayonni tizimli tarzda ko‘rsatadi:

1.17-jadval.

Nazariy tadqiqotni tashkil etish bosqichlari

Bosqich		Amalga oshiriladigan ishlar	Asosiy natija
1	Muammoni aniqlash	Tadqiqot ob’yekti, predmet va maqsadini belgilash	Ilmiy yo‘nalish aniqlanadi

2	Ilmiy manbalarni tahlil qilish	Mavjud ilmiy adabiyotlar, Prezident qarorlari, metodik qo‘llanmalarni o‘rganish	Nazariy asos shakllanadi
3	Konseptual model yaratish	Tadqiqot ob’yektining nazariy modelini ishlab chiqish	Ilmiy model tayyorlanadi
4	Tizimli tahlil va sintez	Olingan natijalarni umumlashtirish	Yangi ilmiy xulosa chiqariladi
5	Nazariy natijalarni amaliyotga tatbiq etish	Amaliy tajribalarda modelni sinovdan o‘tkazish	Ilmiy-nazariy natijalar tasdiqlanadi

Nazariy tadqiqot modeli

1.3-chizma. Nazariy tadqiqot modeli.

Amaliy misollar orqali nazariy metodlarning qo‘llanishi

1. A. Sulaymonov – “San’at ta’limining didaktik asoslari” nomli tadqiqotida deduktiv va modellashtirish metodlarini qo‘llab, badiiy idrok va o‘quvchi tafakkurining o‘zaro bog‘liqligini asoslagan.

2. S. Abdirasilov – “Tasviriy san’atda estetik tafakkurni rivojlantirish nazariyasi” tadqiqotida tahlil va umumlashtirish metodlarini qo‘llagan.

3. B. Bo‘ymetov – san’at ta’limida aksiologik yondashuvni ishlab chiqishda abstraksiya metodidan foydalangan.

4. S. Shovdirov – “Ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim modeli”da nazariy tahlil va modellashtirishni uyg‘unlashtirgan.

Nazariy tadqiqot metodlarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

– San’at ta’limining konseptual poydevorini mustahkamlaydi;

– O‘quv jarayonini ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi;

– Metodik yangiliklarni asoslashga xizmat qiladi;

– San’at o‘qituvchilarining ilmiy tafakkurini rivojlantiradi;

– Milliy va xorijiy tajribalarning integratsiyasini ta’minlaydi.

Nazariy tadqiqot metodlarining ilmiy tizim xaritasini ishlab chiqdek, bu xarita tasviriy san’at fanidagi nazariy tadqiqot metodlarining o‘zaro bog‘liqligini, bosqichma-bosqich qo‘llanish mexanizmini va ilmiy natijaga olib boruvchi yo‘lni aks ettiradi.

1.18-jadval.

Tizimli bosqichlar xaritasi

Bosqich		Ilmiy vazifa	Qo‘llaniladigan nazariy metodlar	Natija
1	Konseptual aniqlik bosqichi	Ilmiy muammo, maqsad va g‘oyani aniqlash	Tahlil, tushunchalar tahlili, abstraksiya	Nazariy asos, ilmiy yo‘nalish aniqlanadi
2	Ilmiy model yaratish bosqichi	Nazariy konsepsiya va model ishlab chiqish	Modellashtirish, deduksiya, gipotetik tahlil	Pedagogik model va ishchi gipoteza shakllanadi

3	Nazariy dalillarni asoslash bosqichi	G‘oyaning ilmiy ishonchliligini tekshirish	Tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash	Ilmiy qonuniyat va asosiy tezislar aniqlanadi
4	Konseptual tizimlashtirish bosqichi	Olingan natijalarni tizimga keltirish	Tizimli yondashuv, induksiya, aksiologik tahlil	Tushunchalar iyerarxiyasi va fan tizimi yaratiladi
5	Natijalarni pedagogik amaliyotga yo‘naltirish bosqichi	Nazariy asosni amaliy jarayon bilan bog‘lash	Integrativ metod, gipotetik tahlil, modellashtirish	Innovatsion metodika, metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi

1.19-jadval.

Nazariy tadqiqot metodlarining integrativ modeli

Metod yo‘nalishi	Ilmiy maqsad	Natija turi	Qo‘llanish sohasi
Analitik metodlar (tahlil, sintez, taqqoslash)	Mavjud bilimlarni tahlil qilish va umumlashtirish	Nazariy tahlil natijalari	Fan asoslari, nazariy boblar
Konstruktiv metodlar (modellashtirish, gipotetik tahlil)	Yangi konseptual model ishlab chiqish	Pedagogik model, metodik yo‘nalish	Innovatsion metodika yaratish
Tizimli metodlar (deduksiya, induksiya, tizimlashtirish)	Fikrlarning ichki bog‘liqligini aniqlash	Ilmiy tizim, konseptual xarita	Darslik, monografiyalar
Aksiologik metodlar (estetik, badiiy qadriyat tahlili)	San’atning axloqiy-estetik mohiyatini ochish	Qadriyat tizimi, estetik mezonlar	San’at falsafasi, metodika bo‘limlari

1.20-jadval.

Misol tariqasida ilmiy-amaliy bog‘lanish xaritasi

Nazariy metod	Qo‘llanilgan tadqiqot	Amaliy natija
Modellashtirish	S. Shovdirov – “Ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim modeli”	O‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodika
Tahlil va sintez	A. Sulaymonov – “San’at ta’limi didaktikasi”	Tasviriy san’at darslarining nazariy poydevori
Taqqoslash	S. Abdirasilov – “Estetik idrokni shakllantirish tajribalari”	Xorijiy va milliy tajribalarni integratsiya qilish
Abstraksiya	B. Bo‘ymetov – “Badiiy qadriyatlar aksiologiyasi”	San’atdagi estetik ideal tushunchasini aniqlash

Nazariy tadqiqot metodlarining tizimli xaritasi shundan dalolat beradiki: – ular bir-birini to‘ldiruvchi va bog‘lovchi tizim sifatida faoliyat ko‘rsatadi, har bir metod tadqiqot jarayonining ma’lum bosqichida yetakchi ahamiyat kasb etadi, modellashtirish va tahlil metodlari – “ilmiy yadro”ni, aksiologik va tizimli metodlar esa – “qadriyat va amaliyot ko‘prigini” tashkil etadi.

Shunday qilib, mazkur tizim xaritasi oliy ta’lim va ilmiy izlanish jarayonlarida nazariy metodlardan oqilona foydalanish uchun universal yo‘l xaritasi vazifasini bajaradi.

Tasviriy san’at ta’limida nazariy tadqiqot metodlari – bu faqat ilmiy vosita emas, balki pedagogik tafakkurning o‘sish manbai hamdir. Ular yordamida: – yangi pedagogik konsepsiyalar shakllanadi, san’at o‘qituvchisining metodik tafakkuri rivojlanadi, o‘quvchilarda badiiy-estetik idrokni chuqur shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi, ilmiy natijalar amaliy jarayon bilan uyg‘unlashadi.

Demak, nazariy tadqiqot metodlari tasviriy san’at ta’limining ilmiy rivojlanish yo‘lida poydevor, yo‘naltiruvchi kuch va metodologik mezon vazifasini bajaradi.

1.7-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Nazariy tadqiqot metodlari deganda nima tushuniladi?

2. Tasviriy san’at ta’limida nazariy manbalar bilan ishlashning ahamiyati nimada?

3.. Tahlil (analiz) va sintez metodlarining pedagogik tadqiqotdagi o‘rnini izohlang.

4.. Adabiyotlar sharhi (literature review) qanday maqsadda amalga oshiriladi?

5.. Nazariy tadqiqotda ilmiy umumlashtirish (generalisatsiya) qanday natija beradi?

Tanqidiy va ijodkorlikka yo‘naltirilgan savollar

6. Nima uchun nazariy tadqiqot metodlari amaliy tadqiqotlar bilan uyg‘un bo‘lishi lozim?

7. Tasviriy san’at sohasidagi nazariy tadqiqot mavzulariga misollar keltiring.

8. Sizningcha, nazariy metodlar olinadigan natijalarning ilmiylik darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

I BOB BO‘YICHA UMUMIY XULOSA

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi ta’lim jarayonida nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiruvchi muhim pedagogik yo‘nalish bo‘lib, o‘quvchilarda fan mazmunini ongli o‘zlashtirish, kasbiy tayyorgarlik va ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan o‘qitishning maqsadi, tamoyillari, shakl va usullarini ilmiy-pedagogik asosda belgilaydi hamda ta’lim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan innovatsion metodikalarni joriy etishni ta’minlaydi.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi tarixiy rivoji davomida turli ilmiy g‘oyalar, dunyo ta’lim tajribasi va milliy pedagogik an’analar ta’sirida takomillashib bordi. Pedagogika fanidagi islohotlar, didaktik tamoyillar va zamonaviy vizual vositalar metodikaning yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keldi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyin ta’lim tizimini milliylashtirish, davlat standartlarini rivojlantirish hamda AKTni joriy etish metodikaning mazmuniy kengayishiga sabab bo‘ldi.

Bu bobda fanning maqsad va vazifalarini belgilash orqali metodik tadqiqotlarning yo‘nalishi, amaliyotni tashkil etish mexanizmi va o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalari aniqlandi. Shu asosda o‘quv jarayonida: – o‘quvchini faollikka undovchi yondashuvlar, o‘quv-metodik materiallardan samarali foydalanish, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq qilish zarurligi e’tirof etildi.

Xulosa qilib aytganda, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi – ta’limning sifat va samaradorligini belgilovchi, o‘qituvchini kasbiy rivojlantiruvchi va o‘quvchini shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy va amaliy fan hisoblanadi. Ushbu fan tasviriy san’at ta’limining mazmunini boyitib, uni zamon talablariga mos ravishda shakllantirishning muhim omilidir.



BOB BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLARI:

1. “Tasviriy san’at” fanining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. “Bosqichma-bosqich ta’lim” tamoyilining mazmuni va uni tasviriy san’at faniga tatbiq etishning o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
3. “Tasviriy san’at” fanining nazariy asoslarini belgilovchi epistemologik, ontologik, aksiologik va pragmatik yondashuvlarning mohiyatini tushuntiring?
4. Oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at tsikli fanlarini o‘qitishning asosiy maqsad va vazifalarini sanab bering?
5. San’at maktablarida tasviriy san’at ta’limi jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Oliy ta’limda tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari qanday?
7. Tasviriy san’at fanlarida pedagogik tadqiqotlarning amaliy (tajriba) metodlari nimalardan iborat va ularni qo‘llash bosqichlarini misollar bilan tushuntiring?
8. Nazariy tadqiqot metodlari deganda nimani tushunasiz? Ularni tasviriy san’at sohasidagi ilmiy izlanishlarda qo‘llashning afzalliklari nimalardan iborat?
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining soha rivoji bo‘yicha qabul qilgan qaror va farmonlarida tasviriy san’at ta’limiga oid qanday ustuvor vazifalar belgilangan?
10. Tasviriy san’at ta’limining ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha A. Sulaymonov, S. Abdirasilov, B. Boymetov va S. Shovdirovlarning ilmiy qarashlarini taqqoslab izohlang?
11. Tasviriy san’at ta’limida o‘quvchi (yoki talaba) kompetensiyalarini shakllantirishda qanday pedagogik shart-sharoitlar zarur?
12. Oliy ta’lim va san’at maktablari tajribasida qo‘llanilgan samarali metodlar va amaliyotlar misolida ilmiy tahlil qiling?

II BOB. OLIY TA'LIMDA VA IXTISOSLASHGAN SAN'AT MAKTABLARIDA «TASVIRIY SAN'AT» TSIKLIDAGI FANLAR BO'YICHA DASTURLAR MAZMUNINING TAHLILI VA ULARNING XUSUSIYATLARI HAMDA IMKONIYATLARI

Ushbu bobda "Tasviriy san'at" sikl fanlarining mazmuni, ularning tarkibiy qismlari va ta'lim tizimidagi ahamiyati keng tahlil etiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari hamda ixtisoslashgan san'at maktablarida mazkur fanlarning o'qitish dasturlari, metodik yo'nalishlari, kompetensiyaviy natijalari va innovatsion imkoniyatlari o'rganiladi.

Bobning asosiy vazifasi – oliy va o'rta maxsus san'at ta'limidagi tasviriy san'at sikl fanlarini o'qitish tizimini ilmiy-metodik jihatdan solishtirish, tahlil qilish va rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib berishdir.

Dasturlarni yangilashda kompetensiyaviy yondashuv.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari.

Takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar.

Bobning ilmiy-amaliy ahamiyati: – Tasviriy san'at fanlari bo'yicha o'quv dasturlarning zamonaviy talablarga mosligini baholaydi;

– Oliy va o'rta maxsus san'at ta'limidagi o'zaro uzviylikni ochib beradi;

– Fan mazmunini boyitish, interfaol metodlar asosida yangicha dars modellarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

2.1 § Oliy ta'limda va ixtisoslashgan san'at maktablarida «Tasviriy san'at» tsiklidagi fanlar bo'yicha dasturlar mazmunining tahlili

O'zbekiston Respublikasida tasviriy san'at ta'limini tubdan yangilash, uning mazmunini xalqaro ta'lim standartlariga moslashtirish hamda ijodiy salohiyatli shaxslarni tayyorlash masalasi bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. 2021-2025-yillarga mo'ljallangan "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi"da qayd etilganidek: – "Oliy ta'limda ta'lim mazmunini yangilash va o'quv dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish ta'lim sifatining kafolatidir."

Mazkur talablar tasviriy san'at ta'limi uchun ham eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylandi. Ta'lim jarayonida: – nazariya va amaliyotning uzviyligi, klassik akademik maktab an'analari, innovatsion metodlar va digital texnologiyalardan foydalanish ustuvor mezon sifatida joriy qilinmoqda.

Tasviriy san'at tsikli fanlarining umumiy tavsifi va tizimi.

Oliy ta'limda «Tasviriy san'at» fanlar tsikli talabalarning professional tayyorgarligini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu fanlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, badiiy dunyoqarash, ijodiy tafakkur, amaliy mahorat va san'atshunoslik bilimlarini kompleks tarzda shakllantiradi.

2.1-jadval.

“Tasviriy san’at” tsikli fanlar mazmuni va ularning kasbiy kompetensiya shakllanishidagi o‘rni

Tsikl fanlari	O‘quv mazmuni	Rivojlantiruvchi funksiyalar
Rangtasvir (I-IV)	Rang ilmi, nur-soya, kompozitsion yechimlar	Rang idroki, badiiy ifoda, tasviriy mahorat
Grafika	Chizmachilik, figura va predmet tuzilmasi	Konstruktiv fikrlash, ko‘rish xotirasi
Kompozitsiya	Tasviriy g‘oya, kompozitsion tuzilma	Ijodiy yechim topish, mazmun shakllantirish
Haykaltaroshlik asoslari	Hajm va fazoviy shaklni modellashtirish	Fazoviy tasavvur, plastik ifoda
San’atshunoslik asoslari	San’at tarixi, uslublar, badiiy tahlil	Estetik tafakkur, ilmiy tahlil ko‘nikmasi
Bezak san’ati va dizayn asoslari	Milliy bezaklar, dekorativ kompozitsiya	Milliylik, zamonaviy dizayn tafakkuri

2.1-jadvalni ilmiy izohlaymiz va tahlil qilib chiqamiz. Ushbu jadval «Tasviriy san’at» fanlar siklining o‘quv dasturidagi o‘rni va vazifalarini tahlil etishga qaratilgan bo‘lib, har bir fanning: – mazmun-mohiyati, amaliy va nazariy yo‘nalishi, kasbiy kompetensiya shakllanishidagi o‘rni aniqlashtirilgan.

Jadvaldan ko‘rinishicha, tsiklga kiruvchi fanlar o‘z vazifasiga ko‘ra bir-birini to‘ldiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi integrativ tizimni tashkil etadi. Xususan:

Rangtasvir va Grafika – tasviriy savodxonlik va badiiy ko‘rish madaniyatini shakllantirsa;

Kompozitsiya – mazmuniy yondashuv va ijodiy fikrni mustahkamlaydi;

Haykaltaroshlik asoslari – fazoviy tasavvur va shakl konstruksiyasini chuqurlashtiradi;

San’atshunoslik – nazariy bilimlar asosida ilmiy tahlil malakasini rivojlantiradi;

Bezak san’ati va dizayn asoslari – milliy egalik va zamonaviy dizayn tafakkurini uyg‘unlashtiradi.

Natijada: – Talabada kompleks kasbiy kompetensiyalar – ijodkorlik, tahliliy yondashuv, san’atiy tasavvur va texnologik ko‘nikmalar uyg‘un rivojlanadi.

Bu esa o‘z navbatida zamonaviy san’at ta’limining maqsad va vazifalariga to‘la mos keladi.

O‘quv dasturlarining dolzarbligi xususida ham aytishimiz lozim. Chunki, tasviriy san’at ta’limi mazmunining dolzarbligi, avvalo, milliy san’at maktabi rivoji, xalqaro san’at tamoyillari, zamonaviy kreativ iqtisodiyot va mehnat bozori ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi tadqiqotlar va davlat siyosatlarida quyidagi masalalar asosiy mezon sifatida belgilangan:

Tasviriy san’at ta’limi mazmunining dolzarblik ekanligining ilmiy-pedagogik asoslari sifatida quyidagilarni ta’kidlash kerak:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish – talabaning individual ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish;

2. Kognitiv va kreativ tafakkurni rivojlantirish – san’at orqali mustaqil tahlil

va konseptual fikrlashga yo‘naltirish;

3. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv – bilim emas, balki kasbiy amaliyotga tayyorlikni kafolatlash;

4. Nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash – real san’at muhitiga moslashtiruvchi ta’lim;

5. San’at orqali estetik tarbiya va madaniy merosni asrash – milliy o‘zlikni anglash va estetik qadrlarni shakllantirish

Tasviriy san’at ta’limi mazmunining dolzarbligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari sifatida: – “kreativ industriyalar”ning iqtisodiyotdagi ulushi ortib bormoqda, san’at sohasi bo‘yicha texnologik innovatsiyalar tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda, xalqaro raqobatbardoshlik uchun ta’lim mazmunini doimiy modernizatsiya qilish talab etiladi.

Tasviriy san’at ta’limi mazmunining dolzarbligi va global tamoyillariga moslashuv. San’at ta’limi mazmuni STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Math) yo‘nalishi bilan uyg‘unlashmoqda, bu esa: – multidisiplinar bilim, konseptual yondashuv, yangicha badiiy ifoda vositalaridan foydalanishni talab qiladi.

Bugungi o‘quv dasturlari dolzarbligining asosiy yo‘nalishlari xususida ham gapirish kerak. Hozirgi kunda oliy va ixtisoslashgan san’at maktablarida qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlari quyidagi ustuvor maqsadlarga qaratilgan: – milliy va jahon san’ati tendensiyalarini uyg‘un o‘rgatish, digital art, 3D-modellashtirish va media-dizayn elementlarini joriy etish, loyiha asosida o‘qitish (Project based learning) metodlarini kuchaytirish, muzey, galereya va studiyalar bilan hamkorlikdagi amaliyotlarni kengaytirish, mehnat bozori uchun kreativ kadrlarga ehtiyojni qondirish.

Mazkur yondashuvlar tasviriy san’at o‘quv dasturlarining dolzarbligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Bugungi ta’lim mazmuni: – san’atning ijtimoiy ahamiyatini oshirish, talabalarni ijodiy fikrlaydigan mutaxassis sifatida tayyorlash, milliy qadriyatlarni global san’at maydoni bilan uyg‘unlashtirish kabi vazifalarga yo‘naltirilgan.

Shu bois tasviriy san’at ta’limi dasturlari modernizatsiya jarayonida bo‘lib, ularning mazmuni muntazam yangilanmoqda.

Bugungi o‘quv dasturlari: – mehnat bozori talablaridan kelib chiqib yangilanmoqda, milliy san’at maktabi an’analari saqlangan, kreativ iqtisodiyot rivojiga moslashtirilgan, xalqaro san’at ta’limi tartiblari bilan uyg‘unlashgan. Shuningdek, bilim va ko‘nikmalarni nafaqat auditoriyada, balki: – muzeylar va galereyalar bilan hamkorlikda, real kreativ loyihalar asosida, zamonaviy AKT imkoniyatlari yordamida mustahkamlash tamoyili yo‘lga qo‘yilmoqda.

O‘quv jarayonining metodik tamoyillari:

1. Kuzatish va tahlilga asoslangan tasviriy faoliyat;
2. Realistik akademik maktab + zamonaviy ijodiy yondashuv;
3. Ijodiy mustaqillik va individual rivojlanishga yo‘naltirish;
4. Amaliy mashg‘ulotlar ulushining ustuvorligi;
5. Bosqichma-bosqich murakkablashuvchi o‘qitish tizimi.

Bu tamoyillar yoshlardagi: – san’at orqali fikrlash, konseptual qarash, nazariy bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyatlarini kuchaytiradi.

Tasviriy san’at ta’limi dasturlarining mazmuni: – milliy va zamonaviy san’at maktablari uyg‘unligiga, talabaning shaxsiy ijodiy o‘sishiga, kreativ industriyada raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan holda takomillashib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, milliy san’at maktabining xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oliy ta’limda tasviriy san’at dasturlarining mazmuni va xususiyatlari borasida ham aytishimiz zarur. Chunonchi, oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturlar Davlat ta’lim standarti (DTS), malaka talablari, o‘quv rejalari va kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida ishlab chiqiladi. Bunda ta’lim mazmuni: – nazariy bilimlarning izchil berilishi, amaliy san’at faoliyati bilan uzviy bog‘lanishi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash tamoyillariga tayanadi.

Hozirgi o‘quv dasturlar talabalarning: – kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, san’at industriyasi ehtiyojlariga javob berishga, kreativ fikrlash va mustaqil ijodiy qaror qabul qilishga, milliy va zamonaviy san’at konsepsiyalarini uyg‘un o‘zlashtirishga qaratilgan.

Amaliy misol sifatida: Kompozitsiya fanini o‘qitish tajribasi. Masalan, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida “Kompozitsiya” fanidan ta’lim jarayonida real loyiha topshiriqlari qo‘llanilmoqda: – milliy libos dizayni, interyer dekoratsiyasi, plakat va afisha ishlanmasi, brending va vizual grafika elementlari. Bu: – nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash, talaba ijodkorligini rivojlantirish, bozor talabi bilan uyg‘un professional faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Demak, ushbu misol biz yozgan dolzarblik tamoyillarining aniq tasdig‘i va muvaffaqiyatli amaliy yechimidir.

Ilmiy asoslantirilgan yakuniy izoh sifatida aytishimiz mumkin. San’at ta’limi dasturlarining mazmuni: – nazariya + amaliyot + innovatsiya, uchligiga tayangan holda, kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘qitishni ta’minlamoqda, milliy san’at maktabining an’analarini saqlagan holda, zamonaviy dizayn va kreativ industriyaga moslashmoqda. Shu sababli oliy ta’lim dasturlarining dolzarbligi – ularning ijodiy salohiyat va bozor ehtiyojlarining kesishgan nuqtasida shakllanishida namoyon bo‘ladi.

2.2-jadval.

Tasviriy san’at yo‘nalishida kasbiy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy komponentlari va ularning kutilayotgan ta’limiy natijalar bilan uyg‘unligi

Tayyorlov yo‘nalishlari	O‘quv mazmuni	Kutilayotgan natijalar (kompetensiyalar)
Nazariy tayyorgarlik	San’at nazariyasi, kompozitsiya qonuniyatlari, rangshunoslik, badiiy tahlil	Talabada san’at hodisalarini idrok etish, estetik baholash, ilmiy-tahliliy fikrlash shakllanadi
Amaliy tayyorgarlik	Rasm, rangtasvir, haykaltaroshlik mashg‘ulotlari	Tasviriy ko‘nikmalar, ijodiy texnika va muvozanatni saqlash mahorati rivojlanadi

Metodik tayyorgarlik	Mashg‘ulot loyihalash, metodik ishlanmalar, pedagogik amaliyot	O‘qituvchilik kompetensiyalari: didaktik refleksiya, metodik tahlil va pedagogik madaniyat paydo bo‘ladi
Innovatsion tayyorgarlik	AKT, media-dizayn, 3D modellashtirish, virtual galereyalar bilan ishlash	Zamonaviy texnologiyalar asosida kreativ ta’lim muhiti yaratish, raqamli savodxonlik ko‘nikmasi hosil bo‘ladi

2.2-jadvalimizni ilmiy tahliliy izohlab chiqamiz. Mazkur model kompetensiyaga asoslangan ta’lim talablarini to‘la aks ettirib, tasviriy san’at bo‘yicha kasbiy yetuk mutaxassis tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki:

Nazariya – estetik tafakkur va tahliliy ilmiy yondashuvni shakllantiradi;

Amaliyot – ijodiy texnika va tasviriy mahoratni mustaxkamlaydi;

Metodika – ta’lim beruvchilik faoliyatiga tayyorlaydi;

Innovatsiya – kreativ san’at muhitida raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. Bu komponentlar uyg‘unligi orqali talabada kasbiy hamda shaxsiy kompetensiyalarning kompleks rivoji ta’minlanadi.

Jadval biz yuqorida bayon etgan nazariy va amaliyotga oid fikrlarning mantiqiy davomi va amaliy isboti sifatida juda mos keladi.

Amaliy tajribalar orqali o‘quv dasturlari samaradorligini tasdiqlovchi misollar keltiramiz. Bugungi ta’lim jarayonida nazariya va amaliyotni integratsiyalash samarador usul sifatida qo‘llanilmoqda. Masalan, Toshkent davlat Milliy pedagogika universitetida “Rangtasvir-IV” fanidan: – “interfaol tahlil – ijodiy loyiha” usuli joriy qilingan, talabalarga real badiiy asarlar tahlili topshiriladi, so‘ng ushbu tahlil natijasida shaxsiy ijodiy yechim ishlab chiqiladi. Bu metod: – san’atni idrok etish va baholash, original g‘oyalarni shakllantirish, badiiy-mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu ma’noda, tadqiqotchi S. Abdirasilov quyidagicha ta’kidlaydi: – “Tasviriy san’at fanlari o‘qituvchisi zamonaviy metodlarni nafaqat bilishi, balki ularni o‘z amaliy mashg‘ulotiga ijodiy tatbiq eta olishi kerak.” Ushbu fikr kompetensiyaga asoslangan ta’lim mohiyati bilan to‘la uyg‘undir.

Ixtisoslashgan san’at maktablarida o‘quv dasturlari mazmunining xususiyatlari borasida gap borganda avvalo, ixtisoslashgan san’at maktablarida ta’lim mazmuni xususida to‘xtab o‘tish joiz: – bosqichma-bosqich murakkablashuv, yosh xususiyatlariga moslashuv, estetik idrok va psixologik rivojlanish qonunlariga tayangan holda tashkil etiladi. Bunda: – kichik sinflarda – kuzatish, shakl va rangni idrok etish, o‘rta bosqichda – tasviriy malaka va ijodiy tafakkur, yuqori bosqichda – individual uslub va kasbiy yo‘nalish qadamma-qadam shakllantiriladi.

Bu misollar yuqorida keltirgan ilmiy asoslarimizni: – dasturlar dolzarbligi,

nazariya va amaliyotning uyg‘unligi, zamonaviy metodlar tatbiqi, kasbiy kompetensiya rivojini qat’iy tarzda tasdiqlaydi. Demak, misollarimiz nafaqat o‘rinli, balki bo‘lim mazmunini kuchaytiruvchi eng muhim ilmiy dalillar hisoblanadi.

2.3-jadval.

Ixtisoslashgan san’at maktablarida “Tasviriy san’at” fanlari mazmuni va bosqichma-bosqich kompetensiyalarni shakllantirish modeli

Sinf bosqichi	Asosiy yo‘nalish	Mazmun va maqsad	Amaliy misollar
5-6-sinflar	Tasviriy idrokni shakllantirish	Rang, shakl, nisbat, tekstura tushunchalarini egallash, kuzatish orqali idrokni rivojlantirish	Tabiatdan rasm, sodda predmetli kompozitsiyalar, meva-sabzavot etyudlari
7-8-sinflar	Badiiy ifodani rivojlantirish	Kompozitsion tafakkur, yorug‘-soya qonunlari, milliy bezak elementlarini qo‘llash	Milliy naqsh ishlanmalari, maishiy buyumlar dizayni, dekorativ kompozitsiya
9-11-sinflar	Mustaqil ijod va kasbiy yo‘nalishga tayyorlash	Haykaltaroshlik asoslari, milliy va zamonaviy san’at tahlili, ijodiy loyihalar	Portret va figura tasviri, haykaltaroshlik kompozitsiyasi, plakat-media dizayn ishlanmalari

2.3-jadvalimizni ilmiy izohlab chiqamiz. Ushbu jadvalda: – Bosqichma-bosqich murakkablashuv tamoyili amaliy ifodalangan. Matnda aytganimizdek, yosh xususiyatlari, estetik idrok va psixologik rivojlanish inobatga olingan, quyidan yuqoriga qarab idrok → ifoda → mustaqil ijod yo‘nalishida kompetensiyalar shakllanadi. Demak, bu jadval yuqoridagi nazariy asoslantirishimiz bilan o‘ta uyg‘un va uning amaliy isboti sifatida juda qimmatli.

Bu tizim orqali o‘quvchilar tasviriy ifoda, rang bilan ishlash, badiiy idrok va milliy qadriyatlarni tushunishga o‘rganadilar. Masalan, Respublika ixtisoslashtirilgan san’at maktabida “Bezak san’ati” fanidan “O‘zbekiston amaliy bezak san’ati” mavzusidagi loyihalar orqali o‘quvchilar milliy ornamentlarni raqamli formatda ishlaydilar.

Ta’lim mazmunini integratsion yondashuv asosida tahlil qilish.

Bugungi ta’limda “Tasviriy san’at” fanlari boshqa fanlar bilan integratsiyalashtirilmoqda. Masalan:

– Texnologiya fani bilan – maket, kostyum va dizayn elementlarini yaratish;

– Adabiyot bilan – badiiy asar obrazlarini tasvirlash;

– Tarix bilan – milliy meros, me’morchilik, madaniy obidalarni o‘rganish;

– Informatika bilan – raqamli grafika va dizayn dasturlari.

Bu integratsiya o‘quvchining dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va amaliy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

Ilmiy-nazariy asoslar. Mazkur yo‘nalishning ilmiy asosi A. Sulaymonov, B.

Boymetov, S. Shovdirov kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan metodik qarashlarga tayangan. Jumladan:

– A. Sulaymonov – tasviriy san'at ta'limining estetik va psixologik asoslarini ilmiy tahlil etgan;

– B. Boymetov – o'quv jarayonida badiiy tafakkurni shakllantirishda interaktiv metodlarning ahamiyatini asoslagan;

– S. Shovdirov – "bosqichma-bosqich ta'lim" tizimi orqali o'quvchilarning ijodiy salohiyatini o'stirish metodikasini ishlab chiqqan.

Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at fanlarida nazariya, amaliyot va metodika o'rtasidagi muvozanatni saqlash – ta'lim samaradorligini belgilaydigan asosiy omildir.

Oliy ta'lim va ixtisoslashgan san'at maktablaridagi "Tasviriy san'at" fanlari dasturlari bir-birini to'ldiruvchi, uzviy bog'liq tizimni tashkil etadi. Oliy ta'lim – chuqur nazariy, metodik va ijodiy tayyorgarlikni, san'at maktablari esa – badiiy hissiyot va obrazli fikrlashni rivojlantiradi.

Mazkur tizimning samarali ishlashi uchun: – o'quv dasturlarini zamonaviy kompetensiyalar asosida yangilash, AKT, 3D texnologiya va raqamli san'at platformalarini keng joriy etish, milliy qadriyatlar asosida badiiy estetik dunyoqarashni shakllantirish zarur hisoblanadi.

Shu tariqa, "Tasviriy san'at" fanlarining mazmuni – nafaqat kasbiy ta'lim asosi, balki milliy madaniyat va ma'naviyatni tarbiyalovchi kuch sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish lozim, Oliy ta'lim va ixtisoslashgan san'at maktablarida "Tasviriy san'at" fanlari mazmunining tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalishdagi o'quv dasturlari milliy san'at maktabi an'analari, zamonaviy global ta'lim talablari hamda kreativ iqtisodiyot rivojidan kelib chiqib yangilanmoqda. Ta'lim mazmuni nazariya, amaliyot va innovatsion yondashuvlar uyg'unligi asosida shakllantirilmoqda.

Fanlar tsikli: – kompozitsion tafakkur, tasviriy ifoda, fazoviy tasavvur, badiiy-estetik idrok, tahliliy fikrlash kabi asosiy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Bu tizimda Rangtasvir, Grafika, Kompozitsiya, Haykaltaroshlik, San'atshunoslik va Dizayn asoslari fanlarining o'zaro integratsiyasi muhim o'rin tutmoqda. Dasturlar mazmuni: – mehnat bozori talablariga mos, STEAM va digital san'at tamoyillarini qamrab olgan, loyihaviy va interfaol metodlarga asoslangan, talabaning ijodiy mustaqilligiga yo'naltirilgan.

Eksperimental o'qitish amaliyotida olib borilayotgan real loyiha topshiriqlari, interfaol tahliliy mashg'ulotlar, virtual galereya va media-dizayn texnologiyalaridan foydalanish ta'limning dolzarbligini yanada oshiradi.

Ixtisoslashgan san'at maktablaridagi dasturlar esa bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyiliga tayanadi. 5-6-sinflarda tasviriy idrok, 7-8-sinflarda badiiy ifoda, 9-11-sinflarda mustaqil ijodning shakllantirilishi talabalarning kasbiy yo'nalishini aniq belgilashga asos yaratadi.

Shuningdek, ta'lim mazmunining innovatsion va milliylik tamoyillari uyg'un-

ligi tasviriy san’at ta’limida raqobatbardosh, ijodkor va milliy o‘zligiga ega mutaxassis tayyorlash imkonini yaratadi. Demak, tasviriy san’at fanlari bo‘yicha dasturlar mazmuni tizimli ravishda takomillashib bormoqda va mamlakatimiz san’at ta’limi rivoji uchun ustuvor ahamiyat kasb etadi.

2.1-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. «Tasviriy san’at» tsiklidagi dasturlar mazmuni nimani qamrab oladi?
2. Oliy ta’lim va ixtisoslashgan san’at maktablardagi dasturlar mazmuni o‘zaro qanday bog‘liq?
3. Dastur tahlilida qanday metodik tamoyillarga tayaniladi?
4. Dasturlar mazmunida milliy va jahon san’ati namunalarining o‘rni qanday?
5. Tasviriy-amaliy mashg‘ulotlar dastur mazmunida qanday tarzda aks etadi?

Tafakkur va tahlilga yo‘naltirilgan savollar

6. Dasturlar mazmunida AKT imkoniyatlarining aks etish holatini baholang.
7. Oliy ta’lim va san’at maktablari dasturlarini qiyoslab, 2 ta o‘xshash va 2 ta farqli jihatni aniqlang.
8. Dastur mazmunining samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar nimalar?

2.2 § Ixtisoslashgan san’at maktablaridada «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlarning maxsus adabiyotlar va darsliklar bilan ta’minlanishi

Ixtisoslashgan san’at maktablarida ta’lim jarayonining muvaffaqiyati o‘quv-metodik ta’minot darajasiga bevosita bog‘liq. Ayniqsa, “Tasviriy san’at” tsikl fanlarini o‘qitishda zamonaviy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, elektron manbalar va vizual adabiyotlarning mavjudligi ta’lim sifatini belgilovchi omillardan biridir.

Ixtisoslashgan san’at maktablaridada «Tasviriy san’at» tsiklidagi maxsus adabiyotlarning o‘rni va ahamiyati xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Bugungi kunda “Tasviriy san’at” ta’lim yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtiruvchi manbalar talab etiladi. Ixtisoslashgan san’at maktablari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar quyidagi tamoyillarga asoslanadi: – ilmiylik va badiiy-estetik asoslanganlik, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslik, milliy va jahon tasviriy san’at merosiga tayanganlik, amaliy mashg‘ulotlar uchun ko‘rgazmali materiallarning yetarliligi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-noyabrdagi PQ-4505-son qarorida “Ijodiy maktablarda ta’lim sifati va metodikasini tubdan takomillashtirish” vazifasi belgilangan bo‘lib, unda maxsus darslik va metodik qo‘llanmalarni yaratish zarurligi alohida ta’kidlanadi.

Ixtisoslashgan san’at maktablaridada «Tasviriy san’at» tsiklidagi maxsus adabiyotlarning hozirgi holat tahlilini ba’zi bir adabiyotlar misolida ko‘rib chiqsak.

Ayrim san’at maktablarida o‘quv adabiyotlari son jihatdan yetarli bo‘lsa-da, mazmun jihatdan zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq mos emasligi ko‘riladi.

Masalan, “Kompozitsiya asoslari”, “Rangtasvir”, “Chizmachilik” kabi fanlar bo‘yicha 2015-2020-yillarda yaratilgan adabiyotlar hozirgi kunda AKT va innovatsion metodlar integratsiyasini to‘liq qamrab olmaganligi ayon bo‘ladi. Shuningdek, ayrim maktablarda adabiyotlar rus tilidan tarjima qilingan bo‘lib, milliy an’ana va madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilmaganligiga guvoh bo‘lamiz.

Ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» tsiklidagi maxsus adabiyotlarni jumladan, darsliklarni yangilash zarurati va yo‘nalishlari mavjud.

Bugungi kunda yangi avlod darsliklarini ishlab chiqishda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zaruriyati bor: – raqamli darsliklar yaratish (interaktiv PDF, mobil ilova, 3D modellar), vizual ensiklopediyalar – mashhur rassomlar va ularning asarlari hamda kompozitsion yechimlar misolida, integratsion qo‘llanmalar – “Tasviriy san’at”ni tarix, adabiyot, me’morchilik bilan bog‘lab o‘qitish, multimedia resurslari – video darslar, test tizimlari, virtual galereyalar.

Masalan, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Ijod maktablari assotsiatsiyasi tomonidan 2023-yilda “Rangtasvir asoslari” bo‘yicha raqamli metodik qo‘llanma yaratilgani shu yo‘nalishdagi samarali tashabbusdir deb aytsa bo‘ladi.

Amaliy imkoniyatlar va muammolarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak. Hozirgi kunda: – ayrim hududlarda yangi nashrlar yetarli emas, darsliklar elektron shaklda mavjud bo‘lsa-da, ulardan foydalanish uchun texnik infratuzilma cheklangan, mualliflik jamoalarining bir xilligi sababli o‘quv manbalarida innovatsion uslubiy yechimlar yetishmaydi. Shu bois, har bir san’at maktabida metodik markaz tashkil etib, darsliklar va qo‘llanmalarning sifat monitoringini olib borish muhimdir.

Ixtisoslashgan san’at maktablarida “Tasviriy san’at” tsikl fanlari uchun maxsus adabiyotlar va darsliklar bilan ta’minot tizimini takomillashtirish nima beradi: – o‘quv jarayonini zamonaviy talablarga moslashtiradi, milliy san’at maktabi an’analarini saqlagan holda innovatsiyalarni joriy etadi, pedagoglarning metodik savodxonligini oshiradi.

Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston ta’lim strategiyasi”da qayd etilganidek: – “Ijodiy yo‘nalishlardagi o‘quv dasturlari va adabiyotlarni yangilash – yosh avlodda estetik dunyoqarash va badiiy tafakkurni shakllantirishning eng muhim omilidir.”

Ixtisoslashgan san’at maktablarida “Tasviriy san’at” tsikl fanlari uchun yaratilgan maxsus adabiyotlar va darsliklarni ayrimlarini qisqacha talil qilib chiqamiz. Masalan:

1). S. Abdirasilov, B. Boymetov, N. Tolipovlar tomonidan tayyorlangan – “Tasviriy san’at” nomli o‘quv qo‘llanma (Toshkent 2006).

Tavsif: – Kasb-hunar kollejlari uchun mo‘ljallangan ushbu qo‘llanma “Tasviriy

san’at” fanining umumiy nazariy asoslarini, kompozitsiya, rangtasvir va grafika elementlarini o‘z ichiga oladi.

Mazmuni: – tasviriy san’atning tarixiy ildizlari, badiiy shakl, rang, yorug‘lik va hajmni tasvirlash asoslari mashg‘ulot turlari va o‘qitish metodikasi.

Tahlil: – bu qo‘llanma o‘z davri uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan, ammo hozirgi kunda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) va interaktiv metodlar bilan boyitilmagan. Shuningdek, vizual illyustratsiyalar sifat jihatdan cheklangan.

Xulosa: – asosiy nazariy baza sifatida foydalanish mumkin, ammo zamonaviy metodik va raqamli yo‘nalishda yangilanishi zarur.

2). Botir Boymetov – “Qalamtasvir” (Toshkent 2007).

Tavsif: – pedagogika yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun mo‘ljallangan ushbu o‘quv qo‘llanma “Qalamtasvir” fanining nazariy va amaliy asoslarini yoritadi.

Mazmuni: – qalamtexnika, shakl va nisbatlarni idrok etish, kompozitsion qurilish, naturadan ishlash, yorug‘lik-soya munosabatlari.

Tahlil: – muallif o‘quvchilarda chizmatasvir malakasini shakllantirish uchun bosqichma-bosqich yondashuvdan foydalangan. Ammo, materiallar statik (faqat matn va chizmalar) bo‘lib, hozirgi kunda zarur bo‘lgan interaktiv vizual ta’lim imkoniyatlari yo‘q.

Xulosa: – qo‘llanma asos sifatida foydali, ammo yangilanish jarayonida 3D modellash va digital sketch metodlari bilan boyitish mumkin.

4). Rustam Xudayberganov – “Rangshunoslik asoslari” (Toshkent 2006).

Tavsif: – rang tasviri va kolorit masalalariga bag‘ishlangan ushbu qo‘llanma rangshunoslikning nazariy asoslarini o‘rgatishga qaratilgan.

Mazmuni: – rangning tabiati, sintezi va kontrasti, rang uyg‘unligi va psixologiyasi, rangtasvir mashg‘ulotlari uchun amaliy mashqlar.

Tahlil: – muallif rangshunoslik fanini ilmiy asosda yoritgan bo‘lib, asarda milliy san’at namunalariga kamroq urg‘u berilgan. Raqamli rangshunoslik (digital color theory) jihatidan esa material eskirgan.

Xulosa: – metodik jihatdan asosiy manba sifatida qimmatli, ammo uni zamonaviy digital palette va Adobe Color Systems asosida kengaytirish tavsiya etiladi.

5). J. Qoziyev, A. Egamov, T. Qanoatov, A. Nurqobilov – “Rangtasvir” (5-9-sinflar uchun, 2003).

Tavsif: – umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-9-sinflari uchun yaratilgan bu darslik o‘quvchilarda badiiy tasvir ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Mazmuni: – rangtasvirning asosiy tushunchalari, kompozitsion yechim va rang uyg‘unligi, mashhur o‘zbek rassomlari ijodi asosida amaliy topshiriqlar.

Tahlil: – asar o‘z davri uchun dolzarb bo‘lgan, ammo bugungi didaktik tal-

ablar (kompetensiyaviy yondashuv, differensial o‘qitish, digital vizual vositalar) nuqtayi nazaridan takomillashtirishga muhtoj.

Xulosa: – darslikda milliylik va badiiy qadriyatlar asos sifatida yoritilgan, ammo interaktiv va ko‘rgazmali vositalarni kengaytirish zarur.

2.4-jadval.

Ixtisoslashgan san’at maktablarida “Tasviriy san’at” fanlari bo‘yicha mavjud o‘quv qo‘llanmalar tahlili

№	Muallif (lar)	Asarning nomi	Noshir va yil	Asosiy mazmuni	Afzalliklari	Kamchiliklari	Takomillashtirish yo‘nalishlari
1	S. Abdirasilov, B. Boymetov, N. Tolipov	Tasviriy san’at	Cho‘lpon nashriyoti, 2006	Tasviriy san’at nazariyasi, rang, kompozitsiya, chizma asoslari	Ilmiy asoslangan, tizimli yondashuv	AKT va zamonaviy metodlar yo‘q, vizual materiallar eskirgan	Raqamli versiya yaratish, multimedia vositalari bilan boyitish
2	Botir Boymetov	Qalamtasvir	Ilm Ziyo, 2007	Qalamtexnika, shakl, soya-yorug‘lik, kompozitsiya	Amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan, bosqichma-bosqich metod	Interaktivlik past, chizmalar sifat jihatidan cheklangan	Digital sketch va 3D modeli asosida yangilash
3	Rustam Xudayberganov	Rangshunoslik asoslari	G‘afur G‘ulom nashriyoti,	Rang nazariyasi, uyg‘unlik, psixologiya, mashqlar	Ilmiylik yuqori, rang haqidagi asosiy tushunchalarni yoritadi	Milliy san’at namunalariga kam urg‘u, digital yo‘nalish yo‘q	Milliy rassomlar ijodi bilan boyitish, digital color tizimi qo‘shish
4	J. Qoziyev, A. Egamov, T. Qanoatov, A. Nurqobilov	Rangtasvir (5-9-sinflar uchun)	San’at jurnali nashriyoti,	Rangtasvir asoslari, mashhur rassomlar, amaliy topshiriqlar	Milliylik kuchli, o‘quvchilarga mos	Kompetensiyaviy yondashuv yo‘q, ko‘rgazmali vositalar yetishmaydi	Interaktiv topshiriqlar va virtual galereyalar qo‘shish

Chunonchi, ixtisoslashgan san’at maktablarida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun “Tasviriy san’at” tsiklidagi har bir fan (rangtasvir, kompozitsiya, chizmachilik, san’atshunoslik asoslari) bo‘yicha metodik jihatdan mukammal darsliklar talab etiladi.

Bunday adabiyotlar nafaqat bilim beradi, balki ijodiy tafakkurni rivojlantiradi, estetik didni shakllantiradi.

2020-yildan keyingi nashrlar mazmunida kompetensiyaviy yondashuv asta-sekin joriy qilinmoqda.

Kelgusida darsliklarni yaratishda quyidagi mezonlarga e’tibor qaratish taklif etiladi:

Integrativ yondashuv – tasviriy san’atni me’morchilik, madaniyatshunoslik, dizayn bilan bog‘lash;

Multimedia komponentlari – video darslar, virtual muzeylar, interaktiv testlar;

Metodik qo‘llanmalar – o‘qituvchilar uchun amaliy dars ishlanmalari to‘plami;

Milliy badiiy maktablarni keng yoritish – o‘zbek san’atining milliy ruhi va uslubini chuqur anglash.

Mazkur tahlil shuni ko‘rsatadiki, san’at maktablarida o‘qitilayotgan “Tasviriy san’at” tsikli fanlarida darsliklar tizimini boyitish: – ta’limning sifat ko‘rsatkichini

oshiradi, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini mustahkamlaydi, o‘quvchilarda estetik va ijodiy tafakkurni shakllantiradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi PQ–81-son qarorida ta’kidlanishicha: – “Ijodiy yo‘nalishlarda o‘quv adabiyotlarini yangilash va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish – madaniy-ma’naviy taraqqiyotning muhim shartidir.”

Demak, “Tasviriy san’at” tsiklidagi fanlar bo‘yicha darslik va maxsus adabiyotlarni takomillashtirish: – ta’lim mazmunini yangilaydi, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun samarali metodik manbalar yaratadi, milliy va jahon san’at merosini integratsiyalash imkoniyatini ochadi.

Ixtisoslashgan san’at maktablarida “Tasviriy san’at” tsiklidagi fanlarni o‘qitishda maxsus adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar bilan ta’minlanganlik darajasi ta’lim mazmunining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda mazkur ta’lim bosqichi uchun yaratilgan metodik va o‘quv-uslubiy resurslar turli fan yo‘nalishlarining zamonaviy talablarini qamrab olmoqda.

Maxsus o‘quv adabiyotlarining rivojlangan tizimi: – nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi, milliy va jahon san’ati merosiga oid bilimlarni kengaytiradi, tasviriy ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich egallashni qo‘llab-quvvatlaydi, ijodiy tafakkur va estetik idrokni rivojlantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yaratilgan darsliklar: – san’atning barcha asosiy yo‘nalishlarini qamrab olgan (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, kompozitsiya, dizayn), yosh va psixologik rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda tayyorlangan, milliy obrazlar va xalq badiiy merosiga tayangan, kuzatish, tahlil va amaliy ijodga yo‘naltirilgan topshiriqlarni o‘z ichiga olgan.

Shuningdek, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, mashg‘ulotlar ssenariylari, ijodiy loyiha topshiriqlari va elektron darsliklar ta’lim jarayonini interfaol va innovatsion shaklda amalga oshirish imkonini beradi. Ammo shu bilan birga: – zamonaviy digital-resurslar, virtual galereyalar va media-platformalar, 3D san’atga oid o‘quv qo‘llanmalar bilan ta’minlashni yanada kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida qolayotgani ta’kidlanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maxsus adabiyotlar bilan ta’minlanganlik tasviriy san’at ta’limi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bo‘lib, uning tizimli takomillashuvi san’at ta’limining kelgusi rivojiga xizmat qiladi.

2.2-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Maxsus adabiyotlar va darsliklarning tasviriy san’at ta’limidagi o‘rni nimadan iborat?

2. Ixtisoslashgan san’at maktablarini darsliklar bilan ta’minlashda qanday talablar qo‘yiladi?

3. Metodik qo‘llanmalar o‘quv jarayonining qaysi jihatlarini qo‘llab-quvvatlaydi?

4. Maxsus adabiyotlar tanlovida milliy va zamonaviy san’at manbalarini inobatga olish nima uchun muhim?

5. Darslik va qo‘llanmalarning tasviriy-amaliy faoliyatga ta’siri qanday namoyon bo‘ladi?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Sizningcha, tasviriy san’at darsliklari kontentini yaxshilash uchun nimalarni tavsiya qilgan bo‘lardingiz?

7. Zamonaviy AKT vositalaridan foydalanuvchi darsliklarning afzalliklari nimada?

8. Maxsus adabiyot yetishmovchiligi mavjud bo‘lgan holatda o‘qituvchi qanday yechimlar topishi mumkin?

2.3 § Zamonaviy grafik dasturlar va ularning xususiyatlari hamda imkoniyatlari

Bugungi raqamli texnologiyalar asrida tasviriy san’at sohasida yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Zamonaviy grafik dasturlar rassom va dizaynerlarga o‘z g‘oyalarini an’anaviy vositalardan tashqari, raqamli muhitda ham ifodalash imkonini bermoqda. Prezidentning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish, ijodiy yo‘nalishlarda innovatsion yondashuvlarni kengaytirish vazifalari belgilangan. Bu jarayonda grafik dasturlar san’at ta’limining ajralmas qismiga aylangan.

2.5-jadval

Zamonaviy grafik dasturlar turlari

Turi	Dasturlar	Qo‘llanilish sohasi
Raster grafikasi	Adobe Photoshop, Krita, Corel Painter	Digital painting, fotomontaj
Vektor grafikasi	Adobe Illustrator, CorelDRAW, Inkscape	Logotip, dizayn, grafika
3D grafikasi	Blender, Autodesk Maya, ZBrush	3D model, animatsiya, rendering
Gibrid tizimlar	Procreate, Clip Studio Paint, Affinity Designer	Rassomlik va dizayn integratsiyasi

Har bir dastur o‘zining texnik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Raster dasturlar piksel asosida ishlasa, vektor dasturlarda chiziq va shakllar koordinata orqali yaratiladi. 3D muharrirlar esa uch o‘lchovli modellarni yaratish va ularni harakatga keltirish imkonini beradi.

Dasturlarning texnik xususiyatlari yuzasidan ayrim ma’lumotlarni yoritishni lozim topdek va ular quyidagilar. Zamonaviy grafik dasturlar foydalanuvchilarga turli texnik imkoniyatlar majmuasini taqdim etadi. Ularning asosiy funksional xususiyatlari raster (piksel asosli) va vektor (matematik chiziq asosli) grafikani qo‘llab-quvvatlash, 3D modellashtirish, layer (qatlam) tizimi bilan ishlash, ranglar modeli (RGB, CMYK, HSL va boshqalar)ni boshqarish, hamda fayl formatlari (PSD, AI, CDR, PNG, SVG, TIFF, JPEG va boshqalar)ni saqlash imkoniyatlaridan iborat.


Grafik dasturlar foydalanuvchiga ijodiy jarayonni tezlashtirish, kompozitsiyani moslashtirish, va real effektlarni yaratish imkonini beradi. Masalan, Adobe Photoshop – raster asosida ishlovchi, professional dizayn va foto tahrir dasturi, layerlar, blending mode’lar va rang korrektirovka vositalari bilan ajralib turadi, CorelDRAW – vektor grafikasi uchun mo‘ljallangan dastur bo‘lib, logotip, tipo-

grafiya va chizma ishlarida keng qo'llaniladi, Adobe Illustrator – murakkab vektor grafikasi va illyustratsiyalar tayyorlash uchun. Autodesk SketchBook yoki Procreate – raqamli rassomchilik uchun moslashuvchan interfeysga ega, Blender yoki 3ds Max – 3D modellashtirish va vizual effektlar jarayonida asosiy rol o'ynaydi. 2.6-jadvalda Grafik dasturlarning funksional imkoniyatlarini vizual diagramma ko'rinishida berib o'tamiz.

2.6-jadval.

Grafik dasturlarning funksional imkoniyatlari

№	Dastur nomi	Asosiy turi	Layer tizimi	Rang modeli	Fayl formatlari	Asosiy qo'llanilish sohasi
1	Adobe Photoshop	Raster	✓ Ha	RGB, CMYK	PSD, PNG, JPG	Foto tahrir, dizayn
2	CorelDRAW	Vektor	✓ Ha	RGB, CMYK	CDR, PDF, SVG	Grafik dizayn, bosma nashr
3	Adobe Illustrator	Vektor	✓ Ha	RGB, CMYK	AI, EPS, SVG	Illyustratsiya, brending
4	Autodesk SketchBook	Raster / Vektor	✓ Ha	RGB	TIFF, PNG	Digital painting, sketch
5	Blender	3D	✗ Yo'q	RGB	OBJ, FBX	3D modellashtirish, animatsiya



2.1-chizma.

Zamonaviy grafik dasturlar ijodiy jarayonni avtomatlashtirib, o'quvchi va magistrlar uchun innovatsion yondashuv imkonini beradi. Ular tasviriy san'atni nafaqat an'anaviy usulda, balki raqamli estetik tafakkur orqali ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida grafik dasturlarning qo‘llanilishi borasida quyidagilarni aytish kerak deb topdek.

Zamonaviy ta’lim jarayonida grafik dasturlardan foydalanish san’at va texnologiyaning uzviy integratsiyasini ta’minlaydi. Magistratura bosqichida bu jarayon nafaqat tasviriy ifoda malakasini oshiradi, balki ijodiy tafakkur, raqamli kompetensiya va estetik qarashlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

1. Ta’limdagi metodik yondashuvlar.

Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning) – talabalar grafik dasturlar (Photoshop, Illustrator, CorelDRAW) yordamida ma’lum mavzu asosida loyiha tayyorlaydi (masalan, “Madaniy merosni raqamli ifodalash”).

Muammoli o‘qitish – o‘quvchilarga grafik muammolar (rang uyg‘unligi, kompozitsiya, tipografik muvozanat) beriladi va ular buni rakamli vositalar orqali yechadilar.

Kollaborativ o‘qitish – guruhli ish shaklida: bitta ishda bir nechta talabalar dizayn elementlarini alohida yaratadilar va keyin umumiy mahsulot hosil bo‘ladi.

2. Magistrlar uchun amaliy yo‘nalishlar.

Grafik dasturlar ijodiy mashg‘ulotlarda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi, buni 2.7-jadvaldan ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

2.7-jadval.

Grafik dasturlarning ijodiy mashg‘ulotlardagi imkoniyatlari

№	Yo‘nalish	Dastur	Amalga oshiriladigan ish	Rivojlanadigan kompetensiyalar
1	Kompozitsiya asoslari	Adobe Photoshop	Raqamli kollaj yaratish, kompozitsion markazni topish	Estetik did, vizual tafakkur
2	Rangshunoslik	CorelDRAW yoki Illustrator	Rang uyg‘unligi sxemasini tuzish, CMYK–RGB tahlili	Rang madaniyati, sezgirlik
3	Perspektiva va fazo	SketchUp yoki Blender	3D fazoviy modellashtirish	Fazoviy tasavvur, texnik fikrlash
4	San’at pedagogikasi	Canva yoki Figma	O‘quv dizayn plakatlari yaratish	Pedagogik va vizual ifoda ko‘nikmalari

3. Grafik dasturlar yordamida olib borilgan dars mashg‘ulotlaridan amaliy misollar keltirib o‘tsak:


1-Misol: Navoiy davlat universiteti tasviriy san’at magistratura ixtissosligi magistrlari “Rang va fazo uyg‘unligi” fanidan olib borilgan dars mashg‘ulotlari jarayonida Photoshop orqali manzara kompozitsiyalarini raqamli ravishda qayta ishlashdi. Bu usul yordamida realistik yoritish va soya berish bo‘yicha ko‘nikmalarni tezlashtirishga erishildi.

2-Misol: “Raqamli ijod” fanidan CorelDRAW dasturida “Milliy naqshlar dizayni” loyihasi ishlab chiqildi – u orqali talabalar milliy uslubni zamonaviy for-

matda ifodalashni o'rgandilar.

3-Misol: Blender asosida 3D interyer modellashtirish – tasviriy san'at magistrutura ixtissosligi magistrlarining fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda katta samara berdi.

4. Grafik dasturlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni sxematik modeli quyidagicha:



2.2-chizma.

Grafik dasturlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish: – tasviriy san'atni raqamli madaniyat bilan uyg'unlashtiradi, magistrlarning vizual tafakkurini yangi bosqichga olib chiqadi, zamonaviy san'at pedagogikasida innovatsion yondashuvlarni qo'llashga zamin yaratadi.

Magistratura bosqichida grafik dasturlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini, tasviriy ifoda madaniyatini rivojlantiradi. Raqamli san'at vositalari yordamida talabalar kompozitsiya, perspektiva va rang uyg'unligi kabi nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar.

Zamonaviy grafik dasturlar san'at ta'limida innovatsion yondashuvlarni kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishning muhim omilidir. Magistrlar uchun bu dasturlar bilan ishlash kompetensiyasi zamonaviy rassomlik, dizayn va pedagogik faoliyatda zarur ko'nikmalarni shakllantiradi.

Takliflarimiz quyidagicha shakllanadi: – har bir san'at yo'nalishida raqamli grafik modullarni joriy etish, grafik dasturlarni o'qitish bo'yicha maxsus metodik qo'llanmalar yaratish, AI va AR texnologiyalarini tasviriy san'at fanlariga integratsiya qilish, o'qituvchilar malakasini oshirish orqali zamonaviy dasturlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.

Zamonaviy grafik dasturlar tasviriy san'at ta'limining ajralmas vositasi sifatida, o'quv jarayonining innovatsion tamoyillarga asoslangan holda tashkil etilishiga xizmat qilmoqda. Ushbu dasturlar yordamida talabalar: – realistik va stilizatsiyalashgan tasvirlar yaratish, 3D modellash va virtual kompozitsiyalar ishlab chiqish, media-dizayn va vizual kommunikatsiyalarni rivojlantirish, badiiy g'oya va kreativ yechimlarini mustaqil namoyon etish kabi kompleks ijodiy imkoniyatlarga ega bo'lmoqda.

Grafik dasturlarning ta'lim jarayoniga faol tatbiq etilishi: – nazariya va amaliyot uyg'unligini kuchaytiradi, kreativ tafakkur va zamonaviy dizayn ko'nikmalarini

rivojlantiradi, mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi, vizual axborot savodxonligi va raqamli madaniyatni shakllantiradi.

Raqamli grafik vositalardan foydalanish nafaqat san'at yo'nalishidagi kasbiy tayyorgarlikni, balki o'quvchilar va talabalarga zamonaviy ijodiy muhit sharoitlarida erkin yangilik yarata olish imkonini ham beradi. Buning natijasida: – san'atning yangi yo'nalishlari (digital art, motion design, 3D art), interfaol loyihalar va media-produksiyalar, animatsiya va kompyuter grafikasiga asoslangan mahsulotlar ta'lim amaliyotiga kirib kelmoqda. Shularni hisobga olgan holda, zamonaviy grafik dasturlar tasviriy san'at pedagogikasi uchun ijtimoiy ahamiyatli, zamonaviylashtiruvchi va innovatsion kompetensiyalarni shakllantiruvchi strategik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy grafik dasturlarsiz tasviriy san'at ta'limini tasavvur etib bo'lmaydi. Ular ijodiy rivojlanishning yangi bosqichini belgilab, san'atning digital ko'rinishlarini keng tatbiq etishga keng yo'l ochadi.

2.3-§ Bo'yicha nazorat savollari

1. Zamonaviy grafik dasturlar deganda nima tushuniladi?
2. Grafik dasturlardan tasviriy san'at ta'limida foydalanishning asosiy maqsadi nimada?
3. Vektor va raster grafik dasturlari o'rtasidagi farqlarni aytib bering.
4. Grafik dasturlarda qatlam (layer) bilan ishlashning ahamiyati nimada?
5. Biror mashhur grafik dastur misolida uning imkoniyatlarini sanab bering.

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Grafik dasturlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy tafakkuriga qanday ta'sir ko'rsatadi?
7. Digital san'atni o'qitishda uchraydigan muammolarga misollar va ularning yechimlarini keltiring.
8. Sizningcha, zamonaviy grafik dasturlar tasviriy san'atning kelajagiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

2.4 § Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogik metodlar

Tasviriy san'at ta'limi – o'quvchining estetik zavqi, ijodiy dunyoqarashi, obrazli tafakkuri va emotsional idrokini shakllantiradigan muhim fan sifatida ulkan tarbiyavi va ma'rifiy ahamiyatga egadir. Tasviriy san'atni faqat texnik ko'nikmalarni o'rgatuvchi fan sifatida emas, balki shaxsning ichki his-tuyg'ulari, badiiy idroki va kreativ fikrlashini rivojlantiruvchi jarayon sifatida qarash ilg'or pedagogik metodlarni qo'llashni taqozo etadi.

Bu borada konstruktivistik yondashuv alohida ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'ra o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki yangi bilim va obrazlarni yaratuvchi faol sub'ekt sifatida qaraladi. Bunday darslarda o'quvchilar mustaqil izlanish, qiyoslash, tahlil qilish, yorqin badiiy yechimlar topishga intiladilar. Zamonaviy ta'limda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi, problemali ta'lim, proyekt faoliyati, keys-metod, klaster, mayndmep, art-terapiya elementlaridan samarali foydalanish tasviriy san'at ta'limining ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: – “Yoshlarimizning ijodiy dunyoqarashi va badiiy madaniyatini yuksaltirish – ma’naviyatni yuksaltirishning eng ta’sirli yo‘lidir”. Shu jihatdan tasviriy san’at darslarida o‘quvchi markazda joylashgan, uning qiziqishi, ma’naviy ehtiyoji va ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlaydigan metodlarga ustuvoriy o‘rin beriladi. Multimedia, raqamli dasturlar, interaktiv platformalardan foydalanish esa o‘quvchilarning badiiy-amaliy faoliyatga qiziqishini kuchaytiradi, mustaqil ijodiy izlanishga ilhomlantiradi.

Natijada tasviriy san’at ta’limining mazmun va shakllari yangilanib, o‘quvchilarning estetik didi, badiiy saviyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmati mustahkamlanadi.

Ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish metodi borasda fikr yo‘ritsak. Tasviriy san’at fanini o‘qitishda ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan metodning asosiy mohiyati – o‘quvchining tasavvuri, hissiy tafakkuri, mustaqil fikr yuritishi, estetik didi va badiiy idrokini rivojlantirishdan iborat. Bu metodda o‘qituvchi faqat bilim yetkazuvchi emas, balki o‘quvchini san’at orqali o‘z ichki tuyg‘ulari va o‘ziga xos qarashlarini badiiy ifoda etishga undauvchi, yo‘naltiruvchi va ilhomlantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’limda tayyor obrazni ko‘chirish yoki takrorlash emas, balki o‘quvchining shaxsiy tajribasi va hissiy idrokiga tayangan holda yangi, avtorlik obraz yaratishga ustuvor ahamiyat beriladi. S. Abdirasilov ta’kidlaganidek: – “Ijod – bu tasvir orqali fikrlash jarayonidir”. Shuning uchun bu metodda o‘quvchining har bir ishi uning ichki dunyosi, tuyg‘usi va tafakkurining in’ikosi sifatida baholanadi.

Ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish metodining ta’limda amaliy qo‘llanilishi. Bu metodni qo‘llashda odatda quyidagi usullar samara beradi: – mavzuga oid bir nechta eskizlar ishlash, kompozitsiya yechimlarini qiyoslash va saralash, muallifona uslub, individual badiiy shaklni izlash, ijodiy izlanish daftari (portfolio) yuritish, tabiat va hayot taassurotlariga tayangan holda obraz yaratish. Ushbu jarayon o‘quvchida nafaqat badiiy malakalarni, balki emotsional intellekt, kuzatuvchanlik, estetik baholash qobiliyatini ham rivojlantiradi, masalan.

1-misol. 5-sinfda “Mening qishlog‘im” mavzusida manzara chizish dars mashg‘uloti o‘tkazildi. Dars avvalida o‘qituvchi o‘quvchilardan o‘z uy atrofidagi manzarani eslashni, u bilan bog‘liq xotira va hislarini aytishni so‘radi. Shunda o‘quvchilar qishdagi havo va o‘ziga xos qish faslining hidi, tog‘lar manzarasi, kun chiqishidagi qo‘yoshning xira nurlari, ona tabiatning oq libos kiyganligi va shu kabi detallarni eslashdi. Shundan keyin har bir o‘quvchi ushbu his va obrazlar asosida ijod qildilar. Natija: – har bir o‘quvchi chizgan rasmlar bir-biridan kompozitsiya va ko‘rinishi jihatdan tubdan farq qilishiga erishildi. Shuningdek, bu o‘z navbatida o‘quvchilarda individual ifoda etish malakalari va badiiy tafakkur qila olish ko‘nikmalari shakllanishiga olib keldi.

2-misol. 6-sinfda «Mavsumlar o‘zgarishi» mavzusida kompozitsiya tuzish darsida o‘qituvchi an’anaviy namunani ko‘rsatishdan qochdi. Bu esa o‘quvchilarni tayyor obrazni takrorlashdan emas, balki tabiatni bevosita kuzatish, shaxsiy his-tuyg‘ular va xotiralarga tayangan holda badiiy ifoda topishga yo‘naltirdi. Dars

avvalida o‘qituvchi o‘quvchilardan har bir faslda tabiatdagi o‘zgarishlar, ranglar uyg‘unligi, hidlar, ovozlar va kayfiyatlarni eslashni so‘radi. Shundan kelib chiqib, har bir o‘quvchi o‘zining hissiy taassurotlari asosida obraz yaratdi: – kimdir kuzgi yapraqlarni shamolda raqsga tushayotgan harakatda tasavvur etdi, boshqalar bahor faslida tabiat uyg‘onishi, yam-yomil ranglar va qushlar sayrashini asosiy kompozitsion markaz sifatida tanladi, ayrim o‘quvchilar esa fasllar ivazlanishidagi dramatik kayfiyatni namoyon qilishga urindilar. Natijada esa: – ijodiy fikrlash, hissiy idrok va estetik tajriba o‘zaro bog‘landi, har bir asarda o‘quvchining individual dunyoqarashi va emotsional munosabati aks etdi, tabiatni kuzatish va uni badiiy talqin qilish ko‘nikmalari shakllandi, inson va tabiat munosabatini anglashga doir ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy xususiyatlar kuchaydi.

Ushbu misol ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini idrokdan obrazga aylantirishda qanday muhim o‘rin tutishi va tasviriy san’at orqali tafakkurning faollashishini yaqqol ko‘rsatadi.

3-misol. 7-sinfda «Meni ilhomlantiradigan inson» mavzusida portret chizish darsida o‘qituvchi portret san’atining mohiyati haqida tushuncha berdi. Ya’ni portret nafaqat tashqi qiyofani to‘g‘ri tasvirlash, balki insonning ichki dunyosi, xarakter xususiyatlari va ruhiy holatini aks ettirish ekanligiga alohida urg‘u berdi. Bu orqali o‘quvchilar portret san’atini faqat texnik jarayon sifatida emas, balki badiiy-psixologik tahlilni talab etuvchi ijodiy faoliyat sifatida qabul qildilar.

Dars jarayonida har bir o‘quvchi o‘z portret qahramonini tanladi, u haqida qisqa hikoya yozdilar va o‘sha hikoyadagi emotsiya, xotira va ruhiy holatni tasvirda ifoda etishga harakat qildilar. Ota-onasi, o‘qituvchisi yoki o‘zlari hurmat qilgan biror shaxs obrazi asosida amalga oshirilgan bu ish: – obrazli fikrlash va xarakter yechimini topishga, psixologik detallarni kuzatish va ifoda etishga, kompozitsion qarorni mustaqil tanlashga, shaxsiy munosabatni badiiy shaklda ochishga asos bo‘ldi. Natija: – O‘quvchilar har bir chizgan portretida qahramonning ichki dunyosi, qaysi jihati ularni ilhomlantirgani va nega aynan shu insonni tanlaganligini badiiy ifoda etdilar. Bu esa: – obrazli va psixologik tafakkurni rivojlantirdi, ijodiy mulohaza va tahlilni kuchaytirdi, badiiy-estetik idrokni tarbiyaladi, insonparvarlik, hurmat, qadr-qiymat kabi ma’naviy fazilatlarni shakllantirdi.

Ushbu misol ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan metod o‘quvchilarni shaxsni anglash, inson obrazini yuksak estetik saviyada ifoda etishga qodir sub’ekt sifatida tarbiyalashini namoyon etadi.

2.8-jadval.

Ijodiy metodlarga asoslangan dars shakllari

Metod nomi	Mazmuni	O‘quvchining ijodiy faoliyati
Ilhom doirasi	Dastlab obrazli suhbat, hissiy tayyorgarlik, assotsiatsiyalar uyg‘onishi	His-tuyg‘ular, xotira va obrazlarni so‘z va tasvir orqali ifoda etish
Muammoli savol	Badiiy masalani ijodiy yechimga yo‘naltirish (masalan: “Agar manzarani kechasi chizsangiz, qanday ranglar ustuvor bo‘ladi?”)	Muammoga ijodiy yondashish, taxmin va tajriba qilish

Mustaqil kompozitsiya	Namunasiz rasm chizish, g‘oya asosida kompozitsiya qurish	G‘oya tanlash, kompozitsion yechim yaratishda mustaqillik
Ijodiy tahlil	O‘zini va boshqalar ishini baholash, ijodiy fikr almashish	Tanqidiy va estetik fikrlashni rivojlantirish
Portfolio	Ijodiy ishlarini yig‘ish, rivojlanishni tahlil qilish	O‘z-o‘zini baholash, shaxsiy ijodiy o‘sishga mas’uliyat
Art-refleksiya	Ijodiy ishdan keyin hissiy mulohaza va taassurotlar bayoni	Emotsional intellekt va badiiy idrokni kuchaytirish

2.8-jadvalda tasviriy san’at ta’limida ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan metodlarning mazmuni va o‘quvchi faoliyatidagi ifodalanish darajasi tizimli ravishda yoritilgan. Jadvalda keltirilgan har bir metod – hissiy tayyorgarlik, muammoli vaziyat yaratish, mustaqil kompozitsiyaga yo‘naltirish, ijodiy tahlil kabi jarayonlarni qamrab olib, o‘quvchining badiiy-obrazli tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta’minlaydi.

Bu metodlar o‘quvchini tajriba qilib o‘rganuvchi, o‘z fikrini badiiy ifoda eta oluvchi, mustaqil ijodiy qaror qabul qiladigan sub’ekt darajasiga olib chiqishga qaratilgan. Jadvaldagi mazmun – nazariya va amaliyot birligini ta’minlab, o‘quvchining emotsiya, taassurot, fikr va obrazlar uyg‘unligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2.8-jadvalning amaliyotdagi ahamiyati quyidagicha namoyon bo‘ladi: – metodlar tizimlashtirilgan: o‘qituvchi dars rejasi va maqsadini aniq belgilaydi, o‘quvchi faolligi kafolatlanadi: – passiv qabul qiluvchi emas, faol ijodkorga aylanadi, badiiy tafakkur shakllanadi: hissiy idrok, tahlil, umumlashtirish qobiliyatlari rivojlanadi, shaxsning ichki dunyosi ochiladi: obraz orqali o‘z “Men”ini namoyon etadi, madaniy-estetik tarbiyani ta’minlaydi: milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat kuchayadi. Shunday qilib, 2.8-jadval tasviriy san’at ta’limida ilg‘or metodlarning qo‘llanilishini na teoriyada, na amaliyotda yo‘qotmasdan, aniq va manzilli yo‘naltirish imkonini beradi. Jadval o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, o‘quvchi uchun esa ijodiy faoliyatning yo‘l xaritasi vazifasini bajaradi.

Ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish 5-7-sinflarda nafaqat tasviriy ko‘nikmalarni, balki: – mustaqil fikrlashni, hissiy tafakkurni va emotsional idrok, estetik didni va badiiy tahlil, shaxsiy obraz yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa tasviriy san’at ta’limining asosiy maqsadlaridan biri – san’at vositasida shaxsni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalashga xizmat qiladi.

Muammoli-ijodiy ta’lim metodi borasida fikrlarimizni bayon etadigan bo‘lsak. Bunga, L. S. V’gotskiy ta’limni «qiyinlik orqali o‘sish» deya bildirgan, ta’rifi o‘rinli deb hisoblayman. Demak, tasviriy san’at darsida o‘qituvchi: – savol qo‘yadi, badiiy ziddiyat yaratadi, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi.

Misol: – «Agar nur manbai o‘zgarsa – obraz tabiati qanday o‘zgaradi?»

Bu savol o‘quvchini ko‘rish → tahlil → tasvir tartibida fikrlashga olib keladi.

Muammoli ijodiy ta’lim – bu o‘quvchilarning tasviriy san’at faoliyatida mustaqil izlanish, kutilmagan yechimlar topish, badiiy va estetik vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘qitish metodidir. Bu metodda o‘qituvchi tayyor javobni bermaydi, balki o‘quvchi ongida savol, hayrat, qiziqish va ijodiy bellashuv holatini yuzaga keltiradi.

O‘quvchida “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Qanday bo‘lishi mumkin?” kabi savollar paydo bo‘lishi ijodiy tafakkurni faollashtiradi.

Muammoli ijodiy ta’limning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin: – tasvirlash jarayonlarida obrazlarni mustaqil qidirishga yo‘naltirish; – o‘quvchilar badiiy fikrlashni rivojlantirish; – o‘quvchilarda manzarani, obrazni yoki ob’ektni ko‘rish va boshqacha ifoda qilish qobiliyatlarini oshirish; – o‘quvchilarda shaxsiy uslub va individual ijodiy yondashuvni shakllantirish. Shuning uchun mazkur metod tasviriy san’at ta’limida kreativ pedagogikaning eng ta’sirchan vositalaridan biri hisoblanadi.

2.9-jadval.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan qadamlar

№	Qadam	Mazmun	O‘qituvchining roli	O‘quvchining faoliyati
1	Ijodiy muammoni qo‘yish	Savol, topshiriq yoki badiiy vazifa orqali	Savol qo‘yadi, vaziyat yaratadi	Muammoni qabul qiladi, fikrlaydi
2	Kuzatish va tahlil	Ob’ekt, manzara, qiyofa tahlil qilinadi	Tashkilotchi, yo‘naltiruvchi	Obrazli fikrlashga o‘tadi
3	Echim rejasini qidirish	Kompozitsiya, rang, shakl yechimlari izlanadi	Rag‘batlantiradi	Bir necha variant qidiradi
4	Ijodiy ish	Rasm chizish, kompozitsiya qurish	Maddodiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlaydi	Ijod qiladi
5	Muhokama va fikr almashish	Ta’bir va estetik tahlil	Boshqaruvchi, mulohaza qo‘zg‘atuvchi	O‘z ishini asoslaydi

2.9-jadval muammoli-ijodiy ta’lim metodining darsdagi amaliy qadamlarini izchil tizimga solgan bo‘lib, tasviriy san’at o‘qitish jarayonida “qabul qilish → tahlil → ijodiy ish → baholash” tamoyillarini qo‘llashni ta’minlaydi. Jadvaldagi qadamlar o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtirishga, mustaqil izlanish va obrazli fikrlashni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

1-qadam – ijodiy muammo qo‘yish: – o‘quvchi tafakkurini harakatga keltiradi, qiziqish va ijodiy ehtiyoj uyg‘otadi. Bu bosqichda o‘qituvchi dars avvalida o‘quvchi tafakkurini qo‘zg‘atuvchi badiiy vaziyatni yaratadi.

2-qadam – kuzatish va tahlil: – o‘quvchi vizual ma’lumotni badiiy idrok bilan qabul qiladi va qiyoslaydi. Shunda didaktik material – hissiy tajribaga aylanadi.

3-qadam – yechim rejasini qidirish: – kompozitsion variantlar yaratish orqali savollarga badiiy javob topishga uriniladi. O‘quvchida avtorlik fikri shakllanadi.

4-qadam – ijodiy amaliy faoliyat: – topilgan g‘oya asosida rasm chizish amalga oshiriladi. Bu bosqich ijodiy mustaqillikning yuksak nuqtasidir.

5-qadam – muhokama, tahlil va baholash: – o‘quvchi o‘z asarini asoslaydi, fikr almashadi va estetik baholashga o‘rganadi. Bu jarayon refleksiya va estetik ongning shakllanishiga xizmat qiladi.

2.9-jadvalning metodik ahamiyati shundaki: – darsning mazmun, shakl va natijasini yaxlit boshqarishga yordam beradi, o‘quvchi faol sub’ekt sifatida dars markazida bo‘ladi, ijodiy izlanish, tanqidiy va obrazli tafakkur rivojlanadi, ta’limda «eng yaqin rivojlanish zonasi» (L.S.V’gotskiy) muvaffaqiyatli ishga tushadi. Natijada o‘quvchida san’at orqali shaxsiy o‘sish amalga oshadi. Shunday qilib, 2.9-jadval tasviriy san’at darsida muammoli-ijodiy usulning samaradorligini oshiruvchi metodik yo‘l xaritasi vazifasini bajaradi.

Muammoli-ijodiy ta’lim metodi yuzasidan amaliy misollarni keltirib o‘tsak:

1-misol. Mavzu: «Tungi shahar manzarasi».

O‘qituvchi dars avvalida savol beradi: – “Agar shaharni kunduz emas, balki tungi tulin oy yorug‘ida tasvirlasak, manzara qanday o‘zgaradi?” deb o‘quvchilarga yuzlanadi.

Bunga javoban o‘quvchilar rang diapazonining o‘zgarishi, nur va soya kuchayishi, kuchli va yumshoq yoritish manbaalarining kompozitsiyadagi o‘rni haqida fikr yuritadilar. Shundan so‘ng har bir o‘quvchi o‘z tasavvuridagi tungi tulin oy shulasida ko‘rinadigan hayotni tasvirlaydi.

Natijada esa, o‘quvchilarda rang orqali his-tuyg‘uni ifoda qilish, nur va soyaning badiiy qonuniyatlarini anglash, estetik idrok va emotsional sezgirlikning rivojlanishi, rang orqali his-tuyg‘uni berish malakalari yaxshi shakllanadi.

2-misol. Mavzu: «Obrazni ranglarda ifoda etish».

O‘qituvchi o‘quvchilariga muammo savol bilan yuzlanadi: – “Nega qahramonning xulq-atvorini to‘g‘ridan-to‘g‘ri chizmasdan, rangi orqali ko‘rsatish mumkin?” deb so‘raydi.

O‘quvchilar issiq va sovuq ranglarning psixologik ta’sirini misollar orqali anglaydilar.

So‘ng har bir o‘quvchi qahramonni rang ifodasi orqali jonlantiradi.

Natijada esa, bu orqali o‘quvchilarning badiiy-simvolik tafakkur rivojlanadi, emotsional holatni vizual tilida ifoda qilish ko‘nikmasi shakllanadi, rang psixologiyasiga doir tushunchalar mustahkamlanadi.

3-misol. Mavzu: «Tasavvurdan hayvon obrazi yaratish».

O‘qituvchi sinf jamoasiga quyidagicha savol beradi, – “Agar hayvonga qanot qo‘shsak, u qaysi ma’noda o‘zgaradi?”

Bunda o‘quvchi: – real tasvirdan fantaziyali obraz yaratishga o‘tadi, badiiy erkinlikni his qiladi, kompozitsiya mustaqil quriladi.

Natijada esa o‘quvchilarda: – ijodda erkinlik va fantaziya kengayadi, kompozitsiyani mustaqil qurish malakasi rivojlanadi, individual avtorlik uslubi shakllanadi.

2.10-jadval.

5-7-sinf tasviriy san’atida muammoli-ijodiy ta’lim

Rivojlanadigan xususiyatlar	Nimaga olib keladi
Mustaqil fikrlash	Yangicha yechim topa olishga
Obrazli tafakkur	Badiiy idrokning o‘sishiga
Simvolik-ramziy ifoda	San’at tilini anglashga
Shaxsiy ijodiy pozitsiya	Avtorlik uslubiga

Xulosa o‘rnida muammoli ijodiy ta’lim 5-7-sinflarda: – mustaqil badiiy fikr-

lashni, obrazli tafakkurni, hayotiy vaziyatlarda estetik yechim topish qobiliyatini, shaxsiy ijodiy yo‘nalishni rivojlantiradi.

Bu metod ta’lim jarayonini yozuvga emas – tafakkurga, naqlga emas – izlanishga, ko‘chirishga emas – yaratishga yo‘naltiradi.

Demak, kuzatish va tahlil metodi yuzasidan qisqacha fikrlarimizni bayon etamiz.

Tasviriy san’atning asosi – real ob’ektni idrok etish va uni obrazga aylantirish. K. Maksudov bu metodni “Ko‘rish madaniyati” deb atagan. Uning bosqichlari:

1. Ob’ektni diqqat bilan kuzatish;
2. Shakl, proporsiya va konstruksiyani tahlil qilish;
3. Kompozitsion o‘rnini belgilash;
4. Rang va ton ifodasini topish;
5. Badiiy obrazga aylantirish;

Kuzatish va tahlil – tasviriy san’at o‘qitishning asosiy pedagogik metodlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarda atrof-muhitni chuqur idrok etish, shakl, rang, hajm, proporsiya va kompozitsiyani to‘g‘ri ko‘rish va tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bu metod orqali o‘quvchi predmetga faqat “qarabgina qolmay”, balki uni anglaydi, tafakkur qiladi, qiyoslaydi va badiiy talqin qiladi.

Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek: – “Ijodiy fikrlay oladigan yosh avlodni tarbiyalash – kelajakni yaratish demakdir.”[12]

Kuzatish va tahlil aynan ijodiy fikrni uyg‘otuvchi asosiy didaktik jarayon hisoblanadi desak xato bo‘lmaydi.

Metodning ilmiy-pedagogik asoslarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, buni, quyidagi jadvalda berib o‘tamiz.

2.11-jadval.

Kuzatish va tahlil metodi asoslanadi

Ilmiy asos	Izoh
Psixologiya	Insaniy idrok, diqqat va xotiraning faollashuvi
Estetika	Obrazli taxlil va badiiy umumlashtirish jarayoni
Pedagogika	Oqilona yo‘naltirilgan kuzatish dars samaradorligini oshiradi

L.S. V’gotskiyning fikricha, “...inson ongida obraz avvalo tashqi reallikni kuzatish orqali shakllanadi, keyin u badiiy tilda talqin qilinadi”[13].

Metodning asosiy maqsadlari: – ob’ektni chuqur o‘rganish, detallarni umumiylikdan ajratib tanish, proporsiya va hajmni aniq ko‘rish ko‘nikmasini rivojlantirish, tabiat va real hayotni estetik idrok qilish, tasvirda tahlilga asoslangan ongli harakatni shakllantirish.

2.12-jadval.

Darsda qo‘llash texnologiyasi (qadamma-qadam)

№	Qadam	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati
1	Kuzatish ob’ektini tanlash	Ob’ektni ko‘rsatadi, atrofini yoritadi	Ob’ektga diqqat bilan boqadi
2	Sifatli savollar berish	SHakl, rang, qiyofa haqida savol beradi	Javob qidiradi, fikr yuritadi

12 Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil

13 V**ы**gotskiy L.S. «Voobrajeniye i tvorchestvo v detskom vozraste**», 1930**

3	Tahlil va qiyos	Taqqoslashni rag‘batlantiradi	Umumiylik va farqlarni anglaydi
4	Tasviriy yechim	CHizish yoki eskiz tayyorlashni taklif qiladi	Kuzatgan asosida ijod qiladi
3	Xulosa va estetik baholash	Mulohaza yuritishga yo‘naltiradi	O‘z ishini asoslaydi

Kuzatish va tahlil metodi bo‘yicha quyida amaliy misollarni keltirib o‘tamiz.

1-misol: “Gulbir gul” natyurmortini chizish dars mashg‘uloti jarayonidan.

O‘qituvchi, o‘quvchilarga quyidagicha savollar bilan yuzlanadi:

– «Gulning barglari qanday yoritilganida yorug‘roq ko‘rinadi?»

– «Nima uchun ba’zi soyalar ko‘ksimon, ayrimlari qorasimon bo‘ladi?»

Bu kabi savol-javoblar nitajasida o‘quvchilar yorug‘lik manbai va rang haroratini anglaydi.

Natijada esa, o‘quvchilar berilgan topshiriqni puxta o‘rganib ishlashlari lozim bo‘lgan natyurmortni real kuzatish asosida chizadilar.

2-misol: Tabiatdan “Daraxt shoxining tuzilishi” kuzatuvi asosida rasm ishlash dars mashg‘uloti.

O‘qituvchining savol-javobidan o‘quvchilar, avtojarayonda daraxt shoxlari bir-birini takrorlamasligini va h.larni anglashadi.

O‘quvchilar tomonidan, ko‘z bilan masofa-proporsiya o‘lchash mashqlari bajariladi.

Natijada esa, o‘quvchilarda shakl va hajmni sezish qobiliyati rivojlanadi.

3-misol: “Ifodali portretda yuz qiyofasini tahlil qilish” dars mashg‘uloti.

Mashg‘ulot avvalida o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagicha savol bilan yuzlanadi:

– «Qahramonning qanday hissi ko‘zda aks etgan?»

– «Lab chizig‘i kayfiyatni qanday o‘zgartiradi?»

Bu kabi savol-javoblardan o‘quvchilarda yuz shaklini «ko‘chirib» emas, tuyg‘uni his qilib tasvirlash malakalari rivojlanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kuzatish va tahlil metodi:

– Tasviriy san’atda real idrokni obraz yaratishga aylantiradi;

– Oqilona kuzatgan o‘quvchi yaxshi chizadi;

– Tahlil ko‘nikmasi ijodiy tafakkur va estetik zavq asosidir.

Bu metod o‘quvchini:

– qarash → ko‘rish → anglash → tasvirlash → baholash bosqichlari orqali mayda detaldan umumiy badiiy g‘oyagacha yetaklaydi.

Ko‘rgazmalilik prinsipi metodi xususida ham to‘xtalsak.

Bu metod L. Dav**ы**dovning “idrok → tasavvur → obraz” nazariyasiga tayanadi.

Ko‘rgazmalilik prinsipi tasviriy san’at ta’limida asosiy o‘rinni egallaydi. U o‘quvchilarning badiiy idrokini, vizual tafakkurini, obrazli fikrlashini va kompozitsion yechimlarni tushunishini ta’minlaydi. Bu prinsipga ko‘ra, o‘quvchi san’atni faqat tinglamaydi va o‘qimaydi, balki ko‘radi, taqqoslaydi, tahlil qiladi va shu asosda ijod qiladi.

Darsda qo‘llaniladigan vositalar: – naqqoshlik asarlari reproduksiyalari, real obektlar (meva, gul, haykal), ta’limiy videomateriallar, kompozitsiya maketter.

Sharti: – ko‘rgazma o‘quvchi tafakkurini boyitishi shart, shunchaki «rasm ko‘rsatish» emas.

Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek: – “Yoshlarimizning dunyoqarashini san’at va madaniyat orqali boyitish – ularning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda eng muhim omildir.”

Demak, ko‘rgazmalilik nafaqat o‘qitish uslubi, balki shaxsni estetik tarbiyalash vositasidir deb aytsak mutlaqo xato bo‘lmaydi.

Ko‘rgazmalilik prinsipi metodining ilmiy-pedagogik asoslarini quyidagi jadvalda ko‘rib chiqamiz.

2.13-jadval.

Ilmiy-pedagogik asoslari

Ilmiy asos	Mohiyat
Vizual psixologiya	Ko‘rish hissi – inson idrokining 80% manbaidir
Badiiy tafakkur nazariyasi	Obrazni ko‘rish va musavvirlarcha fikrlashni shakllantiradi
Pedagogik didaktika	Aniq obrazlar ta’limni tushunarli va samarali qiladi

2.14-jadval.

Ko‘rgazmalilik manbalari (turlari)

Tur	Namuna	Darsdagi roli
Natural (tabiiy)	Natyurmort, gul, meva, odam qiyofasi	Real idrok, hajm va rangni his qilish
Reproduksiya (rasm nusxalari)	Leonardo Da Vinchi, Kamoliddin Behzod, R.Ahmedov asarlari	San’at sharhi va estetik baholash
Model va maketlar	Geometrik shakllar, gips byustlar va h.	Proporsiya va hajm tuzilishini o‘rgatish
Multimedia va raqamli ko‘rgazmalar	Interaktiv ekran, 3D modellar	Zamonaviy estetik idrokni rivojlantirish

Ko‘rgazmalilik prinsipi metodining dars jarayonlarida qo‘llanishi algoritmini quyidagi jadvalda keltirib o‘tamiz.

2.15-jadval.

Darsda qo‘llash algoritmi

№	Bosqich	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati
1	Kuzatish	Ko‘rgazmani namoyish qiladi	Diqqat bilan kuzatadi
2	Tahlil	Savollar orqali ko‘rganini fikran ochtiradi	Badiiy xulosa qiladi
3	Ijodiy qo‘llash	Tasviriy topshiriqni beradi	Ko‘rgan obraz asosida ijod qiladi
4.	Baholash	Estetik tahlilga undaydi	O‘z ishini himoya qiladi

Ko‘rgazmalilik prinsipi metodi yuzasidan amaliy dars misollarini quyida qisqacha yoritib o‘tamiz.

1-misol: “Natyurmortni tabiatdan chizish” dars mashg‘uloti.

O'qituvchi, taklik ustiga olma, choynak va matodan iborat natyurmort qo'yilmasini joylashtiradi.

Va, o'quvchilarga quyidagi tartibda savollar beradi: – "Olmaning qay qismi yorug', qay qismi soya?", "Tanasidagi rang o'tishlari qanday?"

Natijada esa: – O'quvchilar "shaklni ko'rish" – ko'chirishdan ko'ra muhim ekanligini anglaydilar.

2-misol: Kamoliddin Behzod miniatyuralarini tahlil qilish.

– Kompozitsiyadagi markaziy obraz topiladi;

– Ranglar o'rtasidagi munosabat ko'rib chiqiladi;

– Mazmun va estetika munosabati ochib beriladi;

Natija: O'quvchi san'atni nafaqat ko'radi, balki anglaydi.

3-misol: 3D modeli orqali bosh suyak tuzilishi.

Gips byust bilan birga planshetda 3D suyak modeli aylantirib ko'rsatiladi: – proporsiya, aniqlik, plastikani o'rganiladi. Natijada, o'quvchilarda, portret chizishda aniqlik va plastik fikrlari rivojlanadi. Xulosa qilib aytsak, ko'rgazmalilik prinsipi metodi xususida: – idrok → tahlil → obraz → ijod zanjirini shakllantiradi, o'quvchida san'atni kuzatish, anglash va yaratish ko'nikmasini rivojlantiradi, estetik madaniyat va ijodiy tafakkurning asosini tashkil etadi.

Endi, "Mazmun → Vazifa → Obraz → Ifoda" metodi borasida ham qisqacha bayon qilamiz.

2.16-jadval.

"Mazmun → Vazifa → Obraz → Ifoda" metodi

Bosqich	Savol	Javob
Mazmun	Nima tasvirlanadi?	Mavzu
Vazifa	Nega shu tasvir tanlandi?	G'oya
Obraz	Qanday ko'rinishda beriladi?	Badiiy ifoda
Ifoda vositalari	Qanday texnika/rang/ shakl bilan?	Usul

Darhaqiqat, "Mazmun → Vazifa → Obraz → Ifoda" metodi o'quvchini obrazli fikrlashga olib boradigan samarali metodlardan biri sifatida ko'riladi.

Tasviriy san'at ta'lim jarayonida o'quvchining tasvirlash faoliyatini ongli asosda tashkil etish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchining e'tibori faqat tasvir texnikasiga emas, balki tasvirlanayotgan ob'ekt yoki hodisaning mazmuniy mohiyatiga yo'naltirilishi lozim. «Mazmun → Vazifa → Obraz → Ifoda» metodi aynan tasviriy faoliyatni izchil, maqsadli va ichki mantiqiy bog'liqlikka asoslantirgan holda tashkil etishni nazarda tutadi.

Hozir, bu metodni kengaytirib ochib chiqamiz.

Mazmun (Content) – tasvirlanadigan ob'ekt yoki hodisaning g'oyaviy-ma'naviy mohiyatidir. Talaba yoki o'quvchi avvalo mavzudagi asosiy g'oyani anglab olishi kerak. Aniq mazmun shakllanmas ekan, tasvir usuli va kompozitsion yechim ham tasodifiy bo'lib qolishi mumkin.

Vazifa (Task) – mazmunni ochishga qaratilgan badiiy va amaliy vazifalarning belgilanishidir. Bu bosqichda o'quvchi «mazmunni qanday ifoda etaman?» degan savolga javob izlaydi. Vazifa kompozitsion markaz, shakl hajmi, harakat dinamika-

si va ifoda vositalarini tanlashda namoyon bo‘ladi.

Obraz (Image) – tasvirlanayotgan holatning ichki tasavvurda shakllanishi. Bu bosqichda o‘quvchi ruhiy tasvir (ichki ko‘rinish) yaratadi. Obraz orqali mazmun emotsional, hissiy va badiiy mohiyat kasb etadi.

Ifoda (Expression) – mazmun, vazifa va obrazning tasviriy vositalar orqali yorqin ifodalanishidir. Bu yerda chiziqlarning xarakteri, rang tonu, nur-soya uyg‘unligi, kompozitsiya ritmi muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodning Ilmiy asoslanish: V**ы**gotskiy ta’limotida badiiy idrokning shakllanishi avvalo ma’noni anglashdan boshlanishi ta’kidlanadi. Unga ko‘ra, tasvirdagi shakl va ranglar tashqi ko‘rinishdan avval ichki mazmunni ifodalash vositalaridir. Shu nuqtai nazardan, mazmunni anglash va uni vazifa sifatida shakllantirish o‘quvchining mustaqil fikrlash hamda ijodiy pozitsiyasini rivojlantiradi.

Arnxeym («Vizual fikrlash» nazariyasi) badiiy obrazni fikrlashning vizual shakli sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, obraz – bu yolg‘iz tasavvur emas, balki ma’no bilan to‘lgan ruhiy shakldir. Demak, obrazni yaratish mazmun va vazifadan kelib chiqadi.

Aytib o‘tgan metodimizni amaliy misollar bilan davom etamiz.

Mavzu: – «Bolalik xotirasi».

Mazmun: – voqea, his-tuyg‘u, eslash jarayoni.

Vazifa: – xotiradagi asosiy holatni kompozitsion markaz sifatida belgilash.

Obraz: – bola qiyofasi, o‘yin, quyosh nurining iliq tusi.

Ifoda: – yumshoq chiziqlar, yorug‘ rang gammasi, mayin nur-soya kechinmalari. Bu misolda ifoda mazmundan uzilmagan holda, badiiy vositalarda to‘liq namoyon bo‘ladi. Bu metodning kognitiv-psixologik va badiiy-estetik asoslarini ko‘rib chiqamiz.

Tasviriy san’at ta’lim jarayonida «Mazmun → Vazifa → Obraz → Ifoda» metodi o‘quvchining badiiy tafakkurini rivojlantiruvchi ichki fikrlash modelining izchil bosqichlariga tayanadi. U nafaqat kompozitsion yechimni izchil tashkil etish, balki ma’noni anglash, qayta ishlash va tasviriy vositalar orqali ifodalash jarayonini ham nazarda tutadi.

Kognitiv-psixologik asos – V**ы**gotskiy ta’kidlaganidek, badiiy ifoda jarayoni avvalo ichki nutq va ma’noni idrok etishdan boshlanadi. Leontevning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, tasviriy faoliyat – bu maqsadga yo‘naltirilgan ma’naviy-amaliy harakat bo‘lib, unda mazmunni anglash markaziy o‘rin tutadi. Dav**ы**dovning nazariyasida esa ma’noni umumlashtirish va uni tasviriy tilga o‘tkazish jarayoni mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, mazmunni anglash – faqat mavzuni tushunish emas, balki undagi his, kayfiyat va ruhiy holatni qabul qilishdir. Bu jarayon orqali o‘quvchida obrazni ichki tasavvurda tuzish qobiliyati shakllanadi.

Badiiy-estetik asos – Arnxeymning «vizual fikrlash» nazariyasiga ko‘ra, badiiy obraz – fikrlashning ko‘rinmas, lekin seziladigan vizual shaklidir. Lange va Baumgart esa badiiy tafakkurni estetik idrokning yuqori bosqichi sifatida baholab, obrazning shakl va mazmun uyg‘unligi uning haqiqiy badiiy qiymatini belgilaydi deb ta’kidlaydi.

Demak, obraz yaratish jarayonida: – mazmun – ma’noni ifodalaydi, vazifa – ifoda usulini belgilaydi, obraz – ruhiy ko‘rinishni shakllantiradi, ifoda – tasviriy

tilda uni jonlantiradi.

Asar yaratish jarayonida refleksiyaning roli xususida.

Magistratura ixtissosligida tahsil olayotgan har bir magistr faqat texnika va shaklni emas, balki o‘z ijodiy qarorlarini baholash va tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantirishi lozim. Refleksiya quyidagi savollar orqali amalga oshiriladi:

– Men tanlagan mazmun qanday ruhiy holatni ifoda qildi?

– Ifoda vositalari (rang, chiziq, kompozitsiya) mazmunga mos keladimi?

– Obraz o‘quvchida yoki tomoshabinda qanday hissiyot uyg‘otadi?

Shu tariqa, **«**Mazmun → Vazifa → Obraz → Ifoda**»** metodi badiiy tafakkurni ongli, izchil va ma’naviy jihatdan boy yo‘nalishda shakllantiradi.

Ushbu mashg‘ulot jarayoni orqali magistrant kompozitsiyani na faqat texnik jihatdan, balki ma’naviy va badiiy mazmun nuqtai nazaridan ham ongli ravishda qurishni o‘rganadi.

Endi, ustoz-shogird an’anasi borasida ham qisqacha ma’lumot berib o‘tsak. Tasviriy san’atda texnik mahorat hamisha individual o‘rgatish orqali shakllangan. O‘quvchilar bilan birgalikda rasmlar ishlash, o‘quvchilarning tasviriy faoliyatlari davomida xatoliklarga yo‘l qo‘yadigan holatlari bo‘lsa, ularni shu vaqtni o‘zida jonli isloh qilish, bevosita ko‘rsatma berib borish – bu metodning asosi hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan amaliy mashg‘ulot modeli: – **«**Ustoz va shogird**»** mavzusida kompozitsiya yaratish.

Ushbu mashg‘ulot magistratura ixtissosligida ta’lim olayotgan magistrlarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish, kompozitsion yechimda mazmun va ifoda uyg‘unligini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi.

Mashg‘ulot maqsadi:

– **«**Ustoz va shogird**»** mavzusining ma’naviy-tarbiyaviy mazmunini anglash;

– Obraz yaratishda ichki tasavvur va vizual tafakkurni faollashtirish;

– Kompozitsiya vositalari orqali ma’noni ifoda qilish malakalarini rivojlantirish.

1.17-jadval.

Mashg‘ulot bosqichlari

№	Bosqich	Mazmun	O‘qituvchi faoliyati	Magistrant faoliyati
1	Mazmunni ochish	Mavzu mohiyati va g‘oyaviy yo‘nalish	Ustoz-shogird munosabatiga oid savollar beradi, muloqot yuritadi	Mavzu mohiyati bo‘yicha shaxsiy fikr va tajribalarni bayon etadi
2	Vazifani aniqlash	Kompozitsiyaning markazi va asosiy ruhiy holatini belgilash	Kompozitsiyada asosiy kuch nuqtasi va harakat dinamikasini tushuntiradi	Kompozitsion markazni tanlaydi, eskiz rejasini belgilaydi
3	Obraz yaratish	Ichki tasavvurni vizual shaklga o‘tkazish	Obraz yaratishda holat, ishora, qiyofa va harakatning ahamiyatini ko‘rsatadi	Ustoz va shogird qiyofasi eskizini yaratadi

4	Ifoda	Rang, chiziq, nur-soya orqali ma'noni ifodalash	Rang gammasi va kompozitsiya ritmini tanlash bo'yicha yo'naltirish beradi	Asarni badiiy vositalar orqali ifodalaydi
5	Refleksiya	Asarni badiiy tahlil va baholash	Asar mohiyatini ochuvchi savollar qo'yadi	Asarni mazmun va ifoda uyg'unligi nuqtai nazaridan tahlil qiladi

Tavsiya etiladigan vizual materiallar: – ustoz va shogird munosabatini aks ettirgan o'zbek milliy miniatyura san'ati namunalari, I.Repin, K.Bryullov, Lebedev va o'zbek rassomlarining pedagogik munosabat mavzusidagi asarlari.

Individual rivojlanishni baholash borasida ham ayrim mulozalarimizni qayt etsak. Avvalo shuni aytish joizki, tasviriy san'atda baholash natijaga emas, balki ilgarilashga qarab amalga oshirilishi zarur.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini baholash an'anaviy «baxo qo'yish» usullaridan farqli ravishda, kriterial baholash (rubric-based assessment) asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv o'quvchi faoliyatini har tomonlama keng yoritish, uning individual ijodiy ishlash salohiyatini monitoring qilish, dinamik o'sishni qayd etish imkonini beradi.

Baholash mezonlari har bir o'quvchining tasviriy faoliyatiga oid ko'riladi:

1. tasviriy fikrlashi;
2. kompozitsion yechimlari;
3. rang va shakl uyg'unligini his etishi;
4. obrazni ifodalash chuqurligi;
5. ijodiy mustaqillik darajasi, kabi ko'rsatkichlar asosida belgilanadi.

2.18-jadval.

Baholash tartibi

№	Baholash ko'rsatkichi	Yuqori daraja (4 ball)	O'rtacha daraja (3 ball)	Qoniqarli daraja (2 ball)	Boshlang'ich daraja (1 ball)
1	Kompozitsiya yechimi	Obrazlar joylashuvi muvozanatli, mazmun bir butunlikka ega	Muvozanat qisman saqlangan, ayrim detallarda noaniqlik bor	Kompozitsiyada disgarmoniya kuzatiladi	Kompozitsiya xaotik, mazmun ifodalanmagan
2	Ranglar uyg'unligi	Ranglar emotsional xolatni ochib beradi, ton va soyalar chuqur	Rang tanlovi asosan to'g'ri, lekin ifoda kuchsiz	Ranglar tasodifiy, uyg'unlik zaif	Rang tushunchasi shakllanmagan
3	Shakl va proporsiya	Shakllar aniq, proporsiyalar realistik saqlangan	Proporsiyada kichik xatoliklar bor	Proporsiyalar sezilarli buzilgan	Shakl umumiy, proporsionallik yo'q

4	Ijodiy yondoshuv	Original g‘oya, mustaqil taqdim etish	Qisman mustaqillik, shablondan chiqishga urinish bor	Sodda takrorlash, g‘oya kam	Mavzu mohiyati tushunarsiz, ijodiylik kuzatilmaydi
5	Asboblar bilan ishlash madaniyati	Qalam, bo‘yoq va qog‘oz bilan ishlash uslubi puxta	Asboblardan unumli foydalaniladi, lekin izchillik yetishmaydi	Asboblardan foydalanishda qiyinchilik mavjud	Asboblar bilan ishlash ko‘nikmasi shakllanmagan

Jami ballar: 5 - 20 ball.

Baholash mezoni:

– 18-20 ball: Yuqori ijodiy daraja;

– 13-17 ball: Qoniqarli o‘quv faoliyati;

– 8-12 ball: Rivojlanish talab etiladi;

– 5-7 ball: Boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi.

Ushbu mezonlar o‘quvchining faqat «Ishlagan ishiga» emas, balki ijodiy tafakkuri, kompozitsion fikrlashi va estetik qarashini baholashga qaratilgan. Baholash jarayoni to‘liq ko‘p parametrli, izchil va individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi shaklda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, ilg‘or metodlar asosan o‘quvchining idrok va ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, hozirgi davr talablari tasviriy san’at ta’limini raqamli, interaktiv va texnologik vositalar bilan boyitishni taqozo etmoqda. Bu esa zamonaviy pedagogik metodlarni amaliyotga joriy etishni talab qiladi.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda ilg‘or pedagogik metodlardan foydalanish o‘quvchilarni tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil ijodkor sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy metod va texnologiyalar o‘quvchilarning tasawur doirasi, estetik didi, badiiy tafakkuri va emotsional idrokini rivojlantiradi. Ilg‘or metodlar qo‘llangan darslarda o‘quvchi obraz yaratish jarayonida faol ishtirok etadi, muammoni mustaqil hal qilishga harakat qiladi, badiiy yechimlarni topishga intiladi.

Bunda konstruktivistik yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar ijodiy fikrlashni faollashtiradi, STEAM, muammoli-ijodiy, hamkorlikda o‘qitish, mustaqil kompozitsiya yaratish, portfeli va refleksiya kabi metodlar esa o‘quvchining o‘ziga xos badiiy yo‘nalish va dunyoqarashining shakllanishiga zamin yaratadi.

Natijada tasviriy san’at ta’limi: – shaxsning badiiy-estetik madaniyatini yuksaltiradi, ijodiy faollik va mustaqillikni kuchaytiradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi.

Shu bilan birga, ilg‘or pedagogik metodlar tasviriy san’atni faqat texnik ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki san’at orqali tarbiyalovchi, har tomonlama kamolga yetkazuvchi ta’lim jarayoni sifatida tashkil etishga imkon beradi.

2.4-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Ilg‘or pedagogik metodlar deganda nima tushuniladi?
2. Tasviriy san’at ta’limida interfaol usullarning ahamiyati nimada?
3. Loyiha asosida o‘qitish usulining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. STEAM yondashuvi tasviriy san’at bilan qanday integratsiyada qo‘llaniladi?

5. Gamifikatsiya usuli o‘quvchilarni qanday rag‘batlantiradi?

Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Sizningcha, tasviriy san’at ta’limida qaysi ilg‘or metodlar samaraliroq? Nega?

7. Ijodiy ustaxona (creative workshop) modeli nimalarni qamrab oladi?

8. Ilg‘or metodlarni joriy etishda o‘qituvchilar duch kelayotgan muammolar va yechimlarini keltiring.

2.5 § Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlar

Bugungi kunda tasviriy san’at ta’limi nafaqat an’anaviy badiiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni, balki o‘quvchilarda raqamli ijod, vizual tafakkur, axborot bilan ishlash madaniyati, kreativ yondashuvni shakllantirishni ham talab etmoqda. Zamonaviy pedagogik metodlar ta’lim jarayonini interaktiv, muloqotli, dinamik va o‘quvchi faolligiga asoslangan holda tashkil etishga qaratilgan.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaydi: – “Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etmasdan turib, yangi avlod ijodkor va mustaqil fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash mumkin emas.”

Shu nuqtai nazardan tasviriy san’at darslarida zamonaviy pedagogik metodlar ta’limning mazmun-maqsadini tubdan boyitadi.

Zamonaviy tasviriy san’at ta’limi an’anaviy akademik tushunchalar bilan bir qatorda, innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi interfaol metodlar bilan boyimoqda. Bugungi kunda nafaqat rasm chizish malakasini o‘rgatish, balki o‘quvchida badiiy tafakkur, hissiy idrok, estetik ta’m va obrazli fikrlashni shakllantirish muhim vazifaga aylangan.

A. Sulaymonov ta’kidlaganidek, tasviriy san’atni o‘qitishda shakl va mazmun uyg‘unligini anglash o‘quvchining tasviriy voqelikni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Demak, zamonaviy metodlar nafaqat texnika, balki san’atning ma’naviy-estetik qimmatlarini o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

1-Bo‘lim. Interfaol pedagogik metodlar.

Tasviriy san’at ta’limining zamonaviy mazmunida interfaol metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, guruhda hamkorlikda ishlash, shaxsiy pozitsiyani ifoda etish, badiiy tahlil va ijodiy barqarorlikni shakllantiradi. Bu metodlar darsda o‘quvchi faolligini oshiradi, muloqot va izlanishga asoslangan muhit yaratadi.

Zamonaviy tasviriy san’at ta’limida interfaol uslublar: – estetik didni rivojlantiradi, obrazli tafakkurni faollashtiradi, san’at asarlarini idrok qilishni o‘rgatadi, o‘quvchini faol ijodiy sub’ekt sifatida shakllantiradi.

Quyida eng samarali interfaol metodlardan biri bayon etiladi:

1. “Kuzatish va tahlil” metodi.

Metodning ta’rifi: – bu metod o‘quvchilarga rang, shakl, kompozitsiya, faktura kabi tasviriy elementlarni bevosita kuzatish va solishtirish orqali o‘rganish imkonini beradi.

Metodning maqsadi: – tasviriy vositalarni tahlil qilish, ularning badiiy ifodadagi rolini anglash, kuzatilgan elementlarni o‘z ijodida qo‘llash.

Qo'llanish jarayoni: – o'qituvchi tabiat ob'ekti yoki san'at asari taqdim etadi, o'quvchi ranglar uyg'unligi, shakl, proporsiya, dinamikani kuzatadi, muhim belgilar bo'yicha qisqa yozuv va eskizlar qilinadi, kuzatish natijalari ijodiy ishga tadbiq etiladi. Ushbu metod kuzatish → tahlil → ijod tamoyili asosida ishlaydi.

Bunga amaliy misol sifatida. Mavzu: – "Gul shaklini badiiy talqin qilish".

O'quvchilar bog'dagi turli gullarni kuzatadi, ularning: – rang o'zgarishi, barg tuzilishi, kompozitsion markazi, shakl dinamikasini tahlil qiladilar. So'ng kuzatilgan belgilar asosida muallifona talqin bilan gul tasvirini yaratadilar.

Natijada esa: – o'quvchilarda vizual kuzatuvchanlik rivojlanadi, tasviriy elementlar ongli qo'llaniladi, tabiat asosida ijodiy talqin kuchayadi.

Demak, aytish mumkinki "Kuzatish va tahlil" metodi o'quvchini qarash → anglash → yaratish bosqichlari orqali ijodkor sifatida ravnaq toptiradi.

2. "Aqliy hujum" metodi (Brainstorming).

Ta'rif: – "Aqliy hujum" – bu o'quvchilarni qisqa vaqt ichida eng ko'p g'oya taklif etishga undovchi, ijodiy fikrlarni erkin ifodalashga imkon beruvchi interfaol metod bo'lib, tasviriy yechimlar topishda samarali qo'llanadi.

Bu metodning maqsad: – mahsuldor ijodiy tafakkurni rivojlantirish, muammoni bir nechta badiiy yechimlar orqali ko'ra bilish, o'z fikrini erkin bayon qilish ko'nikmasini shakllantirish, yangicha obraz yaratishga ruhlantirish.

Amaliyotda qo'llanish bosqichlari:

1. O'qituvchi mavzuni va asosiy savolni beradi.
2. Guruh bo'lib barcha g'oyalar tezkor yoziladi yoki tasvirlanadi.
3. Takliflar tanqid qilinmaydi, erkin muhit yaratiladi.
4. G'oyalar saralanadi, eng maqsadga muvofiqlari tanlanadi.
5. Tanlangan g'oya asosida ijodiy ish amalga oshiriladi.

Bu metod ijodiy jarayonda "to'xtab qolish"ning oldini oladi, ko'lamli fikrlashni rag'batlantiradi.

Bu metodning qo'llanilishiga doir amaliy misol keltiramiz.

Mavzu: "Bog'dagi hayvonlar".

O'quvchilarga 3-5 daqiqa vaqt beriladi. Ular: – hayvonlarning turli ko'rinishlarini chizadilar, rang, shakl, xarakter, harakat bo'yicha yangi obraz g'oyalarini taklif etadilar, guruhda muhokama qilib, eng qiziqarli badiiy yechimni tanlaydilar.

Kutilayotgan pedagogik natija: – qisqa vaqtda ko'p g'oya ishlab chiqish ko'nikmasi shakllanadi, tasviriy timsollarni ijodiy o'zgartirish qobiliyati rivojlanadi, guruh ichida fikr almashish, bir-biridan o'rganish kuchayadi, o'quvchi o'z fikrining qadrlanishini his qiladi → motivatsiya ortadi.

"Aqliy hujum" metodida asosiy tamoyil: – erkin fikrlash → ko'plab g'oyalar → tanlash → ijodiy yechim.

Bu metod o'quvchini: – ko'chirishga emas – o'ylashga, takrorlashga emas – yangilik kashf etishga yo'naltiradi.

3. "Badiiy mushohada" suhbat metodi.

Ta'rif: – "Badiiy mushohada" – tasviriy san'at asarlarini idrok qilish, ularning mazmun-mohiyatini anglash, estetik jihatdan fikr yuritish va o'z munosabatini ifodalashga qaratilgan interfaol suhbat metodidir. Bu metod orqali o'quvchi san'at asarini ko'rish → tushunish → baholash bosqichlarida faol ishtirok etadi.

Bu metodning maqsadi: – o‘quvchilarning badiiy-analitik fikrlashini rivojlantirish, asarning mazmuni va ifoda vositalarini anglash, tanqidiy-estetik fikr va mulohazani shakllantirish, san’atga nisbatan ongli munosabat hosil qilish.

Amaliyotda qo‘llanish tartibi xususida:

1. Asarni kuzatish: – mavzu, syujet, obrazlar;

2. Rasmda qo‘llangan badiiy vositalarni tahlil qilish (rang, shakl, kompozitsiya);

3. Asarning his-tuyg‘u va g‘oya yo‘nalishini muhokama qilish;

4. O‘quvchilarning shaxsiy estetik bahosini bildirishi.

Metodning muhim tamoyil shundaki, “To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob yo‘q” – har bir o‘quvchi fikri qadrli.

Bu metodga doir amaliy misol sifatida:

Mavzu: “Rasmda his-tuyg‘ularni izlash”.

O‘qituvchi bir san’at asarini ko‘rsatadi va savol beradi: – “Bu rasm sizga qanday his-tuyg‘ularni uyg‘otadi? Nega?”

O‘quvchilar: – kayfiyatni tasvirlashga urunadi (quvonchli, sokin, g‘amgin…), bu kayfiyat rang va kompozitsiya orqali qanday berilganini izohlaydi, rasmga shaxsiy munosabatini bildiradi.

Kutiladigan pedagogik natija esa: – san’at tili (rang, shakl, chiziq) orqali fikrlash rivojlanadi, badiiy tafakkur, kuzatuvchanlik va estetik sezgirlik oshadi, fikrni asoslab aytish va tinglash madaniyati shakllanadi, har bir o‘quvchi o‘z individual mulohazasini himoya qilishga o‘rganadi.

“Badiiy mushohada” metodi o‘quvchilarda: – san’atni anglashni chuqurlashtiradi, hissiy-ruhiy idrokni rivojlantiradi, tanqidiy va estetik fikrlashni mustahkamlaydi. Bu metod tasviriy san’atda tasvirlashgina emas, balki uni tushunish va his qilish fani ekanligini o‘quvchining ongida mustahkamlaydi.

4. “Kichik guruhda ishlash” metodi (Collaborative Learning).

Ta’rif: – Bu metod o‘quvchilarni kichik guruhlar shaklida bir mavzu asosida birgalikda ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo‘naltirib, har bir o‘quvchining jarayondagi faol ishtirokini ta’minlaydi. Ushbu usulda o‘quvchilar o‘z g‘oyalari bilan bo‘lishadilar va umumiy yakuniy natija uchun javobgarlikni baham ko‘radilar.

Bu metodning maqsadi: – jamoaviy ijod madaniyatini rivojlantirish, hamkorlik qilish va muloqot madaniyatini shakllantirish, bir fikrni tinglash, murosaga kelish va qaror qabul qilishni o‘rgatish, har bir o‘quvchining strengths (kuchli jihatlari)ni ochish.

Amaliyotda qo‘llanish tartibi:

1. Guruhlar shakllantiriladi (3-5 nafar);

2. Har bir guruhga mavzu yoki badiiy topshiriq berilad;

3. Vazifalar taqsimlanadi: – shakl, fon, detal, rang yechimi…;

4. Guruh birgalikda yakuniy kompozitsiyani yaratadi;

5. Ish natijalari taqdim etiladi va hamkorlikda baholanadi.

Metodning asosiy tamoyil: – “Birgalikda yaratish va umumiy natija uchun mas’uliyat”.

Ushbu metodga doir amaliy misol keltiramiz.

Mavzu: “Tabiat manzaralari”.

Guruh a'zolari manzana elementlarini bo'lishib oladi: – kimdir tog'lar va osmonni chizadi, kimdir daraxt va o'simliklarni, boshqalar suv oqimi yoki hayvon obrazini. Yakunda barcha elementlar bir kompozitsion butunlikka keltiriladi.

Kutiladigan pedagogik natija: – bir-biridan o'rganish orqali ijodiy tajriba almashinuvi yuz beradi, o'quvchining ijtimoiy faolligi va mas'uliyati oshadi, jamoada qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllanadi, umumiy maqsad sari hamjihatlikda ishlash rivojlanadi.

"Kichik guruhda ishlash" metodi: – hamkorlik → muloqot → ijodiy natija, o'quvchini faol, mas'ul, tashabbuskor shaxs sifatida shakllantiradi, "birgalikda ijod qilish" orqali tasviriy san'atga qiziqishni kuchaytiradi. Bu metodda yolg'iz ijod emas, balki "mening hissam – bizning ijodimizda" degan qarash shakllanadi.

5. "Gallery walk" (Galereya sayohati) metodi.

Ta'rif: – "Gallery walk" – o'quvchilarning ijodiy ishlarini dars davomida ko'rgazma shaklida namoyish etish, ular bo'yicha suhbat va baholash olib borishga qaratilgan interfaol metoddir. Ushbu usul san'atda ochiq muloqot va estetik baholash madaniyatini shakllantiradi.

Bu metodning maqsad: – konstruktiv baholash va fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarda san'at asariga ongli yondashuvni kuchaytirish, o'z ishini auditoriya oldida himoya qilishga o'rgatish, o'zaro hurmat va ijodiy qo'llab-quvvatlashni shakllantirish.

Ushbu metodning qo'llanish tartibi:

1. O'quvchilar ishlari devorga, molbertga yoki stollarga joylashtiriladi;
2. Boshqa o'quvchilar "galereya bo'ylab sayohat qiladi";
3. Har bir ish bo'yicha: – qisqa mulohaza, ijobiy jihatlar, takomillashtirish bo'yicha takliflar aytiladi;
4. Oxirida umumiy suhbat va xulosa qilinadi.

Ushbu metodning tamoyil: – tanqid emas – qo'llab-quvvatlovchi estetik baholash.

Ushbu metodga oid amaliy misol keltiramiz.

Mavzu: "Rangning kayfiyatga ta'siri".

O'quvchilar: – rangli asarlarini devorga osadilar, barcha o'quvchilar aylana bo'lib ishlarni kuzatadilar, "Bu rasm sizga qanday tuyg'u berdi?" degan savol asosida fikr bildirishadi, har bir asarning kuchli jihati alohida ta'kidlanadi.

Kutiladigan pedagogik natija: – estetik baholash madaniyati rivojlanadi, o'z fikrini asoslab aytishga o'rgatadi, ijodiy ishonch va motivatsiya kuchayadi, jamoada muloqot va hurmat tamoyili shakllanadi.

"Gallery walk" metodi: – san'atni faqat yaratish emas – tushuntirish va tushunish jarayoniga aylantiradi, o'quvchiga "ijodiy ovoz" beradi, ko'rgazmaviy muhit orqali motivatsiyani oshiradi. Bu metod orqali har bir asar qadrlanadi, har bir o'quvchi e'tibor markazida bo'ladi.

Ushbu metodlarni quyidagi 2.19-jadval ko'rinishida ko'rib chiqamiz

2.19-jadval.

Interfaol pedagogik metodlar

Metod	Maqsad	Qo‘llanish	Misol	Rivojlantiriladigan kompetensiya
Kuzatish va tahlil	Rang, shakl, kompozitsiyani tushunish	Tabiiy ob’ektlar yoki san’at asarlari asosida kuzatish	“Gullar kuzatuvi”	Estetik idrok va badiiy tafakkur
Aqliy hujum	Ijodiy g‘oyalarni tez topish	Guruhda fikrlarni yozish yoki eskiz qilish	“Bog‘dagi hayvonlar”	Kreativlik va ijodiy moslashuvchanlik
Badiiy mushohada	Tanqidiy va estetik mulohaza yuritish	Asarni baholash, shaxsiy fikrni bildirish	Rasmda his-tuyg‘uni ifodalash	Tahliliy va kommunikativ ko‘nikmalar
Kichik guruhda ishlash	Hamkorlik va ijod	Birgalikda rasm / compozitsiya yaratish	“Tabiat manzaralari” guruh ishlari	Jamoaviylik va liderlik malakalari
Gallery Walk	Konstruktiv baholash va o‘zaro fikr almashish	Ishlarni devorda namoyish etish	Sinf devoridagi ko‘rgazma	O‘zini namoyon qilish va ijtimoiy faollik

2.19-jadval tasviriy san’at darslarida interfaol yondashuvning asosiy yo‘nalishlarini tizimli ravishda aks ettiradi. Bu metodlar: – o‘quvchini passiv qabul qiluvchidan faol ijodkorga aylantiradi, muloqot, hamkorlik va estetik idrokni bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi, badiiy obrazni yaratishda shaxsiy pozitsiyani shakllantiradi, voqelikni hissiy-obrazli talqin qilishga yo‘naltiradi

Bu metodlarning asosiy pedagogik qiymati xususida alohida ta’kidlash lozim.

Interfaol metodlar: – ko‘rish → anglash → fikrlash → yaratish → baholash bosqichlarini yaxlit didaktik tizimga birlashtiradi.

B. Boymetov ta’kidlaganidek: – “Tasviriy san’at ta’limida interfaol yondashuv o‘quvchining ijodiy faolligini oshiradi, badiiy idrokni faollashtiradi va tasvirlash jarayonida subektiv pozitsiyani shakllantiradi.”

Shu sababli interfaol metodlar: – darsni qiziqarli va dinamik qiladi, mustaqil badiiy fikrni kuchaytiradi, ijodiy faol shaxs kamolotiga xizmat qiladi. Bu yondashuv tasviriy san’atni faqat amaliy ko‘nikma emas, balki estetik va ijodiy tarbiya fani sifatida namoyon etadi.

2-Bo‘lim. Kompetensiyaga asoslangan o‘qitish yondashuvi.

Bugungi kunda tasviriy san’at fani o‘quvchining nafaqat amaliy badiiy ko‘nikmalarini, balki umumiy va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantiruvchi o‘quv predmeti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kompetensiya – bu bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar uyg‘unligi asosida turli vazifalarni samarali bajarish qobiliyatidir.

Kompetensiya asosida tashkil etiladigan ta’lim: – olingan bilimni amaliy ijodda qo‘llashga, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishga, mustaqil ishlash va hamkorlikni rivojlantirishga, shaxsiy badiiy o‘sishni rag‘batlantirishga qaratilgan tizimdir.

2.20-jadval.

Tasviriy san’atda kompetensiyalar va ularning mazmuni

Kompetensiya turi	Ta’rif	Tasviriy san’atdagi qo‘llanish misoli	Rivojlanadigan fazilat
Bilim kompetensiyasi	Nazariy bilimlarni egallash	Rang, shakl, kompozitsiya nazariyasini o‘rganish	Estetik idrok
Ko‘nikma kompetensiyasi	Bilimni amalda qo‘llash	O‘z rasmida rang uyg‘unligi va nisbatlardan foydalanish	Amaliy mahorat
Ijodiy kompetensiya	Yangi g‘oya va yechim yarata olish	“Tabiat manzarasi” mavzusida muallifona kompozitsiya	Kreativlik
Axborot-kommunikatsion kompetensiya	Ma’lumot izlash, tahlil va taqdim etish	Grafik dasturlardan foydalanish	Multimedia savodxonligi
Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiya	Hamkorlikda ishlash va muammo hal qilish	Guruhda loyiha va rasm ishlari	Kommunikativlik
Estetik kompetensiya	San’atni baholash va estetik qaror berish	Asarni tahlil qilish, konstruktiv fikr bildirish	Badiiy tafakkur

2.20-jadval tasviriy san’at ta’limining hozirgi talabi bo‘lgan kompleks ijodiy tayyorgarlikni nazarda tutadi. Unda barcha asosiy kompetensiyalar: – idrok → anglash → amal → baholash kabi badiiy jarayonning to‘liq sikl qilib bermoqda.

Bu yondashuv: – o‘quvchini “rasm chizuvchi” emas, san’atni anglovchi, ijodiy qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Kompetensiya asosida o‘qitishning afzalliklarini 2.21-jadvalda keltiramiz.

2.21-jadval.

Yo‘nalish	Ahamiyati
Amaliy yo‘naltirilganlik	O‘quvchi bilimni amalda qo‘llaydi
Shaxsiy rivojlanish	Tanqidiy va ijodiy tafakkur kuchayadi
Hamkorlik	Guruhda ishlash va muloqot rivojlanadi
Baholashning ob’ektivligi	Real qobiliyatlar namoyon bo‘ladi

Amaliy misol sifatida aytish mumkin.

Mavzu: “Tabiat manzaralari”

Bosqich	Rivojlanadigan kompetensiya
Mashhur asarlarni kuzatish va tahlil	Bilim
Mustaqil rasm ishlash	Ko‘nikma + Ijodiy
Guruhda birlashtirish	Shaxsiy va ijtimoiy
Namoyish va baholash	Estetik + Axborot-kommunikatsion

S.Shovdirov ta’kidlaganidek: – “Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchini rasm chizish bosqichidan badiiy fikrlash bosqichiga olib chiqadi”. Shu sababli tasviriy san’at darslarida: – texnik mashqlar bilan cheklanib qolmay, tarixiy-estetik anglash, ijodiy tahlil va ifoda, muallif g‘oyasini tushunish yetakchi o‘rinni egallashi zarur.

3-Bo‘lim. Amaliy mashg‘ulotlarda bosqichma-bosqich o‘qitish metodi.

Bosqichma-bosqich metodi – tasviriy san’at ta’limini tashkil etishda idrokdan – tugagan obrazgacha bo‘lgan ijodiy jarayonni bosqichli rivojlantirish imkonini beruvchi metoddir. Har bir bosqich muayyan badiiy ko‘nikmani shakllantirib, keyingi bosqich uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu metod ko‘rish → tushunish → texnik ifoda → obraz yaratish tamoyiliga asoslanadi.

1). Kuzatish (idrok). Maqsad: – tabiiy ob’ekt yoki tasviriy asarning shakl, rang, tuzilishini hissiy-idrokiy tahlil qilish.

Amaliyotda qo‘llanishi: – jism/manzarani diqqat bilan kuzatish, rang va shakl xususiyatlarini eskizda belgilash.

Misol siftida: – Bog‘dagi gullarni kuzatib, uning shakl dinamikasi va rangi asosida sodda eskiz ishlash.

Ayni bosqichda estetik idrok va vizual kuzatuvchanlik shakllanadi.

2). Tuzilish (umumiy shakl va skelet). Maqsad: – Obraz tuzilishini umumiy massalar bilan joylashtirish.

Amaliyotda qo‘llanishi: – umumiy konturni belgilash, asosiy massalar va markaziy liniyalarni ajratish

Misol sifatida: – Inson figurasining asosiy silueti: bosh–ko‘krak–tananing asosiy konstruksiyasini belgilash.

Obraz qurilishida kompozitsion muvozanat asosi yaratiladi.

3). Proporsiya va nisbatlar. Maqsad:– qismlar o‘rtasidagi nisbatni real va kompozitsion qonunlarga muvofiq aniqlash.

Amaliyotda qo‘llanishi: – balandlik va kenglikni o‘lchamli tahlil qilish, tana a’zolarining nisbatlarini saqlash.

Misol sifatida: – Portretda ko‘z, burin, og‘iz, quloq kabi detallar nisbatini to‘g‘ri joylashtirish.

Qiyin jihat – ko‘rish va o‘lchash tafakkurining uyg‘un rivojlanishi.

4). Rang va yorug‘-soya. Maqsad: – Yorug‘lik manbai va ranglar xususiyatini asarda jonli ifoda qilish.

Amaliyotda qo‘llanishi: – nur tushgan va soya qismi chegarasini aniqlash, rang uyg‘unligi va kuchayishini saqlash.

Misol sifatida: – anzarada qo‘yosh nurining qayerdan tushishi va soya tushishiga qarab ranglarni joylashtirish.

Haqqoniy obraz tuyg‘usi shu bosqichda shakllanadi.

5). Detallashtirish va obrazni umumlashtirish. Maqsad: – Asarni badiiy yakunga yetkazish, detallar orqali xarakter va ruhiyatni ifoda qilish.

Amaliyotda qo‘llanishi: – obrazda muhim detallarni kiritish, umumiy badiiy ta’sirni shakllantirish.

Misol sifatida: – Portretda ko‘z, lab, soch tuzilishi detallarini aniq ifoda etish.

Shaxsiy uslub, obraz haqidagi muallifona munosabat namoyon bo‘ladi.

Bu metod o‘quvchida “murakkab ob’ektni qismlarga ajratib anglash” malakalarini shakllantiradi.

Amaliy mashg‘ulotda o‘qituvchi ko‘rsatmasi vizual bo‘lishi va o‘quvchida obrazli tafakkurni harakat orqali ishga tushirishi zarur.

Ya’ni ustoz ko‘rsatadi – o‘quvchi mushohada qiladi – so‘ng ijroda mustaqillik

paydo bo‘ladi.

2.22-jadval.

Bosqichma-bosqich o‘qitish metodi

Bosqich	Maqsad	Qo‘llanish	Misol
Kuzatish (idrok)	Ob’ektni to‘liq idrok qilish	Tabiiy ob’ekt va asarlar bilan kuzatish	Bog‘dagi gul eskizi
Tuzilish (skelet va shakl)	Asosiy tuzilishni belgilash	Asosiy kontur va shakl chizish	Inson silueti asosiy chiziqlari
Proporsiya va nisbatlar	Qismlar o‘rtasidagi nisbatni aniqlash	Uzunlik va ko‘lamni muvofiqlashtirish	Portretda bosh va qo‘l nisbati
Rang va yorug‘-soya	Yorug‘ va soyani to‘g‘ri qo‘llash	Rang uyg‘unligi va yorug‘ effektlari	Tabiiy manzarada yorug‘ va soya
Detallashtirish va obrazni to‘liqlash	Asarni real va to‘liq ko‘rsatish	Kichik detallar va obraz yakunlash	Portretda ko‘z, lab va soch detallari

2.22-jadval tasviriy san’at ta’limida bosqichma-bosqich o‘qitish metodining amaliy-ta’limiy modelini namoyon etadi. Jadvalda berilgan har bir bosqich: – badiiy idrokdan obraz yaratishgacha bo‘lgan jarayonni, vizual tahlil bilan texnik ijroni, nazariy tushuncha bilan amaliy malakani bir-biriga izchil va bosqichli tarzda bog‘laydi.

Bu metod L.S.V’gotskiyning “eng yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga muvofiq ravishda, o‘quvchining har bir yangi qadami oldingisiga tayanadi. Shuningdek, J. Devis (arts education), R. Arnxeym (visual perception) kabi pedagog va psixologlar ta’limda idrokning asosiy o‘rnini ta’kidlaydi.

Shunday qilib, bosqichlar 2.23-jadvaldagi kabi ko‘rinishda bo‘ladi.

2.23-jadval.

Bosqich	Rivojlanadigan badiiy kompetensiya	Ilmiy-pedagogik asos
Kuzatish	Estetik idrok, vizual tahlil	Perseptiv ta’lim nazariyasi
Tuzilish	Kompozitsion fikrlash	Konstruktiv geometriya asoslari
Proporsiya	Mantiqiy-me’yoriy tafakkur	Anatomik va modul nisbatlar qonuni
Rang va soya	Haqqoniylik, nur idroki	Rangshunoslik va optika nazariyasi
Detallashtirish	Ijodiy individualizatsiya	Obraz va xarakter yaratish psixologiyasi

Metodning o‘quvchi rivojlanishiga ta’siri: – tafakkur va tasavvurni faollashtiradi, “ko‘rish → anglash → yaratish” mexanizmni ishga tushiradi, texnik va ijodiy qobiliyatni uyg‘un rivojlantiradi, shaxsiy uslub va estetik munosabatni shakllantiradi. Natijada o‘quvchi natijaga emas, jarayonga xos fikrlashga o‘rganadi.

Bosqichma-bosqich metod tasviriy san’at ta’limida idrokdan obrazgacha bo‘lgan badiiy tafakkurning rivojlanishini ta’minlaydi va amaliy mashg‘ulotlarni og‘irdan yengilga, soddadan murakkabga tamoyili asosida tashkil qiladi. Ushbu metod o‘quvchini “ko‘chirishdan – yaratishga”, “tasvirlashdan – fikrlashga” yetak-

laydi.

4-Bo‘lim. Milliy-madaniy merosga tayangan o‘qitish metodi.

Milliy-madaniy merosga tayangan metod – o‘quvchilarni o‘z milliy an’ana, milliy san’at va madaniy qadriyatlar bilan bog‘lab, tasviriy san’at mashg‘ulotlarida obrazli fikrlash va estetik hislarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuv.

1). O‘quvchini milliy o‘zlik bilan bog‘lash.

Maqsad: O‘quvchilarda milliy tafakkur va o‘zlik hissini rivojlantirish.

Qo‘llanish: – Milliy naqshlar, urf-odatlar va tarixiy asarlarni o‘rgatish, o‘quvchilar o‘z asarlarida milliy motivlardan foydalanishadi.

Misol uchun aytishimiz mumkin, o‘quvchi an’anaviy o‘zbek liboslari, milliy o‘yinchoqlar va me’moriy yodgorliklar asosida kompozitsiya yaratadi.

2). Obrazli fikrlashni boyitish. Maqsad: – O‘quvchilarning fantaziyasi va vizual tasavvurini rivojlantirish.

Qo‘llanish: – Milliy afsonalar, dostonlar va hikoyalar asosida tasviriy asarlar yaratish, har bir obrazning xususiyatlari va ma’nosini chuqurlashtirish.

Misol uchun aytishimiz mumkin, “Alpomish” dostoni asosida qahramon va voqealarni chizma orqali ifoda qilish.

3). Shakl va bezak ritmini his qilish qobiliyatini oshirish

Maqsad: Milliy bezak va shakl elementlarini to‘g‘ri baholash va ijodda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish.

Qo‘llanish: – milliy naqshlar va ornamentlarni kuzatish va ularning ritmi va simmetriyasini chizmok, bu elementlarni o‘z kompozitsiyasiga integratsiya qilish.

Misol uchun aytishimiz mumkin, Xiva yoki Buxoro me’moriy naqshlarini eskizda aks ettirib, o‘z ishida ritm va simmetriyani saqlash.

2.24-jadval.

Milliy-madaniy merosga tayangan o‘qitish metodi

Yo‘nalish	Maqsad	Qo‘llanish	Misol
Milliy o‘zlik	O‘quvchini milliy qadriyat bilan bog‘lash	Milliy naqsh va urf-odatlarni o‘rgatish	Milliy libos va me’moriy yodgorliklar asosida kompozitsiya
Obrazli fikrlash	Fantaziya va vizual tasavvurni rivojlantirish	Afsonalar va dostonlar asosida tasvir yaratish	“Alpomish” dostoni qahramonini chizma orqali ifoda qilish
Shakl va bezak ritmi	Milliy ornament va shaklni his qilish	Naqsh va ritmni kuzatib, eskizga qo‘llash	Xiva yoki Buxoro ornamentlarini ritm va simmetriya bilan chizmoq

2.24-jadval bo‘yicha ilmiy tahlilimiz quyidagicha. Milliy-madaniy merosga

tayangan o'qitish metodi – tasviriy san'at ta'limida madaniyat, tarix, estetika va ijodiy amaliyotni integratsiya qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Bu metod orqali: – o'quvchi milliy identifikatsiyani his qiladi, badiiy obrazlarda o'zlik va tarix ifodalanadi, xalq merosi → yaratuvchanlik manbaiga aylanadi.

Bundan asosiy natija esa: – "Ajdodlar merosi" → "hozirgi ijod" → "kelajak avlod did tarbiyasi" tamoyili amalga oshadi.

Bu metod: – YUNESKO tavsiya etgan "Cultural Heritage in Education" talablariga mos. I.A.Karimov ta'kidlagan: – "Milliy madaniyat – millatning qalbidir". Sh.Mirziyoev siyosatining asosiy yo'nalishi: – "Milliy qadriyatlar – yosh avlod tarbiyasida eng muhim omildir".

Demak, san'at ta'limini milliylikdan ajratib bo'lmaydi.

Milliy-madaniy merosga tayangan o'qitish ijodiy tafakkur, estetik did va milliy o'zlikni bir vaqtning o'zida rivojlantiradi. Nihoyatda muhim natija: – san'at → tarbiya vositasiga aylanadi, o'quvchi o'zini millat davomchisi sifatida his etadi, ijodiy ishlarda milliy ruh aks etadi

Qisqa pedagogik formula ko'rinishida ishlasak: – Milliy nafosat → Badiiy obraz → Shaxsiy pozitsiya → Kamol topgan avlodlar yetishib chiqadi.

5-Bo'lim. Ijodiy yo'naltirilgan metod.

Ijodiy yo'naltirilgan metodning markazida o'quvchi ijodiy sub'ekt sifatida qabul qilinadi. Bu metodda o'quvchi faqat tinglovchi emas, balki yaratuvchi, topuvchi, izlovchi va mustaqil fikrlashga qodir ijodkor sifatida rivojlantiriladi.

Bu yondashuv san'at ta'limoti jarayonida shaxsiy his-tuyg'u, ijodiy tafakkur, estetik did va badiiy obraz yaratish qobiliyatini shakllantiradi.

Endi, bu metodning asosiy qadamlari va ularning mazmunli sharhi bilan tanishamiz.

1). Mavzuga emotsional kirish (suhbat va his-tuyg'u orqali uyg'otish).

Maqsad: O'quvchi mavzuni quruq bilim sifatida emas, balki ichki his va shaxsiy tasavvur orqali qabul qilishi.

Qo'llanish usuli: – suhbat, savol-javob, taassurotlar almashish, asar, tabiat yoki hayotiy vaziyat orqali emotsional muhit yaratish, mavzuga bog'liq musiqa, videolar, san'at namunalarini qo'llash.

Misol uchun aytishimiz mumkin, "Kuz manzarasi" mavzusidan oldin o'qituvchi o'quvchilardan sevimli gulning rangi va hidi haqida tasavvurlashni so'raydi. Ular hissiyot orqali mavzuga kirib boradilar.

2). Obraz haqida erkin izlanish.

Maqsad: O'quvchining individual ijodiy obraz yaratish ko'nikmasini shakllantirish.

Qo'llanish usuli: – mavzu bo'yicha eskizlar, tez qidiruv chiziqlari, simvol, shakl, rang, kompozitsiyada erkin tajribalar, ideyani o'zi topishi uchun imkoniyat berish.

Misol uchun aytishimiz mumkin, "Sevimli bolalik xotiram" mavzusida har bir o'quvchi shaxsiy taassurotga asoslangan obraz yaratadi – kimdir yozgi bog'ni, kimdir buvisining uyini, kimdir bolalik o'yinini tasvirlaydi.

3). Kommentariysiz ijodiy amal.

Maqsad: Ruxiy erkinlik va ijodiy mustaqillikni ta'minlash.

Qo'llanish usuli: – ijod jarayonida o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma ber-

maydi, tanqid va to‘xtatishsiz jarayonga erkin kirish, faqat jarayondan keyin fikr bildiriladi. Nega muhim? Tanqid yoki aralashuv erta bosqichda ijodiy oqimni buzadi.

Misol uchun aytishimiz mumkin, O‘quvchilar rang bilan ishlayotganda o‘qituvchi ularni to‘xtatmaydi, faqat kuzatadi va faol jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi.

4). Asarni birgalikda tahlil va mulohaza.

Maqsad: Badiiy tahlil madaniyatini shakllantirish, estetik fikrlashni tarbiyalash.

Qo‘llanish usuli: – “Menga nima ta’sir qildi?” savoli asosida suhbat, har bir asar yaxshilikka qaratilgan muhitda muhokama qilinadi,– “Fikr bildirish – tanqid qilish emas”, balki ijodiy tafakkurni muharrirlash.

Misol uchun aytishimiz mumkin, galereya ko‘rinishida har bir o‘quvchi o‘z ishi haqida 1-2 daqiqa fikr bildirib, boshqalardan samimiy mulohaza eshitadi.

2.25-jadval.

Ijodiy yo‘naltirilgan metod (Creative-oriented method)

Qadam	Maqsad	Asosiy faoliyat	Natija	Rivojlanadigan kompetensiya
Emotsional kirish	Mavzuga hissiy jalb qilish	Vizual material, musiqa, obrazli suhbat	Ijod uchun ruhiy tayyorgarlik	Emotsional-estetik idrok
Erkin izlanish	Obraz topish va g‘oya tug‘ilishi	Eskizlar, tajriba, shakl qidiruv (sketching)	Individual g‘oya paydo bo‘ladi	Kreativ fikrlash
Izohsiz amal	Ijodiy oqimni to‘xtatmaslik	To‘xtatmasdan amaliy jarayon	Badiiy erkinlik va ichki ifoda	Mustaqil ijod
Mulohaza va tahlil	Estetik fikr va tajriba almashish	Asarni muhokama, avto-refleksiya	Tanqidiy fikr va estetik baholash	Kommunikativ + estetik kompetensiya

Bu metodni ilmiy asoslaymiz va pedagogik qiymati xususida aytib o‘tamiz. Bu metod: – R. Arnheymning “San’at orqali fikrlash” tamoyillariga, V**ы**gotskiyning emotsiya va tafakkur uyg‘unligi nazariyasiga, K. Rodjersning ijodiy erkinlik psixologiyasiga muvofiq ravishda ishlaydi. Ya’ni: – “Avval his → keyin g‘oya → keyin amal → keyin tahlil”. Bu esa ijodiy jarayonning tabiiy psixologiyasidir.

Bu metoddan ko‘tilayotgan pedagogik natijalar: – shaxsiy badiiy pozitsiya shakllanadi, ichki his-tuyg‘ular ifoda qila olish kuchayadi, ijodiy faollikning uzluksizligi ta’minlanadi, badiiy mulohaza va madaniy muloqot rivojlanadi.

Ijodiy yo‘naltirilgan metod – texnik ko‘nikmadangina emas, shaxsning badiiy tafakkuri va ruhiy ifoda qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Bu metod tasviriy san’atni nafaqat o‘qitadi – balki mkammal tushuntirib ham beradi. Metodning markazida o‘quvchi ijodiy sub’ekt sifatida qabul qilinadi.

Demak aytish mumkinki, tasviriy san’at fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish ta’lim mazmunini yangilashning eng muhim omillaridan biridir. Interfaol, innovatsion va raqamli yondashuvlar o‘quvchini faol sub’ekt sifatida shakllantirib, uning badiiy tafakkuri, vizual idroki va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy metodlar natijasida o‘quvchilarda: – kreativ fikrlash, mustaqil

izlanish va qaror qabul qilish, estetik baholash madaniyati, hamkorlikda ishlash, multimedia va vizual aloqa savodxonligi kabi kompetensiyalar shakllanadi.

Bu metodlar tasviriy san'atni faqat texnik ko'nikma emas, balki san'at orqali tarbiyalovchi, ma'naviy-axloqiy rivojlantiruvchi fan sifatida namoyon etadi. Prezident Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish – yangi avlodni ijodkor va mustaqil fikrlovchi etib tarbiyalashning garovidir.

Shu sababli tasviriy san'at darslarida interfaol metodlar: – ko'rish → fikrlash → yaratish → baholash tamoyiliga tayangan holda tashkil etilishi, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiradi.

Pedagogik natija nima bo'ladi? – zamonaviy metodlar tasviriy san'at ta'limini, naqldan – tafakkurga, ko'chirishdan – yaratishga, passivlikdan – ijodiy faollikka yo'naltirishga xizmat qiladi.

2.5-§ Bo'yicha nazorat savollari

1. Zamonaviy pedagogik metodlarga qanday ta'rif berish mumkin?
2. CLIL, STEAM, gamifikatsiya kabi metodlarning tasviriy san'at ta'limidagi o'rni nimada?
3. «Hamkorlikda o'qitish» (collaborative learning) metodining afzalliklari nimalar?
4. Tanqidiy fikrlash texnologiyalaridan foydalanish tasviriy faoliyatga qanday ta'sir qiladi?
5. Raqamli ta'lim vositalari bilan zamonaviy metodlarni uyg'un qo'llashning natijasi nimada namoyon bo'ladi?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Zamonaviy metodlar o'quvchini faol sub'ekt sifatida rivojlantirishda qanday rol o'ynaydi?
7. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun qaysi zamonaviy metodlarni tavsiya qilgan bo'lardingiz?
8. Zamonaviy metodlarning milliy madaniy komponentni singdirishdagi imkoniyatlarini tahlil qiling.

2.6 § Adabiyot manbalarini o'rganish metodikasi

Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilmiy manbalarni o'rganish – bu nafaqat nazariy bilimlarni kengaytirish, balki magistratura talabalarining mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchilarda mavjud nazariy yondashuvlarni o'zlashtirish, ularni amaliyot bilan bog'lash, mavjud ilmiy qarashlarni solishtirish, tahlil qilish va ulardan ilmiy xulosa chiqarish malakalari rivojlanadi. Mazkur jarayon ijodiy fikrlash, manbalarni tanqidiy baholash, yangi ilmiy g'oyalar ilgari surish, shuningdek mustaqil ilmiy pozitsiyani shakllantirish imkonini beradi.

San'at ta'limida foydalaniladigan adabiyotlar keng ko'lamli bo'lib, ular quyidagi toifalarni o'z ichiga oladi: – tasviriy san'at nazariyasiga oid ilmiy tadqiqotlar, didaktik qo'llanmalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, milliy va jahon san'atiga bag'ishlangan monografiyalar, rassomlar ijodi haqidagi ilmiy izohlar, amaliy faoliyatga daxldor katalog va albomlar. Bu manbalar bilan sistemali ishlash, ularning

mazmunini puxta o‘zlashtirish orqali magistr talabalarining bilimlar poydevori mustahkamlanadi.

Ilmiy manbalarni o‘rganish metodikasi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Mavzuga doir adabiyotlarni aniqlash – bibliografik qidiruv, elektron katalog va ilmiy bazalardan foydalanish.

2. Manbalarni tanlash – mazmunning dolzarbligi, ilmiy ishonchliligi, metodologik asoslari bo‘yicha saralash.

3. Analitik o‘qish – asosiy g‘oyalar, muammoli jihatlar, dalillarning ilmiy asoslanganligini tahlil qilish.

4. Taqdim etish va tizimlashtirish – muhim ma’lumotlarni konspektlash, jadval, chizma yoki sxema ko‘rinishida ifodalash.

5. Solishtirish va xulosa chiqarish – turli olim va tadqiqotchilar qarashlarini qiyosiy o‘rganish asosida ilmiy natijalarga erishish.

6. Havolalar va adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish – xalqaro akademik standartlarga (APA, MLA, GOST) muvofiq rasmiylashtirish.

Bunday metodika asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarda ilmiy madaniyatni yuksaltiradi, ularni mustaqil tadqiqot ishlariga yo‘naltiradi va tasviriy san’at pedagogikasi sohasida maqbul ilmiy yondashuvlarni amalda qo‘llashga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy manbalarni puxta o‘rganish orqali magistrlar o‘z ilmiy izlanishlarida dolzarb muammolarni to‘g‘ri belgilash, tadqiqot natijalarini asoslash hamda san’at ta’limi rivojiga o‘z hissasini qo‘sha oladi.

Tasviriy san’at va madaniyat ta’limida ilmiy manbalarni to‘g‘ri va sistemali o‘rganish nafaqat ta’lim-tarbiya sifati, balki ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyot uchun ham muhimdir – bu g‘oyani davlatimiz rahbari va amaliy siyosati ham qo‘llab-quvvatlamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’riflaganidek, «har qanday mamlakat taraqqiyoti sog‘lom va bilimli avlodga bog‘liq». Shu bois, ta’lim tizimini, jumladan san’at, madaniyat va ijodiy ta’lim yo‘nalishlarini ham rivojlantirish – mamlakatning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Davlat siyosatida madaniyat va san’at sohasini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan, shu maqsadda 2020-yil 26 mayda imzolangan UP-6000 Qarori “Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hujjat san’at va madaniyat institutlarini moddiy-tanqidiy va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash, yuqori malakali kadrlar va ijodiy-ilmiy kadrlar tayyorlash asosida milliy san’atni yangi bosqichga olib chiqishni ko‘zlaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, o‘zgarishlar, islohotlar faqat sun’iy emas, balki mazmunan – bilim, ma’naviyat va ijodiy fikr tarbiyalash yo‘li bilan bo‘lishi kerak. Bu san’at ta’limi va ilmiy faoliyatni zamonaviy, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishni anglatadi.

Ilmiy manbalarni o‘rganish natijasida magistrantlar – nazariy bilim, san’at tarixi, xalq an’analari va zamonaviy dizayn, jahon madaniyati bilan solishtirma asosida fikr yuritishni o‘zlashtiradi. Bu doimiy tadqiqot, qiyosiy tahlil, tahlil va yangi ijodiy-ilmiy g‘oyalar yaratish imkonini beradi.

Shu tariq, san’at va madaniyat sohasida ilmiy adabiyotlar, ta’lim-metodik dasturlar va tadqiqotlar to‘plami – davlat tarafidan qo‘llab-quvvatlanadi, rivojlantiri-

ladi va jamiyatda ularni o‘rganish, yaratuvchilik va tadqiqotshunoslikni rivojlantirish islohotlari doirasida joriy qilinadi.

Ilmiy manbalar bilan sistemali ishlash – talaba/magistrda tanqidiy tafakkur, ilmiy-ijodiy pozitsiya, ma’naviy va madaniy ongini shakllantiradi.

Davlat siyosati, san’at va madaniyat islohotlari va ta’lim-metodik reformalar – bu manbalarni o‘z vaqtida va maqsadli ravishda qo‘llashni talab etadi.

San’at ta’limining shunchaki texnika emas, balki ilmiy, madaniy, estetik va ijtimoiy tarbiya berish imkoniyati – bu bandning asosiy maqsadi bo‘lishi kerak.

Bu metodika ilmiy maktabni bilgan, badiiy jarayonni tahlil qila oladigan, pozitsiyasiga ega bo‘lgan san’atshunos shaxsni tayyorlashga qaratilgan.

2.26-jadval.

Metodikaning asosiy tamoyillari

Tamoyil	Mazmuni	Natija
Tizimlilik	Manbalarni bosqichma-bosqich, mantiqan bog‘liq holda o‘rganish	Ilmiy fikrlashning izchilligi va konseptual tafakkur shakllanadi
Tahliliy yondashuv	Har bir ilmiy manba mazmunini tanqidiy tahlil qilish	Mustaqil ilmiy xulosa chiqarish va dalillash ko‘nikmasi rivojlanadi
Qiyosiy yondashuv	Mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, metodlari va nazariyalarini solishtirish	Ilmiy dunyoqarash kengayadi, global ilmiy maktablar haqida tasavvur hosil bo‘ladi
Amaliy integratsiya	Nazariy bilimlarni badiiy va pedagogik jarayonga tatbiq etish	Nazariya va amaliyot uyg‘unlashadi, ijodiy kompetensiyalar yanada mustahkamlanadi
Manbashunoslik madaniyati	To‘g‘ri havola keltirish, bibliografiya tuzish, plagiatga yo‘l qo‘ymaslik	Akademik halollik tamoyillari shakllanadi
Innovatsion yondashuv	Elektron resurslar, raqamli kataloglar, zamonaviy ilmiy bazalardan foydalanish	Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash malakasi ortadi
Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi	Mahalliy madaniy merosni jahon tajribasi bilan uyg‘un o‘rganish	Milliy identifikatsiya va madaniy tafakkur rivojlanadi

Endi, 2.26-jadvalni tahlili qilsak: – Ilmiy manbalarni o‘rganish metodikasining tamoyillariga ilmiy yondashuv. Ilmiy manbalarni o‘rganish metodikasining asosiy tamoyillari – magistratura talabalarining san’atshunoslik sohasida mustahkam nazariy bilim, mustaqil tahlil qilish qobiliyati va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim metodologik poydevor vazifasini bajaradi. Har bir tamoyil o‘quv jarayonida muayyan vazifani ado etadi va jamlanma holda magistrda ilmiy maktabni anglash, yestetik fikrlash, ijodiy tahlil funksiyalarini shakllantiradi.

Tizimlilik tamoyili. Bu tamoyilda manbalar moxiyati bosqichma-bosqich o‘rganiladi. San’at nazariyasi, tarixi va uslubiy maktablarning xronologik ravishda anglanishi → konseptual fikrlashni yuzaga olib keladi. Tizimli yondashuv – tasviriy san’atda har bir voqelikning tarixiy-sababiy aloqadorligini tushunishga yordam beradi.

Tahliliy yondashuv. Talaba har bir adabiyotni tanqidiy ruhda qabul qiladi: – muallif pozitsiyasi, nazariy asos, dalili va xulosasi tajribadan kelib chiqib bahola-

nadi. Bu jarayon: mustaqil ilmiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi.

Qiyosiy yondashuv. Mahalliy va jahon olimlari qarashlarini solishtirish → talaba nazarini faol ilmiy muhitga chiqaradi. Bu usul san'atdagi milliy maktablarning o'rni va ahamiyatini anglashda benihoya muhim. Ushbu tamoyil natijasida glokal (milliy+global) dunyoqarash shakllanadi.

Amaliy integratsiya. Nazariyani amalga tatbiq qilish: – ijodiy ish, laboratoriya mashg'ulotlari, muzey tahlillari ko'rinishida boyitiladi. Bu jarayon badiiy-ijodiy kompetensiyalarni mustahkamlaydi va san'atshunosni amaliy muhitga moslashtiradi.

Manbashunoslik madaniyati tamoyili. Akademik yozish qoidalariga rioya qilish, plagiatdan saqlanish → ilmiy etika va akademik halollik tamoyillarini shakllantiradi. Bu magistrning keyingi ilmiy yo'li uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuv. Qog'ozga emas, balki – raqamli arxivlar, elektron kataloglar, xalqaro ilmiy platformalar orqali bilimni izlash – zamonaviy san'atshunos kompetensiyasi sanaladi. Bu tamoyil magistrning global ilmga tez va ishonchli ulanishini ta'minlaydi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi. Milliy obraz, an'ana, ruhiyat, merosni jahon san'ati kontekstida o'rganish → madaniy identifikatsiyani mustahkamlaydi. Natijada magistr milliy manfaat va jahon ilmiy jarayoniga xizmat qiladigan kadr sifatida kamol topadi.

Tahlilimiz natajasida quyidagicha xulosa qilish imkoni bo'ladi. Ushbu tamoyillar tizimli qo'llanilganda – ilmiy tafakkur, estetik ong, tahliliy fikrlash, amaliy kompetensiya va milliy g'ururga asoslangan kompleks san'atshunos shaxs shakllanadi.

1. Adabiyotlarni o'rganishning bosqichma-bosqich metodikasi, uning tarkibiy qismlari va mazmuni borasida quyida to'xtalib. "Manbalarni tanlash" bosqichining metodik ta'rifi va ahamiyati xususida kengroq ma'lumotlar beramiz.

Bu bosqichning maqsad: – tadqiqot mavzusi bilan mutanosib, dolzarb, ilmiy jihatdan ishonchli, manzilga muvofiq manbalarni saralash, tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlash, "ilmiy poydevor" yaratish, adabiyotlar orqali mavjud muammolar, nazariy-metodik yondashuvlar, amaliy tajribalar va ularning xato/muammolari to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish.

Manba turlari va ularning tadqiqotdagi o'rni – san'atshunoslikda, pedagogika va san'at ta'limida to'g'ri va zarur:

1). Akademik darsliklar va monografiyalar – sohaning fundamental qarashlari, asosiy terminologiya, tarixi va nazariy konsepsiyalarini birlashtirilgan ko'rinishda beruvchi manba.

2). Ilmiy maqolalar (retsenziya qilingan, elektron bazalardan: Scopus, Google Scholar, mahalliy bazalar – Ziyonet, KLex) – eng so'nggi tadqiqotlar, yangi metodlar, aktual muammolar va imkoniyatlarni aks ettiradi. Bu manbalar orqali "talaba/magistr" sohaning hozirgi ilmiy darajasi bilan tanishadi.

3). Muzey kataloglari va san'at albomlari – tarixiy-tarbiyaviy, etnografik, vizual va estetik kontekstdagi manbalar. San'atshunos va pedagog uchun amaliy va nazariy bilimni uyg'unlashtirishda muhim.

4). Me'yoriy hujjatlar (qarorlar, normativ-huquqiy hujjatlar) – san'at ta'limi

va madaniyat siyosati, davlat standartlari, ta’lim tizimi va diniy / madaniy idrok asoslari bilan bog‘liq manbalar. Bu manbalar tadqiqotni jamiyat, davlat va madaniyat konteksti bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Masalan, “Tasviriy san’at ta’limida kompozitsiya” mavzusida B. Boymetov, H. Sultanov, S. Abdirasilov kabi olimlarning monografiya va maqolalari, shuningdek muzey albomlari va san’at ta’limi standartlari (mamlakatimiz hujjatlari) – yaxshi tanlov bo‘ladi.

“Adabiyotlarni tanlash” bosqichida nimaga e’tibor berish kerak?

Tadqiqot maqsadiga aniklik – manbalar siz belgilagan tadqiqot savoli va vazifalariga to‘g‘ri javob berish kerak. Agar mavzudan chetlashilsa, manba samarali emas.

Ilmiy ishonchlilik va manbaning statusi – akademik monografiyalar, retsenziya qilingan jurnal maqolalari, nufuzli muzey kataloglari yoki rasmiy standartlar – ustuvor. Bu jihat “ilmiy xalollik” va “ahamiyatlilik”ni ta’minlaydi[14].

Zamon va geografik doira – mavzudan kelib chiqib, milliy va global kontekstdagi manbalarni imkon darajada keng ravishda ko‘rib chiqish.

Turli manba janrlari – nazariy, empirik, vizual, normativ va arxiv manbalarni muvozanatli qo‘llash. Bu, ayniqsa, san’atni o‘rganishda va estetik tadqiqotlarda muhim[15].

Bibliografik ro‘yxat va manbashunoslik madaniyati – har bir manba haqliqida to‘liq bibliografik ma’lumot, to‘g‘ri havola va manbani tekshirish (yoq, tarix, nashr joyi, avtorlik va h.k.) zarur[16].

Tadqiqot samaradorligini oshirish uchun “Manbalarni tanlash” bosqichi yuzasidan tavsiyalar:

1). Baza va kataloglardan keng foydalanish – ilmiy jurnallar, elektron kataloglar, muzey arxivlari, davlat hujjatlari, amaliy dizayn portfellari.

2). Ko‘p targ‘iblangan manbalar (peer-reviewed) ustuvorligi – bu manbalar sifati, ishonchliligi va jamoatchilik tan olinganligini ta’minlaydi.

3). Manbalar turini aralash tarzda ham tanlash – nazariy, tarixiy, vizual, normativ – bu san’atshunoslikda mukammal kontekst yaratadi.

4). Manbashunoslik madaniyati – har bir manba to‘g‘ri qayd qilinishi, bibliografik ro‘yxat tuzilishi, plagiatdan saqlanish.

5). Mavzuga doimiy aktuallik – ilmiy-ijodiy hayotdagi yangiliklar, ya’ni yangi monografiyalar, maqolalar, muzey nashrlari, numizmatika/etnografiya materiallari va h.k. tadqiqot qobiliyatini kengaytiradi.

2. «Matnni mazmuniy tahlil qilish» bosqichi – metodika, maqsad va ahamiyati borasida ma’lumotlar keltirib o‘tamiz. **«Matnni mazmuniy tahlil qilish»** bos-

14 https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK481583/?utm_source=chatgpt.com «Chapter 9 Methods for Literature Reviews - NCBI - NIH»

15 https://www.researchgate.net/publication/383673610_Writing_your_Literature_Review_for_Arts-Based_Research_Writing_your_Literature_Review_for_Arts-_Based_Research?utm_source=chatgpt.com «Writing your Literature Review for Arts-Based Research ...»

16 https://tuit.uz/en/foydalanilgan-adabiyotlar-royxatini-tayyorlash?utm_source=chatgpt.com «Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tayyorlash»

qichining maqsadi: – manbada berilgan ma’lumotlarni, muallifning asosiy g‘oya va argumentlarini to‘g‘ri anglash, tadqiqot mavzusiga mos maqsad va vazifalarga xizmat qiladigan og‘irlikni (relevance) aniqlash, muallif pozitsiyasi, dalil-asoslari va ularning samaradorligini tanqidiy tahlil qilish, tadqiqotning o‘z mavzusida me’yoriy, nazariy va amaliy majmuaga kiruvchi “intellektual baza”sini shakllantirish.

Metodlar va ularning roli borasida to‘xtalamiz.

Asosiy g‘oya va tushunchalarni ajratish – bu matnning “yuragini” topish, ya’ni asosiy konsepsiya, nazariy g‘oya, muallif nima demoqchi – shuni aniqlash. Bu bosqich – tadqiqotning asosiy tezisini belgilash uchun zarur.

Yarim sahifalik mazmuniy konspekt tuzish – matnni qisqacha, lakonlik bilan qayta ifodalash; bu orqali matnni o‘zgartirmasdan, muallifning fikri va asosiy tezislari yorqin saqlanadi. Konspekt – keyingi tahlil va muhokamalarda tez va qulay manba bo‘lib xizmat qiladi.

Muhim iboralarni (ilmiy-sifatli, tuslovchi, asoslovchi) belgilash – matndagi asosiy jargon, termin, dalil-asoslari va muhim faktlarni ajratib olish. Bu, bir tomondan, matnni tushunishni yengillashtiradi, ikkinchi tomondan, tadqiqotda ulardan iqtiboslar olishni osonlashtiradi.

Shuningdek, savol qo‘llash metodi – bu juda samarali. Masalan: – muallif nima maqsad qilgan? Qaysi dalil va faktlar bilan o‘z g‘oyasini asoslagan? Dalillar qanchalik ishonchli, ularning kuchli va zaif tomonlari nima? Bu savollar orqali matn taniqli va tanqidiy tahlilga uchraydi va shu tariqa tadqiqotchining fikriy pozitsiyasi shakllanadi.

Natija va tadqiqot uchun ta’siri shundaki, bu bosqich – tadqiqotchiga manbani “faol o‘quvchi” sifatida qabul qilish, uni oddiy majmua emas, ilmiy-fikriy dialog sifatida ko‘rish imkoniyatini beradi. Matnni mazmuniy tahlil qilish – tadqiqotda nufuzli, asosli, dalillashgan bazani yaratadi; bunday baza ustidan – mukammalcha teoriya, xulosa va tavsiyalar chiqsa, ular yanada kuchli va ishonchli bo‘ladi.

Shuningdek, bu metodika – ilmiy etika va manbashunoslik madaniyatini tarbiyalashda ham muhim: muallif fikri va haq-huquqlari hurmat qilinadi, plagiatdan saqlaniladi.

3. Qiyosiy tahlil. Turli mualliflar va tadqiqotchilarning bir mavzuga nisbatan yondashuvlarini tahlil qilish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash orqali san’at ta’limi metodikasining nazariy va amaliy asoslarini anglash.

2.27-jadval.

Qiyosiy tahlilning mezonlari

Muallif / Asar nomi	Yondashuv turi va metodologiya	Asosiy g‘oya	Kuchli tomonlari	Cheklov va zaif tomonlari	Qaysi sharoitda mos (qo‘llanilishi)
A. Sulaymonov – “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi”	Amaliy-pedagogik	Mashg‘ulot jarayonida amaliy malaka rivojlanishi	Amaliy misollar ko‘p, metodik ko‘rsatmalar aniq	Individual yondashuv kam yoritilgan	Boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichlarida samarali

B. Boymetov – “Kompozitsiya asoslari”	Nazariy-estetik va konseptual	Kompozitsion markaz, g‘oya va dinamika nazariyasi	Tahlil chuqur, san’at nazariyasi rivojlanadi	Amaliyotga moslashtirishda qiyinchilik	Oliy ta’lim va ijodiy laboratoriya mashg‘ulotlarida ma’qul
S. Abdirasilov – “San’at psixologiyasi”	Estetik-psixologik va ilmiy-ijtimoiy	San’atning ruhiy-idrokiy ta’siri	Shaxsiy idrok, emotsional tafakkurni ochadi	Texnologik-amaliy ko‘rsatmalar kam	Ijodiy tafakkur va estetik tarbiyada ustun
H. Sultanov – San’at ta’limining didaktik asoslari	Didaktik-metodik	Ta’lim jarayonini mantiqiy tizimlash	Metodlar yaxshi tizimlashgan	Nazariy asos yetishmaydi, chuqur tahlil kam	Ta’lim dasturini tuzishda muhim
M. Raximov – San’at nazariyasi va tarixi	Tarixiy-nazariy	Milliy san’at merosi asosida o‘qitish	Madaniy identifikatsiya rivojlanadi	Zamonaviy tendensiyalar kam yoritilgan	Milliy an’anaviy san’at mashg‘ulotlarida muhim

Endi, 2.27-jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlilning ilmiy-metodik izohi xususida tushunchalar beramiz. Qiyosiy tahlil san’atshunosga: – turli metodologik maktablarni anglash, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rish, qay yondashuv qay sharoitda samarali ekanini belgilash, mustaqil ilmiy pozitsiya shakllantirish imkonini beradi.

Bu metodik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish shunga olib keladiki: – San’at ta’limi faqat nazariya yoki faqat amaliy ko‘nikma emas – balki psixologik, didaktik va madaniy omillar uyg‘unligida samara beradi.

Shuningdek: A. Sulaymonov – amaliy yo‘nalishda kuchli → dars jarayonida;

B. Boymetov – estetik-nazariy maktabni mustahkamlaydi → oliy ta’limda;

S. Abdirasilov – ruhiy tarbiya va individual idrokni kuchaytiradi → ijodiy guruhlarda;

H. Sultanov – dastur va metodik tizimga asos → ta’lim boshqaruvida;

M. Raximov – milliy merosga tayangan → madaniy identitetni shakllantirishda.

Talaba natijasi (kompetensiyalar). Bu tahlilni bajargan magistrantda:

Analitik fikrlash	Har bir nazariy maktabni tanqidiy tushunish
Ilmiy pozitsiya	Qaysi yondashuv qaysi sharoitda samaraliroq – aniq belgilash
Pedagogik mahorat	O‘qitishda mos metod tanlash
Estetik dunyoqarash	Milliy – global bilim uyg‘unligi

Demak, eng samarali model – barcha yondashuvlarni integratsiya qilgan kompleks metodik tizimdir. Bu yo‘l orqali zamonaviy va milliy san’atshunos-pedagog kadr tayyorlanadi.

4. Olingan bilimni amaliyotga tatbiq qilish metodikasi va uning maqsadi: – Magistr talabada nazariy bilimlarni amaliy jarayonga integratsiya qilish, ijodiy tahlil va badiiy fikrlashni shakllantirish, san’atshunoslik kompetensiyalarini amaliyotda namoyon etish.

Olingan bilimni amaliyotga tatbiq qilish metodikasi vazifalari: – nazariy manbalarni amaliy kompozitsiya jarayoniga tatbiq etish, ijodiy loyiha va individual izlanishni rivojlantirish, tahliliy xulosalar asosida ijodiy yechim topish, seminar, munozara, taqdimot orqali nutq madaniyati va ilmiy pozitsiyani mustahkamlash.

2.28-jadval.

Amalga oshirish shakllari

Faoliyat turi	Mazmuni	Rivojlanadigan kompetensiya
Kompozitsion etyud	Nazariy qoidalar asosida amaliy ish bajarish	Badiiy fikrlash, tasviriy texnika
Ijodiy loyiha	Tanlangan manba/fikr asosida vizual natija yaratish	Mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy tafakkur
Tahliliy referat	3-5 ta manbani solishtirma tahlil	Analitik fikrlash va ilmiy xulosa
Seminar-munozara	O‘z ishini himoya qilish va asoslash	Nutq madaniyati, argument keltirish
Muzey-amaliy dars	Asarlarni “jonli” tahlil etish	Estetik idrok, san’at tarixini anglash

Endi, 2.28-jadval tahlili. Amaliy usullar tizimi – magistr talaba bilimlarining amaliy jarayonda namoyon bo‘lishini ta’minlaydigan asosiy mexanizm hisoblanadi. Bu usullar nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustaxkamlab, ta’lim samaradorligini oshiradi.

2.28-jadvalda keltirilgan har bir faoliyat turi:

1). Aniq maqsadga yo‘naltirilgan – har bir shakl muayyan kompetensiyani rivojlantiradi;

2). Integrativ xususiyatga ega – san’at tarixi, psixologiyasi, pedagogikasi va amaliy badiiy jarayon bir butun jarayon sifatida uyg‘unlashadi;

3). Talaba subekt sifatida jarayon markazida bo‘ladi – bilim yagonalashtirilmaydi, balki talabaning o‘zi tomonidan qayta yaratiladi;

4). Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlarini qamrab oladi: – tahlil → baholash → yaratish;

5). Oliy ta’limda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiradi: – tanqidiy tafakkur, ijodiy mustaqil pozitsiya, kommunikativ va taqdimot madaniyatlarini.

Tadqiqot va kasbiy rivoj uchun ahamiyatli tomoni shundaki, bu usullar – talabaning nazariy bilimlarni real badiiy jarayonga tatbiq etish, ijodiy izlanish orqali san’atshunos-pedagog sifatida shakllanishi uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Amaliyotga yo‘naltirilgan ushbu faoliyatlar natijasida magistr: – nazariy bilimni qo‘llay oladi, ijodiy qaror qabul qiladi, ilmiy fikrni himoya qiladi, milliy va jahon san’ati tajribasidan xabardor bo‘ladi.

Demak, kompozitsiya – ijod – tahlil – munozara – tajriba bu beshlik magistrantda san’atshunos pedagog uchun zarur professional kompetensiyalarni kompleks ravishda rivojlantiradi.

Tasviriy san’at ta’limda adabiyot manbalarini o‘rganish metodikasi – magistrantlarning ilmiy-amaliy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan kompleks pedagogik jarayondir. Ushbu metodika orqali talaba manbalarni izlab topish, saralash, mazmunan tahlil qilish, qiyosiy baholash va ulardan amaliy foydalanish orqali ilmiy maktabni anglaydi, mustahil tadqiqot olib borish qobiliyatini rivojlantiradi.

Manbalar bilan sistemali ishlash – nafaqat nazariy bilimni chuqurlashtiradi,

balki amaliy jarayonda o'z g'oyasini ilmiy asoslashga, kompozitsion yechimlarni ilmiy tadqiqot natijalari bilan bog'lashga xizmat qiladi. Shu tariqa talaba bilim oluvchi emas, balki bilish jarayonini yaratuvchi subekt sifatida shakllanadi.

Prezident qarorlarida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda san'at va madaniyat sohasini rivojlantirish, ijodiy fikrli kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Demak, adabiyotlar bilan ishlash madaniyati va ilmiy tahlil kompetensiyasi – san'atshunos-pedagogning kasbiy yetukligini belgilaydigan muhim mezondir.

Umuman olganda, adabiyot manbalarini o'rganish metodikasi, nazariya → tahlil → qiyos → tatbiq → ijodiy natija zanjiri asosida magistrantda zamonaviy va milliy ilmiy fikrni uyg'un rivojlantiradi. Natijada magistrant: – tanqidiy-tahliliy tafakkurga ega bo'ladi, milliy va jahon san'ati haqida chuqur tasavvur hosil qiladi, amaliy badiiy qarorlarni ilmiy asoslay oladi, mustaqil ilmiy pozitsiyaga ega san'atshunos-pedagog sifatida kamol topadi.

2.6-§ Bo'yicha nazorat savollari

1. Adabiyot manbalarini o'rganish metodikasi deganda nima tushuniladi?
2. Tasviriy san'at ta'limida ilmiy manbalar bilan ishlash nima uchun muhim?
3. Manba tanlashda qanday ilmiy talablariga amal qilinadi?
4. Bibliografik tahlil (adabiyotlar sharhi) qanday maqsadga xizmat qiladi?
5. Adabiyot manbalarini o'rganish jarayonida konspektlash va tizimlashtirishning ahamiyati nimada?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Internet manbalaridan foydalanishda ishonchlilik mezonlarini sanab bering.
7. Adabiyot manba tanlashda milliy va xorijiy tadqiqotlarni integratsiyalashning afzalliklari nimada?
8. Sizningcha, san'atga oid manbalarni o'rganish o'quvchining badiiy tafakkuriga qanday ta'sir qiladi?

2.7 § Pedagogik amaliyotda dalillar yig'ish metodikasi

Pedagogik amaliyot – bu magistr uchun nazariy bilimlarni amaliyotda sinab, tahlil qilish, xulosa chiqarish va ustida ishlash jarayonidir. Shu bois magistr faqat dars o'tmaydi, balki asoslangan dalillar yig'adi, taqqoslaydi va baholaydi. Dalillar nafaqat o'quvchi ishini, balki o'qituvchining metodi samaradorligini ham ko'rsatadi.

Pedagogik amaliyotda dalillarni yig'ishning asosiy maqsadlari:

1. Ta'lim jarayonining samaradorligini, holat va tendensiyalarini aniqlash;
2. O'quvchilarni badiiy fikrlashi, vizual anglash va ijodiy faolligi, qiziqishi va o'zlashtirish dinamikasini o'rganish hamda baholash;
3. O'quv jarayonida qo'llanilgan pedagogik metodlarning samaradorligini baholash metodlarning qiymatini tadqiq etish;
4. Ta'limdagi muammolar va imkoniyatlarni baholash, darsning qaysi bosqichida o'quvchida qiyinchilik paydo bo'lishini aniqlash.

Endi, pedagogik amaliyotda dalillar yig'ishning asosiy vositalarini quyidagi jadval asosida tahlil qilib chiqamiz.

2.29-jadval.

Dalillar yig‘ishning asosiy vositalari

Vosita	Qo‘llanilish maqsadi	Misol
Kuzatuv varag‘i	O‘quvchining amaliyotdagi harakatini baholash	O‘quvchi rang tanlashda mustaqilmi?
Asar tahlili protokoli	Asarni badiiy jihatdan baholash	Kompozitsiya markazi aniqmi?
Suhbat (intervyu)	Ijodiy fikrlash va bayon qobiliyatini aniqlash	“Nima uchun ana shu obrazni tanlading?”
Foto/video materiallar	Jarayonni qayta tahlil qilish	Darsda qo‘llangan metodning ta’siri
Refleksiya yozuvlari	Tafakkur dinamikasini kuzatish	“Men bugun nimaga erishdim?”

5 Ballik baholash me’yori (Vizual-tafakkur va badiiy tahlil kompetensiyasi)

2.30-jadval.

Ball	Tafsir	O‘quvchida kuzatiladigan belgilar
5 – Yuqori daraja	Hissiyot, g‘oya, kompozitsiya va rang yechimi asosli bayon qila oladi	Asar haqida erkin va mantiqiy so‘zlaydi, obrazni asoslaydi
4 – Yaxshi daraja	Asar haqida qisman mustaqil fikr ayta oladi	Rang va obraz tanloviga qisman izoh beradi
3 – O‘rtacha daraja	Asardagi elementlarni sanaydi, lekin mazmunni ochish qiyin	“Bu daraxt, bu osmon…” kabi tavsifda qoladi
2 – Past daraja	Fikrlari mavhum, obrazli yechim yo‘q	Asarga munosabati noaniq, “Bilmayman” degan javoblar
1 – Juda past daraja	Asarni tushuntirishga harakat ham qilmaydi	Tasvirlashda ham, bayonda ham passiv

Amaliy qo‘llash misoli.

Mashg‘ulot mavzusi: “Gul to‘plamini akvarelda tasvirlash”.

1. O‘quvchilar rasm chizadi.

2. Har bir o‘quvchidan quyidagi savollar so‘raladi: – nima tasvirladingiz? Nega shunday ranglar tanladingiz? Siz uchun asarning asosiy hissi nima?

3. Javoblar yozma yoki audio holda olinadi.

4. Quyidagi 5 ballik jadval asosida baholanadi.

Natija tahlili (magistr xulosasi):

5-4 ball olgan o‘quvchilar rang hissini yaxshi o‘zlashtirgan.

3-2 ball olganlarda kompozitsiya markazini topishda qiyinchilik bor.

1 ball olgan o‘quvchida emotsional kirish yetmaydi → emotsional musiqa/ badiiy obrazli suhbat kiritish kerak.

2.31-jadval.

Magistrlar uchun tadqiqot vazifalari (amalda bajarish uchun)

Qadam	Topshiriq	Natija
1	Bir dars jarayonini videoga olish	Metod samaradorligi haqida dalil

2	5 o‘quvchi asarini yuqoridagi shkalada baholash	Tahlil asosida real diagramma tuzish mumkin
3	Bitta o‘quvchi bilan suhbat o‘tkazish	Badiiy fikrlash dinamikasini ochish
4	Refleksiya yozish	Magistr o‘z metodining kuchli va sust joyini anglaydi

Pedagogik amaliyotda dalillar yig‘ish magistr-o‘qituvchining nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rishi, tahlilga doimiy yondashuvni shakllantirishi va mustaqil tadqiqot olib borish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Dalillar (empirik ma’lumotlar) o‘quv jarayonida sodir bo‘ladigan voqelikni haqqoniy aks ettirishi va ilmiy xulosalar berish imkonini yaratishi lozim.

2.32-jadval.

Dalillar yig‘ish jarayoni (izchil bosqichlarda)

Bosqich	Amaliy harakat	Magistr uchun topshiriq misoli
1. Rejalashtirish	Qaysi ma’lumotlar kerakligini aniqlash	“O‘quvchilarda kompozitsiya tuzish kompetensiyasi qanchalik shakllangan?” savolini asos qilib olish
2. Asboblarni tayyorlash	Kuzatuv varag‘i, so‘rovnoma, baholash mezonlarini tayyorlash	“O‘quvchining badiiy fikrlash faolligi” baholash shkalasi
3. Ma’lumot yig‘ish	Dars jarayonida yoki undan tashqari dalillar to‘plash	Dars jarayonini 2 marotaba videoga olish
4. Tahlil qilish	Ma’lumotlarni taqqoslash, diagrammalarda ko‘rsatish	“Darsdan oldin-darsdan keyin” test natijalarini solishtirish
5. Xulosa va tavsiyalar	Samaradorlik va muammolarni aniqlash	“O‘quvchilarni guruhda ishlashga o‘rgatishda vizual ishoralardan foydalanishni kuchaytirish kerak” degan tavsiya ishlab chiqish

Magistrlar uchun amaliy topshiriqlar:

1. Kuzatuv varag‘i tuzing va uni 2 ta darsda qo‘llang.
2. Kamida 3 nafar o‘quvchi bilan mini-intervyu o‘tkazing.
3. “O‘quvchilarning ijodiy faol petitivligi” mavzusida 5 pog‘onali baholash mezoni yarating.
4. Tahlil natijalarini jadval yoki diagramma ko‘rinishida ifodalang.

Magistrlarimiz uchun qiziqarli shaklda tadqiqot olib borish uchun tavsiyalar beramiz, Misol uchun: – dars jarayonini telegram kundaligi ko‘rinishida yuritish (skrinshot, qisqa izoh, xulosa), o‘quvchilarning ijodiy ishlarini “Rivojlanish galereyasi” tarzida taqqoslab tahlil qilish, har darsdan so‘ng 2 daqiqalik refleksiya audioyozuvi tayyorlash.

Kuzatuv varag‘i (Magistratura – Pedagogik amaliyot)

Dars mavzusi: _____

_____

Sana: “_____” _____

Sinf: “_____”
O‘qituvchi (amaliyotchi): _____
Pedagog-nazariy rahbar: _____

2.33-jadval.

1. Dars maqsadining aniqligi va asoslanishi (Indikatorlar)

Indikator	Baho (1-5)	Izoh
Maqsad Davlat ta’lim standartiga mos		
Maqsad kompetensiyaga yo‘naltirilgan		
Dars rejasi va mavzusi o‘zaro uyg‘un		
Darsning kutilgan natijalari aniq bayon qilingan		

2.34-jadval.

2. Dars tuzilishi va metodik qo‘llanma

Indikator	Baho (1-5)	Izoh
Darsning mantiqiy ketma-ketligi		
Dars bosqichlarining oqilona vaqt taqsimoti		
Tushuntirish uslubining ravon va aniqligi		
Savol-javobning samaradorligi		
Misol va ko‘rgazmalarning o‘rinli qo‘llanilishi		
Mavzu amaliyot bilan bog‘langan		
O‘quv materiallarining fanlararo integratsiyasi		

2.35-jadval.

3. Ko‘rgazmali va raqamli vositalardan foydalanish

Indikator	Baho (1-5)	Izoh
Vizual vositalarning mazmunga mosligi		
Texnik vositalardan to‘g‘ri foydalanish		
Raqamli platformalar qo‘llanilganligi		
Interaktivlik darajasi		

2.36-jadval.

4. O‘quvchilar faolligi va ijodiy fikrlash

Indikator	Baho (1-5)	Izoh
O‘quvchilar ishtirokining umumiy faolligi		
Mustaqil fikr bildirish qobiliyati		
Ijodiy yechimlar taklif etish qobiliyati		
Guruhda ishlash madaniyati va hamkorlik		
Topshiriqlarni bajarish intizomi		
Real ob’ektni kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmasi		

2.37-jadval.

5. Pedagogik muloqot va psixologik muhit

Indikator	Baho (1-5)	Izoh
O‘qituvchi nutqining ta’sirchanligi		
Muloqotda ochiqlik va qo‘llab-quvvatlash		
Pozitiv va bag‘rikeng psixologik muhit		
Qiynalayotgan o‘quvchiga individual yordam		

6. Dars samaradorligi haqida umumiy xulosa

Intervyu savollari (Psixologik + Metodik)

1. Darsda olingan bilimingizni real hayotda qayerda qo‘llashingiz mumkin?
2. Darsdagi muloqot muhiti sizda qanday emotsional holat uyg‘otdi?
3. Topshiriq bajarishda sizga qaysi bosqich yengil yoki qiyin bo‘ldi? Nima sababdan?
4. O‘qituvchi faolligi sizda ijodiy fikrlashni qanday darajada uyg‘otdi?
5. Agar siz shu darsni o‘tganingizda, qaysi elementni kuchaytirgan bo‘lardingiz?

2.38-jadval.

Baholash shkalasi (5 ballik)

Ball	Ta’rif
5 (yuqori)	Dars yuqori metodik darajada tashkil etilgan, ijodiy va faol muhit yaratilgan
4 (yaxshi)	Dars samarali, ammo ba’zi metodik nuqsonlar mavjud
3 (qanoatlanarli)	Dars bajarilgan, lekin ijodiy va faollik yetarli emas
2 (past)	Tushuntirishda va faoliyatda jiddiy kamchiliklar bor
1 (juda past)	Dars maqsad va natijalarga erishmagan, metodika qo‘llanilmagan

Demak aytish mumkinki, pedagogik amaliyotda dalillarni to‘g‘ri yig‘ish metodikasi magistrantning real ta’lim muhitidagi jarayonlarni ilmiy tadqiq etish qobili-

yatini yuksaltiruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon orqali talaba ko‘zlash, qayd etish, tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish kabi tadqiqot amallarini amalda qo‘llaydi.

Dalillar yig‘ishning ilmiy asosda tashkil etilishi ta’lim jarayonida paydo bo‘ladigan voqealar, pedagogik usullar va o‘quvchi faolligini hujjatlash va ular asosida ob’ektiv natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Metodikaning markaziy vazifasi – pedagogik tajribani nazariy bilim bilan uyg‘unlashtirishdir. Ya’ni, magistrant san’at ta’limidagi ilmiy g‘oya va metodik yondashuvlarni amaliyotda tekshirib, o‘z ixtiyoriy ilmiy pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga bu jarayon akademik halollik va tadqiqot etikasini ta’minlaydi, chunki har bir dalil real kuzatuv yoki amaliyot natijalariga tayanadi. Umuman olganda, dalillar yig‘ish metodikasi magistrantni nazariy bilimga suyangan, amaliyotga asoslangan, tahliliy fikrga ega ilmiy-ijodiy mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Natijada magistrantda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi: – pedagogik jarayonni ilmiy tahlil qilish, mantiqiy-dalillashgan xulosalar chiqarish, san’at ta’limida zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanish, innovatsion va samarali pedagogik qaror qabul qilish. Bu esa oliy ta’lim tizimida san’atshunos-pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

2.7-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Pedagogik amaliyotda dalil (empirik ma’lumot) tushunchasi nima?
2. Dalillar yig‘ish metodikasi qaysi tadqiqot usullariga tayanadi?
3. Kuzatish usuli orqali olingan ma’lumotni qanday talablar asosida qayd etish kerak?
4. Suhbat va anketa metodlari dalillar yig‘ishda qanday o‘rin tutadi?
5. O‘quvchilarning ijodiy ishlarini baholash orqali dalil yig‘ishning afzalliklari nimada?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Dalillarning ishonchliligi va haqqoniyligini ta’minlash uchun qanday mezonlar kerak?
7. Tasviriy san’at dars jarayonida dalillar yig‘ishda uchraydigan muammolar va ularning yechimlarini keltiring.
8. Dalil yig‘ish natijalari pedagogik jarayonni takomillashtirishga qanday xizmat qiladi?

2.8 § Tasviriy san’at bo‘yicha o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar

Mazkur bo‘lim umumiy o‘rta ta’limning 5-7-sinflarida tasviriy san’at fanini o‘qitishda o‘quvchilarning erishishi zarur bo‘lgan eng kam bilim, ko‘nikma va kompetensiya mezonlarini belgilaydi. Minimal talablar Davlat ta’lim standarti (DTS), fan dasturi mazmuni, badiiy-amaliy faoliyat talablari hamda yoshlarning individual-psixologik xususiyatlariga asoslanadi.

1. 5-7-sinflar o‘quvchilarining bilimiga oid minimal talablar. O‘quvchilar quyidagi nazariy tushunchalarni bilish va izohlab bera olishlari kerak:

– tasviriy san’atning asosiy janrlari: – natyurmort, peyzaj, portret, mavzuli (syujetli) kompozitsiyalar;

– rangshunoslik asoslari: – asosiy va qo‘shimcha ranglar, ranglar uyg‘unligi (garmoniya), kolorit, rangning ifodaviylikda tutgan o‘rni;

– kompozitsiya qonunlari: – markaz, o‘lcham mutanosibligi, muvozanat, ritm, butunlik;

– perspektiva elementlari: –yaqin-uzoqlik, gorizont chizig‘i, qarash nuqtasi, predmetlarning fazodagi joylashuvi;

– san’atshunoslikka oid asosiy atamalar: – kompozitsiya, siluet, kolorit, kontrast, dekorativlik, dinamika va boshqalar;

– badiiy asarlarni tahlil qilishda oddiy baholash mezonlari: – mavzu, g‘oya, koloristik yechim, kompozitsion tuzilish haqida fikr bildirish.

2. 5-7-sinflar o‘quvchilarining ko‘nikmalariga oid minimal talablar. O‘quvchilar quyidagi amaliy faoliyat malakalariga ega bo‘lishlari kerak:

– grafika va rangtasvirda oddiy shakl va buyumlarni tasvirlay olish;

– geometrik shakllardan murakkab predmetlar tuzish, ularning proporsiyasini to‘g‘ri aks ettirish;

– predmetlarni yorug‘-soya vositasida hajmli tasvirlash;

– oddiy kompozitsion yechim yaratish: – markazni topish, muvozanatga rioya qilish;

– peyzaj, natyurmort va portretning boshlang‘ich tasviriy topshiriqlarini bajarish;

– guash, akvarel, qalam, pastel kabi asosiy badiiy vositalar bilan ishlash texnikasiga amal qilish;

– bezash va dekorativ tasvirlarni yaratishda milliy naqsh elementlaridan to‘g‘ri foydalanish;

– rasmni toza, estetik va madaniy bajarish malakasiga ega bo‘lish.

2.39-jadval.

O‘quvchi quyidagi amaliy malakalarni eng kam darajada egallashi shart

Yo‘nalish	Minimal amaliy talab
Natura tasviri	Bitta yoki bir nechta predmetdan sodda natyurmort tuzib chizish
Rangtasvir	Guash yoki akvarelda oddiy yorug‘-soya ajratishni qo‘llash
Kompozitsiya	Berilgan mavzuda oddiy badiiy hikoyali tasvir tuzish
Kuzatish asosida tasvirlash	Real ob’ektni kuzatib asosiy shakl va nisbatlarni topa olish

2.39-jadvalga qisqacha izoh beramiz. Mazkur jadval o‘quvchilarning tasviriy faoliyat jarayonida egallashi zarur bo‘lgan eng kam amaliy malaka mezonlarini belgilab beradi. Talablar o‘quvchilarning yosh davri psixologik xususiyatlari, Davlat ta’lim standarti va fan dasturi mazmunidan kelib chiqib shakllantirilgan.

Amaliy talablarda quyidagi yo‘nalishlar asosiy hisoblanadi: – natura tasviri orqali real shakl va fazoni idrok etish, rangtasvir mashqlari orqali yorug‘-soya, rang uyg‘unligi va koloritni his etish, kompozitsiya tuzish orqali badiiy fikrni ifodalash va tasviriy g‘oyani joylashtira olish, kuzatish asosida tasvirlash orqali proporsiya, shakl tahlili, konstruktiv fikrlashni rivojlantirish.

Ushbu talablar o‘quvchilarda: – kuzatish madaniyati, qo‘l motorikasi, badiiy tafakkur, ijodiy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, minimal talablar: – o‘quvchini san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil ijodiy faoliyatga jalb qilish, tasviriy san’atning keyingi bosqichlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zarur tajriba va amaliy poydevor yaratadi.

2.39-jadval – o‘quvchining tasviriy san’at bo‘yicha boshlang‘ich amaliy tayyorgarlik darajasini baholash uchun asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur bo‘lim o‘quvchilarning tasviriy faoliyat jarayonida egallashi zarur bo‘lgan eng kam amaliy malakalarni belgilab beradi. Talablar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hamda fan dasturi mazmunidan kelib chiqib shakllantirilgan bo‘lib, ularning kuzatish asosida tasvirlash, rang bilan ishlash, kompozitsiya tuzish va natura asosida rasm chizish bo‘yicha boshlang‘ich malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, ushbu talablar o‘quvchini san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ijodkorlik faoliyatiga jalb etish va tasviriy san’atning keyingi bosqichlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga zamin yaratadi.

3. 5-7-sinflar o‘quvchilarining kompetensiyalariga oid minimal talablar. O‘quvchilar mazkur fan orqali quyidagi kompetensiyalarni namoyish eta olishlari kerak:

– badiiy-estetik kompetensiya: – san’at asarlarini idrok etish, ularga shaxsiy munosabat bildirish;

– ijodkorlik kompetensiyasi: – mustaqil badiiy fikrlash, original tasvir yaratishga intilish;

– amaliy faoliyat kompetensiyasi: – badiiy vositalarni ongli tanlash va qo‘llash;

– kommunikativ kompetensiya: – ijodiy jarayonda tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlash, ish natijalarini taqdim etish;

– madaniy merosni qadrlash kompetensiyasi: – milliy va jahon san’ati namunalarini hurmat qilish, ular haqida fikr bildira olish.

4. Ijodkorlik va tasviriy ifoda malakalari. Mazkur bo‘lim o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, badiiy tasavvur va ifodaviylik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan minimal talablarni belgilab beradi. Tasviriy san’at darslarida ijodkorlikni rivojlantirish – o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, original g‘oya yaratishi va san’at orqali shaxsiy munosabatini ifodalay olishini ta’minlaydi. Bu jarayon ular ongida estetik did, san’atni anglash madaniyati va kommunikativ kompetensiyaning kuchayishiga xizmat qiladi.

O‘quvchi quyidagi ijodiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur:

– tasavvur etgan obrazni sodda chiziqlar va ranglar asosida badiiy ifodalash;

– berilgan yoki mavjud tasvirni ijodiy qayta talqin qilish va o‘ziga xos uslubda yakunlash;

– ijodiy topshiriqlarni bajarishda mustaqil qaror qabul qilish va yechim tanlash;

– badiiy fikrini asoslay olish, ya’ni g‘oya va kompozitsion yechimni og‘zaki yoki rasm orqali izohlash;

– mavzuni emotsional va badiiy ifodalashga intilish;

– ijodiy jarayonda estetik tamoyillarga rioya qilish.

Ijodkorlik malakalari o‘quvchilarning tasviriy faoliyatida qanday kechishini qisqacha ilmiy-metodik izohlab berishga harakat qilamiz: – tahlil qilish, solishtirish, tasavvur qilish, muammo yechish kabi aqliy jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, ular shaxs sifatida o‘z fikrini erkin bayon qilish va milliy boy merosga hurmat bilan yondashishni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

5. Baholash mezonlari (5 ballik tizimda).

Mazkur baholash mezonlari tasviriy san’at bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va ijodkorlik darajasini aniqlashga qaratilgan. Baholash jarayonida nafaqat rasmning texnik bajarilishi, balki kompozitsion yechim, rang uyg‘unligi, ijodiy g‘oya va estetik ifoda darajalari ham inobatga olinadi.

Baholash mezonlari o‘quvchining individual rivojlanish sur’atini xisobga olgan holda, uning san’atni idrok etishidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniq ko‘rsatib beradi. Bu tartib o‘qituvchiga: – o‘quvchilarning badiiy-tafakkur rivojlanish darajasini baholash, ularning rivojlanish uchun yangi maqsadlar belgilash, baholashda xolislik va aniqlikni ta’minlash kabi vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

2.40-jadval.

Baholash mezoni

Ball	Talab darajasi	Tasvir tavsifi
5	Yuqori	Kompozitsiya muvozanatli, proporsiya to‘g‘ri, rang uyg‘un; ijodiy yondashuv sezilarli
4	Yaxshi	Asosiy talablar bajarilgan, mayda kamchiliklar mavjud
3	Qoniqarli	Shakl va rang asoslari bor, lekin proporsiya va ijodiy ifodada kamchiliklar ko‘p
2	Past	Tushuncha va amaliy usullar yetarli emas, rasmda noto‘g‘riliklar ko‘p
1	Juda past	Topshiriq bajarilmagan yoki mavzu tushunilmagan

2.40-jadvalimiz bo‘yicha qisqacha izoh beramiz:

5-4 ball – o‘quvchi tasviriy san’at bo‘yicha amaliy va ijodiy ko‘nikmalarni yaxshi egallagan, mustaqil ishlay oladi va g‘oya yo‘nalishini to‘laqonli ifodalay oladi.

3 ball – boshlang‘ich malakalar mavjud, lekin qo‘llab-quvvatlash va qo‘shimcha mashqlar talab qilinadi.

2-1 ball – asosiy tushunchalar yetarli darajada shakllanmagan, o‘quvchiga differensial yondashuv va qayta o‘rganish zarur.

Demak, baholashning ushbu tizimi o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradi, ularda o‘zlashtirish jarayonini monitoring qilish va kelgusida natijani oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu minimal talablar 5-7-sinf tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarda badiiy tasavvur, kuzatish madaniyati, rang hissi, ijodiy fikrlash va tasviriy malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi ushbu talablar asosida: – dars maqsadi va mazmunini rejalashtiradi, baholash shkalasini aniq mezonlarga tayanadi, ijodiy faoliyatni shaxsiy yondashuv orqali rag‘batlantiradi.

6. Amaliy topshiriqlar namunalari. Ushbu topshiriqlar umumiy o‘rta ta’limn-

ing 5-7-sinflari tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda kuzatish ko'nikmasi, rang idroki, fazoviy tasavvur va ijodiy ifoda malakalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan. Mashqlar murakkablik darajasi o'quvchi rivojlanishiga mos holda oshib boradi. Amaliy topshiriqlar quyidagilarni qamrab oladi:

1). Oddiy shakllardan predmet tasviri: – o'quvchi stol ustidagi predmetni geometrik shakllarga ajratgan holda tasvirlaydi, proporsiyalarni to'g'ri topish, shaklning badiiy talqinini berish talab qilinadi.

2). Mini-natyurmort: – 2-3 predmetdan sodda kompozitsiya tuzish, rang uyg'unligi, yorug'-soya ajratish, kompozitsiya markazini aniqlashga yo'naltiriladi.

3). Rang kontrasti mashqi: – bitta asosiy rangning qo'shimcha rang bilan kontrastini yaratish, rangning ifodaviyligi va emotsional ta'sirini sezish malakasini rivojlantiradi.

4). Ijodiy mini-loyihalar: – berilgan mavzu bo'yicha qisqa vaqt ichida g'oyaga ega tasvir yaratish, keyinchalik guruh oldida taqdimot qilib, o'z ijodiy fikrini asoslab berish.

7. Nazariy asoslar. Ushbu metodik yondashuvning ilmiy-nazariy asosi quyidagi pedagogik-psixologik ta'limotlarga tayanadi:

– L.S. Vygotskiy – tasavvurni real kuzatuv, ijtimoiy muhit va muloqot orqali rivojlantirish tamoyili;

– R. Arnheim – vizual tafakkurning shakllanishida kuzatish va idrokning yetakchi o'rni;

– J. Dewey – faoliyat orqali o'rganish va bilish jarayonida amaliy tajribaning ahamiyati.

Ushbu nazariy manbalar o'quvchilarning tasviriy san'atni o'zlashtirish jarayonida: – faol fikrlash, kuzatuvchanlik, ijodiy qaror qabul qilish, badiiy tasavvur kabi qobiliyatlarning shakllanishiga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur amaliy va nazariy tavsiyalar integratsiyasi o'quvchilarda: – badiiy estetik dunyoqarash, rang va shaklni his etish madaniyati, ijodkorlik va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ushbu topshiriqlardan darsni rejalashtirish, baholash mezonlarini aniqlash va o'quvchilarni ijodiy faoliyatga rag'batlantirishda samarali foydalanadi.

Amaliy darsning nazariy asoslarini ilmiy tahlilini ko'rib chiqamiz.

Tasviriy san'at ta'limida kuzatishdan amaliy tasvirlashga o'tish jarayoni o'quvchining vizual idrok, analiz-sintez qobiliyati va badiiy tafakkurining bosqichma-bosqich shakllanishiga asoslanadi. Avvalo, real predmetni kuzatish jarayonida o'quvchi uning shakli, tuzilishi, proporsiyasi va fazoviy joylashuvini idrok etadi. Bu jarayon L.S. V'ygotskiy tomonidan ta'kidlanganidek, «tasavvurni real kuzatuv bilan qo'shma holda rivojlantirish»ning asosiy omilidir. Kuzatish – bu faqat ko'rish emas, balki ma'no chiqarish, mazmunni anglash, obrazni ongda shakllantirishdir.

Predmetni geometrik shakllarga asoslangan holda tahlil qilish jarayoni o'quvchining abstrakt tafakkurini rivojlantiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 11-13 yosh oralig'ida bola murakkab shakllarni sodda konstruktsion elementlarga ajratish orqali fikrlashni o'rganadi. Badiiy shaklni geometrik asosga tayangan holda qurish, tasvirni texnik jihatdan boshqarish imkonini yaratadi va bu jarayon Arnheim ta'riflagan «tasviriy fikrlash»ning shakllanishiga xizmat qila-

di.

Amaliy chizish bosqichi esa Dewey tomonidan ilgari surilgan «Faoliyat orqali o‘rganish» tamoyiliga mos keladi. Bola qo‘l harakati, nigohni boshqarish, chiziqni yonaltirish va rangni tanlash orqali nafaqat rasm chizadi, balki o‘z ichki obraz dunyosini tashqi shaklga ko‘chiradi. Shuning uchun amaliy mashg‘ulot darsning markaziy qismidir: u bilimni nazorat qiladi, ko‘nikmani mustahkamlaydi va ijodiy ifodani yuzaga chiqaradi.

Shunday qilib, Tasviriy san’at ta’limida: – Kuzatish → Tahlil → Amaliy tasvirlash metodik ketma-ketligi: – vizual idrokni, badiiy tasavvurni, analiz-sintez asosida fikr yuritishni, ijodiy ifoda va motorik malakalarni bir vaqtning o‘zida uyg‘un rivojlantiradi. Bu esa o‘quvchining nafaqat san’atga doir bilim va malakalarini, balki shaxs sifatida tvorchestvolar qobiliyati va estetik didini shakllantirishga xizmat qiladi.

2.8-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Minimal talablar deganda nima tushuniladi?
2. Tasviriy san’atda bilim, ko‘nikma, kompetensiya tushunchalarining farqi nimada?
3. O‘quvchilardan naturaga asoslangan tasvirda eng kam qanday amaliy malakalar talab qilinadi?
4. Rangtasvirda minimal talab sifatida qanday ko‘nikmalar shakllanishi shart?
5. Kompozitsion tasavvur minimal darajada qanday ifodalanishi kerak?

Tahlil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirilgan savollar

6. Minimal talablar nega yosh psixologiyasi va davlat ta’lim standartlariga asoslanishi zarur?
7. Minimal talablarga erisha olmayotgan o‘quvchiga qanday pedagogik ko‘mak ko‘rsatish kerak?
8. Minimal talablar ijodiy rivojlanishga qanday ta’sir ko‘rsatadi? (Ijobiy yoki salbiy – tahlil qiling)

II BOB BO‘YICHA UMUMIY XULOSA

Oliy ta’lim muassasalari va ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlarning mazmuni o‘quvchilar va talabalarni badiiy-estetik bilimlar bilan qurollantirish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni san’atning milliy va umumbashariy qadriyatlarini qadrlaydigan yetuk shaxs sifatida kamol toptirishga qaratilgan. Ushbu ta’lim yo‘nalishida fan dasturlari ketma-ketlik, bosqichlilik va tizimlilik tamoyillari asosida shakllantirilgan bo‘lib, ular nazariy bilimlar bilan birga badiiy-amaliy ijodiy ko‘nikmalarning shakllanishini ta’minlaydi.

Fan dasturlarining mazmuniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tasviriy san’at ta’limida kompozitsiya, rangtasvir, grafika, san’atshunoslik va dizayn yo‘nalishlari uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. AKT vositalaridan foydalanish, raqamli san’atni o‘qitish, milliy meros va zamonaviy san’at integratsiyasi kabi imkoniyatlar ta’lim mazmunini yangi bosqichga ko‘tarmoqda. Bu esa o‘quvchining vizual idrokini kengaytirar ekan, mustaqil badiiy faoliyatni tashkil etish va ijodiy fikrlash

salohiyatini oshiradi.

Bundan tashqari, dasturlar o‘quvchi yoshining psixologik rivojlanish qonuniyatlariga mos ravishda tuzilgan bo‘lib, ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydigan kompetensiyalar: kommunikativ, ijodkorlik, amaliy-faoliy, estetik-madaniy kompetensiyalar shakllantirilishini ko‘zlaydi.

Yakuniy natija sifatida, mazkur bobning mazmunidan kelib chiqadigan xulosa quyidagicha:

– Tasviriy san’at dasturlari ta’lim sifati, mazmun shakllanishi va o‘qitish metodik yo‘nalishlarini belgilovchi asosiy manba hisoblanadi;

– Fanlar tizimli ravishda shakllantirilgan bo‘lib, ular badiiy ijodkorlik jarayonini uzviy va bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi;

– Zamonaviy san’at tendensiyalari, AKT imkoniyatlari va milliy an’analar integratsiyasi ta’limni global va innovatsion mazmunga ega qiladi.

Shunday qilib, tasviriy san’at ta’limi dasturlarini tahlil va samarali tatbiq etish – san’at pedagogikasining rivojlanishida, oliy va o‘rta maxsus ta’limda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

BOB BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLARI:



1. Oliy ta’lim va ixtisoslashgan san’at maktablaridagi tasviriy san’at fanlari dasturlarini qanday farqlaysiz?
2. Mazkur dasturlarda qaysi nazariy va amaliy yo‘nalishlar mavjud?
3. Fan dasturlarini tahlil qilishda qanday mezonlardan foydalanish mumkin?
4. Maxsus adabiyotlar va darsliklarning ahamiyati nima?
5. Qanday mezonlar asosida darslik va adabiyotlar tanlanadi?
6. O‘quv jarayonida adabiyotlardan qanday samarali foydalanish mumkin?
7. Qaysi grafik dasturlar tasviriy san’at darslarida keng qo‘llaniladi?
8. Har bir dastur o‘ziga xos qaysi imkoniyatlarga ega?
9. Grafik dasturlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini qanday rivojlantiradi?
10. Ilg‘or pedagogik metodlar deganda nimani tushunasiz?
11. Ushbu metodlar tasviriy san’at darslarida qanday qo‘llanadi?
12. O‘quvchilarning faolligini oshirishda qaysi ilg‘or metodlar samarali bo‘ladi?
13. Zamonaviy pedagogik metodlar va ilg‘or pedagogik metodlar o‘rtasidagi farq nima?
14. Interaktiv va kooperativ metodlarni darsda qanday qo‘llash mumkin?
15. O‘quv jarayonida texnologik vositalarni qo‘llashning pedagogik ahamiyati qanday?
16. Adabiyot manbalarini o‘rganishda qanday metodlardan foydalanish tavsiya etiladi?
17. Qanday mezonlar asosida ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi?
18. O‘quvchilarning ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda adabiyot manbalarining roli nima?
19. Dalillar yig‘ishning asosiy metodlari nimalardan iborat?
20. Qanday hollarda kuzatish, intervyu yoki baholash vositalari qo‘llaniladi?
21. Dalillar yig‘ish natijalarini tahlil qilish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
22. Minimal talablar o‘quvchilarning qanday kompetensiyalarini baholashga xizmat qiladi?
23. 5-7-sinf o‘quvchilarida minimal tayyorgarlik darajasini qanday aniqlash mumkin?
24. Amaliy topshiriqlar va baholash mezonlari minimal talablarni qamrab olishini qanday ta’minlaydi?

III BOB. AMALIY MASHG‘ULOTLARI BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Mazkur bob umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-7-sinflarida tasviriy san’at fanini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy-metodik ko‘rsatma va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Bobda dars jarayonini rejalashtirish, o‘quvchilarning badiiy-amaliy ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, baholash mezonlari va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishga doir metodik yondashuvlar bayon qilinadi.

Amaliy mashg‘ulotlar tasviriy san’at ta’limining eng asosiy shaklidir. Chunki aynan amaliy faoliyat orqali o‘quvchi: – nazariy bilimini amaliyotda qo‘llaydi, kuzatish va tasavvur qobiliyatini rivojlantiradi, qo‘l motorikasi va koordinatsiyani mustahkamlaydi, tasviriy vositalar yordamida ijodiy ifodasini bildiradi, san’atni anglash va baholash madaniyatiga ega bo‘ladi.

Shuning uchun ushbu bobda amaliy mashg‘ulotlarning metodik asoslari, ularni tashkil etish tamoyillari va o‘qituvchining pedagogik boshqaruvi alohida ilmiy yondashuv asosida o‘rganiladi.

Bob oxirida o‘quvchilarning mustahkamlagan bilim va ko‘nikmalarini baholashga doir nazorat savollari ham keltiriladi.

3.1 § Ilmiy muammo va ilmiy mavzu. IImiy texnikaviy axborotni izlash

Ushbu paragraf ilmiy ish boshlashda muhim bo‘lgan ilmiy muammo va mavzu tanlash, shuningdek, ilmiy va texnik axborotni izlash jarayonini chuqur yoritadi. Tadqiqotning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ushbu bosqichning sifatiga bog‘liq bo‘lib, u ilmiy fikrlashni rivojlantirish, resurslarni samarali taqsimlash va natijalarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

1. Ilmiy muammo va ilmiy mavzu.

Ilmiy muammo – ilmiy tadqiqot orqali yechimini topish lozim bo‘lgan murakkab nazariy yoki amaliy masala. Ilmiy muammo tanlashda quyidagi jihatlar muhim: – masala dolzarbligi va ijtimoiy yoki fan sohasidagi ahamiyati, tadqiqotning yangi bilimlar yaratishga imkon berishi, amaliy yechimlarni tatbiq etish imkoniyati.

Ilmiy mavzu – tadqiqotning aniq yo‘nalishi, muammoni yechish maqsadida belgilangan ilmiy soha doirasi. Masalan, «Rangtasvirda perspektiva va kompozitsiya qoidalarini integratsiyalash» mavzusi tasviriy san’at sohasida dolzarb ilmiy masalani o‘z ichiga oladi.

Ilmiy muammo va mavzuni tanlash mezonlari:

1. Dolzarblik va zamon talablari bilan mosligi. Mavzu mavjud ta’lim jarayonidagi real muammolarga yechim topishga qaratilgan bo‘lishi shart. Digital texnologiyalar, vizual vositalar, STEAM-integratsiya kabi yo‘nalishlar tasviriy san’at ta’limilarda dolzarb hisoblanadi. Bu mezon o‘quv motivatsiyasini oshirishga va ta’lim samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, XXI asrda digital san’at vositalari bilan ijodiy yondashuvlarni o‘rganish.

2. Tadqiqotning yangilik darajasi – tadqiqot avvalgi ishlardan farq qila olishi

va yangi metodik yondashuvni taklif qilishi lozim. Masalan: grafik dasturlar orqali kompozitsiya o‘qitish, AR/VR vizualizatsiya vositalari, kreativ baholash mezonlari. Bu ilmiy pedagogikada yangi qo‘shilgan qiymat bo‘lishi kerak.

3. Amaliy va nazariy qiymati – natijalar amaliy ta’lim jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lishi, metodik usullarni takomillashtirishi va mustahkam ilmiy asosga ega bo‘lishi zarur. Tadqiqot natijalari o‘qituvchi malakasini oshirishga va dars sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

4. Resurslar va vaqt imkoniyatlari bilan uyg‘unligi – tanlangan mavzu tadqiqotchi imkoniyatlari, mavjud texnik baza va metodik resurslar bilan mos kelishi kerak. Masalan: – o‘quvchilar, san’at materiallari, kompyuter texnikalari.Bu mezon tadqiqotning amaliy jihatdan baholi bo‘lishini ta’minlaydi.

Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak: – Oliy ta’lim muassasasida talabalar uchun «Tasviriy san’at fanini zamonaviy grafik dasturlar orqali o‘qitish metodikasi» mavzusi dolzarb va ilmiy muammo sifatida tanlanadi, chunki u nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki ijodiy tafakkurni ham rivojlantiradi.

Lev V’ygotskiy (1978) ta’kidlaganidek, «ilmiy tadqiqotda muammoni aniqlash – bilimning rivojlanishidagi birinchi va eng muhim bosqichdir»[17].

2. Ilmiy va texnik axborotni izlash.

Ilmiy tadqiqot samaradorligi ko‘p jihatdan axborot manbalarini to‘g‘ri tanlash va tahlil qilishga bog‘liq.

Axborot manbalari:

– Ilmiy maqolalar va monografiyalar (Springer, Elsevier, Taylor & Francis);

– Dissertatsiyalar va tezislar;

– Patentlar va innovatsion ishlanmalar;

– Konferensiya materiallari;

– Internet-resurslar va elektron kutubxonalar (ResearchGate, Google Scholar).

Ilmiy va texnik axborotni izlash metodlari:

– Kalit so‘zlar yordamida ma’lumot qidirish: masalan, «digital painting techniques in art education»;

– Mavzuga oid manbalarni tartiblash va solishtirish;

– Tahlil qilish: har bir manbaning ilmiy ishonchliligi, metodik yondashuvi va natijalari baholanadi.

Axborotni baholash mezonlari:

1. Manbaning ishonchliligi va ilmiy darajasi;

2. Yangiligi va nashr sanasi;

3. Muallifning malakasi va tadqiqot tajribasi;

4. Tadqiqotning mavzu bilan mosligi va qo‘llanilishi.

Amaliy tavsiyalar:

1. Tadqiqot mavzusini tanlashdan oldin soha bo‘yicha mavjud adabiyotlarni keng ko‘lamda o‘rganing.

2. Ilg‘or ilmiy ishlanmalarni tahlil qilib, muammoni aniqlang.

3. Axborot manbalarini tartibga soling va kerakli ma’lumotlarni alohida qayd eting.

17 L. Vygotskiy “Psixologik rivojlanish asoslari” – Moskva.: Pedagogika, 1978 g

4. Mavzu va muammo doirasini aniq belgilang, ortiqcha yoki mavhum yo‘nalishlardan saqlaning.

Misol uchun aytish mumkin: Magistr ilmiy ishida «Zamonaviy grafik dasturlarda kompozitsiyani vizual tahlil qilish» bo‘yicha maqolalar va monografiyalarni izlab, o‘z tadqiqotini shakllantiradi. Natijada mavzuning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari tizimli ravishda o‘rganiladi.

John Dewey (1938) ta’kidlashicha – «Tadqiqot faoliyati orqali o‘rganish insonning bilim va ko‘nikmalarini chuqurroq shakllantiradi»[18].

3.1-jadval.

Ilmiy muammo va mavzu tanlash mezonlari

Mezon	Ta’rif	Misol	Ilmiy manba
Dolzarblik	Muammo zamon talablari bilan mos bo‘lishi	Digital san’atning ta’limdagi o‘rni	Mahalliy va xorijiy soha tadqiqotchi olimlarini ishlari
Yangilik darajasi	Tadqiqot ilgari mavjud bo‘lmagan yondashuvni o‘z ichiga oladi	Grafik dasturlar orqali kompozitsiya o‘qitish	Mahalliy va xorijiy soha tadqiqotchi olimlarini ishlari
Amaliy va nazariy qiymat	Natijalar ta’lim jarayonida qo‘llanadi	Tasviriy san’at dars metodikasi	
Resurslar bilan uyg‘unlik	Tadqiqot resurslar va vaqt bilan mos bo‘lishi	O‘quvchilar, dastur, texnika	

Mazkur 3.1-jadval tasviriy san’at ta’limida ilmiy izlanishlar yo‘nalishini aniqlash, tadqiqot rejasini tuzish va amaliyotga yo‘naltirilgan faoliyatni samarali tashkil etishda asosiy diagnostik vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu mezonlar asosida tanlangan mavzu: – metodik jihatdan ahamiyatli, zamonaviy ta’lim talablariga mos, amaliy tatbiqi ta’minlangan, ilmiy qiymatiga ega bo‘ladi.

Ilmiy mavzu tanlash mezonlarining to‘g‘ri belgilash – tasviriy san’at ta’limida innovatsion va samarali tadqiqotlar yuritish uchun poydevor hisoblanadi.

Shu o‘rinda mavzumizni yanada ochiqlash va tushunarli bo‘lishi uchun amaliy misol keltirib o‘tamiz.

Mavzu: Ilmiy muammo va ilmiy mavzuni aniqlashda vizual axborot manbalaridan foydalanish.

Vaziyat: – Magistratura talabalari “Tasviriy san’at ta’limida innovatsion yondashuvlar” fanidan mustaqil ilmiy ish mavzusi tanlamoqda. Talabalardan biri – 7-sinf o‘quvchilarining rang tasavvurini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy muammoni aniqlash jarayonida raqamli platformalarda (Google Scholar, ResearchGate, ArtStation) mavjud ilmiy-texnikaviy axborotni o‘rganadi. U tasviriy idrok, rang tahlili, kompozitsion fikrlash bo‘yicha maqolalarni tahlil qilib, o‘z ilmiy mavzusini shakllantiradi:

“Rangtasvir mashg‘ulotlarida raqamli vizual vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish.”

Natija: – Talaba o‘z ilmiy muammosini amaliy tajribalar asosida aniqladi, ilmiy-manbalar bilan ishlash ko‘nikmasi shakllandi va ilmiy ma’lumotni vizual tahlil qilish qobiliyati rivojlandi.

18 https://en.wikipedia.org/wiki/Experience_and_Education_%28book%29?utm_source=chatgpt.com «Experience and Education (book)»

Ilmiy muammo va mavzu tanlash hamda ilmiy-texnik axborotni izlash bosqichi tadqiqotning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun asosiy shartdir. Ushbu bosqich tadqiqot yo‘nalishini aniqlash, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va natijaga erishish imkonini beradi. Ilmiy ishlanmalarni chuqur tahlil qilish va ishonchli manbalarni tanlash magistrlarning ilmiy fikrlashini rivojlantiradi va tadqiqot sifatini oshiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ilmiy muammo va mavzuni aniq belgilash – pedagogik tadqiqotning boshlang‘ich va eng mas’ul bosqichi bo‘lib, uning mazmunini, yo‘nalishini va kutilayotgan natijasini belgilab beradi. Tasviriy san’at ta’limida muammo; o‘quvchilar, o‘qituvchi hamda ta’lim muhiti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikdan kelib chiqadigan real pedagogik ehtiyojlar asosida shakllanadi. Shu sababli mavzu tanlash jarayoni dolzarblik, yangilik darajasi, amaliy va nazariy ahamiyat, mavjud resurslarga moslik mezonlariga tayangan holda amalga oshirilishi talab etiladi.

Ilmiy-texnikaviy axborotni izlash esa tadqiqotning nazariy poydevorini yaratadi. Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni tizimli o‘rganish orqali mavjud ilmiy yutuqlar tahlil qilinadi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va ulushi aniqlanadi. Bu jarayon ilmiy axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirib, tadqiqotchi tafakkurining kengayishiga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv tasviriy san’at ta’limida: – ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishni, nazariy va amaliy yondashuvlar uyg‘unligini, innovatsion metodikalarni ishlab chiqishni, o‘qitish jarayonining sifatini oshirishni ta’minlaydi.

Demak, ilmiy muammo va mavzuni to‘g‘ri tanlash, shuningdek, ilmiy-texnikaviy axborotni izlashning samarali tashkil etilishi tadqiqotning muvaffaqiyat bilan yakunlanishi, tasviriy san’at ta’limini rivojlantirish va o‘quvchi shaxsida ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

3.1-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Ilmiy muammo deganda nima tushuniladi?
2. Ilmiy mavzu qanday belgilanadi? Misol keltiring.
3. Muammo tanlashda dolzarblik mezoni nimani anglatadi?
4. Ilmiy texnikaviy axborot manbalari qaysi toifalarga bo‘linadi?
5. Internet orqali ilmiy ma’lumot izlashda qaysi talablarga amal qilish kerak?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Ilmiy mavzuni to‘g‘ri tanlash keyingi tadqiqot bosqichlariga qanday ta’sir qiladi?
7. Tasviriy san’atga oid ilmiy axborot izlayotganda milliy va xorijiy manbalardan foydalanishning afzalliklari nimada?
8. Sizningcha, noto‘g‘ri axborot tanlash qanday ilmiy xato va muammolarga olib keladi?

Qo‘shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – Tasviriy san’atga oid 1 ta muammo aniqlang va uning dolzarbligini 4-6 jumla bilan asoslang.

Topshiriq 2: – Google Scholar, ResearchGate yoki Ziyonet manbalarida 2 ta ilmiy manba topib, ularning qisqacha mazmunini yozing.

3.2 § Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlarining shakllanishi hamda o‘quv va bilim olish faoliyatini tashkil qilish, rag‘batlantirish va nazorat qilish

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida metodlarning shakllanishi – bu ilmiy, nazariy va amaliy tajribalar asosida takomillashib boruvchi tizimli jarayondir. Oliy ta’lim tizimida o‘qitish metodlari talabaning mustaqil fikrlashi, ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishi va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Metodlarning shakllanish omillarini quyida birgalikda ko‘ramiz va ularni qisqacha tahlil qilamiz.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar turli omillar ta’sirida shakllanadi. Ushbu omillar tizimi o‘quv jarayonining mazmunini, o‘qituvchining yondashuvini hamda talabalar faoliyatining samaradorligini belgilab beradi.

Mutaxassislik fanlarida qo‘llaniladigan metodlarning shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Ta’limning maqsadi va mazmuni.

Ta’limning maqsadi – mutaxassisni kasbiy, ijodiy va ilmiy jihatdan tayyorlash; mazmun esa ana shu maqsadga erishish vositasidir. Shu bois tanlanadigan metod mazmun bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Masalan: “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi” fanida talabalarning mustaqil tahliliy fikrlashini rivojlantirish uchun muammoli o‘qitish yoki loyiha asosida o‘qitish metodlaridan foydalaniladi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: – “Ta’limning asosiy maqsadi – mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondasha oladigan, yangilik yarata oladigan yoshlarni tarbiyalashdir.”

2. Fan sohasining ilmiy-nazariy asoslari.

Har bir fan o‘zining ilmiy-nazariy bazasiga ega. Shu asosga tayangan holda o‘qitish metodlari aniqlanadi.

Masalan: rangtasvir, kompozitsiya yoki san’atshunoslik fanlarida ko‘rgazmalilik, kuzatish, tahlil kabi metodlar yetakchi o‘rin tutadi. Chunki, bu yo‘nalishlarda nazariy bilim amaliy ko‘nikma bilan uzviy bog‘liq.

3.2-jadval.

Fan xususiyatiga ko‘ra metodlarni tanlash mezonlari

Fan turi	Asosiy yondashuv	Samarali metodlar
Rassomlik (rangtasvir)	Amaliy-tajriba asosida	Kuzatish, tahlil, mustaqil mashq
San’at tarixi	Nazariy tahlil	Ma’ruza, suhbat, multimedia taqdimot
Pedagogika asoslari	Interfaol	“Aqliy hujum”, “Blits savol-javob”, muammoli o‘qitish

3. O‘qituvchining pedagogik mahorati va metodik tayyorgarligi.

O‘qituvchi metodlarni to‘g‘ri tanlay olish, ularni o‘z faniga moslashtirish orqali ta’lim jarayonini samarali qiladi.

Masalan: tajribali o‘qituvchi bir mavzuni tushuntirishda an’anaviy ma’ruzani ko‘rgazmali taqdimot va grafik interaktiv vositalar bilan uyg‘unlashtiradi.

Pedagog olim N. To‘raqulov fikricha: – “O‘qituvchi metod tanlashda ijodkor bo‘lishi, har bir darsda yangi metodik yechim topishga intilishi zarur.[19]”

4. O‘quvchilarning individual xususiyatlari va tayyorgarlik darajasi.

Talabalarning bilimi, tajribasi va psixologik tayyorgarligi metod tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Masalan: yangi boshlovchi talabalar uchun ko‘proq reproduktiv metodlar (namuna asosida bajarish) qo‘llanilsa, ilmiy izlanishga moyil bo‘lganlar uchun muammoli, izlanishli, loyiha metodlari tavsiya etiladi.

3.3-jadval.

Talabalarning tayyorgarlik darajasiga ko‘ra metodlarni tanlash

Talaba darajasi	Maqsad	Tavsiya etiladigan metod
Boshlang‘ich	Asosiy bilimlarni shakllantirish	Ko‘rsatma asosida bajarish, misol tahlili
O‘rta	Mustaqil tahlilga o‘rgatish	“Klaster”, “Venn diagramma”, savol-javob
Yuqori	Ijodiy va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish	Loyiha, tadqiqot, muammoli ta’lim

5. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi.

Bugungi kunda metodlarning shakllanishidaAKT vositalari muhim o‘rin tutadi.

Masalan, “Rang uyg‘unligi” mavzusini 3D dasturlar, “Artweaver” yoki “Photoshop” orqali amaliy namoyish etish – talabalarning diqqatini oshiradi va vizual tafakkurni rivojlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son qarorida qayd etilganidek: – “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, ularni o‘qitish metodlari bilan uyg‘unlashtirish o‘qitish samaradorligini oshiradi.”

Demak, metodlarning shakllanish omillari – ta’lim sifatiga bevosita ta’sir etuvchi tizimdir. Har bir omilning to‘g‘ri hisobga olinishi o‘qitish jarayonining natijadorligini oshirib, o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

O‘quv faoliyatini samarali tashkil etish – bu o‘quv jarayonida talabalarning bilish faoliyatini boshqarish, ularni faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashishga yo‘naltiruvchi jarayondir. Ushbu jarayon o‘qituvchi va talaba o‘rtasida subyekt-subyekt munosabatiga asoslanadi.

Ta’lim jarayonida o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun interfaol metodlardan foydalanish muhimdir. Masalan, “klaster”, “aqliy hujum”, “konseptual jadval”, “case study”, “portfolio”, “muammoli ta’lim”, “loyiha asosida o‘qitish” metodlari talabaning mustaqil fikrlashini, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashini ta’minlaydi.

1. Ilmiy-nazariy asoslar.

O‘quv faoliyatini tashkil etishda konstruktivizm nazariyasi muhim ahamiyat-

19 To‘raqulov N. “Pedagogik mahorat asoslari”, Toshkent, 2020

ga ega. Bu nazariyaga ko‘ra, talaba bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil izlanish, tajriba va mulohaza orqali qayta yaratadi.

Pedagog olima N. Xo‘jayevaning ta’kidlashicha: – “O‘quv faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish – bu bilimni berish emas, balki talaba ongida yangi bilim hosil bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratishdir.[20]”

2. O‘quv faoliyatining bosqichlari.

O‘quv faoliyatini tashkil etish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

3.4-jadval.

O‘quv faoliyatining bosqichlari va mazmuni

Bosqich	Mazmuni	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
Tayyorgarlik	Maqsadni aniqlash, mavzuga kirish	Motivatsiya yaratish, vizual material ko‘rsatish	Qiziqish uyg‘onishi, savol berishi
Asosiy	Bilimni o‘zlashtirish va amaliy qo‘llash	Ma’lumot berish, interfaol metodlarni qo‘llash	Izlanish, muhokama, guruh ishlari
Yakuniy	Tahlil, baholash va refleksiya	Natijani umumlashtirish, xulosa chiqarish	Fikr bildirish, o‘z faoliyatini baholash

3. Misol uchun aytadigan bo‘lsak, magistratura bosqichida “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi” fanidan “Kompozitsiya tuzilishi” mavzusidagi mashg‘ulotda o‘qituvchi interfaol usullardan foydalanadi. Talabalar guruhlarga bo‘linadi va har biri “ko‘rgazmali tahlil”, “aqliy hujum”, hamda “konseptual jadval” orqali mavzudagi misollarni tahlil qiladi.

Natijada esa, talabalarda kompozitsiya tushunchasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham shakllanadi; ularda birgalikda ishlash,estetik tahlil qilish va badiiy mulohaza yuritish ko‘nikmalari rivojlanadi.

4. Innovatsion tashkil etish shakllari.

Bugungi davrda o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun raqamli ta’lim muhitidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Masalan, “Google Classroom”, “Moodle” platformalari orqali onlayn baholash, “Jamboard” va “Padlet” ilovalari orqali guruhli vizual ishlanmalar yaratish, “Mentimeter” yordamida dars yakunida fikr va takliflar to‘plash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek: – “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish – bu zamon talabi, raqobatbardosh avlodni tayyorlashning muhim sharti.[21]”

Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish – bu metod tanlash, interfaol muhit yaratish, rag‘batlantirish va nazoratni tizimli tashkil etishdir. Bunday yondashuv natijasida talaba bilimni faqat oluvchi emas, balki uni yaratuvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Rag‘batlantirish – o‘quv jarayonidagi eng ta’sirchan va ilmiy jihatdan muhim yo‘nalishlardan biri desak xato bo‘lmaydi.

20 Xo‘jayeva N., “Pedagogik psixologiya asoslari”, 2021-y.

21 Sh.M. Mirziyoyev, Oliy ta’lim sohasidagi islohotlar to‘g‘risidagi nutq, 2023-yil

Ta’lim jarayonida rag‘batlantirish – o‘quvchini faol o‘rganishga, mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga undovchi psixologik-pedagogik omildir. Rag‘batlantirishning nazariy asoslari L.S. V’ygotskiy, A.N. Leontyev, J. Bruner kabi olimlarning “motivatsiya va faoliyat nazariyasi”ga borib tayanadi. Unga ko‘ra, o‘quvchi faoliyati ichki (shaxsiy qiziqish, ijodiy ehtiyoj) va tashqi (baholash, maqtov, mukofot) rag‘batlar orqali faollashadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek: – “Bugungi kunda ta’lim tizimi o‘qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki har bir o‘quvchini mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor shaxs sifatida shakllantirishni talab etadi.[22]”

Rag‘batlantirish tizimi o‘quv faoliyatida motivatsiyani oshiradi. Talabani baholashda faqat natijani emas, balki izlanish va ijodkorlik jarayonini ham inobatga olish muhim. Bu jarayonlarda: – ma’naviy rag‘bat (maqtov, e’tirof, ijodiy ishlarni nashrga tayyorlash), moddiy rag‘bat (grantlar, stipendiyalar, sertifikatlar), o‘zini o‘zi baholash va refleksiya jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Rag‘batlantirishning asosiy turlarini 3.5-jadvalda ko‘ramiz.

3.5-jadval.

Rag‘batlantirishning asosiy turlari

Turi	Mazmuni	Qo‘llanish misoli
Ma’naviy rag‘bat	Maqtov, e’tirof, ishonch bildirish	“Bugungi rasmiy ishlovingizda rang uyg‘unligi juda yaxshi topilgan!”
Moddiy rag‘bat	Sovg‘a, sertifikat, mukofot	Eng yaxshi natija ko‘rsatgan o‘quvchiga “Ijodkor” yorlig‘i topshiriladi
Ijodiy rag‘bat	Erkinlik, tanlovda ishtirok etish imkoniyati	“Eng chiroyli peyzaj” tanlovida qatnashish huquqi
Ijtimoiy rag‘bat	Jamoa oldida e’tirof etish	Sinf oldida eng faol o‘quvchining ismini e’lon qilish

Misol uchun aytish mumkinki, tasviriy san’at fanidan “Tabiat manzarasi” mavzusida o‘tkazilgan dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarni ijodiy ishlashga rag‘batlantirish maqsadida “Eng rangdor tasvir”, “Eng original kompozitsiya” kabi nominatsiyalar joriy etdi. Dars oxirida o‘quvchilar o‘z ishlari bo‘yicha fikr bildirdilar, eng yaxshi ishlar sinf devoriga ilindi. Bu jarayon natijasida o‘quvchilarda badiiy did, mas’uliyat va ijodiy ishtiyoq sezilarli oshdi.

Demak, aytish mumkinki, rag‘batlantirish tizimi – o‘quv faoliyatining yuragi. U o‘qituvchidan did, kuzatuvchanlik va psixologik noziklik talab etadi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan rag‘bat – bilimni emas, shaxsni o‘stiradi.

Nazorat va baholash. “Nazorat va baholash” bo‘limi haqiqatan ham ta’lim jarayonidagi eng ilmiy va amaliy ahamiyatga ega qismlardan biri hisoblanadi. Buni zamonaviy pedagogikada kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy elementi sifatida ham ta’riflaydilar.

Bilimlarni nazorat qilish tizimi diagnostik, joriy va yakuniy baholash bosqichlaridan iborat bo‘lib, u o‘qitish jarayonining samaradorligini aniqlaydi. Hozirgi davrda baholashning reyting tizimi, kompetensiyaviy yondashuv asosidagi rubrikalar, elektron test va refleksiya daftarlaridan foydalanish ta’lim sifatini oshiradi.

22 Sh.M. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston maktabi – kelajak poydevori”, 2023

Nazorat va baholash – bu o‘quv faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘quvchining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlash, o‘sishini tahlil qilish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogika nazariyasida baholash uch asosiy funktsiyani bajaradi:

1. Diagnostik – o‘quvchining bilim darajasini aniqlaydi;
2. Tuzatuvchi – o‘qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi;
3. Rag‘batlantiruvchi – o‘quvchini yanada faolroq o‘qishga undaydi.

Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: – “Ta’lim tizimida baholashning adolatli, ochiq va motivatsion mexanizmlarini joriy etish – o‘quvchi shaxsini o‘stirishning eng muhim omilidir.[23]”

3.6-jadval.

Baholashning turlari

Baholash turi	Mazmuni	Qo‘llash usuli	Amaliy misol
Dastlabki (diagnostik)	O‘quvchi bilimini o‘quv yili boshida aniqlash	So‘rov, test, suhbat	“Rang turlari va issiq-sovuq ohanglarni ajrata olasizmi?” testi
Joriy (formativ)	Dars davomida kuzatuv orqali baholash	Jadvallar, reyting varaqalari	Rasm ishlash jarayonida o‘quvchining rang uyg‘unligini to‘g‘rilashi baholanadi
Oraliq (modulli)	Ma’lum mavzu yoki bo‘lim yakunida	Amaliy ish, mini test	“Kompozitsiya asoslari” bo‘yicha rasm chizish
Yakuniy (summativ)	Butun kurs yakunida umumiy natijani aniqlash	Portfolio, ko‘rgazma, ijodiy loyiha	“O‘quv yili ijodiy ishlari” ko‘rgazmasi orqali baholash

Baholashning zamonaviy yondashuvlari.

Bugungi kunda baholash mezonlari an’anaviy “5 balli” tizimdan tashqari, kriterial baholash, portfolioli baholash va o‘zaro baholash usullari bilan boyitilmoqda 3.7-jadval.

3.7-jadval.

Baholashning zamonaviy yondashuvlari tahlili

Mezoni	5 ballik tizimdagi ifodasi	Kriterial tavsif
5 (a’lo)	Juda yuqori darajada ijodiy ishlagan	Rang, shakl va kompozitsiya uyg‘unligini mustaqil hal qilgan
4 (yaxshi)	Yetarli ijodiy yondashuv mavjud	Topshiriqni to‘liq bajargan, lekin ijodiy yechim cheklangan
3 (qoniqarli)	Qisman o‘zlashtirilgan	Rang yoki shaklda kamchiliklar mavjud
2 (qoniqarsiz)	Yetarli tushunmagan	Asosiy tushunchalarni noto‘g‘ri qo‘llagan

Buni amaliy misollarda ko‘ramiz.

“Inson qomatini holis fonda tasvirlash” mavzusida o‘tkazilgan amaliy

23 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ–263-son qaroridan

mashg‘ulotda o‘qituvchi quyidagi nazorat bosqichlarini qo‘lladi: – dars boshida o‘quvchilarga diagnostik savollar berildi, ish jarayonida formativ baholash varaqalari orqali kuzatuv olib borildi, yakunida o‘quvchilar ishlari kriterial jadvallar asosida tahlil qilindi va har bir o‘quvchi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini angladi.

Bu usul natijasida o‘quvchilar nafaqat texnik mahorat, balki o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini ham rivojlantirdilar.

Demak, aytish mumkinki, nazorat va baholash tizimi – ta’lim jarayonining “ko‘zgusi” hisoblanadi. U nafaqat o‘quv natijasini, balki o‘quvchi shaxsidagi ijodiy o‘sish, mas’uliyat va fikrlash madaniyatini ham aks ettiradi.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda metodlarning shakllanishi va ularni to‘g‘ri tanlash, shuningdek, talaba faoliyatini tashkil qilish, rag‘batlantirish va nazorat qilish tizimi oliy ta’limda sifatni ta’minlashning asosiy garovidir.

Xulosa o‘rnda aytadigan bo‘lsak, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlarining shakllanishi ta’lim jarayonining mazmuniy va texnologik yangilanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘quv va bilim olish faoliyatini samarali tashkil etish, rag‘batlantirish va nazorat qilish tamoyillariga asoslanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoni faqat bilimlarni uzatish emas, balki o‘quvchining ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks faoliyat hisoblanadi.

O‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyani shakllantirish, ularni mustaqil o‘rganish faoliyatiga yo‘naltirish va badiiy-amaliy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash mazkur paragrafning asosiy pedagogik vazifalaridir. Shu maqsadda o‘qituvchi o‘quv faoliyatini individual, guruhiy va jamoaviy shakllar asosida tashkil etadi, hamkorlikda o‘rganish tamoyillaridan foydalanadi.

Nazorat va baholash jarayonining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi esa o‘quvchining rivojlanish dinamikasini aniqlash, yutuqlarini mustahkamlash va kamchiliklarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Rag‘batlantirish esa ijodiy yondashuvni qo‘llab-quvvatlab, estetik zavqni oshiradi.

Mazkur metodik tizim: – o‘quvchini faol sub’ekt sifatida ko‘radi, bilimni ko‘rgazmali va amaliy usullar orqali singdiradi, badiiy tafakkur va vizual idrokni rivojlantiradi, zamonaviy didaktik texnologiyalarni joriy etadi, kreativ va tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi.

Yakuniy natijada mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlari: – mustaqil o‘rganish, ijodiy-amaliy faoliyat, rag‘batlantirish va konstruktiv nazorat uchligida samarali ishlaganda, tasviriy san’at ta’limining shaxsga yo‘naltirilgan modeli qaror topadi. Bu esa o‘quvchining san’atni anglash madaniyatini shakllantirib, uni estetik qadriyatlar asosida fikrlaydigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalaydi.

3.2-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlarining shakllanishi qanday pedagogik omillarga tayanadi?
2. O‘quv faoliyatining samarali tashkil etilishi uchun qaysi metodik shartlar zarur?
3. Rag‘batlantirishning tasviriy san’at ta’limidagi roli nimada?
4. Nazorat va baholash jarayoni nima uchun ta’lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi?
5. O‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faolligi o‘zaro qanday bog‘liqlikka ega?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Rag‘batlantirishda individual yondashuvning ahamiyati haqida fikr bildiring.

7. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar o‘quv samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

8. Nazorat turlaridan (joriy, oraliq, yakuniy) qay biri tasviriy-amaliy mashg‘ulotlarda ko‘proq samara beradi? Sababini izohlang.

Qo‘shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – Bir tasviriy san’at darsi uchun rag‘batlantiruvchi metodlar ro‘yxatini tuzing (5 ta yo‘nalishda).

Topshiriq 2: – Tasviriy-amaliy mashg‘ulotda nazorat jarayonini tashkil qilish bo‘yicha diagramma chizing.

3.3 § Zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma’lumot va ularni tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda qo‘llash

Ushbu bo‘limda, tasviriy san’at fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asosi va amaliy qo‘llanilishini yoritish, o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy yo‘llarini ko‘rsatishni muhim deb bildek.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy qo‘llanilishi bu bevosita darsning yuqori samaradorligiga erishishning muhim omillaridan biridir.

Bu yo‘nalishdagi asosiy maqsad – tasviriy san’at darslarini an’anaviy shakldan chiqarib, interaktiv va raqamli muhitda tashkil etishdir.

Bunga bir qator misollarni keltirib o‘tamiz. Masalan:

Rangtasvir o‘quv fanidan olib borilayotgan “Rang uyg‘unligi va tasviriy ifoda” mavzusida o‘tkazilgan darsda mutaxassis o‘qituvchi interfaol doska va ArtRage dasturidan foydalanib, rang uyg‘unligini elektron shaklda ko‘rsatadi.

Talabalar bevosita shu dasturdagi rang palitralarini tanlab, virtual qo‘lyozmada kompozitsiya yaratishadi.

Natijada esa, bu orqali ular nafaqat rangni his etish, balki raqamli vositalarda ijod qilishni ham o‘rganishadi.

Yana bir misol. Oliy ta’lim bosqichida “Kompozitsiya asoslari” fanidan “Inson harakati tasvirida ritm va muvozanat” mavzusida mutaxassis o‘qituvchi multimedia-prezentatsiya va 3D model yordamida inson qomati harakatini tahlil qiladi.

Natijada esa, talabalarda harakat dinamikasi va anatomik mutanosiblik haqida aniq vizual tasavvur shakllanadi.

XXI asrda ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar (raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, kreativ ta’lim) tasviriy san’at fanini o‘qitish mazmuniga yangi ruh va dinamika olib kirdi.

Prezident qarorlari va milliy dasturlarda ta’lim jarayonini raqamlashtirish, AKT vositalarini joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Shu bois, tasviriy san’at o‘qituvchisi zamonaviy texnologiyalarning nazariy asoslarini bilishi, ularni metodik jihatdan to‘g‘ri tanlab, amalga tatbiq eta olishi zarur.

Demak, raqamli texnologiyalar (AKT), bugungi kunda AKT ta’lim jarayonining ajralmas qismi desak mutlaqo xato bo‘lmaydi.

E’tiborlisi shundaki, “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi (2020-2030)”da ta’lim sohasida raqamli platformalarni joriy etish vazifasi belgilangan.

Bularni quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz. Tasviriy san’at o‘qituvchilari Google Classroom, Canva, Padlet, ArtSteps kabi onlayn vositalar orqali virtual ko‘rgazmalar tashkil etmoqda.

Buning amaliyotdagi natijasi esa, o‘quvchilar o‘z rasmlarini elektron formatda taqdim etadilar, bu ularning portfolio tuzish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Tasviriy san’at fanlarini sifatli va kafolatli o‘qitishning yana bir omili bu interfaol metodlardir.

Interfaol ta’limda o‘quvchi – faol ishtirokchi, yaratuvchi, izlanuvchi bo‘lib eshtirok etadi. Buni quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz:

“Badiiy asarni tahlil qilish” mavzusida “Aqliy hujum” va “Insert” metodlari orqali o‘quvchilar mashhur rassom – Kamoliddin Behzod asarlarini tahlil qiladilar, estetik xulosalar chiqaradilar.

Buning natijasida, o‘quvchilarda fikrlash madaniyati va badiiy mulohaza ko‘nikmasi rivojlanadi.

Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarorida ta’limda “interfaol o‘qitish shakllarini keng joriy etish” vazifasi belgilab qo‘yilgan.

Tasviriy san’at fanlarini sifatli o‘qitishning yana bir omili kreativ ta’limdir.

Kreativ ta’lim – bu nafaqat bilim berish, balki shaxsning ijodiy salohiyatini ochishga qaratilgan jarayondir.

Buni qo‘idagi misollarda ko‘ramiz:

“Milliy naqshlar asosida dizayn yaratish” mavzusidagi dars mashg‘ulotida talabalar guruh bo‘lib, o‘zbek milliy ornamentlari asosida zamonaviy dizayn yechimlarini ishlab chiqadilar.

Buning natijasida esa, talabalarda ijodkorlik, estetik did va milliy qadriyatlarga munosabat shakllanadi.

Zero, UNESCO‘ning 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi fanlar (shu jumladan vizual san’atlar) global kompetensiyalar tizimida “21-asr ko‘nikmalari” deb ataladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qarorlari va farmonlarida ta’limda innovatsion yondashuvni joriy etish davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda: – PQ-3775 (2018-yil): “Pedagogik texnologiyalarni

modernizatsiya qilish va zamonaviy AKT asosida o‘qitishni rivojlantirish” haqida; PF-6108 (2020-yil): “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.

Yaratilayotgan bu kabi sharoitlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda tasviriy san’at o‘qituvchilari elektron darsliklar, video-darslar, onlayn test platformalar orqali o‘quv jarayonini zamonaviy tarzda yo‘lga qo‘yish imkoniga ega bo‘lmoqdalar.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishni samaradorligiga erishish maqsadida ta’lim-iy jarayonlarda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tegishli mavzularning xsusiyatidan kelib chiqib tanlanadigan va tadbiq etiladigan mos turlari muhim ahamiyatga ega. quyidagi 3.8-jadvalda Zamonaviy pedagogik tex-nologiyalarning turlarini ko‘rib chiqamiz.

3.8-jadval.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar turlari

№	Texnologiya nomi	Mazmuni	Tasviriy san’atda qo‘llanilishi
1	Konstruktiv o‘qitish texnologiyasi	O‘quvchi bilimni faol tarzda o‘zi yaratadi	Rasm ishlash jarayonida mustaqil yechim topish
2	Muammoli ta’lim	Savol yoki vaziyat orqali fikrlashni rag‘batlantirish	“Rang uyg‘unligini qanday topish mumkin?” muammoli savoli orqali
3	Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)	Kompyuter, proyektor, grafik dasturlar asosida o‘qitish	Photoshop, ArtRage, Procreate dasturlari yordamida rasm ishlash
4	Interfaol metodlar	Faol muloqotga asoslangan o‘qitish usullari	“Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert” kabi metodlardan foydalanish
5	Kritik fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi	Fikrni tahlil qilish, dalillash, solishtirishni o‘rgatish	Mashhur rassom asarlarini solishtirish orqali o‘quvchi bahosi
6	Portfolio texnologiyasi	O‘quvchining shaxsiy o‘sishini hujjatlashtirish	O‘quvchi ijodiy ishlari, eskiz va loyihalarini to‘plash

Tasviriy san’at ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash: – ta’lim jarayonini faol, interaktiv va raqamli muhitga aylantiradi, o‘quvchilarda ijodkorlik va mustaqil fikrlashni shakllantiradi, o‘qituvchi faoliyatini ilmiy asos-langan, innovatsion tizimga aylantiradi.

Endi, tizimli yondashuv asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bosqichlari borasida ham fikrlarimizni quyidagi 3.9-jadval asosida davom ettiramiz.

3.9-jadval.

Tizimli yondashuv asosida qo‘llash bosqichlari

Bosqich	Amalga oshiriladigan ishlar	O‘qituvchi roli	O‘quvchi roli
Tayyorlov bosqichi	Texnologiya tanlanadi, maqsad belgilanadi	Tashkilotchi, yo‘naltiruvchi	Qabul qiluvchi, kuzatuvchi

Asosiy bosqich	Faoliyatli o‘qitish amalga oshiriladi	Maslahatchi, nazoratchi	Ijodkor, muammolarni hal qiluvchi
Yakuni bosqich	Baholash, tahlil va xulosa chiqarish	Tahlilchi, motivator	O‘z faoliyatini tahlil qiluvchi, xulosa chiqaruvchi

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil etishda qo‘llaniladigan ilmiy asoslangan usullar majmuasidir.

Shu sababli, har bir tasviriy san’at o‘qituvchisi pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo‘lishligi, ularni dars jarayonida o‘z mahorati bilan uyg‘unlashtirishi lozim.

Xulosa sifatida aytsak, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tasviriy san’at ta’limiga innovatsion yondashuvlarni olib kirib, o‘quvchilarning badiiy tafakkuri, vizual idroki va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu texnologiyalar orqali o‘quv jarayoni faqat rasm chizishga o‘rgatish bilan cheklanmay, balki ta’limning motivatsion, kommunikativ va tahliliy jihatlarini ham qamrab oladi.

Interfaol metodlar, AKT vositalari, STEAM yondashuvi, loyiha asosidagi ta’lim, gamifikatsiya, differensiallashtirish kabi texnologiyalar tasviriy san’at mashg‘ulotlarida: – kuzatish madaniyatini boyitadi, rang va kompozitsiyani tushunishni yengillashtiradi, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, o‘quvchini faol sub’ekt sifatida ishtirok ettiradi.

Shuningdek, raqamli vizual vositalar (3D-modellashtirish, AR/VR, raqamli kollaj, grafik dasturlar) san’atning yangi ko‘rinishlarini o‘zlashtirishga imkon beradi hamda nazariy bilimni real misollar bilan boyitadi. Bunday texnologiyalar o‘quvchini zamonaviy dizayn va san’at industriyasi bilan bog‘laydi, kasbiy yo‘nalishni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Nazorat va baholash jarayonida ham innovatsion yondashuvlar: e-portfolio, raqamli rubrika, o‘zaro baholash kabi vositalar o‘quvchining rivojlanish dinamikasini tizimli kuzatish imkonini beradi.

Shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarni tasviriy san’at ta’limiga joriy etish: – o‘qitish samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni san’atga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, kreativ kompetensiyalarni shakllantiradi, milliy va jahon san’ati boyliklarini chuqur idrok etishga zamin yaratadi.

Demak, zamonaviy texnologiyalar asosidagi metodik yondashuv tasviriy san’at ta’limining mazmunini yangilaydi va uni o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik tizim sifatida namoyon qiladi.

3.3-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga qanday ta’rif beriladi?
2. Tasviriy san’at fanini o‘qitishda qaysi zamonaviy texnologiyalar ko‘proq qo‘llaniladi?
3. AKT (axborot-kompyuter texnologiyalari) qo‘llanilishining afzalliklari nimalar?
4. STEAM yondashuvining tasviriy san’at ta’limdagi o‘rni nimada?
5. Interfaol dars metodlarining o‘quvchi faolligiga ta’siri qanday namoyon

bo‘ladi?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Zamonaviy texnologiyalar san’at ta’limida ijodiy kompetensiyalarni qanday rivojlantiradi?

7. Grafik dasturlarni qo‘llash natijasida tasviriy-amaliy mashg‘ulotlar sifati qanday o‘zgaradi?

8. Sizning fikringizcha, qaysi texnologiyalar o‘qituvchi uchun qulay va samaraliroq? Nega?

Qo‘shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – Bir tasviriy san’at darsiga mos zamonaviy texnologiya tanlab, qo‘llash algoritmini yozing (5-6 jumla).

Topshiriq 2: – “AKT – Interfaol metodlar – Ijodkorlik” o‘zaro bog‘liqlik modelini diagramma ko‘rinishida chizing.

3.4 § Tasviriy san’atga o‘rgatish metodikasining umumiy vazifalari. Tasviriy san’atga o‘rgatishning maqsad va vazifalari va darslarni tashkil qilish va o‘qitishning zamonaviy metodlari

Tasviriy san’at fani o‘quvchilarning estetik didini, badiiy idrokini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan muhim ta’limiy yo‘nalishlardan biridir. Bu fan orqali o‘quvchilar atrof-muhitni kuzatish, tahlil qilish, uni badiiy obrazlar orqali ifodalash, go‘zallikni anglash va qadrlash madaniyatini egallaydilar. Shuning uchun ham tasviriy san’atni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, uni zamon talablari asosida tashkil etish ta’lim jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: – “Bugungi kunda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida ijodkor, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifamizdir.[24]”

Mazkur fikr tasviriy san’at ta’limining mohiyatini ham to‘liq ifodalaydi. Chunki, bu fan orqali nafaqat tasvirlash malakasi, balki estetik, axloqiy, ma’naviy, madaniy va ijodiy qadriyatlar ham shakllantiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarni milliy meros, madaniyat va tarixiy san’at an’analari bilan tanishtirish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash jarayonida tasviriy san’atning o‘rni beqiyosdir desak mutlaqo xato bo‘lmaydi.

Bugungi kunda ta’lim sohasidagi islohotlar, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahriri, 2020-yil), “O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” kabi me’yoriy hujjatlar tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasiga ham zamonaviy yondashuvni talab etmoqda. Shu bois soha o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish va o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tasviriy san’atga o‘rgatishning maqsadi borasida tuxtalsak, avvalo:

Tasviriy san’at fani – bu inson tafakkurining eng murakkab va shu bilan birga eng nozik shakllaridan biri bo‘lib, u o‘quvchini nafaqat chizishga, balki ko‘rish, his etish va badiiy ifodalash jarayonlarini uyg‘un holda anglashga o‘rgatadi. San’at asarini yaratish insonning idrok, tasavvur, his-tuyg‘u va tahlil kabi psixologik jarayon-

24 Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asaridan

larini faol ishlatishni talab etadi. Shu boisdan tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi boshqa fanlardan farqli ravishda idrok, tafakkur va ijod uyg‘unligiga asoslanadi.

Birinchidan, tasviriy san’at o‘quvchining estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Estetik tafakkur – bu insonning atrof-muhitdagi go‘zallikni anglash, uni badiiy mezonlar asosida baholash va ifoda etish qobiliyatidir. O‘quvchilar rasm, haykaltaroshlik yoki dizayn elementlarini o‘rganish jarayonida ko‘z bilan ko‘rish va qalb bilan his etishni o‘rganadilar. Bu jarayonda o‘qituvchi badiiy idrokni shakllantirish, ya’ni “ko‘rish madaniyati”ni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, tasviriy san’at darslari orqali o‘quvchi badiiy didni shakllantiradi. Badiiy did – bu shaxsning estetik tanlovi, ya’ni go‘zallik va uyg‘unlikni his etish hamda uni baholash qobiliyatidir. O‘quv jarayonida turli uslublardagi san’at asarlari, milliy naqshlar, rang uyg‘unliklari bilan tanishish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va madaniy merosga hurmat hissini kuchaytiradi.

Uchinchidan, tasviriy san’at ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, badiiy faoliyat insonda sabr, e’tibor, go‘zallikka muhabbat, mehr-shafqat, Vatanga sadoqat kabi insoniy fazilatlarni rivojlantiradi. Shu boisdan tasviriy san’at nafaqat estetik, balki tarbiyaviy va axloqiy ahamiyatga ega fan sifatida ham qaraladi.

To‘rtinchidan, tasviriy san’atni o‘qitishda “ko‘rish – his etish – ifodalash” tizimi asosiy nazariy tayanch hisoblanadi. Bu tizim o‘quvchida voqelikni faqat ko‘rish emas, balki uni his qilish va tasvir orqali ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, bir manzarani kuzatish jarayonida o‘quvchi avval ko‘radi (idrok), keyin uni his qiladi (emosional kechinma), so‘ng uni qog‘ozda ifodalaydi (ijodiy jarayon). Bu ko‘p bosqichli jarayon san’atni o‘qitishdagi metodik jarayonlarning markazida turadi.

Shuningdek, bu uchlik tizim o‘qituvchidan yuqori pedagogik sezgirlik, badiiy kuzatuvchanlik, va psixologik yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, yosh o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni uyg‘otish uchun o‘qituvchi darsni faqat ko‘rsatish emas, balki badiiy muloqotga aylantirishi lozim.

Tasviriy san’atga o‘rgatishning maqsadini 3.10-jadvalda berilgan amaliy misollar asosida qisqacha tahlil qilamiz.

3.10-jadval.

Amaliy misollar

Ta’lim bosqichi	Maqsadning yo‘nalishi	Amalga oshirish misoli
5-7-sinflar	Atrof-muhitni badiiy idrok etish, shakl va rangni ko‘rish madaniyatini rivojlantirish	Tabiat manzarasi” yoki “O‘zbekiston tabiati” mavzusida chizish mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar rang uyg‘unligi va kompozitsiya tuzilishini o‘rganadilar.
8-9-sinflar	Mustaqil badiiy fikrlashni shakllantirish	“Inson qiyofasini ifodalashda his-tuyg‘u va holat” mavzusida kompozitsiya ishlash orqali o‘quvchilar obrazli fikrlashni rivojlantiradilar.
Oliy ta’lim	Mutaxassislik kompetensiyalarini rivojlantirish	“Akademik rangtasvir” darslarida model asosida tasvir yaratish orqali kompozitsion tafakkur va ijodiy qarash shakllanadi.

Tasviriy san’atga o‘rgatishning maqsadini belgilovchi tamoyillar mavjud va

ular xususida aytib o‘tmasak bo‘lmaydi, quyida belgilovchi tamoyillarni tartib bilan ochamiz:

1. Estetik tamoyil – tasviriy san’at ta’limining eng muhim poydevoridir. Bu tamoyil o‘quvchini go‘zallikni ko‘ra bilish, his etish va uni badiiy ifoda etishga o‘rgatishni ko‘zda tutadi.

Tasviriy san’at darslari orqali o‘quvchi tabiatdagi shakllar, ranglar, nurlar, soya va uyg‘unlikni kuzatish, baholash va badiiy ifoda orqali ularni idrok etishni o‘rganadi.

Masalan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinflarida “Tabiat go‘zalligi” mavzusidagi dars mashg‘ulotida o‘quvchi tabiat manzarasini kuzatib, undagi ranglar mosligini his etadi va buni qog‘ozda ifoda qiladi.

Oliy ta’lim bosqichida esa “Kompozitsiya va rang uyg‘unligi” mavzusida talabalar ranglar psixologiyasi asosida estetik ta’sirni tahlil qiladilar.

Estetik tamoyil orqali shakllangan ko‘rish madaniyati o‘quvchida nafaqat chizish ko‘nikmasini, balki hayotga estetik munosabatni rivojlantiradi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek: – “Yoshlar qalbiga go‘zallik, mehr va nafosat tuyg‘ularini singdirish – ularni yuksak insoniylik sari yetaklaydi.[25]”

2. Milliy qadriyatlar tamoyili.

Bu tamoyil tasviriy san’at ta’limida milliy san’at, madaniyat va an’analarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishni nazarda tutadi.

Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy tajribasi, madaniy ruhi va ma’naviy merosidir.

Masalan: – “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati”, “Miniatyura”, “Naqsh san’ati”, “Me’morchilik bezaklari” mavzulari orqali o‘quvchilar milliy naqsh, rang va kompozitsiya an’analarini bilib oladilar, dars jarayonida o‘quvchilar milliy naqsh elementlarini zamonaviy dizayn loyihalariga tatbiq etish orqali milliy va zamonaviylik uyg‘unligini yaratishga o‘rganadilar. Bu tamoyil o‘quvchida milliy iftixor, Vatanga muhabbat va o‘z xalqining madaniyatiga hurmat hissini rivojlantiradi.

Masalan, “Xalq amaliy san’atining zamonaviy talqini” mavzusida talabalar an’anaviy naqsh elementlarini zamonaviy grafik dizaynda qo‘llab ko‘rishadi – bu madaniy merosni qayta talqin qilishning amaliy ko‘rinishi.

3. Ijodiy faoliyat tamoyili.

Ushbu tamoyil tasviriy san’at ta’limining faol, tajribaviy va o‘quvchi markazda bo‘lishligi xususiyatini belgilaydi.

Tasviriy san’atda ijodiy faoliyat – bu o‘quvchining mustaqil fikrlashi, o‘z badiiy g‘oyasini yaratishi va uni amaliy ish orqali ifodalashidir.

Bunga misol tariqasida: – 6-7-sinflarda “Men ko‘rgan manzara” yoki “Mening oilam” mavzusidagi kompozitsiyalari orqali o‘quvchi o‘z taassurotini mustaqil tarzda tasvirlab aks ettiradi.

– Oliy ta’lim bosqichida esa talabalar badiiy loyiha yoki avtorlik kompozitsiyasi orqali individual ijodiy uslubni namoyon qiladilar.

Ijodiy faoliyat tamoyili asosida o‘quvchilar nafaqat tayyor namunani ko‘chiradilar, balki g‘oya izlaydilar, tahlil qiladilar, tanlov qiladilar – bu esa ularda mustaqil ijodiy tafakkur va estetik qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

25 Prezidentning 2023-yil madaniyat va san’at xodimlariga bag‘ishlangan nutqidan.

4. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv.

Zamonaviy ta’lim tizimida asosiy maqsad – o‘quvchida bilim, ko‘nikma va malaka munosabati uyg‘unligini ta’minlashdir. Tasviriy san’at fanini o‘qitishda bu tamoyil o‘quvchida nafaqat amaliy malakalarni, balki ijodiy muammolarni hal qilish, estetik baholash va mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Masalan aytish mumkinki: – o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarga badiiy tahlil topshirig‘ini beradi. “Asarda qanday rang kayfiyati ustun?”, “Kompozitsion markaz qaerda joylashgan?”. Bu savollar orqali o‘quvchi nazariy bilimni amaliyot bilan bog‘laydi;

– Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda har bir dars faol o‘rganish jarayoniga aylanadi, ya’ni o‘quvchi tomoshabin emas, balki ijodiy subyekt sifatida qatnashadi.

Bu tamoyil “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Milliy o‘quv dasturi” talablariga hamohang bo‘lib, tasviriy san’at fanini faqat ijodiy yo‘nalishda emas, balki shaxsni rivojlantiruvchi vosita sifatida qarashni ta’minlaydi.

Tasviriy san’atga o‘rgatishning maqsadini zaruriy manbalar va islohotlar bilan bog‘lanishini quyida ko‘rib chiqamiz.

1. Qonun va me’yoriy-huquqiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini rivojlantirish, jumladan, tasviriy san’at fanini o‘qitish tizimini takomillashtirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son)da ta’lim jarayonining uzluksizligi, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Mazkur qonunning 4-moddasida “ta’limning maqsadi shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishiga erishish, estetik tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish” ekani belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da tasviriy san’at, musiqa, texnologiya kabi estetik yo‘nalishdagi fanlar o‘quvchilarning badiiy tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi qayd etilgan. Unda zamonaviy vizual vositalardan foydalanish, o‘qitish jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish hamda “ijodiy ta’lim muhiti”ni yaratish masalalari dolzarb yo‘nalish sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, 2022-yil 11-fevraldagi PQ-122-son Qarorda “Umumta’lim maktablarida san’at ta’limi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari” haqida so‘z yuritilib, unda tasviriy san’at o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini kuchaytirish, o‘quv dasturlarini yangilash, o‘quvchilarning ijodiy ko‘nikmalarini zamonaviy san’at yo‘nalishlari bilan uyg‘un holda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur hujjatlar asosida tasviriy san’at fanining o‘qitilishi endilikda faqat chizmachilik yoki rasm mashg‘ulotlari darajasida emas, balki kompleks estetik tarbiya tizimi sifatida qarala boshladi. Bu esa fanning metodik asoslarini qayta ko‘rib chiqish, “ko‘rish – his etish – ifodalash” tamoyilini amaliy-innovatsion yo‘nalish bilan uyg‘unlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Muhtaram, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning ta'kidicha: – "Yangi avlodni estetik didli, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash – bu millatning madaniy kelajagini ta'minlashdir[26]."

Shunday qilib, normativ-huquqiy hujjatlar va islohotlar tasviriy san'at ta'limini nafaqat fan sifatida, balki ijodiy-tarbiyaviy tizim sifatida yangicha mazmunda rivojlantirishga huquqiy asos yaratdi.

2. Ilmiy manbalar va tadqiqotlar bilan bog'liqligi.

Tasviriy san'at ta'limini metodik jihatdan takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bu fan o'quvchilar shaxsini estetik, ma'naviy va ijodiy tomondan shakllantirishda o'ziga xos o'rin tutadi.

Pedagog olim N. Tolipov o'zining "Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti" asarida qayd etadi: – "O'qitish jarayonida o'quvchini markazga qo'yish, ularni faol fikrlashga, ijodkorlikka yo'naltirish – bu zamonaviy pedagogik yondashuvlarning mohiyatidir.[27]"

Shuningdek, S. Abdirasilov va B. Boymetovning "Tasviriy san'at" o'quv qo'llanmasida ta'kidlanishicha, tasviriy san'at o'quvchining "ko'rish – his etish – ifodalash" tizimi orqali dunyoqarashini kengaytiradi va bu jarayon ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida xizmat qiladi[28].

So'nggi yillarda o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham bu yo'nalishda muhim natijalar berdi. Jumladan, A. Abdullayev o'zining "Tasviriy san'at ta'limida interfaol metodlardan foydalanish" mavzusidagi ishida darslarda "Besh daqiqa ilhom", "Ijodiy tahlil", "Tasviriy muloqot" kabi metodlar o'quvchining mustaqil estetik fikrlashini faollashtirishini asoslab berdi[29].

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Pedagogika instituti olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda (2020-2024) ta'lim jarayonida zamonaviy vizual vositalar (raqamli kollaj, 3D modellashtirish, raqamli rasm)dan foydalanish o'quvchilarning badiiy tafakkurini yangi bosqichga olib chiqayotgani ta'kidlangan.

Bu ilmiy qarashlar xalqaro tajribalar bilan ham uyg'unlashadi. Masalan, UNESCO (2023) hisobotida san'at ta'limi orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirishning uch bosqichli modeli – "perception (idrok) – creation (yaratish) – reflection (mulohaza)" asosida o'qitish samaradorligi e'tirof etilgan. Bu model bizning milliy "ko'rish – his etish – ifodalash" tizimi bilan mazmunan uyg'un keladi.

Demak, tasviriy san'at ta'limining zamonaviy metodikasi xalqaro tajriba va mahalliy ilmiy asoslar uyg'unligida rivojlanib bormoqda. Bu jarayon nafaqat ijodiy tafakkurni, balki o'quvchining shaxsiy dunyoqarashini, estetik zavqini va madaniyatli shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

3. Islohotlarning ta'lim jarayoniga ta'siri (amaliy misollar asosida)

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tasviriy san'at fanining o'qitilishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, o'quv dasturlari modernizatsiyasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etil-

26 Prezidentning 2023-yil madaniyat va san'at xodimlariga bag'ishlangan nutqidan.
27 N. Tolipov "Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti" –T.: 2006 y
28 S. Abdirasilov, B. Boymetov "Tasviriy san'at" o'quv qo'llanmasi. – T.: 2008 y
29 A. Abdullayev "Tasviriy san'at ta'limida interfaol metodlardan foydalanish" – T.: 2021 y

ishi va raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy va estetik salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

3.a). Zamonaviy dasturlar va metodik yondashuvlar.

STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) asosida tasviriy san’at darslari o‘quvchilarga ilmiy va ijodiy tafakkur uyg‘unligini rivojlantirish imkonini beradi.

Masalan, 7-sinfda “Tabiat manzarasi” mavzusida grafik dasturlar orqali rang uyg‘unligini tahlil qilish mashg‘uloti o‘quvchilarni nafaqat rasm chizishga, balki kompozitsion qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi.

3.b). Interaktiv va innovatsion metodlar.

“Akvarium” metodi yordamida o‘quvchilar o‘zaro guruhda badiiy ishlar ustida muhokama qiladilar, bu esa ijtimoiy va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

“Loyiha asosida o‘qitish” metodi orqali o‘quvchilar milliy naqshlar, folklor motivlari va zamonaviy dizayn elementlarini birlashtirgan ijodiy loyihalar yaratadilar.

3.g). Raqamli texnologiyalar integratsiyasi.

2022-2025-yillar davomida bir qancha maktablarda “Raqamli tasviriy san’at” pilot loyihalari amalga oshirildi.

Masalan, Toshkentdagi 29-maktabda o‘quvchilar tablet va grafik planshetlar yordamida miniatyura va rangtasvir mashqlarini bajarib, natijalarni onlayn baholash tizimi orqali tahlil qiladilar. Bu esa mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilishni rivojlantiradi.

3.d). Natijalar va amaliy ahamiyat.

Ilmiy tadqiqotlar (S.Abdullayev, 2021; N.Tolipov, 2020) shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy metod va raqamli vositalar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash darajasini 35-40% ga oshiradi.

Shu bilan birga, milliy va madaniy qadriyatlarni tushunish ham kuchayadi, o‘quvchilar o‘z tasviriy asarlarini nafaqat texnik jihatdan, balki estetik va ma’naviy jihatdan ham baholay oladilar.

Shuni aytish joizki, islohotlar tasviriy san’at fanini faol, interaktiv va raqamli yo‘nalishda rivojlantirish imkonini beradi.

Amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish va estetik didini shakllantirishda samarali vositadir.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’atga o‘rgatish metodikasining umumiy vazifalari, maqsad va tamoyillari, shuningdek, zaruriy manbalar va islohotlar bilan bog‘lanishi bo‘yicha olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki:

1. Tasviriy san’at fanining maqsadi o‘quvchilarda nafaqat badiiy tasvirlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki estetik tafakkur, badiiy did va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishdir. Bu jarayon o‘quvchini “ko‘rish – his etish – ifodalash” tizimi asosida ijodiy tafakkur bilan boyitadi.

2. Maqsadni belgilovchi tamoyillar (estetik, milliy qadriyatlar, ijodiy faoliyat va kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv) har bir o‘quvchi faoliyatini tizimli va maqsadli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Estetik tamoyil orqali o‘quvchi go‘zallikni anglab, uni badiiy shaklda ifoda-

lashga o‘rganadi.

Milliy qadriyatlar tamoyili esa milliy san’at merosi va madaniy an’analarni tushunish va ijodiy jarayonlarda tatbiq etish imkonini yaratadi.

Ijodiy faoliyat tamoyili mustaqil fikrlash va loyihalash orqali o‘quvchilarni ijodkor shaxs sifatida rivojlantiradi.

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv esa bilim, ko‘nikma va munosabat uyg‘unligini ta’minlaydi, o‘quv jarayonini zamonaviy standartlar bilan uyg‘unlashtiradi.

3. Zaruriy manbalar va islohotlar bilan bog‘lanish fanning metodik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Qonunlar, farmon va qarorlar, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribalar tasviriy san’at ta’limini zamonaviy, interaktiv va raqamli vositalar bilan boyitishga imkon yaratadi.

Amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini sezilarli darajada oshiradi.

Bu o‘quvchilarda nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki milliy va madaniy qadriyatlarni anglash, estetik qaror qabul qilish va ijodiy mustaqillikni rivojlantiradi.

4. Demak, tasviriy san’atga o‘rgatish metodikasi – bu faqat rasm chizish yoki rangtasvir mashg‘ulotlari emas, balki kompleks estetik, ma’naviy va ijodiy tarbiya tizimidir.

U o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, badiiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, zamonaviy metodik yondashuvlarni joriy etish, raqamli vositalardan foydalanish va milliy qadriyatlarni integratsiya qilish pedagogik jarayonni yanada samarali qiladi.

Mazkur maqsad asosida O‘zbekistonda tasviriy san’atni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, STEAM yondashuv orqali ijodiy tafakkurni shakllantirish amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytsak, tasviriy san’atga o‘rgatish metodikasining umumiy vazifalari o‘quvchilarni badiiy tafakkurga ega, estetik didli va milliy hamda umuminsoniy san’at boyliklarini qadrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Mazkur metodika nafaqat rasm chizish texnikasi va ko‘nikmalarini shakllantirish, balki san’atning mazmun mohiyatini anglash, ijodkorlikni rivojlantirish va o‘quvchini mustaqil badiiy ifodaga olib chiqishni ko‘zlaydi.

Tasviriy san’atning ta’limiy maqsadlaridan kelib chiqib, uning vazifalari quyidagilarni qamrab oladi: – badiiy idrok va tasavvurni rivojlantirish, shakl, rang, fazo va kompozitsiyani amaliy faoliyatda qo‘llash, milliy madaniyat va merosni qadrlashga o‘rgatish, ijodiy fikrlash va emotsional ifodani kengaytirish, o‘quvchilarda badiiy baholash madaniyatini tarkib toptirish.

Zamonaviy dars metodlari esa tasviriy san’at ta’limining mazmunini boyitib, o‘quvchilarni faol sub’ekt sifatida dars jarayoniga jalb etadi. Interfaol usullar, AKT texnologiyalari, loyiha asosidagi o‘qitish, ijodiy ustaxonal-

ar, STEAM yondashuvi, hamkorlikda o'qitish – bularning barchasi: – kognitiv faollikni kuchaytiradi, vizual tafakkur va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, motivatsiyani oshiradi, mustaqil izlanishni qo'llab-quvvatlaydi, o'quvchilar o'rtasida samarali muloqotni shakllantiradi.

Nazorat va baholash tizimining tahliliy va rag'batlantiruvchi yondashuvi o'quvchilarning o'z imkoniyatini to'liq namoyon etishiga xizmat qiladi. Baholash natijalari o'qituvchiga yangi metodik yechimlarni qo'llash uchun yo'l-yo'riq beradi.

Yakuniy xulosaga ko'ra: – tasviriy san'atga o'rgatish metodikasi – o'quvchilarni badiiy ijodiyot orqali har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks pedagogik jarayon bo'lib, uning samaradorligi ta'lim maqsadlarining aniq belgilanishi va darsning zamonaviy metodlar asosida tashkil etilishiga bog'liq. Bu metodik tizimning uyg'un amalga oshirilishi: – san'atni anglash madaniyatini shakllantiradi, kreativlik va badiiy tafakkurni rivojlantiradi, shaxsning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi.

3.4-§ Bo'yicha nazorat savollari

1. Tasviriy san'atga o'rgatish metodikasining umumiy vazifalari nimalardan iborat?

2. Tasviriy san'atni o'qitishdan ko'zlangan asosiy ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni sanab bering.

3. Darsni tashkil qilishda didaktik tamoyillar qanday rol o'ynaydi?

4. Zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchi faolligini qanday oshiradi?

5. Amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda o'qituvchi qanday funksiyalarni bajaradi?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Tasviriy san'at darslarida badiiy muhitni yaratish nima uchun muhim?

7. Interfaol metodlar va an'anaviy metodlarni qiyoslab, farq va ustunliklarini yoriting.

8. "Ijodkorlikni rivojlantirish" metodik maqsadi qanday usullarda eng samarali namoyon bo'ladi? (minimum 3 ta usul bilan)

Qo'shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – Bir tasviriy san'at darsi uchun zamonaviy metodlar asosida mini-scenario tuzing (5-6 qadam).

Topshiriq 2: – "San'at orqali tarbiya" mavzusida 5 jumladan iborat qisqa mulohaza yozing.

3.5 § Tasviriy san'at darslarida muammoli vaziyatlarni yaratish. O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish. Ularning tafakkurida obraz va tushunchalarni shakillantirish usullari

Tasviriy san'at darslarida muammoli vaziyatlar yaratish – o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishning samarali usulidir. Muammoli vaziyat – bu o'quvchi oldiga qo'yilgan bir nechta yechim variantlari mavjud bo'lgan, mantiqiy va badiiy tahlilni talab qil-

adigan vazifadir.

Avvalo, muammoli vaziyatning metodik ahamiyati xususida to‘xtalsak.

Muammoli vaziyat orqali o‘quvchi faqat rasm chizish yoki rang uyg‘unligini tanlash bilan cheklanmaydi, balki mavzuni chuqur idrok qilish, qarorlarni solishtirish va baholash jarayonidan o‘tadi.

O‘quvchi faoliyatining markazida “ko‘rish – his etish – ifodalash” tizimi turadi, biroq bu safar tanqidiy va analitik tafakkur bilan boyitiladi.

Muammoli vaziyat – o‘quvchi oldiga qo‘yilgan, bir nechta yechim variantlari mavjud bo‘lgan va tahlil hamda tanqidiy fikrlashni talab qiluvchi vazifa. Tasviriy san’at darslarida bu metod o‘quvchilarning ijodiy va analitik tafakkurini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Pedagogika fanlari tadqiqotchilari N.Tolipov, S.Abdullayevlar ta’kidlaganidek, muammoli vaziyat o‘quvchi faoliyatini faqat texnik ko‘nikmalardan tashqariga olib chiqadi va ularni badiiy, estetik hamda tanqidiy tafakkur bilan boyitadi.

Tanqidiy tafakkur orqali o‘quvchi mavzuni chuqur idrok qiladi, qarorlarni solishtiradi va baholash jarayonidan o‘tadi.

Dars jarayonida o‘qituvchi muammoli vazifalarni quyidagi yo‘nalishlarda tashkil qilishi mumkin, buni 3.11-jadvalda ko‘rib chiqamiz.

3.11-jadval.

Muammoli vazifalarni yo‘nalishlari

Vazifa turi	Maqsad	Amaliy misol	Kutiladigan natija
Rang uyg‘unligini tanlash	O‘quvchi ranglarni mantiqan joylashtirish va vizual qaror qabul qilish	O‘quvchiga 3 rang beriladi, mavzu: “Bahor manzarasi”. Vazifa: ushbu ranglar bilan turli kompozitsiyalar yaratish	O‘quvchi rang uyg‘unligi, kontrast va fon bilan ishlashni o‘rganadi
Kompozitsion yechim topish	Ob’ektlar joylashuvi va sahna markazini belgilash	“Shahardagi hayot” mavzusida o‘quvchilar turli joylashuv variantlarini chizadi	Mustaqil qaror qabul qilish, qarorlar orasidan eng samarali variantni tanlash
Ijodiy yechim yaratish	Obraz va tushunchalarni mustaqil shakllantirish	“Mening kelajagim” mavzusida turli obrazlar yaratish, so‘ng sinfdoshlar bilan tahlil qilish	O‘quvchi o‘z fikrini asoslaydi, tanqidiy fikrlash va ijodiy tafakkur rivojlanadi

Tasviriy san’at darslarida muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarishga doir amaliy misol keltiramiz:

6-sinfda “Tabiatdagi manzaralarni yaratish” mashg‘ulotida o‘quvchilarga turli ranglar va kompozitsiya elementlari beriladi. Vazifa: “Ushbu rang uyg‘unligini qanday boshqa usul bilan ifodalash mumkin?”

Shu tarzda o‘quvchi nafaqat badiiy yechim topadi, balki tanqidiy fikrlash va muqobil variantlarni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Beradigan pedagogik tavsiyalarimiz:

1. Muammoli vazifalarni har doim o‘quvchining yoshiga va tajribasiga mos

tarzda tanlash.

2. Guruh va individual ishlarni uyg‘unlashtirish orqali ijtimoiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

3. Vazifa bajarilgandan so‘ng, o‘quvchi ishini baholash mezonlari bilan tahlil qilish va muqobil yechimlarni muhokama qilish.

4. Muammoli vaziyatlarni raqamli vositalar bilan boyitish (grafik planshetlar, vizual kollajlar) o‘quvchilarning ijodiy va analitik salohiyatini oshiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, muammoli vaziyat o‘quvchi faoliyatining markazida “ko‘rish – his etish – ifodalash” tizimini saqlab qolgan holda, tanqidiy va analitik tafakkur bilan boyitadi. Shu bilan birga, o‘quvchilar nafaqat badiiy yechim topadi, balki mavzuni chuqur idrok qilish, qarorlarni solishtirish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Endi, o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish usullari borasida ham fikr yuritsak.

Tanqidiy fikrlash – bu ma’lumotni baholash, tahlil qilish, sabab-natija munosabatlarini aniqlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatidir. Tasviriy san’at darslarida bu qobiliyat o‘quvchilarni ijodiy va analitik tafakkur bilan boyitadi hamda ularning estetik didini rivojlantiradi.

Tasviriy san’at darslarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun o‘qituvchi:

1. O‘quvchilarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi (rang uyg‘unligi, kompozitsiya markazi, estetik tasir).

2. Har bir o‘quvchi ishini tahlil qiladi va o‘zaro fikr almashish jarayoni tashkil etadi.

3. Muqobil yechimlarni ko‘rsatadi va o‘quvchini o‘z yechimlarini asoslashga undaydi.

Buni amaliy misollarda ko‘rsak:

“Shahardagi hayot manzarasi” mavzusida o‘quvchilar turli texnikada rasm yaratadi. O‘qituvchi: “Qaysi yechim sahnani yanada jonli va harmonik ko‘rsatadi va nima uchun?” deb so‘raydi. Bu jarayon o‘quvchini analitik va tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish tamoyillari mavjud va ularga quyida to‘xtalamiz.

Baholash mezonlari bilan tanishtirish: – O‘quvchiga ishni baholash mezonlari oldindan taqdim etiladi, masalan, rang uyg‘unligi va kontrast, kompozitsiya markazi va muvozanati, estetik tasir va obraz ifodasi, milliy va madaniy qadriyatlarni aks ettirish.

O‘zaro fikr almashish jarayoni: – har bir o‘quvchi ishini tahlil qiladi va sinfdoshlar bilan muloqot orqali baholaydi. Bu jarayon o‘quvchida analitik tafakkur va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Muqobil yechimlarni ko‘rsatish va asoslashga undash: O‘qituvchi turli yechim variantlarini ko‘rsatadi, so‘ng o‘quvchilarni o‘z yechimlarini mantiqan asoslashga undaydi. Bu esa mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash bo‘yicha ilmiy-uslubiy asoslarga e’tiborimizni qaratsak, N.Tolipov ta’kidlaydi: – tanqidiy fikrlashni shakllantirishda o‘quvchi faqat bajarilgan ishni tahlil qilmasdan, balki qaror qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan

variantlarni solishtirish orqali chuqur estetik va badiiy idrokga ega bo‘ladi. S.Abdullayev esa o‘z tadqiqotida shuni aniqlagan: – o‘quvchilarga muqobil yechimlarni tahlil qilish imkoniyati berilganda, ularning ijodiy tafakkur darajasi 30-40% ga oshadi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish yuzasidan amaliy-metodik tavsiyalarni 3.12-jadval asosida yoritshga harakat qilamiz.

3.12-jadval.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish

Metod/ Yo‘nalish	Maqsad	Amaliy misol	Natija
Baholash mezonlari	O‘quvchi ishini tizimli baholashni o‘rganadi	“Tabiat manzarasi” rasmida rang uyg‘unligi va kontrastni belgilash	Rang tanlash va vizual qaror qabul qilish ko‘nikmasi
Guruh muhokamasi	Fikr almashish va analitik tafakkur	Har bir o‘quvchi turli rasm variantlarini tahlil qiladi, eng samarali variantni sinfdoshlariga tushuntiradi	Tanqidiy fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi
Muqobil yechimlarni tahlil qilish	Mustaqil qaror qabul qilish	“Shahar manzarasi” mavzusida 3 variant taqdim qilinadi, o‘quvchi o‘z yechimini asoslaydi	Qaror qabul qilish, mantiqiy asoslash va ijodiy tafakkur

Demak, tanqidiy fikrlashni shakllantirish o‘quvchilarda faol tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yechim yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradi deb aytsak bo‘ladi.

Tasviriy san’at darslarida bu jarayon muammoli vaziyatlar bilan uyg‘unlashgan holda, obraz va tushunchalarni chuqur idrok qilishga xizmat qiladi. Shu orqali o‘quvchilar estetik did, badiiy idrok va madaniy qadriyatlarni mustahkam egallaydi.

Shu o‘rinda, obraz va tushunchalarni shakllantirish usullari xususida ham fikrlashib olsak.

Tasviriy san’atda obraz – bu mavzu yoki voqelikni o‘quvchi tomonidan ijodiy ifodalash. Tushuncha esa badiiy va ma’naviy mazmunni idrok etishni bildiradi. O‘quvchilarni obraz va tushunchalarni yaratishga o‘rgatish pedagogik jarayonda ijodiy va analitik tafakkurni uyg‘unlashtirishning asosiy yo‘nalishidir.

O‘quvchilarni obraz va tushunchalarni yaratishga o‘rgatishning quyidagi metodlarini ko‘rsatish mumkin:

1. Vizual analogiya – o‘quvchi ma’lum predmet yoki manzarani boshqa ob’ektlar bilan solishtiradi va yangi obraz yaratadi.
2. Ijodiy metafora – mavzu bo‘yicha o‘ziga xos badiiy izoh kiritish.
3. Muloqot va munozara – o‘quvchilar bir-birining ishini tahlil qiladi va fikr almashadi.
4. Eksperiment – turli texnikalar yoki rang kombinatsiyalarini sinab ko‘rish orqali yangi vizual yechim yaratish.

Tasviriy san’atda obraz va tushunchalarni shakllantirish usullarini 3.13-jadval asosida tahlil qilib ko‘ramiz.

3.13-jadval.

Metodlar va ularning ilmiy asoslari

Metod	Tavsif	Ilmiy manba / Tadqiqot	Amaliy misol
Vizual analogiya	Ma’lum predmet yoki manzarani boshqa ob’ektlar bilan solishtirish orqali yangi obraz yaratish	N.Tolipov – o‘quvchilarda vizual tafakkur rivojlanadi	“Bog‘ manzarasi”ni turli mavsumlarda solishtirib yangi rang uyg‘unligi yaratish
Ijodiy metafora	Mavzu bo‘yicha o‘ziga xos badiiy izoh kiritish	S.Abdullayev – metafora o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini 30-40% oshiradi	“Mening kelajagim” mavzusida har bir o‘quvchi o‘z metaforasini vizual shaklda yaratadi
Muloqot va munozara	O‘quvchilar bir-birining ishini tahlil qiladi va fikr almashadi	UNESCO, 2023 – interaktiv metodlar ijodiy tafakkur va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi	Guruhda “Shahar manzarasi” rasmidagi rang uyg‘unligini va kompozitsiyani tahlil qilish
Eksperiment	Turli texnikalar yoki rang kombinatsiyalarini sinab ko‘rish orqali yangi vizual yechim yaratish	Pedagogika instituti (2020-2024) – eksperiment metodlari o‘quvchilarning ijodiy qaror qabul qilishini oshiradi	“Tabiat elementi” mavzusida akvarel va akril texnikalarini uyg‘unlashtirish

Obraz va tushunchalarni shakllantirish metodlari vizual tafakkur, ijodiy qaror qabul qilish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘quvchilar metodlarni uyg‘unlashtirib ishlaganda mustaqil va tanqidiy fikrlash, estetik did va badiiy idrok darajalari sezilarli darajada oshadi.

Amaliy misol sifatida ko‘radigan bo‘lsak: – “Mening shahrim tongi” mavzusida o‘quvchi geometrik shakllar va rang uyg‘unligini sinab, turli obraz variantlarini yaratadi. Keyin o‘z ishini sinfdoshlariga taqdim qiladi va ular bilan munozara qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning obraziy tafakkuri va badiiy idrokini rivojlantiradi.

Demak, tasviriy san’at darslarida muammoli vaziyatlar yaratish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va obraz tushunchalarni shakllantirish metodlari o‘quvchilarning ijodiy, estetik va madaniy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa zamonaviy ta’limning asosiy pedagogik vazifalaridan biridir.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, tasviriy san’at darslarida muammoli vaziyatlarni yaratish ta’lim jarayonining faolligini oshiradi, o‘quvchilarni fikrlash jarayoniga jalb etadi va ularda mustaqil izlanish ehtiyojini shakllantiradi. Bunday yondashuv o‘quvchini tayyor javob oluvchi emas, balki badiiy tafakkur orqali muammoga yechim topuvchi faol ijodkor sifatida tarbiyalaydi. Muammoli vaziyatlar taqdim etilganda o‘quvchilar analiz-sintez, solishtirish, umumlashtirish va baholash kabi yuqori darajali kognitiv amallarni bajarishga intiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari o‘quvchilarning tasviriy faoliyatda

qaror qabul qilish, kompozitsion yechim topish va badiiy vositalardan ongli foydalanish malakasini kengaytiradi. Buning natijasida ular badiiy shaklning mohiyatini chuqur anglaydi, har bir detalning kompozitsiya va mazmun bilan bog‘liqligini anglab yetadi. Tanqidiy fikrlash – ijodkor shaxs tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Obraz va tushunchalarni shakllantirish usullari esa o‘quvchilar tasavvur dunyosini kengaytiradi va vizual idrok jarayonini boyitadi. Pedagog o‘quvchini real ob’ekt kuzatuvidan boshlab, uni tasavvurda qayta ishlash, badiiy talqin va ekspressiv obraz yaratish jarayoniga yo‘naltiradi. Bu jarayon Vygotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» tamoyiliga tayanib, o‘quvchining tafakkurini yuqori bosqichga olib chiqadi.

Muammoli vaziyat, tanqidiy fikrlash va obraz yaratish usullarining uyg‘un qo‘llanilishi tasviriy san’at darslariga quyidagi asosiy yondashuvlarni joriy qiladi: – o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga undaydi, nazariy bilimni amaliy yechimga aylantiradi, san’atni idrok qilishga nisbatan faol munosabat hosil qiladi, estetik va ma’naviy qadriyatlarni anglash jarayonini kuchaytiradi, shaxsning kreativ kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, mazkur paragrafda bayon etilgan metodlar tasviriy san’at ta’limining mazmunini chuqurlashtirib, o‘quvchini mustaqil, badiiy fikr yurita oladigan, ijodkor va estetik didli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

3.5-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Muammoli vaziyat (problem-based situation) deganda nima tushuniladi?
2. Tasviriy san’at darslarida muammoli savollardan foydalanishning ahamiyati nimada?
3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradigan qaysi didaktik usullar mavjud?
4. Obraz va tushunchalarni shakllantirish jarayonida kuzatishning roli qanday?
5. O‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydigan topshiriqlar qanday belgilarga ega?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Muammoli topshiriq ijodiy tafakkurni qanday faollashtiradi? Misol bilan izohlang.
7. Tasviriy dars jarayonida “mavzu – g‘oya – obraz” o‘zaro bog‘liqligini tadqiqotchi sifatida tushuntiring.
8. Tanqidiy fikrlash bilan badiiy tafakkur o‘rtasida qanday o‘zaro bog‘liqlik bor?

Qo‘shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – Berilgan rasm asosida muammoli vaziyat yarating va o‘quvchilar uchun 3 ta savol shakllantiring.

Topshiriq 2: – Bir tasviriy san’at darsi uchun tanqidiy fikrlash modelini tuzing (masal: “Nima? – Nega? – Qanday?” sxemasi asosida).

3.6 § Tasviriy san’at fanidan o‘quvchi va talabalarning o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirishini baholash tizimi. O‘quvchi va talabalarda o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirishini aniqlash tizimi

Tasviriy san’at ta’limida baholash jarayoni nafaqat o‘quvchi yoki talabaning bilim darajasini aniqlash, balki ularning ijodiy fikrlashi, tasviriy malakasi, kompozitsion yechimlarni qo‘llash ko‘nikmasi va estetik didining rivojlanish darajasini ham yoritib beradi. Baholash tizimi o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchi ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish, o‘z ustida ishlashga undash hamda o‘qituvchiga ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tahliliy fikrlar beradi.

Tasviriy san’at ta’limida baholash tizimining asosiy tamoyillari:

1. Adolatlilik va shaffoflik – baholash mezonlari oldindan belgilangan, o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi shart.

2. Jarayonni baholash – faqat yakuniy natija emas, balki o‘quvchining mehnati, bosqichma-bosqich rivojlanishi ham inobatga olinadi.

3. Ijodiy yondashuvni rag‘batlantirish – o‘quvchi yangi g‘oya, o‘ziga xos badiiy yechim taklif qilgan taqdirda baho oshiriladi.

4. Individuallashtirilgan baholash – har bir bolaning tasviriy qobiliyati turlicha bo‘lganligi sababli baholash shaxsiy rivojlanish dinamikasi asosida olib boriladi.

5. Ko‘p mezonlilik – rasmning texnik bajarilishi, kompozitsiya, rang yechimi, mavzuga mosligi, ijodiylik darajasi alohida inobatga olinadi.

Quyida har bir tamoyilni kengaytirilgan va ilmiy uslubda qayta ishlab chiqqanmiz:

1. Adolatlilik va shaffoflik tamoyili.

Baholash tizimida adolatlilik avvalo talabalarning bilim va mahorat darajasini xolisona inobatga olishni anglatadi. Shaffof (rubrikalar), oldindan e’lon qilingan mezonlar, ochiq natijalar – shaffoflikning asosiy vositalaridir.

Ilmiy asos sifatida: – Yevropa pedagogikasida baholashning shaffoflik tamoyili “assessment transparency principle” deb yuritiladi va bir qator tadqiqotlarda uning o‘quv motivatsiyasiga ijobiy ta’siri isbotlangan (Black & Wiliam, 1998; Hattie, 2009).

Endi bunga amaliy misol sifatida (maktab darsi uchun) quyidagilarni aytish mumkin:

O‘quvchilarga rasm chizishni boshlashlaridan avval quyidagi ma’lumot beriladi: – ish qanday baholanadi, qaysi mezon eng ko‘p ball beradi, qaysi xatolar ball pasayishiga sabab bo‘ladi.
STEAM yondashuvi o'quvchilarda rivojlantiradigan kompetensiyalarni ko'rib chiqamiz:

1) Kreativ muammoli fikrlash. O'quvchi san'at orqali fan va texnika bilan bog'liq muammolarni hal qiladi. Misol uchun, "Shahar arxitekturasining ekologik modeli" – rangtasvir, chizmachilik va ekologiya integratsiyasi.

2) Dizayn va konstruktorlik ko'nikmalari. O'quvchida muhandislik tafakkuri rivojlanadi. Misol uchun, 3D qoralama asosida haykal loyihalash.

3) Texnologik savodxonlik. Rangtasvir + raqamli grafika + kompyuter dizayni birgalikda qo'llanadi. Misol, Canva, Figma, Sketchbook, Procreate orqali maket qurish.

4) Matematika asosidagi kompozitsiya. Nisbat, proporsiya, simmetriya, oltin kesim kabi tushunchalar vizual san'atda juda muhim.

STEAM yondashuvining tasviriy san'atda qo'llanishiga odi amaliy misollar keltirib o'tamiz. Masalan:

1. "Geometrik san'at loyihasi". Matematika + San'at:
– Fraktal naqshlar;
– Islomiy geometriya ornamentlari;
– Oltin kesim asosidagi kompozitsiya.
2. "Mini robot dizayni". Texnologiya + Dizayn + San'at:
– O'quvchilar oddiy motorli robot korpusini dizayn qiladilar;
– Rangi, shakli, ergonomik jihatdan baholash.
3. "Ekologik makon" loyihasi. Biologiya + San'at + Muhandislik:
– "Yashil maktab hududi" maketi;
– Daraxtlar formasi, landshaft kompozitsiyasi, rang uyg'unligi.
4. "AR (augmented reality) san'at loyihasi". Texnologiya + San'at:
– Rasm ustiga AR elementlar joylashtirish;
– Ko'rgazmalarda qo'shimcha effektlar yaratish.

STEAM yondashuvining afzalliklarini qo'yidagi 3.42-jadvalda ko'rib chiqamiz.

3.42-jadval.

STEAM yondashuvining afzalliklari

Yo'nalish	Mazmuni	Tasviriy san'atdagi qo'llanilishi
S – Science	Tabiiy fanlar bilan bog'lanish	Yorug'lik-soya, optik perspektiva
T – Technology	Raqamli texnologiyalar	Grafik planshet, AR, 3D
E – Engineering	Konstruktorlik, loyihalash	Maket yaratish, model qurish

A – Art	Estetika, dizayn	Rang uyg‘unligi, kompozitsiya
M – Math	Geometriya, nisbat	Simmetriya, oltin kesim

STEAM – xalqaro ta’lim standartlari nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak avvalo, shuni ta’kidlash joizki. UNESCOning 2022 yil hisobotida ta’kidlanishicha: – “STEAM ta’limi o‘quvchilarning estetik dunyoqarashi va innovatsion iqtidorining uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydigan eng samarali modeldir.” – deb e’tirof etilgan.

OECDning PISA hisobotiga ko‘ra, STEAM bilan o‘qigan o‘quvchilarning: – kreativ fikrlashi 38%, muammoni hal etish qobiliyati 41%, loyiha faoliyatidagi muvaffaqiyati 34% yuqori bo‘ladi deb qayd etilganligini ko‘rishimiz mumkin.

4. Raqamli pedagogik metodlar (Digital art education).

XXI asrda san’atning yangi tili – raqamli san’at (digital art) san’at ta’limida fundamental yo‘nalishga aylandi. UNESCO‘ning 2023 yilgi “Future of Education” hisobotida quyidagi fikr qayd etilgan: – “Digital creativitu – XXI asr o‘quvchisining bazaviy kompetensiyasi bo‘lib, san’at fanlari o‘quv jarayoniga raqamli vositalar integratsiyasi dolzarb ehtiyojdir.”

OECDning raqamli bilimlar kompetensiyasi bo‘yicha tadqiqotlarida esa ta’kidlanadi: – “Raqamli vizuallashtirish texnologiyalari kreativ fikrlash, dizayn tafakkuri va media savodxonlikni bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini beradi.”

AQSHdagi Art Education Research Institute ma’lumotlarida: – “Raqamli san’at o‘quvchilarni yangi badiiy ifoda tiliga, kreativ tajriba poligoniga va zamonaviy dizayn sanoati bilan bog‘liq real kasbiy ko‘nikmalarga olib kiradi.” – deya qayd etilgan.

Raqamli pedagogik metodlarning asosiy tamoyillari xususida gapiradigan bo‘lsak ular quyidagalar:

1. Kreativ vizual media orqali o‘qitish. Misol, foto, video, grafik, animatsiya, 3D modellar.

2. Raqamli vositalardan foydalanib mustaqil ijodiy ishlarni bajarishda o‘quvchi bevosita grafik planshet, telefon yoki noutbuk orqali badiiy ishlar yaratadi.

3. Interaktivlik va immersiv ta’lim. O‘quvchilar AR (augmented reality), VR (virtual reality) texnologiyalari orqali san’atni o‘rganishga erishadilar.

4. Raqamli kommunikatsiya. O‘quvchilar, onlayn platformalar orqali ijodiy almashinuvga erishadilar.

O‘quvchilarda, raqamli metodlarning rivojlantiradigan kompetensiyalari xususida quyidagilarni aytish mumkin bo‘ladi:

1) Mediasavodxonlik va vizual tafakkur – o‘quvchi vizual belgilar, media mazmuni va digital kompozitsiyani to‘g‘ri talqin qiladi.

2) Raqamli dizayn va kreativlashtirish ko‘nikmalari – logotip, poster, reklama, illyustratsiya ishlash malakalari rivoj topadi.

3) Innovatsion tafakkur – digital vositalar orqali real muammoning vizual yechimini topish ko‘nikmalari rivojlanadi.

4) Amaliy kasbiy ko‘nikmalar – UI/UX dizayn, motion design, 3D model, concept art – bugungi bozorda eng talabga ega ko‘nikmalar yaxshi rivojlanadi.

Tasviriy san'at darslarida qo'llaniladigan asosiy raqamli metodlar borasida ham quyida to'xtalsak:

1. Digital Painting (Raqamli rangtasvir) – Procreate, Photoshop, Sketchbook kabi dasturlar orqali rangtasvir asarlarini yaratish imkonichtlari ortadi.

Bunga oid mashg'ulot misoli: – "Portretni raqamli yorug'-soya asosida ishlash". Ko'rinib turibdiki bu orqali o'quvchi klassik akvarel texnikasini digital muhitda qayta yaratadi.

2. Vector Art Metodi – Illustrator, Corel Draw, Inkscape orqali grafik obrazlar yaratish. Logotip, piktogramma, info-grafika – bugungi dizayn sanoatida eng asosiy yo'nalish.

Bunga doir amaliy misol sifatida: – "O'zbek milliy naqshlaridan foydalanib minimalistik logo ishlab chiqish"ni aytish mumkin.

3. 3D Model va Sculpting Metodi – Blender, ZBrush orqali 3D personaj, arxitektura, jism modellash. Misol, O'quvchilarga "Qadimiy O'zbekiston me'moriy obidasining 3D maketini yaratish loyihasi" topshiriq sifatida beriladi va ular bu topshiriqni katta qiziqish bilan bajaradilar.

4. AR/VR san'at loyihalari – AR orqali muzey eksponatlariga qo'shimcha virtual effektlar yaratish. VR orqali 360° makonda san'at ob'ektini yaratish. Misol, "VR muhitda kompozitsion manzara yaratish" – o'quvchi makon ichida o'zi mustaqil tarzda kompozitsiya tuzadi.

5. Raqamli kollaj va media-mix metodi – Real suratlar, chizmalar, grafik effektlarni birlashtirib original digital kompozitsiya yaratish. Misol:, "O'zbekiston tabiat manzaralari asosida media-kollaj yaratish".

Digital san'at metodlari bo'yicha quyida 3.43-jadvalni ishlab chiqqanmiz.

3.43-jadval.

Digital san'at metodlari

Metod turi	Asosiy vosita	O'rgatiladigan kompetensiya	Amaliy misol
Digital Painting	Procreate, Photoshop	Raqamli rangtasvir	Portret digital ishlanishi
Vector Art	Illustrator	Minimalizm, shakl	Milliy naqshli logo
3D Modeling	Blender, ZBrush	Fazoviy tafakkur	Me'moriy maket
AR/VR Art	Unity, Spark AR	Immersiv fikrlash	AR ko'rgazma yaratish
Media Collage	Photoshop	Kreativ kompozitsiya	Tabiy manzara kollaji

Digital san'at metodlarining UNESCO va O'zbekiston ta'lim siyosatidagi ahamiyati xususida shuni alohidi aytish zaruriyati bor. Masalan, UNESCO hisobotida: – "Raqamli san'at o'quvchini global madaniyatning faol ishtirokchisiga aylantiradi." – deb qayd etilgan.

O'zbekistonda 2021-2024 yillardagi raqamlashtirish strategiyasida maktablarda: – grafik dizayn, raqamli kreativlik, media texnologiyalar yo'nalishlari qizg'in joriy etilmoqda. Bu jarayon tasviriy san'at fanida raqamli metodlarning

keng qo‘llanilishini talab etadi.

5. Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning)

Loyihaviy ta’lim metodi ilk bor J. Dewey va W. Kilpatrick tadqiqotlarida ilmiy asoslangan. Ular ta’limning asosiy vazifasi – o‘quvchini real hayotga tayyorlash ekanligini ta’kidlaydilar.

John Dewey ta’limda “tajribaga asoslangan o‘rganish” prinsipini ilgari surgan: – “O‘quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki amaliy faoliyat jarayonida o‘zi kashf qilishi kerak” deb ta’kidlagan bo‘lsa.

W. Kilpatrick esa loyihani: – “O‘quvchining maqsadga yo‘naltirilgan mustaqil faoliyati” deya ta’riflaydi.

2020-2023 yillardagi OECD tahlillarida PBL “o‘quvchining XXI asr kompetensiyalarini shakllantiruvchi eng samarali tizim” sifatida qayd etilgan.

UNESCOning 2023 yilgi hisobotida esa loyihaviy usul: – “Ijodiy tafakkur, tanqidiy o‘ylash va ijtimoiy hamkorlikni eng yuqori darajada rivojlantiradigan ta’lim mexanizmi” dir deb ta’kidlangan.

PBL metodining asosiy tamoyillari xususida to‘xtalib, quyidagi tamoyillarni aytishimiz lozim.

1. Mustaqil izlanish: – o‘quvchi mavzu bo‘yicha manbalarni o‘rganadi, g‘oya taklif qiladi, izlanadi.

2. Real hayotga yo‘nalganlik: – vazifa, mavzu yoki loyiha hayotiy jarayon, muammo va jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

3. Ijodiy mahsulot yaratish: – rasm, poster, maket, 3D model, AR loyiha, kompozitsiya yoki videorolik.

4. Taqdimot ko‘nikmasi: – o‘quvchi o‘z ishini himoya qiladi, ijodiy asosini tushuntiradi, bahsda ishtirok etadi.

5. Hamkorlikda o‘rganish: – guruhda ishlash, rollar taqsimoti, jamoaviy fikrlash.

Shu o‘rinda, tasviriy san’at ta’limida PBL metodining afzalliklari borasida aytish zaruriyati bor.

1) Ijodkorlik rivoji: – o‘quvchi yangi kompozitsiyalar, rang vositalari, reja va g‘oyalar yaratadi.

2) Badiiy fikrlash va muammoli yondashuv: – masalan, “Shahar ekologiyasini yaxshilash uchun dizayn takliflari”.

3) Haqiqiy kasbiy ko‘nikmalar: – dizayn studiyasi, ijodiy muhit, jamoaviy ijod tajribasiga yaqin model.

4) O‘z-o‘zini baholash: – o‘quvchi o‘zi ishlagan ishini anglaydi, xulosa chiqaradi, tahlil qiladi.

Endi, tasviriy san’atda qo‘llanadigan PBL loyihalariga misollar keltiramiz. Masalan:

1. “Mening mahallam uchun mural dizayni” loyihasi: – mahalla tarixi tadqiq etiladi, deviorda bo‘ladigan rasm eskizi chiziladi, rang tanlovi, kompozitsiya, ma’no asoslanadi, yakunda loyiha taqdim qilinadi.

2. “Milliy naqsh asosida zamonaviy brend identifikatsiyasi”: – o‘quvchilar milliy ornamentlarni o‘rganadi, brend uchun logo, pattern va vizual yechim topadi, natija sifatida tayyor dizayn-paket yaratiladi.

3. “O‘zbekiston me’moriy obidalarining 3D modeli”: – tarixiy manbalarni o‘rganish, blenderda 3D model yaratish, AR formatga o‘tkazish (xohlasa), ko‘rgazmaga qo‘yish.

4. “Tabiatni asrashga bag‘ishlangan plakatlar”: – ekologik muammo tanlanadi, poster, kollaj yoki illyustratsiya ishlanadi, ijtimoiy reklama sifatida taqdim qilinadi.

Quyida loyihaviy usul bo‘yicha tahliliy 3.44-jadvalni ishlab chiqqanmiz, unga ko‘ra loyiha bosqichi, o‘quvchi faoliyati va o‘qituvchining vazifasidan iborat bo‘limlarga ajratilgan hamda amaldagi vazifalari ko‘rsatib o‘tilgan.

3.44-jadval.

Loyihaviy usul

Loyiha bosqichi	O‘quvchi faoliyati	O‘qituvchi vazifasi
1. Muammoni aniqlash	Savol qo‘yadi, izlanadi	Yo‘naltiradi
2. Rejalashtirish	G‘oya, chizma, eskiz	Maslahat beradi
3. Ijodiy mahsulot yaratish	Rasm, maket, dizayn	Jarayonni boshqaradi
4. Taqdimot	Ishini asoslaydi	Savollar beradi
5. Refleksiya	Xulosa chiqaradi	Baholash mezonini qo‘llaydi

Loyiha asosida o‘qitishning O‘zbekiston ta’limidagi ahamiyati va bu o‘qitish metodlariga doir aniq maqsadlarga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: – “Yangi avlodni mustaqil fikrli, tashabbuskor va ijodkor qilib tarbiyalash – bugungi ta’limning bosh vazifasidir.”

Chunonchi, loyihaviy o‘qitish aynan shu maqsadga xizmat qiladi. 2021-2023 yillarda umumiy o‘rta maktablarda “Ijodiy loyihalar haftaligi” amaliyotga joriy qilindi – bu ham PBL metodining milliy amaliy asosidir.

6. Kuzatish va amaliy tajriba metodlari.

Kuzatish va amaliy tajriba metodlari tasviriy san’at ta’limida praktik bilimlarni shakllantirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. J. Dewey va L. Vygotskiy ta’kidlaganidek, o‘quvchi bilimni faqat nazariy emas, balki amaliyot orqali ham o‘zlashtiradi.

Loyiha asosida o‘qitishning nazariy asoslari sifatida quyidagilarni e’tirof etish zarur.

Plein-air (ochiq havoda rasm chizish) – tabiiy muhitni kuzatish orqali rasmiy kompozitsiyani shakllantirishni asosan nazarda tutadi.

Muzey darsi – skafolded tahlil modeli (scaffolded analysis) asosida asarlarni chuqur o‘rganish, o‘quvchi tahliliy fikrlashni rivojlantiradi (Bruner).

Atelye mashg‘ulotlari – turli texnikalarda bir obyektni ishlash orqali eksperiment va kreativ ko‘nikmalar rivojlanadi.

Metodlarning asosiy bosqichlarini qisqa tahliliga o‘tsak.

1. Plein-air, kuzatish – tabiiy manzarani yoki obyektni diqqat bilan o‘rganish, eskiz – qisqa rasm, kompozitsiya va asosiy chiziqlarni belgilash, yakuniy rasm –

rang, tekstura, yorug‘lik-soya kombinatsiyasi bilan to‘liq asar yaratish.

Bunga amaliy misol keltiradigan bo‘lsak: – o‘quvchi parkdagi daraxtlarni kuzatadi → qisqa rasm chizadi → yakuniy ish akvarelda rasm yaratadi.

2. Muzey darsi: – skafolded tahlil modeli asosida o‘quvchi asarni bosqichma-bosqich o‘rganadi, bunda asosan: – ko‘rish – umumiy taassurot, tahlil – kompozitsiya, rang uyg‘unligi, texnika, talqin – o‘z fikrini asoslash, savollar berish.

Amaliy misol sifatida aytish mumkin: – o‘quvchilar M.Nabiyev yoki I. Repin asarini guruhda tahlil qiladi, har bir o‘quvchi o‘z xulosasini bildiradi.

3. Atelye mashg‘ulotlari.

Bir obyektni turli texnikalarda ishlash: – akvarel, gouache, karandas, pastel.

Ma’qsad: – bir obyektni turli rang, chiziq va tekstura bilan ifodalashni o‘rganish.

Amaliy misol sifatida aytish mumkin.

O‘quvchi haykal yoki vazani: – akvarelda, guashda, qalamda, pastel yordamida chizadi.

Metodlarning o‘quvchilarda rivojlantiradigan kompetensiyalari xususida 3.45-jadvaldan bilib olishimiz mumkin, unga ko‘ra metod, rivojlantirilishi lozim bo‘lgan ko‘nikmalar va amaliy misollar ustunlari mavjud va vazifalari ko‘rsatilgan.

3.45-jadval.

Kuzatish va amaliy tajriba metodlari

Metod	Rivojlantiradigan ko‘nikmalar	Amaliy misol
Plein-air	Kuzatish, kompozitsiya, rang uyg‘unligi	Parkdagi daraxtlar rasmni chizish
Muzey darsi	Tahliliy fikrlash, baholash, estetik qarash	I.Repin yoki M.Nabiyev asarini tahlil qilish
Atelye mashg‘ulotlari	Texnik ko‘nikma, eksperiment, kreativ tafakkur	Bir obyektni 4 xil texnikada chizish

Kuzatish va amaliy tajriba metodlarining ilmiy va amaliy ahamiyati nimalarda ko‘rinadi. Avvalo, o‘quvchi nazariy bilimni amaliyotga tatbiq qiladi. Turli metodlar kombinatsiyasi orqali ijtimoiy, estetik va texnik kompetensiyalar rivojlantiriladi. UNESCO va OECD tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, amaliy tajriba metodlari o‘quvchining ijodiy va tahliliy tafakkurini 35-40% yuqoriga oshiradi.

7. Refleksiv metodlar.

Refleksiya – o‘quvchi o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish va baholash jarayonidir. L. Vygotskiy, D. Kolb, J. Dewey’ning tajribaga asoslangan o‘qitish nazariyasida reflektiv fikrlash o‘quv jarayonining ajralmas qismi ekanligi ta’kidlangan.

D. Kolbning “tajribaviy o‘qitish modeli”da 4 bosqich mavjud:

1. tajriba,
2. kuzatish,
3. tahlil,
4. xulosa chiqarish.

Refleksiya aynan 3-4 bosqichlarda amalga oshadi.

UNESCO (2022) ta’limida refleksiya o‘quvchini “faol subyektga” aylantiradigan asosiy ko‘nikma sifatida belgilangan.

Refleksiv metodlarning asosiy turlari mavjud va ular to‘g‘risida quyida qisqacha ma’lumotlar berib o‘tamiz.

1. “Men nimani uddaladim?” yozma refleksiya.

Metodning tavsifi: – dars oxirida o‘quvchi 2-3 daqiqa davomida o‘z ishi haqida qisqa yozma fikr yozadi.

Taxminan savollar namunasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Bugun nimaga erishdim?

Qaysi joyi yaxshi chiqdi?

Qaysi joyida qiynaldim?

Keyingi safar nimani yaxshilayman?

Metodning ilmiy asosi sifatida: J. Dewey fikricha, “refleksiya – tafakkurning yetiladigan nuqtasi”, ijodiy fikrlashni faollashtiradi. Bu usul o‘quvchining metakognitiv tafakkur, ya’ni “o‘z fikrini tahlil qilish” qobiliyatini rivojlantiradi.

Ushbu metodga amaliy misol sifatida aytadigan bo‘lsak, o‘quvchi portret ishlaganidan keyin: – “Ko‘zlarda simmetriya yaxshi chiqdi, lekin soyalarni bir oz noaniq qo‘ydim. Kelasi safar qalam bosimini nazorat qilaman”.

2. “Guruh bahosi + o‘zini baholash” metodi (3 mezon asosida).

Bu metodni baholash mezonlari:

1. Kompozitsiya – joylashuv, nisbat, makon.

2. Texnika – chiziq sifati, rang uyg‘unligi, material bilan ishlash madaniyati.

3. Ifoda – obraz, kayfiyat, badiiy yechim.

Jarayon:

Avval o‘quvchi o‘zini baholaydi (1-5 ball).

Keyin guruh yoki juftlikda qo‘shimcha baho beriladi.

Ikki baho solishtiriladi va farqlar tahlil qilinadi.

“Guruh bahosi + o‘zini baholash” metodining ilmiy asosi sifatida: – Brunerning konstruktiv pedagogik nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi baholash jarayoniga jalb qilinsa, javobgarlik va o‘z-o‘zini nazorat qilish rivojlanadi.

Bu metodga amaliy misol: – guruhdagi 4 nafar o‘quvchi bir-birining ishlarini 3 mezon asosida baholab, oxirida qisqa mulohaza aytadi (“Kompozitsiya yaxshi, lekin texnikada chiziqlar biroz qattiq”).

3. “Mini-portfolio” metodi.

Tavsifi: – har bir dars oxirida o‘quvchi kichik ishlarni, eskiz, etyud, izoh yoki refleksiya qog‘ozini mini-portfolioga joylashtiradi.

Metodning maqsad: – rivojlanishni izchil kuzatish; o‘ziga nisbatan tanqidiy qarash shakllanishi; semestr oxirida katta portfolio‘ga asos bo‘lish.

“Mini-portfolio” metodiga ilmiy asos: – Kolb’ning tajribaviy ta’lim modeliga ko‘ra, natijalarni to‘plash va solishtirish – refleksiya bosqichini mustahkamlaydi.

Amaliy misol: – O‘quvchi 10 ta kichik eskizini yig‘ib boradi. Oxirgi darsda: “Mana, birinchi eskizda soya yo‘q edi, hozir esa ancha chuqurlik paydo bo‘ldi”, –

deb o‘z rivojlanishini ko‘radi.

3.46-jadval.

Refleksiv metodlarning o‘quvchi rivojiga ta’siri

Metod	Rivojlantiradi	Natija
Yozma refleksiya	Metakognitiv tafakkur	O‘quvchi o‘z xatosini anglaydi
O‘zini + guruhni baholash	Javobgarlik, tahliliy fikr	Adolatli baholash ko‘nikmasi
Mini-portfolio	Izchillik, o‘zini rivojlantirish	Semestr davomida o‘sish dinamikasi ko‘rinadi

UNESCO hisobotlariga ko‘ra refleksiya qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning “ijodiy fikrlash ko‘rsatkichi” 28-32% ga oshadi deb ta’kidlangan.

Ilg‘or pedagogik metodlarning tasviriy san’atda qo‘llanilishi o‘quvchilar ijodiy salohiyatini ochadi, estetik didni shakllantiradi va nazariya bilan amaliyotni uyg‘unlashtiradi. Yaratilgan metodik muhit o‘quvchini faol subyektga aylantiradi.

Tasviriy san’atni o‘qitishda qo‘llanilgan 7 ta ilg‘or va zamonaviy pedagogik metodlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy san’at ta’limi an’anaviy akademik yondashuv bilan cheklanmaydi, balki kreativ fikrlash, raqamli savodxonlik, moslashuvchan kompetensiyalar, hamkorlikda o‘rganish va reflektiv tafakkur kabi XXI asr ko‘nikmalarini birlashtirgan holda amalga oshiriladi.

Kreativ metodlar (L. V’ygotskiy, A. Osborn, G. Wallas) ijodkorlik psixologiyasi asosida o‘quvchilarda divergent fikrlash, tasavvur faolligi, estetik qarashlar va badiiy tafakkurni shakllantirar ekan, interfaol metodlar (J. Bruner, M. De Boni) o‘quvchini dars jarayonining faol sub’ektiga aylantirib, hamkorlikda yechim topish, muloqot va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

STEAM yondashuvi (AQSh, Yaponiya, Koreya tajribasi) san’atni injeneriya, texnologiya va matematika bilan integratsiya qilib, tasviriy san’atni multidisiplinar fikrlash maydoniga aylantiradi. Ayniqsa rangtasvir, dizayn, kompozitsiya darslarida kreativ yechim, texnologik jarayon va funksional dizayn chuqur o‘rganiladi.

Raqamli pedagogika (UNESCO, 2023) san’at ta’limida yangi bosqichni boshlab, o‘quvchilarda digital art, 3D-grafika, vizual kommunikatsiya, media-dizayn ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bugungi global raqamli muhitda o‘quvchi nafaqat an’anaviy texnikani, balki digital ijodni ham barobar egallashi zarur.

Loyihaviy ta’lim (J. Dewey, W. Kilpatrick) o‘quvchini real hayotga bog‘langan ijodiy muammolarni yechishga yo‘naltiradi. Bunda san’at asari shunchaki chizilgan rasm emas, balki mazmunli loyiha, muammoning badiiy yechimi va ijodiy izlanish mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Kuzatish va amaliy tajriba metodlari (plein-air, muzey darsi, atelye ishlari) o‘quvchining tasviriy idrokini chuqurlashtirib, natura asosida tahlil, nur-soya qonuniyatlari, badiiy ko‘rish madaniyatini shakllantiradi.

Refleksiv metodlar (D. Kolb, Dewey) esa san’at ta’limining muhim bosqichi bo‘lib, o‘quvchining o‘z ishini baholashi, kamchiligini anglashi va rivojlanish dinamikasini kuzatishiga xizmat qiladi. “Mini-portfolio”, “Men nimani uddaladim?” usullari o‘quvchini o‘z ustida ishlashga, mas’uliyatli yondashishga va shaxsiy ijodiy

o‘sishni boshqarishga o‘rgatadi.

Shu tariqa, 7 ta metodning o‘zaro integratsiyasi tasviriy san’at fanida zamonaviy modelni yuzaga keltiradi: – ilmiy asoslangan, kreativ fikrni rivojlantiruvchi, texnologik yutuqlarga mos, amaliy tajribaga boy, shaxsni shakllantiruvchi ta’lim tizimi.

Natijada o‘quvchi nafaqat rasm chizishni, balki ijodkor sifatida fikrlash, vizual yechim yaratish, analitik baholash va digital-avlod talablariga mos kompetensiyalarni egallaydi.

Bu metodlar o‘quv jarayonida qo‘llanilgan holda tasviriy san’at darslarining samaradorligini 35-40% ga oshirishi tajribaviy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.

3.10-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Ilg‘or va zamonaviy pedagogik metodlar o‘rtasida qanday farq mavjud?
2. Tasviriy san’at ta’limida interfaol metodlarning roli nimada?
3. STEAM yondashuvining san’at darslaridagi amaliy ahamiyatini tushuntiring.
4. Gamifikatsiya usuli o‘quvchi faolligini qanday oshiradi?
5. “Ijodiy ustaxona” metodi nimalarni ko‘zda tutadi?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Zamonaviy metodlarni qo‘llash tasviriy-amaliy mashg‘ulotlar samaradorligiga qanday ta’sir qiladi?
7. Sizningcha, tasviriy san’atga o‘rgatishda qaysi zamonaviy metodlar eng samarali? Sababini izohlang.
8. Ilg‘or metodlar milliy san’at va qadriyatlarni singdirish imkoniyatlarini tahlil qiling.

Qo‘shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – Bir tasviriy san’at mavzusiga zamonaviy metodlar asosida mini-dars ssenariy yarating (5-7 qadam).

Topshiriq 2: – «Ilg‘or metod – Ijodiy natija» munosabatini klaster ko‘rinishida chizing.

3.11 § Oliy ta’lim va ixtisoslashgan san’at maktablaridagi «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlar bo‘yicha adabiyot, dastur hamda darsliklar mazmunining taxlili

Oliy ta’lim tizimi va ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» yo‘nalishi bo‘yicha shakllantirilgan fanning o‘quv mazmuni davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, fan dasturlari va turli didaktik adabiyotlarga tayangan holda tashkil etiladi. So‘nggi yillarda ushbu sohada ilmiy-uslubiy adabiyotlar hamda raqamli resurslarning boyib borayotgani tasviriy san’at ta’limining mazmunini sifat jihatdan yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, oliy ta’lim va ixtisoslashgan san’at maktablarida tasviriy san’at fanlarini o‘qitish mazmuni davlat talablari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ilmiy-uslubiy manbalar asosida shakllantiriladi.

Oliy ta’lim tizimi va ixtisoslashgan san’at maktablarida mavjud adabiyotlar bazasining tahlili. Oliy ta’lim uchun mo‘ljallangan adabiyotlar ikki asosiy shaklda taqdim etilgan: birinchisi, nazariy yo‘nalishdagi adabiyotlar, ikkinchisi, amaliy yo‘nalishdagi adabiyotlardan iboratdir, quyida har birini qisqacha tahlil qilsak. Oliy ta’lim va san’at maktablari uchun mo‘ljallangan metodik, ilmiy va nazariy adabiyotlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

a) Tasviriy san’at metodikasi bo‘yicha tadqiqotlar. Ushbu yo‘nalishda quyidagi olimlar va tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyatga ega:

S. Abdirasilov – tasviriy san’atni o‘qitishda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, rangtasvir mashg‘ulotlarining metodik asoslari bo‘yicha tadqiqotlar;

N. Tolipov – san’at ta’limida integrativ yondashuv, badiiy tafakkurni rivojlantirish metodlari;

A. Sulaymonov – yozma va amaliy tasviriy faoliyatni uyg‘unlashtirish, maktab va kollejlar uchun darsliklar muallifi;

S. Abdullayev – milliy maktab rassomchiligi, tasviriy san’at tarixi va metodik ta’minotga oid tadqiqotlar;

S. Shovdirov – tasviriy san’at o‘qitish metodikasi, san’at maktablarida badiiy-ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy izlanishlar;

B. Boymetov – kompozitsiya, rang madaniyati va tasviriy san’atni bosqichma-bosqich o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy g‘oyalar.

Ushbu olimlarning ishlari tasviriy san’at ta’limining ilmiy-metodik asoslarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

b) Amaliy yo‘nalishdagi adabiyotlar: – rangtasvir texnikalariga oid qo‘llanmalar, grafik mashqlar to‘plamlari, haykaltaroshlik asoslari, dizayn, digital-art va 3D-modellashtirishga bag‘ishlangan zamonaviy qo‘llanmalar.

c) Nazariy adabiyotlar: – tasviriy san’at tarixi, kompozitsiya qonuniyatlari, rangshunoslik, perspektiva, anatomiya sohalari bo‘yicha ilmiy manbalar.

Oliy ta’lim tizimi va ixtisoslashgan san’at maktablaridagi amaldagi o‘quv dasturlarining qisqacha tahlilini qiladigan bo‘lsak. Shuni ta’kidlash loziki mavjud dasturlar mazmunida quyidagi ijobiy jihatlar bor: – “oddiydan murakkabga” tamoyiliga asoslangan bosqichma-bosqich o‘qitish, nazariya-amaliyot uyg‘unligi, badiiy tafakkurni rivojlantiruvchi ijodiy topshiriqlar ulushining oshishi.

Digital texnologiyalar: – grafik planshet, raqamli bo‘yoqlar, 3D-modellashtirish elementlarining kirib kelayotgani.

Biroq tahlilda quyidagi kamchiliklar ham aniqlandi: – amaliy mashg‘ulotlar soatlarining yetarli taqsimlanmaganligi, ba’zi fanlar bo‘yicha aniq baholash mezonlari to‘liq shakllanmagan, vizual va multimediya o‘quv-resurslari bilan integratsiya yetarli darajada emas.

Oliy ta’lim tizimi va ixtisoslashgan san’at maktablaridagi darsliklar mazmunining tahlili qo‘yidagicha. Mavjud darsliklar: – milliy rassomchilik maktabi an’analari bilan uyg‘un yozilgan, rangshunoslik, kompozitsiya va tasviriy texnikalarga oid boy nazariy materiallarni qamrab olgan, mashqlar ketma-ketligi tizimli tashkil etilgan.

Biroq: – vizual materiallar (fotosurat, skanerlangan asarlar, QR-kodlar) anchagina yetishmaydi, interaktiv o‘quv resurslari bilan bog‘lanish past, yangi avlod

texnikalariga – digital-art, sifravoy rangtasvirga oid bo'limlar kam.

Oliy ta'lim tizimi va ixtisoslashgan san'at maktablarini normativ-huquqiy asoslar bilan mustahkamlanganligini hujjatlardagi aksi. Tasviriy san'atni zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish mamlakatimizdagi bir qator muhim hujjatlar bilan asoslab berilgan: Bu borada Prezident farmoni va qarorlariga e'tiborimizni qaratsak: – "Ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish haqida"gi PF–6108-son farmonda ta'lim jarayonida kreativ yondashuv va badiiy-estetik tarbiyani kuchaytirish vazifasi belgilangan. Unga ko'ra, "Har bir ta'lim muassasasida ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi o'quv muhitini yaratish – pedagogik siyosatning ustuvor yo'nalishidir" deya ta'kidlangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining san'at maktablari faoliyatini takomillashtirishga oid qarorlarida tasviriy san'at fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, xalqaro tajribalar asosida darsliklar yaratish belgilangan.

Soha tadqiqotchilarining fikrlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, S. Abdirasilov: – "Tasviriy san'atni o'qitishda ko'rgazmali tasvirning o'rni – o'quvchining idrokini faollashtiruvchi asosiy omildir." deb aytgan.


N. Tolipov: – "San'at ta'limida integratsiya – badiiy tafakkurni shakllantiruvchi eng samarali metodik yo'nalishlardan biridir." degan.

S. Shovdirov: – "Bosqichma-bosqich o'qitish tamoyili tasviriy san'atda ko'nikmalar tizimini izchil shakllantirishga xizmat qiladi." deya ta'kidlaydi.

Aytish mumkinki, Oliy ta'lim va san'at maktablaridagi «Tasviriy san'at» fanlar tizimi ilmiy, metodik va amaliy manbalar bilan ta'minlangan bo'lsa-da, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, digital vositalar va interaktiv darsliklar qo'shimcha ravishda joriy etilishni talab qiladi. Mazkur keltirilgan olimlar fikrlari, qarorlar va tahlillar ushbu jarayonni ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at ta'limida adabiyot, dastur va darsliklar o'rganilganlik darajasining diagramma ko'rinishi. Quyidagi diagramma 3 ta asosiy manba guruhining (Adabiyotlar – Dasturlar – Darsliklar) 3 ta o'lchov bo'yicha baholanishini ko'rsatadi: – ilmiylik darajasi, amaliyotga yo'naltirilganlik, zamonaviy resurslar bilan integratsiya.

3.1-diogramma.



Oliy ta'lim va san'at maktablaridagi tasviriy san'at ta'limining asosiy komponentlari quyidagi mezonlar bo'yicha taqqoslandi, buni 3.47-jadvalda ko'ram-

iz, bunda asosan 3 ta asosiy blok: Adabiyotlar – Dasturlar – Darsliklardan iborat bo‘lib ularni har biri qisqa tahlil qilingan.

3.47-jadval.

Taqqoslamali tahlil

Mezonlar / Manbalar	Adabiyotlar	O‘quv dasturlari	Darsliklar
Ilmiylik	Juda yuqori, S.Abdirasilov, N.Tolipov, S.Shovdirov kabi tadqiqotchilar ishlari boy	O‘rtacha yuqori, asosan metodik tamoyillar	Yuqori, nazariy bo‘limlar boy
Amaliyotga yo‘naltirilganlik	O‘rtacha – ko‘proq nazariy manbalar	Juda yuqori – mashg‘ulotlar, bosqichlar aniq	O‘rtacha – amaliy ko‘rsatmalar yetarli emas
Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlik	Kam – asosan klassik metodlar	O‘rtacha – raqamli elementlar paydo bo‘lmoqda	Kam – QR, video, AR tizimlari kam
Ko‘rgazmali materiallar mavjudligi	Kam – ilustratsiyalar cheklangan	O‘rtacha – mavzuga ko‘ra	O‘rtacha – fotosuratlar, reproduktsiyalar yetarli emas
Baholash mezonlari aniqligi	Yo‘q – ilmiy manbalarda ko‘rsatilmaydi	Yaxshi – DTS asosida belgilangan	O‘rtacha – sinf darajasiga ko‘ra tanlanadi
Innovatsion yondashuv	Kamroq	Rivojlanib borayotgan	Kamroq

Oliy ta’lim tizimi hamda ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» tsikliga oid fanlarni o‘qitishda qo‘llanilayotgan adabiyotlar, o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular mazmunan boy, nazariy jihatdan asoslangan va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan metodik birliklardan tashkil topgan. Biroq, mazkur materiallarning ilmiy-uslubiy talablarga moslashtirilishi, zamonaviy san’at yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirilishi, shuningdek, kreativ fikrlash va vizual madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha farqlar kuzatiladi.

Tahlil natijalari shuni anglatadiki, mavjud darslik va o‘quv qo‘llanmalarining aksariyati an’anaviy tasviriy san’at bilimlarini to‘liq qamrab olsa-da, raqamli san’at, dizayn tafakkuri, 3D modellashtirish, foto va video san’ati kabi zamonaviy yo‘nalishlarga oid bo‘limlar yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa oliy ta’lim tizimi bilan xalqaro talablarga mos integratsiyani kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ixtisoslashgan san’at maktablari uchun mo‘ljallangan dasturning chuqurligi, mantiqiy izchilligi va yosh xususiyatlariga mosligi bo‘yicha ayrim darsliklarda sezilarli tafovutlar mavjud.

Hozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan zamonaviy san’at ta’limini rivojlantirish, ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim mazmunini xalqaro

standartlarga moslashtirish haqidagi farmon va qarorlar darsliklar mazmunining yangi metodologik yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqilishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san'at bo'yicha o'quv adabiyotlarining mazmuni STEAM yondashuvi, loyihaviy fikrlash, multimodal o'qitish, vizual tadqiqot metodlari kabi innovatsion pedagogik yo'nalishlar bilan boyitilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar va darsliklarning tahlili ularning ilmiy-nazariy poydevori mustahkamligidan dalolat bersa-da, zamonaviy san'at talablari, ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish talablari hamda xalqaro san'at ta'limi tendensiyalariga mos ravishda yangilash, tizimlashtirish va takomillashtirish ehtiyoji mavjud. Bu jarayon amalga oshirilsa, tasviriy san'at bo'yicha oliy va maxsus maktablardagi ta'lim jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshadi va malakali, keng dunyoqarashli ijodkor kadrlarni tayyorlash imkoniyati yanada kuchayadi.

3.11-§ Bo'yicha nazorat savollari

1. "Tasviriy san'at" tsiklidagi fanlar uchun adabiyot va darsliklar mazmuni qanday asoslarga tayanadi?
2. Oliy ta'lim va ixtisoslashgan san'at maktablari dasturlari mazmunining o'zaro bog'liqlik jihatlarini ayting.
3. Darslik mazmunida milliy va jahon san'ati namunasi qay tarzda aks etmog'i lozim?
4. Dastur mazmunida amaliy mashg'ulotlarni o'rni va salmog'i qay tarzda belgilanadi?
5. O'quvchilar uchun mo'ljallangan darsliklarda tasviriy-atamalar tizimining ahamiyati nimada?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. An'anaviy adabiyotlar bilan zamonaviy AKTga asoslangan resurslarni taqqoslang – qaysi imkoniyatlar keng?
7. Darslik mazmunining talaba ijodiy faolligiga ta'sirini tahlil qiling.
8. Sizningcha, darslik mazmunini yaxshilash uchun qaysi 3 ta yo'nalishda takomillashtirish zarur?

Qo'shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – "Tasviriy san'at" darsliklarining mazmuniyatini baholash mezonlarini jadval ko'rinishida ishlang (5 mezon).

Topshiriq 2: – Oliy ta'lim va san'at maktabi darsliklari o'rtasida 2 ta o'xshashlik va 2 ta farqni aniqlab, izohlang.

3.12 § Tasviriy san'at fanidan dastur va darslik mazmuni bilan tanishish

Tasviriy san'at fanining o'quv dasturi va darsliklari bilan tanishish jarayoni mazkur fan mazmunining ilmiy-nazariy asoslarini, o'qituvchining metodik faoliyatini hamda o'quvchilarda tasviriy madaniyat, estetik did, badiiy tafakkur va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilganligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv dasturi va darsliklarning strukturasi o'zaro uyg'unlikda bo'li-

shi, maqsad-vazifalari izchil belgilangani, mavzular ketma-ketligi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish bosqichlari hamda fanlararo integratsiya tamoyillariga asoslangan bo‘lishi – zamonaviy ta’limning asosiy talablaridandir.

Hozirgi kunda tasviriy san’at fani bo‘yicha o‘quv dasturlari quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik asoslari, kompozitsiya, amaliy bezak san’ati, san’atshunoslik bilimlari hamda raqamli tasviriy san’at elementlari. Dastur mazmunining o‘quv darsliklari bilan uyg‘unlashuvi o‘quvchilar uchun tizimli bilim olish, ko‘nikma va malakalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini yaratadi.

Darsliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy topshiriqlar, kuzatuv mashqlari, ijodiy kompozitsiyalar hamda san’at namunalariga tahliliy yondashuvni shakllantiruvchi mashqlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorlik faoliyati va vizual mulohaza yuritish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq ayrim darsliklarda rang ilmi, yorug‘lik-soya, perspektiva qonuniyatlarining interaktiv metodlar asosida ochib berilishi yetarli darajada yoritilmagan hollar kam uchramaydi.

O‘quv dasturi bilan tanishishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – uning kompetensiyaga yo‘naltirilganligi, o‘qitishda qo‘llaniladigan metodik ko‘rsatmalar, baholash mezonlari va ko‘rgazmali vositalarning ta’lim sifatiga ta’sirini aniqlashdir. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “ijodiy maktablar faoliyatini kuchaytirish”, “san’at ta’limida innovatsion yondashuvlarni joriy etish”ga oid nutq va qarorlar (jumladan, san’at va madaniyat sohasini 2022–2026 yillarda rivojlantirish strategiyasi) mazkur yo‘nalishda ishlanadigan darslik va dasturlarning mazmuniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Shu jihatdan, tasviriy san’at fanidan darslik va dasturlar bilan tanishishdan olingan natijalar ularning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratishni taklif etadi:
– mavzular ketma-ketligi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligini ta’minlash, ijodiy topshiriqlarning zamonaviy dizayn va raqamli san’at yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirilishi, nazariy bilimlarning amaliy mashqlar bilan mustahkam bog‘lanishi, milliy va jahon san’ati namunalarining tahlili orqali estetik dunyoqarashni rivojlantirish, baholash tizimini adolatli, shaffof va portfolioga asoslangan qilish, STEAM, loyiha asosida o‘qitish, vizual tahlil va tadqiqot metodlarini keng joriy etish.

Tasviriy san’at fanining o‘quv dasturi va darsliklari bilan tanishish jarayoni o‘quvchilarda badiiy-estetik dunyoqarashni shakllantirish, ularda badiiy tafakkur, tasviriy malaka va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Dastur mazmunining ilmiy-nazariy asoslanganligi, darsliklar bilan uzviy uyg‘unlashuvi va yosh bosqichlariga mos metodik yondashuvlar zamonaviy ta’lim jarayonining samaradorligini belgilab beradi.

1. O‘quv dasturining xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlili.

O‘zbekiston tasviriy san’ati bo‘yicha 1-9-sinflar uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida mavzular ketma-ketligi rangtasvir, grafika, kompozitsiya, amaliy bezak san’ati va san’atshunoslik elementlariga asoslanadi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki:

– Finlyandiya dasturlarida kreativ fikrlash, loyiha asosida ishlash, STEAM el-

ementlari ustuvor;

– Koreya tajribasida raqamli san’at, 3D-modeling, kompyuter grafikasi erta bosqichdanoq o‘rgatiladi;

– Turkiya dasturlarida milliy naqshlar, ornamentika va an’anaviy maktablar keng yoritiladi;

– Rossiya dasturlarida akademik rasm, perspektiva, rang ilmi chuqur o‘rgatiladi.

Bu tahlil O‘zbekiston dasturlarida raqamli tasviriy san’at, loyiha asosida ijodiy izlanish va STEAM metodlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

2. Darsliklar mazmunining amaliy-uslubiy tahlili.

Mavjud darsliklar tahliliga ko‘ra, ijobiy jihatlari: – amaliy mashqlar tizimli, milliy san’at namunalari keng berilgan, loyihaviy topshiriqlar soni oshgan, badiiy tafakkurga yo‘naltirilgan savollar mavjud.

E’tibor talab etuvchi jihatlar: – rangshunoslik islomlari yetarlicha vizual misollar bilan boyitilmagan, kreativ yechimga yo‘naltirilgan topshiriqlar kam, raqamli grafikaga oid mavzular hali to‘liq shakllanmagan, ba’zi mavzular yosh bosqichiga mos psixologik ketma-ketlikda emas.

3. Dastur va darsliklarning metodik imkoniyat xaritasi.

Quyidagi mezonlar bo‘yicha mazmun xaritalari ishlab chiqilganda (darslik bo‘limlari kesimida):

– nazariy qism ulushi – 35-40%

– amaliy mashqlar – 45-50%

– ijodiy topshiriqlar – 10-15%

– STEAM integratsiyasi – 5-7%

Ushbu ko‘rsatkichlar Finlyandiya va Koreya dasturlariga nisbatan past (ularda STEAM > 20%). Shu bois, loyihaviy ishlar, tadqiqot mashqlari va dizayn yondashuvlarini kuchaytirish taklif etiladi.

4. Milliy olimlar fikrlari bilan bog‘lanish. S.Abdirasilov, N.Tolipov, A.Sulaymonov, S.Abdullayev, B.Boymetov, S.Shovdirov kabi tadqiqotchilar tasviriy san’at ta’limida: – o‘quvchining vizual tafakkurini mustaqil rivojlantirish, rang va shakl tahliliga asoslangan metodlardan foydalanish, milliy meros va zamonaviylik uyg‘unligini berish, amaliy topshiriqlarga ijodiy yondashuvni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydilar. Ularning fikrlari darslik mazmuni tahlili bilan to‘liq hamohang keladi.

5. Prezident qarorlari va nutqlariga asoslanish.

Prezidentning “Yoshlar ma’naviyati va ijodiy qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash”-ga oid nutqlarida tasviriy san’at ta’limida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Xususan, “San’at va madaniyatni rivojlantirish strategiyasi – 2022-2026”da: – san’at ta’limida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, ijodiy maktablar tarmog‘ini kuchaytirish, amaliy-sahnaviy loyihalarni oshirish vazifalari belgilab berilgan. Bu talablar darsliklarda raqamli san’at, grafik dizayn, kreativ loyiha elementlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

6. PISA, PIRLS talablari bilan uyg‘unlik tahlili.

Darslik va dastur mohiyatan quyidagi xalqaro kompetensiyalar bilan bog‘liq bo‘lmog‘i lozim: – vizual axborotni tahlil qilish, kreativ muammo yechish, kuzatuv,

taqqoslash, analiz-sintez, badiiy fikrni mantiqiy asoslash.

Hozirgi darsliklarda bu talablar mavjud, ammo PISA mezonlari darajasiga chiqishi uchun: – vizual tahliliy savollar, loyihaviy izlanish topshiriqlari, ijodiy yechimga yo‘naltirilgan mashqlar soni oshirilishi lozim.

7. Yakuniy ilmiy-amaliy xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, tasviriy san’at fanining o‘quv dasturi va darsliklari mazmunini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, fan mazmuni jahon tajribasi bilan solishtirganda mustahkam asosga ega bo‘lsada, uning: – raqamli tasvir, ijodiy loyiha asosidagi o‘qitish, STEAM integratsiyasi, interaktiv metodlar yo‘nalishlarida yanada takomillashtirilishi zarur.

Dastur va darsliklarning milliy merosga tayanilgan zamonaviy ko‘rinishi o‘quvchilarning tasviriy madaniyat, badiiy tafakkur va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at faniga oid o‘quv dasturi va darsliklar bilan tanishish, ularni ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan baholash, zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning badiiy tafakkuri, ijodiy o‘ylashi va vizual madaniyatini yangi bosqichga ko‘taruvchi muhim omillardan biridir.

Tasviriy san’at fanining o‘quv dasturi va darsliklari bilan tanishish jarayoni o‘quvchilarda badiiy-estetik dunyoqarashni shakllantirish, ijodiy tafakkur, tasviriy malaka va kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Dastur va darsliklar mazmunining ilmiy-nazariy asoslanganligi, mavzular ketma-ketligi, yosh bosqichlariga mosligi va fanlararo integratsiya tamoyillariga asoslanganligi zamonaviy ta’limning samaradorligini ta’minlaydi.

Hozirgi darsliklarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashqlar, ijodiy topshiriqlar va san’at namunalarini tahlil qilish mashqlari mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va vizual mulohaza yuritish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli tasvir, kreativ loyiha asosida o‘qitish, STEAM integratsiyasi va interaktiv metodlar bo‘yicha takomillashtirish ehtiyoji mavjud.

Milliy va xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, Finlyandiya, Koreya, Turkiya va Rossiya dasturlaridagi ilg‘or yondashuvlarni hisobga olib, o‘z dasturlarimizda raqamli san’at, loyiha asosidagi ijodiy izlanish va vizual tahlil imkoniyatlarini kuchaytirish lozim. Prezident qarorlari va nutqlari tomonidan belgilangan vazifalar ham ushbu yo‘nalishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etishni talab qiladi.

Natijada, o‘quv dasturi va darsliklar bilan tizimli tanishish va ularni ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan baholash, tasviriy san’at ta’limini rivojlantirish, o‘quvchilarning ijodiy va vizual madaniyatini yangi bosqichga ko‘taruvchi muhim omil hisoblanadi.

3.12-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Dastur va darslik mazmuni bilan tanishish jarayonining asosiy vazifasi nimada?
2. Darslik mazmunidagi bob-paragraflar tizimliligi qanday tahlil qilinadi?
3. Tasviriy san’at dasturida nazariya va amaliyot nisbati qanday belgilanadi?
4. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni qanday belgilanishi lozim?

5. Dars mazmuni o‘quvchining yosh, psixologik va ijodiy xususiyatlariga qanday moslashtirilishi kerak?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6 Dastur va darslik mazmunining bir-biriga mos kelmaslik holatlari qanday muammolarga olib kelishi mumkin?

7. Zamonaviy talablarga mos ravishda dastur mazmunini rivojlantirish uchun 2-3 taklif bering.

8. Agar siz yangi darslik yaratsangiz, qaysi mazmun yo‘nalishlariga ko‘proq e’tibor qaratgan bo‘lardingiz?

Qo‘shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – Tasviriy san’at darsligi mazmunini 3 mezon bo‘yicha tahlil qiling: – ilmiylik, tizimlilik, yoshga moslik

Topshiriq 2: – Dastur va darslik mazmunini klaster shaklida ifodalangan diagramma tuzing.

3.13 § Tasviriy san’at bo‘yicha o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimum talablar

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanini o‘qitishda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanish darajasini aniqlash muhim o‘rin tutadi. O‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, baholash mezonlarini aniq belgilash hamda o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish uchun minimum talablar tizimli ravishda ishlab chiqilishi lozim. Ushbu talablar “Davlat ta’lim standarti”da belgilangan kompetensiyalar asosiga tayanadi va o‘quvchining tasviriy savodxonligi, badiiy tafakkuri va ijodkorlik salohiyatini baholashga qaratilgan.

1. Bilimga oid minimum talablar.

O‘quvchilar tasviriy san’atning asosiy nazariy tushunchalari haqida kamida quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi shart:

1. Asosiy ranglar, qo‘shma ranglar va ularning o‘zaro mutanosibligi (kolorit) haqida tushuncha.

2. Yorug‘-soya (svetoten) tushunchasi va shakl hajmini berish qoidalari.

3. Perspektiva tur va ko‘rinishlari: frontal, burchakli, havoviy perspektiva.

4. Kompozitsiya tushunchasi, markaz, ritm, mutanosiblik va format bilan ishlash qoidalari.

5. Tasviriy san’at janrlari: natyurmort, peyzaj, portret, maishiy janr, dekorativ tasvir kabi asosiy yo‘nalishlarni ajratish.

6. Milliy badiiy merosga oid umumiy tushunchalar: miniatyura, naqsh, xalq amaliy san’ati elementlari.

Quyida minimum bilimlar tizimlashtirilgan ilmiy tahliliy jadvalda keltiriladi. O‘quvchilar tasviriy san’atning asosiy nazariy tushunchalari haqida quyidagi bilimlarni egallagan bo‘lishi lozim, buni 3.48-jadvalda ko‘ramiz.

3.48-jadval.

A) Asosiy tushunchalar jadvali

№	Nazariy tushuncha	Mazmuni	Amaliy misol (maktab sharoitida)
1	Ranglar nazariyasi	Asosiy va qo‘shma ranglar, kolorit, ranglar uyg‘unligi	3 ta meva natyurmorti uchun uyg‘un ranglar tanlash; “issiq-sovuq ranglar” kichik mashqi
2	Yorug‘-soya (svetoten)	Shaklning hajmga ega bo‘lishi, yorug‘ manbai, soyalanish qonunlari	Kub ustiga bitta yo‘nalishdan tushayotgan nur bilan chizish; shar shaklida tonal mashq
3	Perspektiva	Frontal, burchakli, havoviy perspektiva qonunlari	Maktab koridorini frontal perspektivada chizish; hovli manzarasida havoviy perspektiva
4	Kompozitsiya	Markaz, ritm, mutanosiblik, format, vizual muvozanat	2-3 buyumdan sodda natyurmort tuzish; sahifa markazini belgilash mashqi
5	San’at janrlari	Natyurmort, peyzaj, portret, maishiy janr, dekorativ san’at	Har bir janrdan 1 tadan kichik eskiz: masalan, maktab oldi manzarasi – peyzaj
6	Milliy badiiy meros	Miniatyura, naqsh, xalq amaliy san’ati shakllari va uslubi	Naqsh elementlaridan sodda kompozitsiya tuzish; Kamoliddin Behzod miniatyuralarini tahlil qilish

B) Bilimga oid minimum talablarning har bir bandga ilmiy izoh va misollar keltiramiz.

1. Ranglar nazariyasi. O‘quvchi ranglar o‘rtasidagi uyg‘unlikni tushunishi – tasvirning badiiy qadrini belgilaydi.

Misol: “Olma–nok–anor” natyurmortiga mos ranglar ketma-ketligini topish mashqi.

2. Yorug‘-soya. Yorug‘-soya orqali shaklning hajmi ochiladi.

Misol: Shar ustidagi nur sohasini, yarim soya va tushayotgan soya chegarasini belgilab chizish.

3. Perspektiva. Tasvirda fazo yaratishning asosiy omillaridan.

Misol: Maktab yo‘lagini bitta yo‘nalishli chiziqlar (linyarka) bilan frontal perspektivada tasvirlash.

4. Kompozitsiya. Ko‘zning sahifadagi harakati, markaz va muvozanatni ta’minlaydi.

Misol: 3 buyumdan iborat natyurmortning markazini aniqlash va formatka mos joylashtirish.

5. San’at janrlari. Har bir janrning badiiy vazifasi va mazmuniy jixatlari.

Misol: Portret janri uchun sinfdoshning yuz proporsiyasiga amal qilgan holda 5 daqiqa eskiz.

6. Milliy badiiy meros. O‘quvchining milliy identitet va estetik dunyoqarashini mustahkamlaydi.

Misol: Naqshda islimiy va girih elementlarini ketma-ket joylashtirish mashqi.

O‘quvchilarining fanni nazariy tomonlarini o‘zlashtirgan bilimlariga oid min-

imum talablarni ko'rib chiqdek.

2. Amaliy ko'nikmalar bo'yicha minimum talablar.

Tasviriy san'at fanida amaliy faoliyat o'quvchilarning kuzatish, tasvirlash, tahlil qilish va ijodiy fikrlash malakalarini shakllantiruvchi asosiy jarayondir. Shu sababli o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar aniq mezonlar orqali belgilanadi.

O'quvchilar quyidagi amaliy ko'nikmalarni egallashi zarur:

1. Oddiy geometrik shakllarni to'g'ri tasvirlash: – shar, silindr, konus, kub.

2. Buyumlarning proporsiyasini saqlagan holda qalamda eskiz ishlash.

3. Natyurmortning sodda variantini kompozitsion joylashtirish va rangtasvirda ifodalash.

4. Ranglar uyg'unligini saqlagan holda sodda peyzaj yoki maktab atrofi manzaralarini tasvirlash.

5. Odam boshining oddiy proporsiyalariga amal qilgan holda boshlang'ich portret eskizi chizish.

6. Guash, akvarel, pastel yoki qalam bilan ishlashning bosqichlari va tozaligiga rioya qilish.

A) Asosiy amaliy ko'nikmalar mazmuni har bir bandini qisqa tahlil va misollar yordamida yoritamiz.

1. Geometrik shakllarni to'g'ri tasvirlash. O'quvchi bajarishi shart bo'lgan malakalar: – shar, silindr, konus, kubning asosiy proporsiyalarini to'g'ri belgilash, yorug'-soya yechimini oddiy darajada qo'llash, shaklning fazodagi joylashuvini ko'rsatish.

Metodik izoh: – Bu bosqich tasviriy savodxonlikning negizi bo'lib, o'quvchining fazoviy tasavvurining rivojini ta'minlaydi.

2. Qalamda eskiz ishlash va proporsiyani saqlash. Amaliy talablar: – kuzatilayotgan buyumning umumiy shaklini topish, detallarga o'tmasdan oldin proporsiyani belgilash, o'q chiziqlaridan foydalanish.

Misol: – Stakan, olma yoki idishning kontur eskizi 5-7 daqiqada bajarilishi.

3. Sodda natyurmortni kompozitsion joylashtirish va rangda tasvirlash. Ko'nikmalar: – buyumlarni format markaziga nisbatan joylashtirish, ranglarning asosiy uyg'unlik qonuniyatlariga amal qilish (sovuq-issiq, yorug'-to'q), eng muhim obyektni kompozitsion markazda belgilash.

4. Peyzaj yoki maktab atrofi manzarasini tasvirlash. Talablar: – oldingi, o'rta va orqa rejalarni farqlash, ranglar havoviy perspektivasiga amal qilish, qisqa muddatli "etyud" ishlash malakasi.

Misol: – Maktab hovlisi manzarasi – 20-30 daqiqalik rangli etyud.

5. Portretning boshlang'ich proporsiyalari. Amaliy talablar: – bosh shaklini oval sifatida belgilash, ko'zlar chizig'i, burun chizig'i, lab chizig'ini to'g'ri joylashtirish, qiyalik, burilish holatlarini sodda ko'rsatish.

6. Materiallar bilan toza va bosqichma-bosqich ishlash. Ko'nikmalar: – qalam, guash, akvarel, pastel texnikalarining oddiy qoidalariga rioya, "Yengil kontur – yarim tus – so'ng detallar" tamoyiliga amal qilish, ish joyini toza saqlash, materialni to'g'ri ishlatish madaniyati.

B) Amaliy ko‘nikmalarni tizimli ifodalovchi 3.49-jadval.

3.49-jadval.

Amaliy ko‘nikmalarning minimum talablari va baholash indikatorlari

№	Ko‘nikma turi	O‘quvchidan talab etiladigan minimum malakalar	Baholash mezonlari
1	Geometrik shakllar tasviri	Shar, silindr, konus, kubni proporsiya bilan chizish	To‘g‘rilik, aniqlik, yorug‘-soya qo‘llay olishi
2	Qalamda eskiz	Proporsiyani topish, o‘q chiziqlaridan foydalanish	5-7 daqiqalik tezkor eskizning sifatli bajarilishi
3	Natyurmort	Kompozitsion joylashtirish, rang uyg‘unligi	Markaz, formatga moslik, rang uyg‘unligi
4	Peyzaj	Rejalar, perspektiva, rang tuzilishi	Havoviy perspektiva, umumiy rang yechimi
5	Portret	Boshning asosiy proporsiyalari	Ko‘z-burun-lab chiziqlarining to‘g‘ri joylashuvi
6	Texnik malaka	Qalam, guash, akvarelda toza ishlash	Tozalik, bosqichma-bosqich ishlash madaniyati

C) Amaliy jarayonda qo‘llanadigan qisqa metodik tavsiyalar.

1. “Yengildan og‘irga” tamoyili – avval shakl, so‘ng detallar.
2. “Qiyoslash” usuli – buyumlar orasidagi masofa va proporsiya.
3. “Tekshirish chizig‘i” usuli – o‘quvchi shaklni tez taqqoslab ko‘radi.
4. “Ko‘p variantli kompozitsiya” – avval 3 ta kichik eskiz, keyin asosiy ish.
5. “Etyud – asosiy ish” modeli – qisqa etüddan so‘ng asosiy rangtasvir.

D) Amaliy ko‘nikmalarning o‘quvchining rivojlanishiga ta’siri: – fazoviy tasavvur shakllanadi, ko‘ruv xotirasi rivojlanadi, harakat koordinatsiyasi yaxshilanadi, ijodiy tasavvur kengayadi, estetik did shakllanadi.

3. Ijodkorlik va badiiy tafakkur bo‘yicha minimum talablar. Ijodkorlik – “reproduktsiya” emas, “yaratuvchanlik”dir. Shuning uchun har bir talabning ortida psixologiya, pedagogika va san’atshunoslik nazariyalari asoslanib turishi kerak. O‘quvchi ijodiy jarayonda:

1. Berilgan mavzu asosida mustaqil kompozitsiya yaratishi;
2. Rang yechimlarida badiiy fikrlash va o‘z munosabatini ifodalashi;
3. Tasvirda badiiylik, estetik did va nafislik umumiy qoidalariga amal qilishi;
4. Asar yaratish jarayonida tanqidiy fikrlash, xatolarni mustaqil tahlil qilib tuzatish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

Endi o‘quvchilarning ijodkorlik va badiiy tafakkurlari bo‘yicha egallashlari lozim bo‘ladigan minimum talablarni qisqacha tahlillar va misollar yordamida yoritamiz.

1. “Berilgan mavzu asosida mustaqil kompozitsiya yaratishi” – bu talabaning divergent fikrlashi, tasavvur va kompozitsion tafakkuri bilan bog‘liq.

2. Jadval orqali aniq mezonlar berish. Ijodkorlikni baholash sub’ektiv bo‘lib qolmasligi uchun aniq ko‘rsatkichli mezonlar jadvallari qo‘shish juda samarali. Qo‘yida ishlab chiqqan 3.50-jadvalimiz aynan, ijodkorlikni baholash uchun qo‘lylik yaratadi.

3.50-jadval.

Ijodkorlikni baholash

№	Minimum talab	Ilmiy asos (psixologiya, pedagogika, san’atshunoslik)	Amaliy misol
1	Berilgan mavzu asosida mustaqil kompozitsiya yaratish	Divergent tafakkur, tasavvur, kompozitsion fikrlash (Guilford, Arnheim)	“Mening maktabim” mavzusida 3 xil joylashuv varianti yaratish.
2	Rang yechimlarida badiiy fikrlash va o‘z munosabatini ifodalashi	Kolorit, emotsional rang ta’siri (Itten nazariyasi)	Kayfiyatni ifodalash: quvonch – issiq ranglar, sokinlik – sovuq ranglar.
3	Tasvirda estetik did, nafislik va badiiylikni saqlashi	Estetik qabul qilish qobiliyati, vizual madaniyat	O‘quvchi asarda tartib, mutanosiblik, ortiqcha detal yo‘qligiga amal qiladi.
4	Tanqidiy fikrlash va xatolarni tahlil qilib tuzatishi	Refleksiya, metakognisiya, o‘z-o‘zini baholash	Ish yakunida “Nimani o‘zgartiraman?” savoliga yozma javob berish

Tasviriy san’atda ijodkorlik – bu shaxsning tasavvur, badiiy tafakkur, emotsional qabul, rang tuyg‘usi va kompozitsion fikrlash orqali yangi tasvir yaratish qobiliyatidir. Mazkur ko‘nikmalar o‘quvchining nafaqat estetik savodxonligini, balki mustaqil fikrlashi, qaror qabul qilishi va badiiy ifoda madaniyatini shakllantiradi. Masalan:

– “O‘z munosabatini rang orqali ifodalashi” → sovuq ranglar bilan sokin kayfiyat, issiq ranglar bilan quvonchli tasvir jaratilishi mumkin.

– “Tanqidiy tahlil qilish” → o‘quvchi ish yakunida 3 savolga javob berishi:

1. Nimasi yaxshi chiqdi?
2. Nimani takomillashtirish kerak?
3. Qanday o‘zgartirish kiritdim?

Ijodkorlik kompetensiyalari eng yuqori bosqich – yaratish darajasiga to‘g‘ri keladi. Bunda:

A) “Ijodiy portfel” tushunchasini kiritish. O‘quvchining barcha ijodiy ishlari – eskizlar, kompozitsiyalar, rang izlanishlari – portfelda to‘plansa, bu uning ijodiy o‘sishini aniq ko‘rsatadi.

B) “Kompozitsion tafakkur testi”. O‘qituvchi o‘quvchidan 3 xil formatda berilgan predmetlarni joylashtirishni so‘rashi – bu ijodiy fikrlashni o‘lchaydi.

V) “Ijodiy muammo vazifalari”. Masalan: – “Faqat geometrik shakllardan foydalangan holda hayvon tasvirini yarat.”

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha minimum talablar.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tasviriy san’at ta’limi jarayonining ajralmas qismiga aylanib, o‘quvchilarning badiiy tafakkuri, vizual madaniyati va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli vositalardan foydalangan holda o‘quvchi nafaqat rasm chizadi, balki tasvir yaratish jarayonining bosqichlarini tahlil qilish, rang yechimlarini

tajriba qilib ko‘rish va o‘z portfoliolarini raqamli tarzda yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bugungi raqamli davr talablari asosida o‘quvchi quyidagi minimum talablarga ega bo‘lishi lozim:

1. Grafika dasturlarida sodda shakllar yaratish;
2. Raqamli formatda oddiy kompozitsiya tuzish;
3. Internet manbalari orqali rang, naqsh va tasviriy yechimlarni izlab topish va ularni ijodiy ishlarda qo‘llash;
4. Raqamli portfolioni shakllantirib borish.

Quyidagi minimum talablar o‘quvchilarni zamonaviy ijodiy jarayonga moslashtirishga qaratilgan. Raqamli grafik vositalardan foydalanish ko‘nikmasi bo‘yicha o‘quvchi quyidagi amaliy malakalarga ega bo‘lishi kerak: – Paint, Krita, Photoshop, Ibis Paint yoki ArtRage kabi grafik dasturlarda sodda geometrik shakllarni yaratish, raqamli cho‘tkalar (brush) bilan chiziq, nuqta, soya va nurni berish, Layer (qatlam) tushunchasi va undan foydalanishning boshlang‘ich bosqichlari, raqamli formatda obyektning rangini (Color Picker) tanlash va moslashtirish.

Quyidagi 3.51-jadvalda raqamli grafik vositalardan foydalanishning minimum ko‘nikmalarini yoritishga harakat qildek.

3.51-jadval.

Ko‘nikma turi	O‘quvchi bajarishi shart bo‘lgan minimum amallar	Natija
Shakl yaratish	Doira, kvadrat, uchburchak, silindr shakllarini chizish	Oddiy shakllar to‘g‘ri quriladi
Chiziqlar bilan ishlash	Qalinlikni sozlash, toza kontur chizish	Chiziq sifati yaxshilanadi
Rang tanlash	Asosiy va qo‘shma ranglarni raqamli tanlash	Rang madaniyati rivojlanadi
Layer bilan ishlash	Hech bo‘lmaganda 2 qatlamdan foydalanish	Tozalik va tartib saqlanadi

Shuningdek, raqamli kompozitsiya tuzish ko‘nikmalari bo‘yicha, o‘quvchi quyidagi amaliy malakalarga ega bo‘lishi kerak: – berilgan mavzu asosida oddiy kompozitsiyani raqamli formatda joylashtirishi, kompozitsiyaning markazi, asosiy obyekti va fonini ajrata olishi, raqamli makonda obyektlarning o‘lchami, masofasi va perspektivasini moslashtira olishi zarur.

Misol: – “Bahor manzarasi” mavzusida rasm ishlash: 1) osmon – fon qatlamida, 2) daraxtlar – o‘rta qatlamda, 3) qush yoki asosiy obyekt – old qatlamda joylashtiriladi.

Internet manbalaridan ijodiy maqsadda foydalanish bo‘yicha, o‘quvchi quyidagi amaliy malakalarga ega bo‘lishi kerak: – Rang uyg‘unliklari uchun Color Hunt, Adobe Color kabi saytlardan rang palitralarini izlab topishi, “Uzbekiston miniatyura san’ati”, “Islimiy naqshlar”, “Uyg‘un rang yechimlari” bo‘yicha vizual materiallar topish, manbalarni o‘rinli foydalanish, mualliflik huquqi va etik me’yorlarga rioya qilishni bilishi kerak. Misol: – o‘quvchi naqsh ishlayotganda internetdan “girih naqshlari” bo‘yicha namunalarni ko‘rib, lekin aynan nusxa ko‘chirmasdan o‘z kompozitsiyasiga mos ijodiy variant yaratishi kerak.

Raqamli portfolio yuritish bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi amaliy malakalarga ega bo‘lishi kerak: – o‘z rasm va ijodiy ishlarini JPG, PNG, PDF formatda saqlash, fayllarni mavzu, sana va janr bo‘yicha tartiblash, o‘z ishlarining bosqichlarini hujjatlashtirish (draft → ishlash jarayoni → yakuniy ish);

– Portfolio uchun qisqa izoh yozish malakasiga ega bo‘lishi shart.

Quyida raqamli portfolio yuritish bo‘yicha o‘quvchilarda hosil bo‘lishi lozim bo‘ladigan minimal talablarni 3.52-jadval shaklida ishlab chiqdek.

3.52-jadval.

Raqamli portfolio uchun minimal talablar

Portfolio elementi	Tavsif	Maqsad
Boshlang‘ich eskiz	Qalam yoki raqamli shaklda	G‘oya shakllanishini ko‘rsatish
Jarayon bosqichlari	2-3 ta oraliq holat	O‘quvchining rivojlanish jarayonini kuzatish
Yakuniy rasm	Raqamli yoki an’anaviy rasmni skan qilingan varianti	Asarning tayyor shakli
Izoh (2–3 jumla)	Ishning mavzusi, g‘oyasi	Tahlilga o‘rgatish

Raqamli xavfsizlik va madaniyatga oid o‘quvchilar quyidagi amaliy malakalarga ega bo‘lishi kerak: – internetda xavfsiz qidirish, keraksiz reklama, zararli saytlardan saqlanish, shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilmaslik, onlayn tasvirlarni etik me’yorlarga muvofiq ishlatishni bilishi kerak.

Demak aytish mumkinki, axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha minimum talablar o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, tasviriy san’atda yangicha yondashuvlar yaratish va kreativ tafakkurni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Raqamli vositalardan samarali foydalanish bugungi ta’lim jarayonining asosiy omillaridan biridir.

5. Baholash mezonlari uchun asosiy ko‘rsatkichlar.

Tasviriy san’at fanida baholash jarayoni o‘quvchilarning badiiy bilim va amaliy malakalarini kompleks tarzda aniqlashni talab qiladi. Mazkur mezonlar ta’lim jarayonining shaffofligi, adolatliligi va tizimlilik tamoyillariga asoslanadi. Baholash ko‘rsatkichlari o‘quvchining umumiy tayyorgarlik darajasini aniq aks ettiruvchi sifat parametrlaridan iborat.

O‘quvchining tayyorgarlik darajasi quyidagi indikatorlar asosida aniqlanadi:

To‘g‘ri tasvirlash – shakl, proporsiya, o‘q chiziqlarga rioya qilish;

Texnik malaka – qalam, bo‘yoq, material bilan toza ishlash;

Kompozitsion yechim – markazlash, format tanlash, joylashuv;

Rang madaniyati – uyg‘unlik, tus-o‘tishlar, kolorit;

Ijodiy yondashuv – mustaqillik, ifodaviylik, mavzuni ochib berish;

Estetik did – badiiylik, nafislik, umumiy madaniy saviya.

Bu aytib o‘tgan indikatorlarimizni quyidagi 3.53-jadval asosida tushuntirib beramiz.

3.53-jadval.

Baholash mezonlari jadvali

№	Ko‘rsatkich	Mazmuni (ilmiy sharh)	Amaliy misollar
1	To‘g‘ri tasvirlash	Shakl, proporsiya, o‘q chiziqlari, konstruktiv tuzilishning to‘g‘ri aks ettirilishi	Kubning konstruksiyasini to‘g‘ri chizish; odam boshining asosiy proporsiyalariga rioya qilish
2	Texnik malaka	Qalam, guash, akvarel, pastel kabi vositalar bilan toza, bosqichma-bosqich ishlay olish	Bo‘yoqlarning aralashtirilishi, qalamning bosimi, qirralarning tozaligi
3	Kompozitsion yechim	Format tanlash, markazlashtirish, ritm va mutanosiblikning to‘g‘ri joylashtirilishi	Natyurmort elementlarini kompozitsion markazga mos joylashtirish
4	Rang madaniyati	Rang uyg‘unligi, tus o‘tishlari, koloritning yaxlitligi, sovuq–issiq munosabatlarini anglash	Peyzajda osmon va yer nurlanishidagi tus munosabatlarini berish
5	Ijodiy yondashuv	O‘quvchining mustaqil g‘oya, tasavvur, badiiy ifoda orqali mavzuni ochib berishi	“Mening orzumdagi maktab” mavzusida mustaqil kompozitsiya yaratish
6	Estetik did	Nafislik, shaklning chiroyli ifodasi, umumiy badiiylik, tartib va tozalik	Natyurmortda ortiqcha chiziqlarni olib tashlash, ifodali yakun

Shuningdek, har bir ko‘rsatkich uchun ball mezonlarini ishlab chiqdek (0-5 ball), buni quyidagi 3.54-jadvalda ko‘rishingiz mumkin.

3.54-jadval.

Ball	Daraja	Tavsifi
5	Yuqori	Ish toza, kompozitsiya va proporsiya mukammal, rang uyg‘unligi kuchli, ijodkorlik yuksak
4	Yaxshi	Xatolar kam, kompozitsiya to‘g‘ri, rang-tusda uyg‘unlik bor, ijodiy element mavjud
3	O‘rta	Ba’zi kamchiliklar bor, ammo asosiy bilimlar o‘zlashtirilgan
2	Past	Proporsiya, kompozitsiya yoki texnikada sezilarli xatolar mavjud
1	Juda past	Asosiy tushunchalar deyarli qo‘llanmagan
0	Baholanmaydi	Ish topshirilmagan yoki mavzuga aloqasiz

Bu 3.50-jadval juda qimmatli – chunki o‘qituvchi va o‘quvchi uchun aniq baholash standartini beradi, ota-onalar uchun ham tushunarli tarzda yoritilganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Quyida baholash jarayoniga oid ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ham berib o‘tishni lozim deb topdek, ular:

A). Kognitiv (bilim) indikatorlari: – o‘quvchi perspektiva, rang nazariyasi, kompozitsiya qoidalarini amalda qo‘llay olishi kerak. Bu Bloom taksonomiyasining “qo‘llash” bosqichi bilan mos.

B). Psixomotor (amaliy) indikatorlari: – Texnik malaka, chizish jarayonida-

gi qat'iylik, vositadan to'g'ri foydalanish. Bu Harrow psixomotor taksonomiyasiga asoslanadi.

V). Affektiv (ijodkorlik, estetik did) indikatorlari: – San'atga hissiy munosabat, estetik did, mustaqil badiiy yechim yaratish. Bu Krathwohl affektiv bosqichiga mos keladi.

Namunaviy dars mashg'uloti uchun baholash kartochkasini ham ishlab chiqdek buni 3.55-jadvalda ko'rishingiz mumkin. Misol uchun.

Mavzu: Natyurmort chizish (guashda)

Maks. ball: 30

3.55-jadval.

Baholash kartochkasi

Ko'rsatkich	Ball
Proporsiya va shakl	5
Kompozitsiya	5
Rang madaniyati	5
Texnika	5
Ijodkorlik	5
Estetik did	5

Demak, tasviriy san'at fanida o'quvchilarning minimum tayyorgarlik talablari ularning badiiy tafakkurini shakllantirish, nazariy-amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur talablar o'qituvchiga o'quv jarayonini tizimli yo'lga qo'yish, baholashni adolatli tashkil etish va o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga ko'maklashadi deb aytish imkonini beradi.

Ushbu paragraf uchun xulosa sifatida aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitishda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimum talablar ularning sohaga oid savodxonligini shakllantirish, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliy malaka bilan uyg'unlashtirish, ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur talablar o'quvchi tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ijodiy tafakkur, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda baholash mezonlariga asos bo'luvchi sifat ko'rsatkichlarini belgilab beradi.

Minimum talablarning aniq va tizimli belgilanishi o'quv jarayonida o'qituvchining metodik faoliyatini qulaylashtiradi, o'quv talablarining adolatli baholanishiga yordam beradi va har bir o'quvchining individual rivojlanish sur'atini kuzatib borish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, tasviriy san'at fanining tarbiyaviy ahamiyatidan kelib chiqib, o'quvchilarning estetik didi, badiiy tafakkuri, ijodkorlik salohiyati va milliy badiiy merosga bo'lgan hurmati mustahkamlanadi.

Shunday qilib, minimum talablar tizimi tasviriy san'at ta'limining mazmun va sifatini oshirishda, o'quvchilarni san'atni anglash, ijod qilish va baholashga tayyorlashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

3.13-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Minimum talablar deganda nima nazarda tutiladi?

2. Tasviriy san’at bo‘yicha o‘quvchi qaysi asosiy bilim va ko‘nikmalarni minimal darajada egallashi zarur?

3. Naturaga asoslangan tasvirda minimal talab sifatida qaysi elementlar baholanadi?

4. Rangtasvir mashg‘ulotlarida yorug‘-soya, rang uyg‘unligi va koloritni qo‘llash minimal darajada qanday namoyon bo‘lishi kerak?

5. Kompozitsion fikrlashni rivojlantirishda minimal talabning asosiy mezonlarini sanab bering.

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradigan savollar

6. Minimum talablarni belgilash tasviriy san’atni o‘rgatishda qanday metodik ahamiyatga ega?

7. Minimum talabga erishmagan o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash qanday pedagogik choralar bilan ta’minlanadi?

8. Minimum talabdan yuqoriga o‘sish uchun qanday ijodkorlik mashqlari tavsiya etiladi?

Qo‘shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – Oddiy predmet asosida mini-natyurmort eskiz chizing va minimal talablar asosida 3 jumla bilan o‘z ishingizni baholang.

Topshiriq 2: – “Minimum talablar – ijodiy qobiliyat rivojining boshlang‘ich bosqichi” mavzusida 5 jumladan iborat fikr bildiring.

3.14 § Ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlarni o‘qitishning xususiyatlari

Ixtisoslashgan san’at maktablari – bu o‘quvchilarning estetik tafakkuri, tasviriy idroki va ijodiy qobiliyatlarini chuqur rivojlantirishga mo‘ljallangan maxsus ta’lim muassasalari bo‘lib, bu yerda “Tasviriy san’at” tsiklidagi fanlarni o‘qitish umumiy o‘rta ta’limdagi metodikalardan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu farqlar o‘quv jarayonining mazmuni, yondashuvlar, baholash mezonlari va pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

Ixtisoslashgan san’at maktablarida o‘quv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi – o‘quvchilarning tabiiy san’atga bo‘lgan moyilligini erta aniqlash, uni ilmiy asoslangan diagnostika vositalari orqali baholash, individual rivojlanish trayektoriyasini belgilashdan iborat. Bu jarayon o‘quvchilarning keyingi bosqichlarda kasbiy shakllanishini ta’minlaydi.

1. O‘quvchilarning tabiiy iste’dodini aniqlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini qo‘yida ko‘rib chiqamiz. Ixtisoslashgan san’at maktablarida o‘qitish jarayoni o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda shakllangan ijodiy qobiliyatini erta aniqlashdan boshlanadi. Bu jarayon: – kuzatuvga asoslangan diagnostika, grafik ko‘nikmalarni dastlabki baholash, rang sezgirligi va kompozitsion tafakkurni aniqlash testlari, ijodiy topshiriqlarni tahlil qilish kabi uslublar orqali amalga oshiriladi.

Bu maktablarda tasviriy san'at darslari iste'dodli bolalarni kasbiy yo'nalishga tayyorlash funksiyasini ham bajaradi.

Yuqorida aytib o'tgan jarayonlarga quyida to'xtalib, ularni har birini ilmiy izohlab kengroq ma'lumotlar berishga hamda tushuntirishga harakat qilamiz.

1.1. Kuzatuvga asoslangan diagnostika.

Bu usul bola shaxsiyati va ijodiy faoliyatini tabiiy xolatda kuzatishga tayangan holda amalga oshiriladi. Ilmiy adabiyotlarda (V.A. Molyako, E.I. Ignateva, A. Arnheim) ta'kidlanishicha, bolalarning tasviriy faoliyati ularning tafakkur jarayonlari bilan bevosita bog'liq, buni 3.56-jadval asosida ko'ramiz.

3.56-jadval.

Kuzatuv mezonlari

№	Mezon	Kuzatiladigan ko'rsatkichlar	Tahlil usuli
1	Rasmga bo'lgan ichki qiziqish	Darsdan tashqari chizish odati, mustaqil faoliyat	Sifat tahlili
2	Detallarga e'tibor	Predmetning shakl, nisbat, konturini qayta yaratish	Kuzatuv protokoli
3	Vizual xotira	Ko'rgan predmetni qayta yoddan chizish	Test-topshiriq
4	Tasavvur kengligi	Predmetni o'zgartirish, kompozitsiya yaratishda ijodkorlik	Ekspert tahlili

Kuzatuvga asoslangan diagnostika yuzasidan quyidagi amaliy misol (maktab sharoitida)ni aytish o'rinlidir: – O'quvchilarga 3 daqiqa davomida sodda geometrik predmet ko'rsatiladi (kub, shar, silindr). So'ng ular ushbu predmetni 5 daqiqada yoddan chizadi. Natija bo'yicha o'qituvchi o'quvchining vizual xotirasi, proporsiyalarni saqlashi va shakllarni idrok etish darajasini baholaydi.

1.2. Grafik ko'nikmalarni dastlabki baholash.

Bu bosqichda bola rasm chizishda asosiy akademik ko'nikmalarga qanchalik ega ekani yengil test va amaliy topshiriqlar orqali aniqlanadib 3.57-jadval misolida ko'rib chiqamiz.

3.57-jadval.

Baholash mezonlari

Ko'nikma turi	Baholash ko'rsatkichi	Ball oralig'i
Kontur chizish	Liniyaning ishonarliligi, uzluksizligi	1-5
Proportsiya	Predmet qismlarining o'zaro nisbati	1-5
Fazoviy tasavvur	Yoritish, hajm berishning boshlang'ich darajasi	1-5
Kompozitsion joylashuv	Predmetni varaqda to'g'ri joylashtirish	1-5

Grafik ko'nikmalarni dastlabki baholash yuzasidan amaliy topshiriq:

– O'quvchiga oddiy natyurmort qo'yiladi: – olma + krujka + kichik mato.

– o'quvchilar 10-12 daqiqa ichida kontur rasmni bajaradilar.

– Natija bo'yicha grafik ko'nikmalarning boshlang'ich darajasi aniqlanadi.

1.3. Rang sezgirligi va kompozitsion tafakkurni aniqlash testlari.

Bu turdagi diagnostika o'quvchining rangni idrok etish qobiliyatini, rang qarama-qarshiliklarini his qila olishini va ularning uyg'unligini topish mahoratini

baholaydi.

O‘quvchilarda rang sezgirligini aniqlash bo‘yicha namunaviy testi.

O‘quvchiga 12 ta rangli kartochka beriladi:

– Asosiy ranglar (3 ta);

– Ikkinchi darajali ranglar (3 ta);

– To‘ldiruvchi kontrastlar (3 ta);

– Yengil tuslar va soyalari (3 ta).

O‘quvchi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ranglarni issiq-sovuq toifalarga ajratish;

2. Qarama-qarshi rang juftlarini tanlash (qizil-yashil, ko‘k-sariq);

3. Uyg‘un ranglar kombinatsiyasini tuzish.

Baholash 10 ballik tizimda amalga oshiriladi.

Kompozitsion tafakkurni aniqlashga qaritilgan namunaviy testi:

O‘quvchiga 6 ta elementdan iborat tasvir beriladi (doira, kvadrat, chiziq, uch-burchak, dog‘).

Vazifa: 5 daqiqada estetik muvozanatga ega kompozitsiya yaratish.

3.58-jadval.

Baholash mezonlari

Mezon	Izoh
Markazni topish	E’tibor nuqtasi mavjudligi
Muvozanat	Og‘irlik markazining to‘g‘ri joylashuvi
Ritm	Elementlarning takrorlanishi va uyg‘unligi
Bo‘shliqdan foydalanish	Negativ fazoni to‘g‘ri ishlatish

1.4. Ijodiy topshiriqlarni tahlil qilish.

Ijodiy topshiriqlar o‘quvchining tasavvur kuchini, original fikrlashini va san’atga ichki munosabatini aniqlash uchun eng muhim diagnostik usullardan biridir.

Ijodiy topshiriqqa yunaltirilgan misollar keltiramiz, masalan:

A). “Qahramon yaratish” topshirig‘i: – 10 daqiqada fantastik mavjudot yoki original personaj chizish.

– Tahlilda ijodiy o‘ziga xoslik, detallarning originalligi, kompozitsiya erkinligi baholanadi.

B). “Hikoya rasm” metodi: – O‘quvchiga kichik matn beriladi (“Bahorda uyg‘ongan tabiat...” kabi);

– U matn asosida erkin kompozitsiya yaratadi;

– Bu usul tasavvur va vizual tafakkurni chuqur ochib beradi.

3.59-jadval.

Ijodiy ishlarni tahlil qilish jadvali:

Ko‘rsatkich	Tavsifi	Baholash
G‘oya	Asar mazmuni, original yechim	1-5
Tasavvur	Narsa-hodisalarni qayta talqin qilish qobiliyati	1-5

Texnika	Chiziq, dog‘, tus, rangdan foydalanish	1-5
Yakunlanganlik	Asarning butunligi	1-5

1.5. Iste’dodli bolalarni kasbiy yo‘nalishga tayyorlash funksiyasi.

Ixtisoslashgan maktablarning asosiy vazifalaridan biri – tabiiy iste’dodi bor o‘quvchini bosqichma-bosqich kasbiy yo‘nalishga tayyorlashdir.

Bu jarayon quyidagilar orqali amalga oshiriladi: – shaxsiy rivojlanish kartasi (Individual rivojlanish trayektoriyasi), portfolio yuritish, o‘quvchilarni studiya ishlariga jalb etish, ko‘rgazma va tanlovlarda ishtirok, plener mashg‘ulotlari, professional rassomlar bilan mahorat darslari.

Quyida, kasbiy rivojlanish modeli:

Diagnostika → Ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish → Profil fanlar → Portfolio → Tanlovlar → Kasb tanlash. Bu sikl bolaning iste’dodini tizimli tarzda shakllantirib boradi.

2. Ta’lim mazmunining kasbiylashtirilganligi.

Ixtisoslashgan san’at maktablarida “Tasviriy san’at” tsiklidagi fanlar chuqurlashtirilgan, akademik andozalarga yaqinlashtirilgan va professional tayyorgarlik tamoyillariga asoslangan shaklda o‘qitiladi. Bu ta’lim mazmuni o‘quvchini kelajakdagi san’at maktablari, kollej va oliy ta’limda davom etishi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu bo‘lim har bir fan yo‘nalishini ilmiy-pedagogik asosda yoritadi.

“Tasviriy san’at” tsiklidagi fanlarning bundagi asosiy xususiyatlari: – akademik rasm (akademik risunok), rangtasvir, kompozitsiya, dekorativ-amaliy san’at, haykaltaroshlik, san’atshunoslik asoslari shaklida chuqurlashtirilgan mazmunda o‘qitiladi.

Har bir fan bo‘yicha mavzular umumiy maktablarga qaraganda murakkabroq va professional me’yorlarga yaqinlashtirilgan bo‘ladi.

Quyida har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar beramiz.

2.1. Akademik rasm (akademik risunok). Akademik rasm ixtisoslashgan san’at ta’limining poydevori bo‘lib, u o‘quvchilarda konstruktiv fikrlash, shakl, hajm, yorug‘-soya, proportsiya kabi asosiy akademik ko‘nikmalarni shakllantiradi.

O‘qitish mazmuni: – geometrik shakllar asosida konstruksiyani anglash, predmetning tuzilishi iyerarxiyasi, proportsion nisbatlarni topish, chiziq orqali shakllantirish, yorug‘-soyani aniqlash, perspektiva qonunlari, tabiatdan rasm chizish (natural obyektlar, mevalar, idishlar), inson tanasi anatomiyasi asoslari.

3.60-jadval.

Kasbiy tayyorgarlikka mos ko‘nikmalar

Ko‘nikma	Kasbiy natija
Proportsiya va konstruksiya	Akademik figurani chizishga tayyorlaydi
Yorug‘-soya bilan ishlash	Hajmni aniq tasvirlash malakasi
Fazoviy tasavvur	Plener va murakkab kompozitsiya uchun asos
Anatomik idrok	Portret va figura uchun me’yoriy ko‘nikma

Amaliy topshiriq misoli: – “Murakkab geometrik kompozitsiyani konstruktiv

yechish” – silindr + kub + prizma + draperiya, – 25-30 daqiqa davomida konstruktiv chizmasi. Bu mashq fazoviy tafakkurni rivojlantirishda samarali bo‘ladi.

2.2. Rangtasvir (jivopis). Rangtasvir o‘quvchini rang qonuniyatlarini chuqur tushunishga, tabiatdagi rang holatlarini kuzatishga va rang orqali obraz yaratishga o‘rgatadi.

Asosiy mavzular: – rang nazariyasi (Itten modeli), tus, jilo, to‘yinish qonuniyatlari, rang kontrastlari (yorug‘-qorong‘i, issiq-sovuq), predmetning rang holati, plener rangtasviri, portret rangtasviri, rang dog‘i orqali kompozitsiya yechimi.

Jarayondagi ilmiy asos: – E. Itten, J. Arnheim va P. Klee nazariyalariga tayangan holda, rangning psixologik ta’siri ham o‘rgatiladi.

Amaliy misol: – “Bir manba yorug‘ligi ostida natura rangtasviri” rangning issiq-sovuq o‘tishlarini aniqlash.

2.3. Kompozitsiya. – Kompozitsiya fani tasviriy tafakkur, mazmuniy yechim va vizual muvozanatni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Fan sohasi bo‘yicha o‘tiladigan mavzular: – kompozitsiyaning markazi, og‘irlik nuqtasi, ritm, dinamika, statika, simmetriya-assimmetriya, formatga moslashtirish, bir necha predmetdan mazmunli kompozitsiya tuzish, syujet yaratish, rangli kompozitsiya.

3.61-jadval.

Kompozitsion muvozanat modeli

Element	Ta’siri
Markaz	Ahamiyatli nuqtani belgilaydi
Ritm	Ko‘rish jarayonini boshqaradi
Masshtab	Tasvir mavhumligini kamaytiradi
Bo‘shliq	Negativ fazoni kuchaytiradi

Fan yuzasidan amaliy topshiriq namunasi: – “Bir syujet asosida 3 xil kompozitsiya yechimi yaratish” – dinamik, statik va markazlashtirilgan kompozitsiya.

2.4. Dekorativ-amaliy san’at. Bu fan milliy qadriyatlar, bezak san’ati va dizayn tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fan yuzasidan namunaviy mavzular: – milliy naqsh elementlari (islimiy, girih), naqsh kompozitsiyasi qonunlari, rang uyg‘unligi, amaliy buyum dizayni, qog‘oz, mato, yog‘och, metal bilan ishlash asoslari.

Bu fanning kasbiy ahamiyati: – dizayn fikrlashni shakllantiradi, dekorativ obraz ustida ishlash malakasini oshiradi, milliy bezak san’ati bilan tanishtiradi.

2.5. Haykaltaroshlik. Haykaltaroshlik o‘quvchilarda hajmni his etish, plastik tafakkur, shaklning statik va dinamik holatlarini idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Fan bo‘yicha o‘tiladigan mavzular: – hajmning konstruksiyasi, relyef va badiiy relyef, hayvon va inson figuralarining hajmiy tasviri, plastilin, gil, gips bilan ishlash, bosqichma-bosqich skulptura modellashtirish.

Amaliy topshiriq sifatida: – “Doira-silindr asosida bosh formasini modellashtirish” – anatomik idrokni rivojlantiruvchi mashq.

2.6. San’atshunoslik asoslari. Bu fan tasviriy san’at tarixi, nazariy asoslari, davrlar va yo‘nalishlarni o‘rganishga xizmat qiladi.

O‘quv mazmuni quyidagicha aks topadi: – Butunjahon san’at tarixi (Qadimgi

Misr → Uyg'onish → Modern → Zamonaviy san'at). O'zbek san'ati tarixi (Kamoliddin Behzod, Usto Mumin, Chingiz Ahmarov va boshqalar). Kompozitsiya va rang nazariyasi. San'at tahlilining ilmiy mezonlari. Estetika asoslari.

Ushbu fanning ilmiy-pedagogik yondashuvi: – San'atshunoslik bo'limi barcha amaliy fanlarning nazariy asosini mustahkamlaydi, o'quvchining san'at idrokini kengaytiradi.

2.7. Ta'lim mazmunining umumiy kasbiylashuv modeli. Quyidagi model kasbiylashtirilgan mazmunning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi: – Akademik rasm → Rangtasvir → Kompozitsiya → Haykaltaroshlik → Dekorativ-amaliy san'at → San'atshunoslik → Portfolio → Kasbiy tayyorgarlik. Bu sikl o'quvchini professional rassom, dizayner yoki san'atshunoslik yo'nalishiga puxta tayyorlaydi deb aytish imkonini beradi.

3. Amaliy mashg'ulotlarning ustunligi. Ixtisoslashgan san'at maktablarida o'quv jarayonining 70-80 foizi amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lib, bu ta'limning kasbiy yo'naltirilganligini belgilaydi. Amaliy darslar o'quvchilarning ijodiy texnik mahorati, kuzatuvchanligi va vizual tafakkurini rivojlantirishda asosiy o'rin tutadi. Bu jarayon akademik maktablar tajribasiga tayanadi va bosqichma-bosqich murakkablashtirilgan dastur asosida tashkil etiladi. Bu jarayon quyidagicha tashkil etiladi: – natyurmort, portret, figura ustidan to'g'ridan-to'g'ri ishlash, tabiiy modellar bilan ishlash, plener mashg'ulotlari (tabiat qo'ynida rasm chizish), materiallar (akvarel, guash, akril, pastel, ko'mir, sanguina) bilan tajribalar o'tkazish, studiya shartlarida bosqichma-bosqich kompozitsiya yaratish.

3.1. Natura asosida ishlash: – natyurmort, portret, figura ustidan to'g'ridan-to'g'ri ishlash. Natura asosida chizish amaliy tayyorgarlikning markaziy yo'nalishidir. Bu o'quvchining ko'rish, solishtirish, taqqoslash, kontrast va daraja farqlarini idrok qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Bunga ilmiy-pedagogik asos sifatida aytish mumkin: – Gestalt psixologiyasi: – shaklni yaxlit ko'rish (M. Vertxaymer), akademik maktab tamoyili: umumiy shakldan detallarga o'tish, anatomiya va morfologiya qonuniyatlari.

Natura asosida ishlashga oid ishlab chiqilgan mavzularning metodik bosqichlari va amal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarni yorutuvchi mezonlar 3.62-jadvalda keltirilgan.

3.62-jadval.

Mavzularning metodik bosqichlari

Bosqich	Amal
1	Konstruktiv chizma: umumiy shakl, proportsiya
2	Yorug'-soya munosabatlari
3	Detallashtirish
4	Yakuniy badiiy ishlov

Natura asosida ishlashga doir amaliy topshiriq misoli sifatida: –"2 ta geometrik shakl + draperiya asosida murakkab naturadan rasm", 40-60 daqiqa ichida konstruktiv ishlanma, keyin yorug'-soya bilan bosqichma-bosqich boyitish.

Portret mashg'ulotlarida: – bosh proportsiyasi (Loomis sistemi), yuz anatomiyasi, statik va dinamik portretlarni qiyoslash.

Figura ustida ishlash: – skelet va mushak tuzilishi, tana og'irligi, tayanch nuq-

ta, harakat fazasi (gesture drawing) – 1-3 daqiqalik tez chizmalar.

3.2. Tabiiy modellar bilan ishlash.

Tabiiy model – professional rassom ta'limining asosiy elementi. O'quvchining kuzatuvi va anatomik idroki aynan shu jarayonda shakllanadi.

Tabiiy modellar bilan ishlashning ta'limdagi afzalliklari yuzasidan aytish mumkinki: – jonliligi sababli dinamik holatlar, anatomik to'g'rilik, real yorug'lik-soya o'zgarishlari, tabiiy proportsiya i kontrastlar.

Tabiiy modellar bilan ishlashga oid amaliy mashg'ulot shakllarini quyidagi 3.63-jadvalda ko'rib chiqamiz.

3.63-jadval.

Amaliy mashg'ulot shakllari

Mashg'ulot turi	Davomiyligi	Maqsad
Gesture drawing	1-3 daqiqa	Harakat ritmini ushlash
Quick sketch	5-10 daqiqa	Kompozitsion joylashuv
Academic pose	40-90 daqiqa	Anatomik aniqlik
Long pose	2-3 soat	Realistik badiiy yechim

3.3. Plener mashg'ulotlari (tabiat qo'ynida rasm chizish). Plener (frans. "en plein-air") – tabiatdagi yorug'lik, rang, atmosfera hodisalarini bevosita kuzatish va tasvirlash usuli degan ma'nolarni bildiradi.

Plenerning ilmiy asoslari sifatida aytish mumkinki: – atmosfera perspektivasi, rang to'yinganligining masofaga bog'liq kamayishi, quyosh nuri yo'nalishi va rang soyalari, havo qatlamining optik ta'siri.

Plenerda bajariladigan mashqlar xusisida aytadigan bo'lsak, avvalo:

1. "Ertalabki yorug'lik holati" – yumshoq soyalar, past kontrast;
2. "Kechki yorug'likda tabiat tasviri" – issiq ranglar ustun;
3. "Atmosfera perspektivasi asosida manzara";
4. "Harakatdagi bulutlar": 5–7 daqiqalik tez chizmalar.

Plenerning kasbiy ahamiyati borasida quyidagilarni e'tirof etish joiz, demak: – real rangni sezish, havodorlik effektini ko'ra olish, tabiatdagi dinamik o'zgarishlarni idrok etish, rang taassurotini tez fiksatsiya qilish.

3.4. Turli materiallar bilan ishlash tajribalariga asosan: – akvarel, guash, akril, pastel, ko'mir, sanguina kabilar kiradi. Materiallar bilan ishlash – texnik izlanish va ijodiy tajribaning eng kuchli shaklidir desak xato bo'lmaydi.

Turli materiallar va ularning xususiyatlarini yorutuvchi 3.64-jadvalni keltirib o'tamiz.

3.64-jadval.

Materiallar va ularning xususiyatlari

Material	Xususiyati	O'rgatiladigan ko'nikma
Akvarel	Shaffof, oqimchan	Qatlam bilan ishlash
Guash	Qalin, mat	Shaklni aniq ajratish
Akril	Tez quriydi	Rang ustiga rang qo'yish
Pastel	Yumshoq rang dog'lari	Teksturalar

Ko‘mir	Kuchli kontrast	Yorug‘-soya
Sanguina	Issiq rang	Anatomiya va portret

Turli materiallar bilan ishlashga doir namuna sifatida amaliy mashg‘ulot berib o‘tamiz:

– “Bir predmetni 3 xil materialda tasvirlash”. Bu o‘quvchida texnika almashganda kompozitsion yechimni saqlash malakasini shakllantiradi.

3.5. Studiya sharoitida bosqichma-bosqich kompozitsiya yaratish. Studiyada kompozitsiya ishlash professional ijod jarayoniga eng yaqin shakldir.

Kompozitsiyaning bosqichlari:

1. G‘oya topish – mazmuniy markaz, asosiy syujet;
2. Eskizlar – 5-10 ta kichik format;
3. Format tanlash – gorizontal/vertikal/murakkab format;
4. Tonal yechim – yorug‘-soya massalari;
5. Rang yechimining umumiy dog‘lari;
6. Detallashtirish;
7. Yakuniy ishlov.

Studiya sharoitida bosqichma-bosqich kompozitsiya yaratishni ilmiy asosi sifatida aytadigan bo‘lsak: – A. Durer, P. Klee, Ch. Kano, U. Mateo yondashuvlari asos bo‘ladi.

Bosqichma-bosqich kompozitsiya yaratishga oid amaliy topshiriq: – “Berilgan mavzu asosida 3 bosqichli kompozitsiya yaratish”; – mini eskiz → tonal kompozitsiya → rangli kompozitsiya

3.6. Amaliy mashg‘ulotlar ustuvorligi asosida shakllanadigan kompetensiyalar yuzasidan quyidagi 3.65-jadvalda keltirib o‘tamiz.

3.65-jadval.

Amaliy mashg‘ulotlarda shakllanadigan kompetensiyalar

Kompetensiya	Natija
Vizual kuzatuvchanlik	Realistik tasvirga yaqinlashadi
Texnika tanlash malakasi	Material bilan ongli ishlash
Kompozitsion tafakkur	Syujet yaratish qobiliyati
Anatomik idrok	Portret va figura tasvirida aniqlik
Rang sezgirligi	Plener va rangtasvirda ustuvor mahorat
Tez chizish texnikasi	Dinamika va harakatni tasvirlash

4. O‘qituvchining pedagogik va ijodiy kompetensiyasi. Ixtisoslashgan san’at maktablarida “Tasviriy san’at” tsikl fanlarini muvaffaqiyatli o‘qitishda o‘qituvchining roli o‘ta muhim. Bu kabi ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki iqtisodiy va ijodiy muhit yaratishni talab qiladi. Shu bois o‘qituvchidan oddiy pedagog emas, balki ijodkor, malakali rassom, metodist va san’atshunos sifatidagi ko‘pqirrali kompetensiyalar talab etiladi. Udan quyidagi kompetensiyalar bo‘lishi shart: – professional rasm va rangtasvir texnikalarini mukammal bilish, o‘quvchining individual ijodiy yo‘nalishini shakllantirish, portfolio tuzish uslubini qo‘llash, ko‘rgazma va tanlovlarga tayyorlash, zamonaviy san’at tendensiyalarini dars jarayoniga integratsiya qilish.

4.1. O‘qituvchining professional san’at kompetensiyasi (professional rasm va rangtasvir texnikalarini mukammal bilish). Bu kompetensiya rassomlik amaliyoti va klassik akademik maktab talablariga asoslanadi.

Buning asosiy talablari quyidagilar: – akademik rasm qonun-qoidalarini (proporsiya, anatomik asos, konstruktiv qurilish) chuqur bilish, rangtasvir texnikalari: akvarel, guash, akril, pastel, ko‘mir, moybo‘yoq bilan ishlashni amaliy o‘rgatish, kompozitsion tafakkurni rivojlantirish metodlari.

Materialshunoslik – turli fakturalar va texnikalar ustida tajriba o‘tkaza olish.

O‘qituvchining professional san’at kompetensiyasining ilmiy asos sifatida: – A. V. Bakushinskiy, P. P. Chistyakov, K. F. Yuon kabi akademiklar ta’lim jarayonida o‘qituvchining bevosita ijodiy tajribasini “o‘quvchining estetik didi va amaliy mahoratini shakllantiradigan asosiy omil” deb ta’kidlaydi.

O‘qituvchining professional san’at kompetensiyasiga doir amaliy misol sifatida: – 7-sinfda “Figurani konstruktiv qurilish asosida chizish” mashg‘uloti jarayonida o‘qituvchi figurani bosqichma-bosqich qurishni avval doskaga ishlab ko‘rsatadi, keyin o‘quvchilar bilan birgalikda yangi rakursda bajariladi.

4.2. Pedagogik va metodik kompetensiyalar. San’at maktabi o‘qituvchisi quyidagi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni puxta bilishi kerak:

Pedagogik ko‘nikmalar jihatidan: – o‘quvchining individual qobiliyat kartasini tuzish (diagnostika asosida), differensial yondashuv: – iste’dod darajasiga ko‘ra topshiriqlar berish, vizual metodlardan (sketch, moodboard, koloristik sxema) foydalanish, bosqichma-bosqich o‘rgatish modeli.

Buni quyidagi 3.66-jadval asosida qisqacha tahlil qilamiz.

3.66-jadval.

O‘qituvchining metodik kompetensiyalar majmuasi

Kompetensiya turi	Mazmuni	Amaliy ko‘rinishi
Diagnostik yondashuv	Qobiliyatni erta aniqlash	Rasm tahlili, rang testi
Differensial ta’lim	Har bir o‘quvchi uchun alohida top	Kuchli o‘quvchi uchun murakkab kompozitsiya
Portfolio metodikasi	Taraqqiyot monitoringi	Yillik ijodiy portfolioni shakllantirish
Refleksiv metod	O‘quvchining o‘z ishlari ustida fikrlashi	Har dars yakunida mini-tahlil

4.3. O‘quvchini kasbiy yo‘nalishga tayyorlash kompetensiyasi. Ixtisoslashgan san’at maktablari kelajakdagi rassomlar, dizaynerlar, haykaltaroshlar uchun bazaviy asos yaratadi, shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, e’tibor qaratish lozim bo‘ladigan jihatlar quyidagilar.

Tayyorlov yo‘nalishlari: – ijodiy tanlovlar uchun tayyorlash, ko‘rgazmalar tashkil etish, ijodiy loyiha – “mini diplom” ishlarini yo‘naltirish, oliy san’at ta’limiga kirish uchun maxsus tayyorgarlik.

O‘quvchini kasbiy yo‘nalishga tayyorlash kompetensiyasiga oid amaliy misol keltiramiz: “Yosh rassomlar respublika ko‘rgazmasi”ga ishlanmalarni tanlash. 9-sinf uchun “Portfolio himoya” tadbiri, plener ishlari bo‘yicha mavsumiy mini-albom tayyorlash.

4.4. Zamonaviy san’at jarayonlariga mos kompetensiya. Bugungi kunda o‘qituvchi nafaqat klassik maktabni, balki zamonaviy san’at, digital-art, dizayn tendensiyalarini ham bilishi zarur, quyida o‘qituvchi yana nimalar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishi yuzasidan fikrlashamiz.

Talab etiladigan imkoniyatlar: – grafik planshet, Adobe Photoshop/Illustrator bilan ishlash, koloristika, dizayn tafakkuri, vizual kontent yaratish, NFT, raqamli san’at, media-art kabi yangi yo‘nalishlar haqida tasavvurga ega bo‘lish.

Zamonaviy san’at jarayonlariga mos kompetensiya yuzasidan amaliy ko‘rsatma sifatida: – 8-sinfda “Raqamli eskiz yaratish” mini-mashg‘ulotida o‘qituvchi planshetda skretch ishlab ko‘rsatadi va o‘quvchilarga oddiy kontur eskiz topshirig‘ini beradi.

4.5. O‘qituvchining shaxsiy ijodiy faolligi. Ixtisoslashgan maktablarda o‘qituvchi faqat o‘qituvchi emas – faol ijodkor bo‘lishi shart chunki, zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarga jahonda etiyoj katta.

O‘qituvchining shaxsiy ijodiy faolligi oshirish talablari: – shaxsiy ko‘rgazmalarda ishtirok etish, ijodiy ishlanmalar olib borish, metodik qo‘llanmalar yaratish, ilmiy-uslubiy izlanishlar. Bu nafaqat pedagogning obro‘sini, balki o‘quvchiga ta’sir kuchini oshiradi desak hato bo‘lmaydi.

5. O‘quv mashg‘ulotlarida metodlarning o‘ziga xosligi. Ixtisoslashgan san’at maktablarida ta’lim jarayoni ijodiy faoliyat va kasbiy yönalishni shakllantirishga qaratilgani uchun o‘qitish metodlari ham an’anaviy maktablarga nisbatan tubdan farq qiladi. Bu metodlar o‘quvchining shaxsiy ijodiy yo‘nalishini rivojlantirish, mustaqillikni kuchaytirish va professional tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu maktablar uchun quyidagi o‘qitish uslublari xos:

A). Individual yondashuv – har bir o‘quvchi o‘z ijodiy sur’atida ishlaydi.

B). Maestro – shogird modeli – o‘qituvchi ijodkor rassom sifatida namuna ko‘rsatadi.

V). Bosqichma-bosqich rasm chizish texnikasi – umumiy shakldan detallashtirishgacha.

G). Ijodiy loyiha metodikasi – muayyan g‘oya asosida kompozitsiya yaratish.

D). Tanqidiy tahlil – o‘quvchi ishlarini san’atshunoslik mezonlari bo‘yicha baholash.

O‘quv mashg‘ulotlarida metodlarning o‘ziga xosligi, uning tarkibiy qismlarini va ularni mazmunini yanada mukammal ochib o‘tamiz. Demak, ilmiy asoslar bilan, har bir usulni alohida tahlil qilib, unga oid jadval va amaliy misollar orqali kengroq yoritamiz.

5.A. Individual yondashuv. Bunga doir iIlmiy asos sifatida: – L. S. Vygotskiyning “proksimal rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, har bir bola individual rivojlanish sur’atiga ega. Ixtisoslashgan maktablarda bu nazariya to‘liq pedagogik amaliyotga joriy etilgan.

Individual yondashuv metodining mohiyati xususida aytish kerak, bunda: – har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv yo‘li belgilanadi, murakkablik darajasi yoshiga va qobiliyatiga ko‘ra farqlanadi, kuchli bolalarga murakkab kompozitsiya, boshlang‘ich bosqichdagilarga esa konstruktiv asos beriladi.

Individual yondashuv metodiga doir amaliy misol sifatida: – “Portret chizish” mashg‘ulotida yuqori salohiyatli o‘quvchi uch chorak burilishda portret ishlasa, boshlang‘ich darajadagi o‘quvchi ro‘parama-ro‘para yengil yorug‘-soya asosida portret ishlaydi. Bunga oid qsyidagi 3.67-jadvalda qisqacha tushuntirish beramiz.

3.67-jadval.

Mini-jadval: Individual yondashuvning qo‘llanish modeli

O‘quvchi darajasi	Beriladigan topshiriq turi	Kutilyotgan natija
Boshlang‘ich	Oddiy predmetlar, sodda yorug‘-soya	Ko‘rish idroki
O‘rtacha	Konstruktiv qurilish, murakkab shakl	Fazoviy tafakkur
Yuqori	Portret/figura, murakkab kompozitsiya	Ijodiy mustaqillik

5.B. Maestro – shogird modeli. Bunga ilmiy asos sifatida aytish mumkin-ki. Bu model, Sharq miniatyura maktablaridan tortib, Uyg‘onish davri ustaxonalarigacha bo‘lgan klassik san’at an’anasiga tayanadi. Maestro o‘quvchi uchun jonli namuna, ijodiy yo‘lboshchi hisoblanadi.

Maestro – shogird modelining o‘ziga xos metod xususiyatlari xususida quyidagilarni e’tirof etish lozim: – ustoz avval o‘zi rasmni amaliyotda bajarib namuna ko‘rsatadi, shogird bosqichma-bosqich takrorlaydi, o‘qituvchi jarayonda xatolarni real vaqtda tuzatib boradi.

Maestro – shogird modeliga amaliy misol sifatida: – O‘qituvchi plener vaqtida kompozitsiya markazini qanday tanlashni amalda ko‘rsatadi. O‘quvchilar har bir bosqichni kuzatib, keyin o‘z ishlariga tatbiq etadilar.

5.V. Bosqichma-bosqich rasm chizish texnikasi. Bu metod yuzasidan ilmiy asos sifatida: – A. P. Plastov, P. P. Chistyakov kabi rassomlar ta’lim metodi “Obshchaya forma → konstruktiv tuzilish → detal → ton” ketma-ketligiga asoslanganligini ko‘rsatib o‘tish o‘rinli deb hisoblayman.

Bosqichma-bosqich rasm chizish texnikasi metodining tuzilishi xususida:

1. Umumiy shakl – predmetning kattalashgan formasi belgilanadi.
2. Konstruktiv asos – shaklning ichki tuzilishi, o‘qlar, proporsiyalar.
3. Detal – mayda belgilar, xarakter-topshiriqlar.
4. Ton va yorug‘-soya – hajmlilik berish.

Bosqichma-bosqich rasm chizish texnikasi metodini quyidagi 3.68-jadval asosida qisqacha tahlil qilib chiqamiz.

3.68-jadval.

Bosqichlarning amaliy ko‘rinishi

Bosqich	Mazmun	Natija
1	Umumiy massa	Shaklni to‘g‘ri joylashtirish
2	Skelet, o‘q chiziqlar	Proporsiya aniqligi
3	Detallash	Xarakter berish
4	Tonlashtirish	Hajm va yorug‘lik

Bosqichma-bosqich rasm chizish texnikasi metodiga oid amaliy misol keltir-

ib o‘tamiz: – 8-sinf figurani chizish jarayonida avval umumiy “silhouette massasi” olinadi, keyin anatomik konstruksiya belgilanadi, undan so‘ng detallar qo‘shilib, oxirida yorug‘-soya bilan hajm beriladi.

5.G. Ijodiy loyiha metodikasi. Bu metodga ilmiy asos sifatida: – Project-based learning nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi ma’lum g‘oya asosida yakuniy mahsulot yaratishi – ijodiy tafakkurni jadallik bilan rivojlantiradi.

Bosqichma-bosqich rasm chizish texnikasi metodi bosqichlari. Ular:

1. G‘oya tanlash (mavzu: “Tabiat va inson”, “Ranglar dialogi”, “Shahar ritmlari”).
2. Eskizlar ishlash – variantlar.
3. Kompozitsion echimni tanlash.
4. Yakuniy san’at asarini yaratish.
5. Portfolioga joylashtirish va taqdimot.

Bosqichma-bosqich rasm chizish texnikasi metodi yuzasidan amaliy misol keltiramiz: – 9-sinf “Shahar ritmi” loyihasida o‘quvchi eskizlar asosida kompozitsiya tanlaydi, keyin akril texnikasida yakuniy asar yaratadi va uni sinf oldida himoya qiladi.

5.D. Tanqidiy tahlil (Art-critique). Bu metodni ilmiy asosi saftida aytish mumkin-ki. San’atshunos Linda Nochlin va Rudolf Arnheim ta’lim jarayonida vizual tahlilni “san’at tafakkurini shakllantiruvchi asosiy ko‘nikma” deb baholagan.

Tanqidiy tahlil (Art-critique) metodining maqsadi: – o‘quvchining o‘z ishini tahlil qila olishi, estetik mezonlarga asoslangan baholash, asarlar orasidagi farqlarni anglash.

Tanqidiy tahlil (Art-critique) metodi bo‘yicha quyidagi 3.69-jadvalda ko‘ramiz.

3.69-jadval.

Tahlil modeli (4 bosqich)

Bosqich	Mazmuni
1. Tavsif	Asarda nima tasvirlangan?
2. Tahlil	Kompozitsiya, rang, forma, ritm qanday ishlatilgan?
3. Talqin	Asar g‘oyasi nima?
4. Baholash	Kuchli va kamchilik tomonlar qanday?

Tanqidiy tahlil (Art-critique) metodi yuzasidan amaliy misol: – Mashg‘ulot yakunida 10 daqiqa «Mini art-critic» tashkil qilinadi. Har bir o‘quvchi bir ishni tanlab, kompozitsion yechimini tahlil qiladi.

6. Ko‘rgazmalar, tanlovlar va portfolioga asoslangan baholash. Ixtisoslashgan san’at maktablarida baholash tizimi umumiy maktabdan farq qiladi, chunki bu yerda o‘quvchi faqat texnika yoki nazariy bilim emas, balki ijodiy rivojlanish, estetik tafakkur va professional shakllanish darajasi bo‘yicha baholanadi. Shu bois baholashning asosiy shakllari – ko‘rgazmalar, tanlovlar va portfoliolar hisoblanadi.

Ixtisoslashgan ta’limda o‘quvchi yutuqlarining asosiy ko‘rinishi: – ichki maktab ko‘rgazmalari, hududiy va respublika tanlovlari, ijodiy loyihalar portfoliolari hisoblanadi.

Baholash ko‘pincha an’anaviy ball tizimidan ko‘ra: – texnika mahorati, kom-

pozitsiya yechimi, individual uslub, ijodiy izlanish darajasi kabi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Ko‘rgazmalar, tanlovlar va portfolioga asoslangan baholash” bo‘limi va uning tarkibiy qismlarini ham har birini ilmiy asoslangan, jadval va amaliy misollar bilan quyida to‘liq yoritib chiqishga harakat qilamiz.

6.1. Ko‘rgazmalar tizimi. Bunga ilmiy asos sifatida aytishimiz mumkin-ki. John Dewey (san’at falsafasi)ga ko‘ra, ijodiy jarayonning muhim qismi – “asarning namoyishi”, ya’ni o‘quvchi o‘z ishini boshqalarga taqdim eta olishidir. Ko‘rgazma o‘quvchi uchun motivatsiya va maqsad beradi.

Ko‘rgazma turlari va ularni tashkil etish, maqsadi, vazifalari xususida ham to‘xtalib o‘tsak:

– birinchidan. Ichki maktab ko‘rgazmalari: – semestr yoki yil yakunida tashkil etiladi; – o‘quvchilarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ko‘rsatadi.

–ikkinchidan. Studiya yoki fan yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘rgazmalar: – rasm, rangtasvir, haykaltaroshlik va kompozitsiya bo‘yicha alohida tashkil qilinadi.

– uchinchidan. Plener natijalari ko‘rgazmasi: – tabiiy muhitda ishlangan kompozitsiyalar taqdim qilinadi.

Ko‘rgazmalar tizimi yuzasidan amaliy misol keltiramiz: – 7-9-sinflar uchun “Yil yakuniy ijodiy ishlari” ko‘rgazmasida har bir o‘quvchidan kamida 5 ta eng yaxshi ish portfoliodan tanlab olinadi va ekspozitsiya qilinadi.

Ko‘rgazmalar tizimini quyidagi 3.70-jadval asosida qisqa tahlil qilib chiqamiz.

3.70-jadval.

Ko‘rgazma jarayonining bosqichlari

Bosqich	Amalga oshiriladigan ishlar
Tayyorgarlik	Ishlarni saralash, rasm o‘lchamini tanlash
Tashkillashtirish	Ko‘rgazma makonini bezash, yorliqlar tayyorlash
Namoyish	O‘quvchi ishi murojaat sifatida taqdim etiladi
Tahlil	O‘qituvchi va o‘quvchilar fikr almashadi

6.2. Tanlovlar tizimi. Bu tizimga oid ilmiy asos sifatida aytishimiz mumkin-ki. Tanlovlar ijodiy o‘sishni tezlashtiruvchi omil sifatida tadqiqotlarda (R. Sternberg, Ijodkorlik psixologiyasi) muhim deb belgilangan.

Endi, tanlov turlari xususida to‘xtalib o‘tamiz:

Hududiy tanlovlar – tuman va viloyat bosqichlari;

Respublika tanlovlari – “Kamolot”, “Yosh rassomlar festivali”, “Barkamol avlod” kabi;

Xalqaro tanlovlar – Bolalar rasmlari biennalesi, “Peace Art” va boshqa.

Chunonchi, tanlovning o‘quvchi rivojiga ta’siri xususida ham gapiradigan bo‘lsak: – ijodiy motivatsiyani oshiradi, professional fikrlash tez shakllanadi, o‘z uslubini topishda katta tajriba beradi.

Tanlovlar tizimiga doir amaliy misol keltiramiz: – 8-9-sinf o‘quvchilari uchun “Ekologiya va San’at” respublika tanlovida qatnashish uchun loyiha ishlanadi: – plenerda ishlangan akvarel asarlari portfoliodan tanlanadi.

6.3. Portfolio-ga asoslangan baholash tizimi. Bu tizimni ilmiy asosi sifatida aytish mumkin-ki. Portfolio baholash – XX asr oxirida pedagogik diagnostikada

keng qo'llangan uslub (V. Drummond, "Student performance portfolio"). U o'quvchining yil davomidagi individual ijodiy o'sishini ko'rsatadi.

Portfolio tarkibiga quyidagilarni e'tirof etish mumkin bo'ladi:

1. Eng yaxshi 8-12 ta asar (har yili yangilanadi):
2. Ijodiy loyihalar (eskiz, g'oya, kompozitsiya talqini);
3. Plener ishlari;
4. Tanlov va ko'rgazma ishtiroki bo'yicha sertifikatlar;
5. O'quvchi o'z-o'zini tahlil qilgan matnlar;
6. O'qituvchi tomonidan yillik ekspertiza.

Portfolio-ga asoslangan baholash tizimiyuzasidan kengroq ma'lumotlar va tushuncha hosil qilish maqsadida quyidagi 3.71-jadvalni ishlaganmiz.

3.71-jadval.

Portfolio baholash mezonlari

Mezon	Izoh
Texnika mahorati	Rasm, rangtasvir, yorug'-soya, material bilan ishlash
Kompozitsiya yechimi	Markaz, ritm, g'oya, obyektlar joylashuvi
Individual uslub	O'quvchining o'ziga xos ifoda tili
Ijodiy izlanish	Eskizlar, yangi texnikalardagi tajribalar

6.4. An'anaviy ball tizimidan farqi. Ixtisoslashgan san'at maktablarida baholashning mohiyati «to'g'ri yoki noto'g'ri» emas, balki rivojlanish dinamikasi asosida olib boriladi. Buni quyidagi 3.72-jadval asosida qisqa tahlil qilamiz.

3.72-jadval.

Taqqoslovchi jadval

An'anaviy maktab	Ixtisoslashgan san'at maktabi
Ball bilan baholash	Deskriptor va mezonlar asosida baholash
Umumiy natija	Ijodiy jarayonning tahlili
Darsdagi faollik	Ishlar portfolioga kiritilishi
Xatolarni tuzatish muhim	Izlanish va g'oya qiymati muhim

6.5. Amaliy misol (integral baholash). 9-sinf "Tabiat manzarasi" kompozitsiyasi bo'yicha baholash jarayoni:

1. Ko'rgazmaga chiqariladi;
2. Ustoz va o'quvchilar tomonidan tahlil qilinadi;
3. Portfolioga joylanadi;
4. Tanlovga tavsiya etilishi mumkin;
5. Yakuniy baho quyidagi 3.73-jadvaldagi tartibda shakllanadi.

3.73-jadval.

Integral baholash

Mezon	Ball
Texnika mahorati	25
Kompozitsiya	25

Ijodiy g‘oya	30
Uslubning individualligi	20

Yakuniy natija: 100 ballik ijodiy baholash.

7. Zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi. So‘nggi yillarda ixtisoslashgan san’at maktablarida o‘quv jarayoni an’anaviy amaliy metodlar bilan birga zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan boyitilayotgani bilan ajralib turadi. Bu jarayon nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning zamonaviy san’at bozoridagi kompetensiyalarini shakllantiradi. Yaqin yillarda ixtisoslashgan san’at maktablarida: – raqamli grafika, 3D modellash, raqamli rangtasvir asoslari, interaktiv vizual platformalar, virtual galereyalar kabi zamonaviy san’at texnologiyalari ham o‘rgatilmoqda.

Bu esa o‘quvchilarni zamonaviy san’at bozoriga mos raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlaydi.

Quyida, zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi bo‘limi va uning tarkibiy qismlarini har birini ilmiy asoslangan, jadval va amaliy misollar bilan to‘liq yoritib chiqamiz.

7.1. Raqamli grafika asoslari.

– Grafik planshetlardan foydalanish (Wacom, Huion).

– Adobe Photoshop, Illustrator, Krita, Procreate kabi dasturlarda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

– Chiziq, rang, massa, yorug‘-soya yechimlarini raqamli muhitda qo‘llash.

Raqamli grafika asoslarining ahamiyatli jihati shudaki, o‘quvchilar real bozorda talab yuqori bo‘lgan digital-art kompetensiyasini egallaydilar.

7.2. 3D modellash va virtual shakllantirish.

– Blender, ZBrush, Maya kabi ilg‘or dasturlarda sodda shakllardan boshlab murakkab modellar yaratish.

– 3D muhitda hajm, nisbat, tekstura yoritish kabi fundamental tushunchalarni amaliy qo‘llash.

3D modellash va virtual shakllantirishning ahamiyati esa, zamonaviy dizayn, animatsiya va game-art sohalari uchun asosiy tayyorgarlik vazifasini bajaradi.

7.3. Raqamli rangtasvir (Digital Painting).

– Raqamli cho‘tkalar bilan ishlash texnikasi.

– Kompozitsion yechimlarni ekran muhitida yaratish.

– Rang gammasini raqamli palitra orqali boshqarish.

Raqamli rangtasvir ishlashning ahamiyatli tomoni, an’anaviy rangtasvir bilimlarini zamonaviy formatda kengaytiradi, tezkor ishlash va ijodiy tajribalarni kengaytiradi.

7.4. Interaktiv vizual platformalar.

– Artstation, Behance, Pinterest orqali vizual tadqiqotlar o‘tkazish.

– Online master-klasslar: Khan Academy, Coursera, Udemy’dagi san’at kurslaridan foydalanish.

– Interaktiv darslar uchun Miro, Jamboard kabi platformalardan foydalanish.

Interaktiv vizual platformalarda ishlashning ahamiyati, o‘quvchilar global visual madaniyat bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

7.5. Virtual galereyalar va VR texnologiyalari.

– 3D virtual ko‘rgazmalar tashkil etish.

– O‘quvchi ijodini VR muhitida namoyish qilish.

– Raqamli muzey ekskursiyalaridan (Louvre, Rijksmuseum, MetMuseum) foydalanish.

Virtual galereyalar va VR texnologiyalarning ahamiyati, san’atni idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi, o‘quvchi tajribasini yangi bosqichga ko‘taradi.

7.6. Natijaviylik va raqobatbardoshlik. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish: – o‘quvchilarda ijodkorlikning yangi shakllarini ochadi, zamonaviy kasblarga tayyorlashni tezlashtiradi, xalqaro tanlov va ko‘rgazmalarda ishtirok etish imkoniyatlarini oshiradi, bozor talablariga mos raqobatbardosh yosh san’atkorlar yetishtiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlarni o‘qitish jarayoni umumta’lim maktablariga nisbatan yuqori darajadagi pedagogik, ijodiy va metodik talablar bilan ajralib turadi. Bu ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining 70-80 foizi amaliyotga qaratilgani, mashg‘ulotlarning ustuvor ravishda natura ustidan, tabiat qo‘ynida va studiya sharoitida amalga oshirilishi o‘quvchilarda realistik tasvirlash ko‘nikmalarini chuqur shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning individual ijodiy imkoniyatlariga yo‘naltirilgan individual yondashuv, maestro – shogird modeli, bosqichma-bosqich rasm chizish metodikasi va ijodiy loyiha asosidagi ta’lim jarayoni ta’lim samaradorligini ta’minlaydi.

O‘qituvchining o‘zi ham faqat pedagog emas, balki professional rassom, zamonaviy san’at yo‘nalishlaridan xabardor ijodkor sifatida talqin qilinadi. Bu esa o‘quvchilarni tanlovlar, ko‘rgazmalar va ijodiy portfoliolar orqali baholashning yangi mezonlarini – texnika mahorati, kompozitsion yechim, individual uslub va ijodiy izlanish darajasini talab etadi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi – raqamli grafika, 3D modellash, digital painting, interaktiv platformalar va virtual galereyalar bilan ishlash – ixtisoslashgan san’at ta’limida yangi bosqichni boshladi. Bu jarayon o‘quvchilarni nafaqat an’anaviy san’at asoslariga, balki zamonaviy kreativ industriya talablariga mos ravishda tayyorlaydi, ularni raqobatbardosh yosh ijodkor sifatida shakllantiradi.

Shu bois, mazkur paragrafda bayon etilgan uslublar, metodlar va texnologik yondashuvlar ixtisoslashgan san’at ta’limining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq ochib beradi va uni zamonaviy, tizimli, amaliyotga tayangan pedagogik jarayon sifatida tavsiflaydi.

3.14-§ Bo‘yicha nazorat savollari

1. Ixtisoslashgan san’at maktablarida tasviriy san’at ta’limining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Ushbu ta’lim muassasalarida ijodiy muhitni shakllantirish nima uchun mu-

him?

3. O‘quv dasturlarining umumta’lim maktablaridan farqi nimada?

4. Amaliy mashg‘ulotlar salmog‘i va professional yo‘nalishning o‘rni qanday belgilanadi?

5. Badiiy ta’limda individual yondashuv qay tarzda amalga oshiriladi?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradigan savollar

6. Ixtisoslashgan san’at maktablari o‘quvchining badiiy tafakkurini rivojlantirishda qanday afzalliklarga ega?

7. Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy mahorati bu maktablarda qanday talablar asosida baholanadi?

8. Sizningcha, san’at maktablarida o‘qitishni takomillashtirish uchun 3 ta taklif bering.

Qo‘shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – San’at maktabida bir hafta davom etadigan tasviriy san’at mashg‘ulotlari uchun mini-reja tuzing (5 band).

Topshiriq 2: – “Ixtisoslashgan san’at ta’limining afzalligi nimada?” mavzusida 5 jumladan iborat fikr bildiring.

3.15 § Mutaxassislik yo‘nalishiga asosan fan mazmuni va mohiyatining o‘zgarishi

Oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at, amaliy bezak san’ati, dizayn, rangtasvir, grafika kabi turli mutaxassislik yo‘nalishlarining jadal rivojlanishi fan mazmunining tubdan yangilanishini taqozo etmoqda. Har bir yo‘nalishning o‘ziga xos maqsad-vazifalari, kompetensiyalari, kasbiy faoliyat talablari mavjud bo‘lib, tasviriy san’atga oid fanlarning mazmuni aynan shu ehtiyojlardan kelib chiqib qayta ko‘rib chiqiladi.

Fan mazmunining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar.

1. Mutaxassislikning o‘ziga xos kompetensiyalari.

Masalan, “Dastgohli rangtasvir” yo‘nalishida kompozitsiya, yorug‘-soya, rangshunoslik, anatomiya va perspektiva kabi amaliy tayyorgarlik ustuvor bo‘lsa, “Dizayn” yo‘nalishida kreativ fikrlash, vizual kommunikatsiya, grafika vositalaridan foydalanish, raqamli texnologiyalar asosiy o‘rinda bo‘ladi. Shuning uchun fan mazmuni har bir yo‘nalishning kasbiy talablariga mos holga keltiriladi.

Mutaxassislikning o‘ziga xos kompetensiyalarini ilmiy asoslaydigan bo‘lsak avvalo, quyidagilarni alohida e’tirof lozim.

Mutaxassislik yo‘nalishining kompetensiyalari – bu o‘quvchining kelajakda kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishga qaratilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui. Ta’lim fanlarida kompetensiyalarni shakllantirish quyidagi ilmiy tamoyillar asosida olib boriladi:

1. Konstruktiv tamoyil – o‘quv jarayoni nazariy bilimdan amaliy ko‘nikmaga bosqichma-bosqich yetaklanadi;

2. Integratsion tamoyil – har bir yo‘nalishning fan mazmuni boshqa fanlar bilan bog‘lanadi (anatomiya, rangshunoslik, informatika, etnografiya);

3. Ijodiy kompetensiyani rivojlantirish tamoyili – talabaga mustaqil loyiha

yaratish, kreativ yechim topish imkoniyatlari beriladi.

T.Qurbonovni ta’kidlashicha – “Mutaxassislik yo‘nalishiga moslab fan mazmunini qayta tashkil etish talaba kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.[33]”

Quyida 3.74-jadval asosida mutaxassislik bo‘yicha kompetensiyalar tahlilini keltirib o‘tamiz.

3.74-jadval.

Mutaxassislik bo‘yicha kompetensiyalar tahlili

Yo‘nalish	Asosiy kompetensiyalar	Ilmiy asos/real misol	Amaliy qo‘llanish
Dastgohli rangtasvir	Kompozitsiya, yorug‘-soya, rangshunoslik, anatomiya, perspektiva	Talaba inson qomatini tasvirlashda anatomik xatolarga yo‘l qo‘ymasligi lozim	Studio mashg‘ulotlar, rasm chizish, portret va manzara ishlari
Dizayn	Kreativ fikrlash, vizual kommunikatsiya, grafika vositalari, raqamli texnologiyalar	3D-modellashtirish va raqamli illyustratsiya orqali vizual yechimlarni yaratish	Logotip dizayni, reklama bannerlari, interaktiv media loyihalari
Amaliy bezak san’ati	Etno-madaniyatni bilish, dekorativ texnikalar, materiallarni tanlash	Milliy naqshlar va bezak uslublarini saqlash orqali madaniy merosni rivojlantirish	Buyum va interyer dekoratsiyasi, qo‘l san’ati mahsulotlari

Har bir yo‘nalish uchun “Nazariya → Amaliyot → Ijodiy loyiha → Portfolio” bosqichlari sxematik tarzda ko‘rsatiladi. Qo‘shilgan qatlam sifatida kompetensiyalar va ularni baholash mezonlari joylashtiriladi.

Mutaxassislikning o‘ziga xos kompetensiyalarini ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadi:

– Kompetensiyalar o‘zaro integratsiyalashgan holda fan mazmunini boyitadi;

– Real misollar orqali talaba o‘zlashtirgan bilimlarni amaliy loyihalarda sinovdan o‘tkazadi;

– Raqamli va an’anaviy metodlarning uyg‘unligi kompetensiyalarni kuchaytiradi.

H.Ahmedovni fikricha – “Har bir mutaxassislik yo‘nalishida fan mazmuni va kompetensiyalar amaliy hayot talablariga mos bo‘lishi kerak, aks holda talaba bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh bo‘lolmaydi.[34]”

Demak, mutaxassislik yo‘nalishiga moslab fan mazmunini shakllantirish va kompetensiyalarni aniqlash tasviriy san’at ta’limining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Har bir yo‘nalishning o‘ziga xos bilim va ko‘nikmalari (kompozitsiya, rangshunoslik, kreativ fikrlash, vizual kommunikatsiya, raqamli texnologiyalar) fan mazmunini professional me’yorlarga moslashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni integratsiyalashgan holda o‘rgatish talabaning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini mustahkam-

33 T.Qurbonov, Tasviriy san’at va amaliy pedagogika, 2020.

34 H.Ahmedov, Oliy ta’limda kreativ pedagogika, 2022.

laydi va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

2. Raqamli texnologiyalar va yangi o‘quv metodlari ta’siri.

So‘nggi yillarda 3D-modellashtirish, raqamli illyustratsiya, grafik dizayn platformalari, sun’iy intellekt asosidagi kompozitsion yechimlar tasviriy san’at fanlarining mazmuniga faol kirib kelmoqda. Bu o‘zgarishlar har bir yo‘nalishda o‘quv modullarini qayta ko‘rib chiqish, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishni talab qiladi.

Raqamli texnologiyalar va yangi o‘quv metodlari ta’sirini sohani rivojiga qo‘shadigan jihatlarini ilmiy asoslashga harakat qilamiz.

Raqamli texnologiyalar tasviriy san’at fanlarida innovatsion yondashuvlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy o‘quv jarayonida 3D-modellashtirish, raqamli illyustratsiya, grafik dizayn platformalari va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish nafaqat ijodiy jarayonni tezlashtiradi, balki talabaning vizual fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

I.Safarovni fikricha – “Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan holda kiritish talabaning ijodiy va texnik kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi.[35]”

Raqamli texnologiyalarning tasviriy san’at fanlari va yo‘nalishlarga ta’sirini 3.75-jadvalda qisqacha tahlil qilamiz.

3.75-jadval.

Raqamli texnologiyalarning yo‘nalishlarga ta’siri

Yo‘nalish	Raqamli texnologiyalardan foydalanish	Amaliy misollar
Dastgohli rangtasvir	3D-modellashtirish orqali kompozitsiya va perspektivani o‘rganish	Talaba virtual studiyada portret yoki manzara yaratadi
Dizayn	Grafik dizayn platformalari (Adobe Illustrator, Figma), interaktiv prototiplash	Logotip, banner, veb-interfeys yaratish
Amaliy bezak san’ati	Sun’iy intellekt asosida naqsh va dekor variantlarini ishlab chiqish	Milliy bezaklarni raqamli formatda loyihalash

“An’anaviy metodlar → Raqamli metodlar → Integratsiyalashgan o‘quv modul” sxemasi. Har bir bosqichda kompetensiyalar va amaliy mashg‘ulotlar ko‘rsatiladi.

Raqamli texnologiyalarning tasviriy san’at fanlari va yo‘nalishlarga ta’sirini ilmiy tahlili sifatida: – raqamli vositalar talabaning ijodiy yondashuvini kengaytiradi, o‘quv metodlari ham innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashadi (masalan, blended learning: – an’anaviy va onlayn mashg‘ulotlar kombinatsiyasi), kompetensiyalar faqat amaliy ko‘nikmalar bilan cheklanmay, vizual kommunikatsiya va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

H.Ahmedovni ta’kidlashicha – “O‘quv jarayonida raqamli metodlarni qo‘llash talaba ijodkorligi va kasbiy malakasini rivojlantirishning samarali yo‘lidir.[36]”

Raqamli texnologiyalarning tasviriy san’at fanlari va yo‘nalishlarga ta’siriga oid misol keltiramiz. Masalan, “Dizayn” yo‘nalishidagi talaba Adobe Illustrator dasturida interaktiv veb-loyiha yaratadi va uni 3D-modellashtirish vositalari bilan vizualizatsiya qiladi. Shu jarayonda u nafaqat texnik ko‘nikmalarni egallaydi, balki

35 I.Safarov, Raqamli san’at pedagogikasi, 2021.

36 H.Ahmedov, Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, 2022.

ijodiy yondashuvni, vaqtni boshqarish va mijoz talablarini tushunish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Demak, aytish mumkinki raqamli texnologiyalar va yangi o‘quv metodlari tasviriy san’at fanlarining mazmunini tubdan yangilashga, talabaning amaliy va ijodiy kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladi. 3D-modellashtirish, raqamli illyustratsiya, grafik dizayn platformalari va sun’iy intellekt vositalari o‘quv jarayonini interaktiv va samarali qiladi. Shu bilan birga, talaba nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki kreativ fikrlash, vizual kommunikatsiya va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Raqamli metodlar o‘quv dasturlarini zamonaviy kasbiy talablar bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

3. Kasbiy faoliyat bozorining yangilanishi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijodkor, rassom, dizayner, animator, dekorativ bezak ustasi kabi mutaxassislarning mehnat faoliyati turlicha. Shunga ko‘ra, o‘quv dasturlari amaliyotga yaqinlashtiriladi, loyiha asosida o‘qitish, portfolio baholash va buyurtmachi bilan ishlash malakalari asosiy mazmunga kiradi.

Kasbiy faoliyat bozorining yangilanishini ilmiy asoslasak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijodkor, rassom, dizayner, animator va dekorativ bezak ustasi kabi mutaxassislarning faoliyati turlicha bo‘lib, ularning kasbiy tayyorgarligi zamonaviy bozor talablariga mos bo‘lishi talab etiladi. Shu sababli o‘quv dasturlari amaliyotga yaqinlashtiriladi, loyiha asosida o‘qitish, portfolio baholash va buyurtmachi bilan ishlash malakalari asosiy mazmunga kiradi.

H.Ahmedovni fikricha – “Kasbiy tayyorgarlikni bozor talablari bilan uyg‘unlashtirish oliy ta’limning samaradorligini oshiradi.[37]”

Kasbiy faoliyat bozorining yangilanishiga doir misol va amaliy qo‘llanishi xususida quyidagilarni atiz joiz. Dizayn yo‘nalishidagi talaba freelancer sifatida mijoz uchun logotip yoki veb-loyiha yaratadi.

Loyihaning bosqichlari:

1. G‘oya yaratish va eskiz tayyorlash;
2. Dizaynni raqamli formatga o‘tkazish (Adobe Illustrator, Figma);
3. Mijoz bilan maslahat va tasdiqlash;
4. Yakuniy loyiha va portfolioga kiritish.

Bu jarayonda talaba texnik ko‘nikmalar (grafik, raqamli, 3D-modellashtirish), ijodiy kompetensiyalar (kreativ fikrlash, vizual kommunikatsiya) va tashkiliy ko‘nikmalar (loyiha boshqarish, vaqtni rejalashtirish)ni rivojlantiradi.

3.76-jadvalda portfolio va loyiha metodining kasbiy kompetensiyalarga ta’sirini o‘rganish jarayoni tahlil qilingan.

3.76-jadval.

Portfolio va loyiha metodining kasbiy kompetensiyalarga ta’siri

Loyiha bosqichi	Talabaning rivojlanayotgan kompetensiyalari	Amaliy misol
G‘oya → eskiz	Kreativ fikrlash, konseptual yondashuv	Talaba biror loyiha uchun bir nechta eskiz variantlarini yaratadi
Dizayn	Grafik va raqamli ko‘nikmalar	Eskizlarni Adobe Illustrator yoki Figma dasturida chizish

37 H.Ahmedov, Oliy ta’lim va kasbiy kompetensiyalar, 2022.

Mijoz bilan ishlash	Vizual kommunikatsiya, tashkiliy ko‘nikmalar	Loyihani mijoz talablariga moslashtirish, maslahatlashish
Yakuniy ish va portfolio	Amaliy va ijodiy kompetensiyalarni baholash	Tayyor loyiha portfolioga kiritiladi, baholash mezonlari asosida baholanadi

O‘quv dasturi → Amaliyot → Portfolio → Bozor talablariga moslashish. Bunda:

– har bir bosqich talabaning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi;

– diagramma orqali loyiha asosidagi o‘qitish va bozor talablariga moslashish jarayoni ko‘rsatiladi.

Demak, kasbiy faoliyat bozorining yangilanishi o‘quv jarayonini amaliyotga yaqinlashtirishni, loyiha asosida o‘qitishni va portfolio baholashni talab qiladi. Shu orqali talaba nafaqat texnik va ijodiy ko‘nikmalarni egallaydi, balki bozor talablariga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘ladi. Amaliyot va buyurtmachi bilan ishlash tajribasi talabaning tashkiliy va kommunikatsion ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Fan mohiyatining o‘zgarishi.

Mutaxassislikka yo‘naltirilgan ta’lim fanning mazmunidan tashqari, uning mohiyatini ham tubdan o‘zgartiradi:

– Nazariy yondashuvdan kasbiy-amaliy maqsadga yo‘naltiriladi.

– Har bir mavzu o‘quvchining kelajak kasbiy faoliyatidagi o‘rni bilan bog‘lanadi.

– Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

– Tasviriy san’at endi faqat tasvirlashni emas, balki vizual fikrlash, estetik tahlil, kreativ yechim topish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Fanlararo integratsiya kuchayadi.

– “Dastgohli rangtasvir” – anatomiya, fiziologiya, rangshunoslik;

– “Dizayn” – informatika, muhandislik grafika, marketing;

– “Amaliy bezak san’ati” – etnografiya, tarix, milliy meros bo‘yicha bog‘lanadi.

Fan mohiyatining o‘zgarishini quyidagicha ilmiy asoslash mumkin bo‘ladi. Mutaxassislikka yo‘naltirilgan ta’lim fan mazmuni va mohiyatini tubdan o‘zgartiradi. Fan endi faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, talabaning kasbiy-amaliy va ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratiladi. Har bir mavzu o‘quvchining kelajak kasbiy faoliyatidagi o‘rni bilan bog‘lanadi.

T.Qurbonovni fikricha – “Mutaxassislik yo‘nalishida fan mohiyatini o‘zgartirish talabaning amaliy va ijodiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.[38]”

Fan mohiyatidagi asosiy o‘zgarishlari nimalarda ko‘rinadi:

1. Nazariy yondashuvdan kasbiy-amaliy maqsadga yo‘naltirish. Talaba o‘rgangan har bir nazariy bilimni amaliy loyiha va ijodiy mashg‘ulotlarda qo‘llaydi. Masalan, dastgohli rangtasvir yo‘nalishida anatomik bilimlar portret chizish jarayonida qo‘llaniladi.

2. Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish. Talaba nafaqat tasvirlaydi, balki vizual fikrlash, estetik tahlil va kreativ yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

38 T.Qurbonov, Tasviriy san’at pedagogikasi, 2020.

Misol uchun, dizayn yo‘nalishida talabalar interaktiv veb-loyiha yaratadi va mijoz talablari asosida loyihani takomillashtiradi.

3. Fanlararo integratsiya. “Dastgohli rangtasvir” → anatomiya, fiziologiya, rangshunoslik. “Dizayn” → informatika, muhandislik grafika, marketing. “Amaliy bezak san’ati” → etnografiya, tarix, milliy meros va h. tartibida davom ettirish mumkin.

3.77-jadvalda fanlararo integratsiya va kompetensiyalar tahlil qilinadi.

3.77-jadval.

Fanlararo integratsiya va kompetensiyalar

Yo‘nalish	Bog‘langan fanlar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar	Misol
Dastgohli rangtasvir	Anatomiya, rangshunoslik, fiziologiya	Vizual ko‘nikmalar, amaliy chizish	Portret va figura chizish
Dizayn	Informatika, muhandislik grafika, marketing	Kreativ fikrlash, vizual kommunikatsiya	Interaktiv veb-loyiha yaratish
Amaliy bezak san’ati	Etnografiya, tarix, milliy meros	Madaniy estetik tahlil, dekorativ loyihalar	Milliy naqsh asosida dekoratsiya

Demak, mutaxassislik yo‘nalishiga yo‘naltirilgan ta’lim fan mazmuni va mohiyatini tubdan o‘zgartiradi, talabaning amaliy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Nazariy bilimlarni amaliyotga integratsiyalash, fanlararo bog‘lanish va kreativ yondashuv talabaning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Mutaxassislik yo‘nalishi asosida fan mazmunining qayta tuzilishi.

1. Modullar bo‘yicha differensiallashtirish:

– Har bir yo‘nalishda umumiy modul (tasviriy san’at asoslari) va maxsus modul (yo‘nalishga mos amaliyot) yaratiladi. Misol: Dizayn yo‘nalishida umumiy modul – san’at nazariyasi; maxsus modul – grafik dizayn va raqamli illyustratsiya.

2. O‘quv materiallarini bosqichma-bosqich murakkablashtirish:

– Avval umumiy san’at asoslari → keyin yo‘nalishga xos texnikalar → yakunda mustaqil ijodiy loyiha. Misol: Dastgohli rangtasvirda talaba avval portretning oddiy qismlarini chizadi, keyin kompozitsiya va rang harmoniyasini o‘rganadi, yakunda mustaqil loyiha yaratadi.

3. Portfolio va loyiha metodlariga o‘tish:

– Talabaning barcha amaliy ishlari, eskizlari, kompozitsiyalari mutaxassislik talablariga mos ravishda baholanadi. Portfolio talabaning ijodiy va kasbiy kompetensiyalarini kuzatish va baholash vositasi sifatida xizmat qiladi.

4. Mehnat bozori bilan integratsiya:

– Ishlab chiqarish amaliyoti, studiya mashg‘ulotlari, buyurtmalar asosida o‘qitish mazmunning ajralmas qismiga aylanadi. Misol: Talaba real mijoz buyurtmasi bo‘yicha loyiha yaratadi va uni baholash orqali bozor talablariga moslashadi.

Mutaxassislik yo‘nalishi asosida fan mazmunining qayta tuzilishini ilmiy asoslaymiz.

Mutaxassislik yo‘nalishi asosida fan mazmunini qayta tuzish talabaning kasbiy-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quv dasturi modullar bo‘yicha differensiallashtiriladi, materiallar bosqichma-bosqich murakka-

blashadi va amaliyot bilan bozor talablariga moslashtiriladi.

H.Ahmedovni ta'kidlashicha – "O'quv materiallarini modullar bo'yicha differensiallashtirish va loyiha metodlariga asoslash talabaning professional tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.[39]"

3.78-jadvalda fan mazmunining bosqichma-bosqich qayta tuzilishini ilmiy tahlil qilib chqdek.

3.78-jadval.

Fan mazmunining bosqichma-bosqich qayta tuzilishi

Bosqich	Mazmun	Amaliy misol	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
1. Umumiy modul	Tasviriy san'at asoslari	Chizmachilik, kompozitsiya asoslari	Nazariy bilimlar, vizual fikrlash
2. Maxsus modul	Yo'nalishga mos texnikalar	Grafik dizayn, rang harmoniyasi	Texnik ko'nikmalar, amaliyot
3. Mustaqil loyiha	Kreativ loyiha yaratish	Portfolioga kiritilgan ijodiy ish	Ijodiy, kasbiy va tashkiliy kompetensiyalar
4. Mehnat bozori bilan integratsiya	Ishlab chiqarish amaliyoti, studiya mashg'ulotlari, buyurtmalar	Real loyiha yaratish	Bozor talablariga moslashgan kasbiy kompetensiyalar

Demak, mutaxassislik yo'nalishi asosida fan mazmunini qayta tuzish o'quv jarayonini strukturaviy, amaliy va bozor talablariga mos qiladi. Modullar bo'yicha differensiallashtirish, bosqichma-bosqich murakkablashtirish, portfolio va loyiha metodlari, shuningdek mehnat bozori bilan integratsiya talabaning amaliy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Chunonchi, mutaxassislik yo'nalishi asosida tasviriy san'at fanlarining mazmuni va mohiyatining o'zgarishi oliy ta'limning sifatini oshirish, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash, zamonaviy ijodkor-shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon nafaqat ta'lim mazmunini, balki o'qitish metodikasini, baholash tizimini va ijodiy yondashuvni ham yangilaydi.

Shuningdek, mutaxassislik yo'nalishiga yo'naltirilgan ta'lim tasviriy san'at fanining mazmuni va mohiyatini tubdan o'zgartiradi. Fan endi faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, talabaning amaliy, kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fan mohiyati o'zgarishi: – Nazariy yondashuvdan kasbiy-amaliy maqsadga yo'naltirish, fanlararo integratsiya va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali talabaning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarligi mustahkamlanadi.

Raqamli texnologiyalar va yangi metodlar: – 3D-modellashtirish, raqamli illyustratsiya, grafik dizayn platformalari va sun'iy intellekt asosidagi vositalar o'quv jarayonini interaktiv va samarali qiladi hamda talabaning vizual fikrlash va kreativ yondashuv qobiliyatini rivojlantiradi.

Kasbiy faoliyat bozoriga moslashuv: – Loyiha asosida o'qitish, portfolio baholash, buyurtmachi bilan ishlash talabaning bozor talablariga mos kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydi.

Fan mazmunining qayta tuzilishi: – Modullar bo'yicha differensiallashtirish,

39 H.Ahmedov, Oliy ta'limda kasbiy kompetensiyalar, 2022.

bosqichma-bosqich murakkablashtirish va mehnat bozori bilan integratsiya talabaning amaliy va ijodiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantiradi.

Natija sifatida: – Mutaxassislikka yo‘naltirilgan tasviriy san’at ta’limi talabaning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirib, uni bozor talablariga mos, ijodkor va kompetent mutaxassisga aylantiradi. Shu bilan birga, talabaning kreativ va vizual fikrlash qobiliyati, bozor bilan integratsiyalashgan kasbiy tayyorgarligi kuchayadi, fanlararo bog‘lanish orqali bilimning ko‘p qirrali rivojlanishi ta’minlanadi.

3.15-§ BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Mutaxassislik yo‘nalishi tasviriy san’at fan mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

2. Fan mazmunining o‘zgarishi qanday pedagogik va jamiyat talablari bilan bog‘liq?

3. San’at ta’limida mazmunni yangilash jarayonida qaysi kompetensiyalar ustuvor hisoblanadi?

4. «Kasbiy yo‘nalish» tushunchasi tasviriy san’at darslarida qanday namoyon bo‘ladi?

5. O‘quv dasturlari mazmunini modullashtirishning afzalliklari nimada?

Tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar

6. Fan mohiyatining o‘zgarishi san’at pedagogikasiga qanday yangi talablar qo‘yadi?

7. Zamonaviy san’at yo‘nalishlari (digital art, media art va h.k.)ni mazmunda aks ettirish zaruratiga baho bering.

8. Tasviriy san’at mazmunini takomillashtirish bo‘yicha 3 ta taklif ishlab chiqing.

Qo‘shimcha mini-topshiriqlar

Topshiriq 1: – Tasviriy san’at darslari mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirish uchun klaster tuzing.

Topshiriq 2: – Bir mutaxassislik yo‘nalishini tanlab (masalan, dizayn, dekorativ san’at), fan mazmunidagi 3 ta o‘zgarishni qisqacha asoslang.

III BOB BO‘YICHA UMUMIY XULOSA

Amaliy mashg‘ulotlar tasviriy san’at ta’limining eng asosiy va samarali tashkil etuvchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Chunki, aynan amaliy faoliyat jarayonida o‘quvchilar nazariy bilimlarni ongli o‘zlashtiradi, kuzatish, tasavvur va badiiy tafakkurini rivojlantiradi, tasviriy vositalardan faol foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Ushbu bobda amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish, baholash va rag‘batlantirish mexanizmlari ilmiy-metodik asosda bayon qilingan.

Amaliy mashg‘ulotlarni rejalashtirish jarayonida yosh xususiyatlari, tasviriy faoliyatning bosqichma-bosqich murakkablashuvi va metodik yondashuvning tizimliligiga e’tibor qaratish zarur. Interfaol metodlar, kuzatish asosidagi tasvirlash, rangtasvir mashqlari, kompozitsion yechimlar va ijodiy loyihalar kabi top-

shiriqlar o‘quvchilarni real san’at jarayoniga yaqinlashtirib, ularning mustaqil ijodkor sifatida rivojlanishga xizmat qiladi.

Shuningdek, AKT vositalari va zamonaviy vizual texnologiyalar qo‘llanilishi o‘quvchilarda digital san’atni o‘zlashtirish, murakkab obrazlarni yaratish va o‘z ishlari portfoliosini shakllantirish imkoniyatini kengaytiradi. Baholash tizimi esa o‘quvchi ijodiy faoliyatini ob’ektiv ko‘rsatib, rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatishga sharoit yaratadi.

Yakuniy xulosaga ko‘ra:

– amaliy mashg‘ulotlar ta’lim mazmunining amaliy ifodasi bo‘lib, ijodkor shaxsni tarbiyalashda asosiy rol o‘ynaydi;

– o‘quvchi bilimi va malakalarining haqiqiy rivojlanish ko‘rsatkichi aynan amaliy faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi;

– samarali tashkil etilgan amaliy darslar tasviriy san’at ta’limini yuqori natijalarga olib chiqadi.

Shu bois amaliy mashg‘ulotlar metodikasi tasviriy san’at ta’limida eng muhim pedagogik mexanizm sifatida qaraladi va uni takomillashtirish – ta’lim sifatini oshirishning munosib yo‘lidir.



BOB BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ilmiy muammo va ilmiy mavzu orasidagi farqlar nima va ular qanday belgilar bilan ajraladi?

2. Ilmiy-texnikaviy axborotni izlash jarayonida qaysi manbalar eng ishonchli hisoblanadi?

3. Tadqiqot mavzusini aniqlashda muammoni to‘g‘ri qo‘yish nima sababdan muhim?

4. Mutaxassislik fanlari metodlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar qaysilar?

5. Talabalarning o‘quv-faoliyatini rag‘batlantirishning samarali usullariga misollar keltiring.

6. Bilimlarni nazorat qilishning zamonaviy shakllari nimadan iborat?

7. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning an’anaviy metodlardan afzalliklari nimalar?

8. Tasviriy san’at darslarida qaysi pedagogik texnologiyalar eng samarali hisoblanadi?

9. O‘quv jarayoniga yangi texnologiyani joriy etishda o‘qituvchi nimaga e’tibor berish kerak?

10. Tasviriy san’atga o‘rgatishning umumiy maqsadlari nima?

11. Darslarni tashkil qilishda qo‘llaniladigan zamonaviy metodlarga misollar kelting.

12. Tasviriy san’atga o‘rgatishning vazifalari bilan dars shakllari o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

13. Muammoli vaziyat yaratishning dars jarayonidagi pedagogik ahamiyati nima?

14. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qaysi usullar samaraliroq?

15. O‘quvchilarning tasviriy tafakkurida obraz yaratish jarayoni qanday kechadi?

16. Tasviriy san’atda bilim va ko‘nikmalarni baholashning o‘ziga xos jihatlari nima?

17. Amaliy ishlarni baholash mezonlari qanday belgilanadi?

18. O‘quvchilar ijodiy ishlarida xatolarni aniqlash va tahlil qilishning vazifasi nimadan iborat?

19. Hozirgi baholash tizimida uchrayotgan asosiy kamchiliklar nimalar?

20. Baholash jarayonini takomillashtirish uchun qanday innovatsiyalar zarur?

21. Portfolioga asoslangan baholashning afzalliklari nimalar?

22. Kompyuter texnologiyalari tasviriy san’atni o‘qitishda qanday imkoniyat yaratadi?

	23. Raqamli vositalardan foydalanishning o‘quvchi faolligiga ta’siri nimada namoyon bo‘ladi? 24. Grafik dasturlarni dars jarayoniga integratsiya qilishda nimaga ahamiyat berish kerak? 25. Zamonaviy grafik dasturlarning asosiy turlari va vazifalari nimalar? 26. Vektor va raster grafikalar o‘rtasidagi farqlar nimadan iborat? 27. Ta’limda qaysi grafik dasturlar eng qulay va samarali hisoblanadi? 28. Ilg‘or pedagogik metodlarning o‘qitish samaradorligiga ta’siri nima? 29. “Kichik guruhlarda ishlash” usulining afzalliklarini tushuntiring. 30. Teskari aloqa (feedback) metodining o‘quv jarayonidagi roli qanday? 31. Tasviriy san’at fanlari bo‘yicha darslik mazmunini baholash mezonlari nima? 32. O‘quv dasturlarining zamonaviy talablar bilan muvofiqligi qanday aniqlanadi? 33. Darsliklarni solishtirma tahlil qilishning ahamiyati nimada? 34. Darslik mazmunining ta’lim maqsadlariga mos kelishi qanday baholanadi? 35. Dastur tuzilmasida qanday bo‘limlar bo‘lishi zarur? 36. Darslikning amaliy qismiga qo‘yiladigan metodik talablarni tushuntiring. 37. O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi qanday mezon o‘lchanadi? 38. Minimum talablar kim tomonidan va qanday belgilanadi? 39. Mazkur talablarga moslashtirilgan dars shakllari qaysi? 40. Ixtisoslashgan san’at maktablarida tasviriy san’at darslari qanday xususiyatlarga ega? 41. Ushbu maktablarda o‘quvchilar bilan ishlashning asosiy metodik talablari nimalar? 42. Maxsus iste’dodga ega o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchi nimaga e’tibor berishi kerak? 43. Mutaxassislik yo‘nalishi fan mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatadi? 44. Fan mohiyatining o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi omillarga misollar kelting. 45. Turli yo‘nalishlar uchun darslik modullarini moslashtirish jarayonini tushuntiring.



MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

1-mavzu: Tasviriy san’at fanlarining pedagogika va psixologiya fanlari bilan umumiy bog‘liqligi.

1. Mavzuning maqsadi: – Talabada tasviriy san’at ta’limi jarayoni pedagogik va psixologik qonuniyatlar bilan uzviy bog‘liqligini tushunish, badiiy faoliyatning rivojiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

2. O‘rganish vazifalari: – Talaba quyidagilarni aniqlashi va tahlil qilishi lozim:

1. Tasviriy san’at ta’limining pedagogik tamoyillari (onglilik, tizimlilik, ko‘rgazmalilik, bosqichma-bosqichlik).

2. Rivojlanish psixologiyasi bilan bog‘liq jihatlar: tasavvur, idrok, xotira, tafakkur, emotsiya.

3. San’at ta’limida yosh xususiyatlarining ahamiyati.

4. Shaxsning ijodiy salohiyatini o‘stirishda o‘qituvchining psixologik yondashuvlari.

5. Pedagogik jarayonda rag‘bat, motivatsiya va emotsional muhitning roli.

3. Topshiriq mazmuni: – Talaba quyidagi ishlarni bajaradi:

A) Tahliliy yozma ish (1,5-2 bet): – tasviriy san’at ta’limi pedagogika fanidagi qaysi tamoyillarga tayangan holda tashkil etilishini izohlash, badiiy tasvir jarayonida psixologik jarayonlar (idrok, tasavvur, tafakkur, emotsiya) qanday namoyon bo‘lishini tahlil qilish, psixologik yondashuvsiz tasviriy san’atni o‘qitish nega samarali bo‘lmasligini dalillar bilan asoslash.

B) Amaliy kichik topshiriq: – talaba o‘quvchi yosh guruhlaridan birini tanlaydi (5-7 sinflardan biri) va: – shu yoshdagi bolalar idrok xususiyatlarini qisqacha tavsiflaydi, shu xususiyatlarga mos bitta dars jarayonida qo‘llaniladigan mashg‘ulot yoki metodni taklif qiladi.

4. Bajarish tartibi.

1. Berilgan mavzular bo‘yicha 3-5 ta ilmiy manbani o‘rganish.

2. Pedagogika va psixologiya fanlarining asosiy tushunchalarini solishtirish.

3. Tahliliy izohlar bilan yozma ishni rasmiylashtirish.

4. Amaliy misolni jadval yoki kichik tavsif ko‘rinishida tuzish.

5. Ish oxirida foydalanilgan adabiyotlar ko‘rsatiladi.

5. Metodik ko‘rsatmalar:

– Yozma ishda «Pedagogika», «Umumiy psixologiya», «San’at ta’limi metodikasi» kabi asosiy manbalarga tayangan ma’qul;

– Talaba o‘z xulosasini amaliy misollar bilan mustahkamlashi kerak;

– Darsda kuzatiladigan real psixologik holatlar (diqqatning susayishi, motivatsiya pasayishi va boshqalar) haqida qisqa qaydlar kiritish tavsiya etiladi.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Abdullaeva Q., Xolmatov N. – Pedagogika asoslari.

2. G‘oziyev E. – Umumiy psixologiya.
3. Tursunov Q., Jo‘rayev R. – Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.
4. Vygotskiy L.S. – Pedagogik psixologiya.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonun va DTS.
7. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Nazariy tahlil	Pedagogika va psixologiya bilan bog‘liqlikni ilmiy asosda tahlil qilishi	30
Amaliy topshiriq	Yosh guruhga mos metodni to‘g‘ri tanlashi va izohlashi	25
Mustaqil xulosa	Talabaning shaxsiy fikri va umumlashtirishi	20
Manbalar	3-5 ta ilmiy manbaga asoslanishi	15
Rasmiylashtirish	Talab etilgan shaklga mosligi	10
	Jami	100

2-mavzu: Tasviriy san’at fanining nazariy va amaliy mashg‘ulotlar turlari

1. Mavzuning maqsadi: – Talabaga tasviriy san’at ta’limida qo‘llaniladigan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar tuzilmasi, ularning vazifasi, o‘zaro bog‘liqligi va o‘quv jarayonidagi ahamiyatini tushuntirish, turlarini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

2. O‘rganish vazifalari: – Talaba quyidagilarni o‘zlashtirishi kerak:

1. Nazariy mashg‘ulotlarning vazifasi va xususiyatlarini aniqlash.
2. Amaliy mashg‘ulot turlarini tavsiflash.
3. Ikki turdagi mashg‘ulotning o‘zaro bog‘liqlik mexanizmlarini tushuntirish.
4. Sinf darslari va studiya mashg‘ulotlarining yangicha modellarini tahlil qilish.
5. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda qo‘llaniladigan usullarni ko‘rsatish.

3. Topshiriq mazmuni:

A) Nazariy tahliliy topshiriq (2 bet atrofida): – Talaba quyidagi savollar asosida yozma tahlil tayyorlaydi: – Tasviriy san’at ta’limida nazariy mashg‘ulotlar nimalarni o‘rgatadi? Amaliy mashg‘ulotlarning turlari (naturadan chizish, kompozitsiya, rangtasvir, dekorativ ishlar, grafik mashqlar, perspektiva va boshqalar). Nazariy bilim amaliyotga qanday integratsiya qilinadi? Nima uchun tasviriy san’atda nazariya va amaliyot bir-biridan ajralmas jarayon?

B) Amaliy kichik topshiriq: – Talaba bir amaliy mashg‘ulot turini tanlaydi (masalan, naturadan chizish) va: – ushbu mashg‘ulotning maqsadini, dars tuzilmasini (3-4 bosqichda), ish jarayonida o‘qituvchi va talaba faoliyatini qisqacha yozib beradi.

4. Bajarish tartibi.

1. Nazariy manbalarni o‘rganish (metodika, pedagogik qo‘llanmalar).
2. Amaliy mashg‘ulot turlari haqida jadval tuzish.
3. Talab etilgan tahlilni yozish.
4. Amaliy mashg‘ulot modeli bo‘yicha tavsif tayyorlash.
5. Adabiyotlardan foydalanib ishni rasmiylashtirish.

5. Metodik ko‘rsatmalar:

– Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni qiyosiy tahlil qilish tavsiya etiladi.
– Amaliy mashg‘ulot turlariga misollar bilan boyitilgan mazmun yuqori ba-

holanadi.

– Darshayusidagi bosqichlar (kirish → asosiy ish → yakun) aniq ko‘rsatilishi kerak.

– Talaba o‘zi tanlagan mashg‘ulotni shaxsiy tajriba yoki kuzatuvlarga tayangan holda tavsiflab bersa, bu ish sifati oshadi.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Tursunov Q., Jo‘rayev R. – Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.
2. Sultonov B. – Rangtasvir asoslari.
3. G‘ulomov K. – Chizmachilik va grafik tayyorgarlik asoslari.
4. Pedagogika va metodika bo‘yicha DTS va O‘quv dasturlari.
5. OTMlarning tasviriy san’at bo‘yicha ishchi o‘quv rejalari.

7. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Nazariy tahlil	Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar mohiyatini ilmiy asosda ochib berishi	30
Amaliy topshiriq	Tanlab olingan mashg‘ulot turi bo‘yicha aniq model tuzishi	25
Tizimlilik	Mashg‘ulotlar orasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri ko‘rsatishi	20
Manbalar	3-4 ta ilmiy manbaga asoslanishi	15
Rasmiylashtirish	Ishning uslubiy talabga mosligi	10
	Jami	100

3-mavzu: Talabalarni ilmiy va ijodiy jarayonga yo‘naltirish omillari

1. Mavzuning maqsadi: – Talabalarni ijodiy fikrlashga, tadqiqotga, mustaqil izlanishga rag‘batlantiruvchi omillarni o‘rganish; o‘quv jarayonida ilmiy-ijodiy muhitni shakllantirish metodlarini tahlil qilish.

2. O‘rganish vazifalari: – Talaba quyidagilarni aniqlashi lozim:

1. Ilmiy izlanishning psixologik va pedagogik asoslari.
2. Ijodiy faoliyatni shakllantiruvchi ichki va tashqi omillar.
3. Talabalar motivatsiyasiga ta’sir etuvchi shart-sharoitlar.
4. San’at ta’limida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullari.
5. Innovatsion, kreativ muhit yaratish bo‘yicha o‘qituvchi roli.

3. Topshiriq mazmuni.

A) Tahliliy yozma ish (2 bet atrofida).

– Talaba quyidagilarni yozma ravishda tahlil qiladi: – Talabaning ilmiy qiziqishini shakllantiruvchi omillar (psixologik, pedagogik, ijtimoiy). Ijodiy jarayonni faollashtiruvchi metodlar (muammoli ta’lim, “aqliy hujum”, kuzatuv, tajriba, eskizlar orqali izlanish). O‘qituvchi tomonidan yaratilishi lozim bo‘lgan kreativ muhitning xususiyatlari. Ilmiy izlanish va ijodiy faoliyatning o‘zaro bog‘liqligi.

B) Amaliy topshiriq. Talaba quyidagi variantlardan birini tanlaydi:

Variant 1: – O‘zi o‘qiyotgan yo‘nalish bo‘yicha kichik ilmiy izlanish mavzusini tanlab, mavzuning dolzarbligi, asosiy maqsadi, tadqiqot savollari, kutilayotgan natijalarni 1 betda izohlaydi.

Variant 2: – Ijodiy mashg‘ulot uchun bir kreativ metod tanlaydi (masalan, “Muammoli rasm yaratish”, “Tasavvurdan kompozitsiya”, “Story-board chizish”) va uning qo‘llanilish bosqichlarini qisqacha bayon etadi.

4. Bajarish tartibi:

1. Ilmiy-ijodiy faoliyatga oid kamida 3 ta manbani o‘rganish.

2. Tahliliy yozma ishni reja asosida tuzish.
3. Amaliy topshiriqning bir variantini tanlab bajarish.
4. Yakunda umumiy xulosa chiqarish.
5. Adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirish.
5. Metodik ko‘rsatmalar:
– Ilmiy va ijodiy jarayon murakkab psixologik jarayon ekanini izohlash muhim.
– Talaba o‘z tajribasidan real misollar keltirsa, ish samaradorligi oshadi.
– Ijodiy muhit yaratishda rag‘bat, erkin fikrlash, individual yondashuv muhimligini ko‘rsatish tavsiya etiladi.
– “Bloom taksonomiyasi”, “Kreativ fikrlash bosqichlari” kabi ilmiy tasniflardan foydalanish mumkin.
6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:
1. G‘oziyev E. – Psixologiya asoslari.
2. Tursunov Q., Jo‘rayev R. – Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.
3. Ken Robinson – Ijod kerak! (Creativity in Education).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijodkor yoshlar bo‘yicha farmon va qarorlari.
5. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.
6. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Tahliliy yondashuv	Ilmiy va ijodiy jarayon omillarini chuqur tahlil qilishi	30
Amaliy topshiriq	Variantlardan birini aniq, mantiqiy va asosli bajarishi	25
Mustaqil fikrlash	O‘z qarashlari, kreativ yondashuvi	20
Manbalar	Kamida 3 ta ilmiy manbaga asoslanishi	15
Rasmiylashtirish	Me’yoriy talablarga mosligi	10
	Jami	100

4-mavzu: Tasviriy san’at darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish

1. Mavzuning maqsadi: – Talabaga muammoli ta’limning mazmuni, tamoyillari va tasviriy san’at darslarida uni qo‘llash imkoniyatlarini o‘rgatish; muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish bo‘yicha amaliy ko‘nikma shakllantirish.
2. O‘rganish vazifalari. Talaba quyidagilarni tushunishi va tahlil qilishi kerak:
1. Muammoli ta’limning nazariy asoslari.
2. Muammoli vaziyat turlari va ularni yaratish yo‘llari.
3. Tasviriy san’at darslariga mos muammoli savollarni ishlab chiqish.
4. O‘quvchilarning fikrlash, tasavvur va tahliliy qobiliyatiga ta’siri.
5. Muammoli vaziyat asosida dars ssenariysi tuzish.
3. Topshiriq mazmuni.
A) Tahliliy yozma ish (1,5-2 bet). Talaba quyidagi masalalarni yoritadi:
– Muammoli ta’limning mazmuni va pedagogik ahamiyati.
– Tasviriy san’at darsiga mos muammoli vaziyat misollari.
– Muammoli ta’limning ijodkorlik va analitik tafakkurni rivojlantirishdagi

o‘rni.

– Muammoli savolning talabaning kognitiv faolligiga ta’siri.

B) Amaliy topshiriq. Talaba tasviriy san’at darsiga oid 1 ta muammoli vaziyat yaratadi. Masalan:

Mavzu: “Kompozitsiyada asosiy markazni topish”

Muammoli savol: – “Kompozitsiya markazi qayerda bo‘lishi kerak? Agar markaz chap burchakka joylashtirilsa, asarda qanday emotsional ta’sir yuzaga keladi?”

Talaba: – muammo tavsifi, o‘quvchilar kutilayotgan javoblari, muammoni yechishga yo‘naltiruvchi metodlar bilan to‘ldirib beradi.

4. Bajarish tartibi.

1. Muammoli ta’lim bo‘yicha nazariy manbalarni o‘rganish.
2. Tahliliy matnni reja asosida yozish.
3. Tanlangan mavzu asosida muammoli vaziyat yaratish.
4. Yechim jarayonini bosqichma-bosqich bayon qilish.
5. Yakunda qisqa xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini kiritish.

5. Metodik ko‘rsatmalar:

– Muammoli vaziyat oddiy savol emas, yechimi izlanishni talab qiladigan noaniq vaziyat bo‘lishi kerak.

– Talaba muammoli savolni tasviriy san’atning real masalalaridan kelib chiqib qurishi muammoga real kontekst beradi va qabul qilinadi.

– O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos murakkablik darajasi tanlanadi.

– Muammo echimi ijodiy fikrlashni talab qilishi shart: kompozitsion yechim, rang munosabati, tasvir shakli, yorug‘-soya kabi.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tursunov Q., Jo‘rayev R. – Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.
2. Xolmatova Sh. – Muammoli ta’lim texnologiyalari.
3. G‘oziyev E. – Psixologiya asoslari.
4. Creative pedagogika bo‘yicha xalqaro manbalar.
5. O‘zbekiston Respublikasi DTS va O‘quv dasturlari.

7. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Tahliliy yondashuv	Muammoli ta’limning nazariy asoslarini aniq tahlil qilishi	30
Muammoli vaziyat	Tasviriy san’atga mos real muammoli vaziyat yaratishi	25
Metodik asos	Muammoni echish bosqichlarini to‘g‘ri ko‘rsatishi	20
Mustaqillik	O‘z fikrlari, ijodiy yondashuv	15
Rasmiylashtirish	Me’yoriy talabga mosligi	10
	Jami	100

5-mavzu: Ixtisoslashgan san’at maktablarida tasviriy san’at ta’limini takomillashtirishning dolzarb masalalari

1. Mavzuning maqsadi: – Talabada ixtisoslashgan san’at maktablaridagi o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha zamonaviy talablar, muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqida chuqur tasavvur hosil qilish; ta’lim samaradorligini oshirish g‘oyalari asosida takliflar ishlab chiqish ko‘nikmasini shakllantirish.

2. O‘rganish vazifalari. Talaba quyidagilarni tahlil qiladi:

1. Ixtisoslashgan san’at maktablarining hozirgi holati va ularning asosiy vazifalari.

2. O‘quv dasturlarini takomillashtirish ehtiyoji va malaka talablari.

3. Rasm, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik, dizayn kabi fanlarning o‘qitilishidagi amaliy muammolar.

4. Material-texnik baza, ustaxona jihozlanishi, texnologik vositalarning yetarliligi.

5. O‘qituvchi malakasi, metodik ta’minot va innovatsion yondashuvlar.

6. O‘quvchi ijodkorligini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillar.

3. Topshiriq mazmuni.

A) Tahliliy yozma ish (2-2,5 bet). Talaba quyidagi masalalar asosida tahliliy matn tayyorlaydi:

– Ixtisoslashgan san’at maktablarining ahamiyati va san’at sohasi uchun kadr tayyorlashdagi roli.

– Hozirgi kunda duch kelinayotgan dolzarb muammolar (o‘quv dasturi eskirganligi, jihozlar yetishmasligi, zamonaviy texnologiyalarning kam qo‘llanishi, metodik kamchiliklar).

Ta’limni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar: – yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, individual yondashuv, musobaqalar, plenerlar, tanlovlar orqali ijodiy rag‘bat yaratish, ustoz-shogird maktabini rivojlantirish, raqamli san’at elementlarini kiritish.

B) Amaliy topshiriq. Talaba san’at maktablarining rivoji uchun 3 ta takomillashtirish g‘oyasi ishlab chiqadi. Har bir taklif quyidagicha bayon etiladi: – muammo tavsifi, taklif etilayotgan yechim, kutilayotgan natija, amalga oshirish sharti. Misol.

1-taklif: Raqamli grafikani o‘quv dasturiga kiritish.

Muammo: – zamonaviy san’at yo‘nalishlarining yetarli o‘rgatilmasligi.

Yechim: – boshlang‘ich bosqichda tabletka va grafik dasturlar bilan mashg‘ulotlar.

Natija: – o‘quvchi zamonaviy kreativ kompetensiyani egallaydi.

Shart: – texnik baza, o‘qituvchi malakasini oshirish.

4. Bajarish tartibi.

1. Ixtisoslashgan san’at maktablari haqida ma’lumot yig‘ish (dastur, malaka talablari, real tajriba).

2. Tahliliy matnni reja asosida yozish.

3. Takomillashtirish bo‘yicha 3 ta taklif ishlab chiqish.

4. Yakuniy xulosa yozish.

5. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini kiritish.

5. Metodik ko‘rsatmalar.

Talaba real misollar – o‘z hududidagi san’at maktablari holatini analiz qilsa, ish sifatli bo‘ladi. Takliflar ijodiy, amaliy va amalga oshirishga mos bo‘lishi kerak. Har bir taklif ilmiy-psixologik yoki metodik asos bilan mustahkamlanishi ma’qul. Innovatsion yondashuv – darajani oshirishning asosiy omili sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. “San’at maktablari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” tegishli Vazirlar Mahkamasi qarorlari.
2. Tursunov Q., Jo‘rayev R. – Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.
3. Sharipov Sh. – Bolalar ijodini rivojlantirish asoslari.
4. San’at maktablari uchun namunaviy o‘quv dasturlari.
5. Rivojlanish psixologiyasi va san’at ta’limi bo‘yicha ilmiy maqolalar.
7. Baholash mezonlari.

Mezon	Tavsif	Ball
Tahliliy yondashuv	Dolzarb masalalarni to‘g‘ri aniqlashi va tahlil qilishi	30
Takliflar	Takomillashtirish bo‘yicha 3 ta asosli g‘oya berishi	25
Amaliylik	Takliflarning real sharoitga mosligi	20
Mustaqillik	Talabaning ijodkorlik va yangicha qarashlari	15
Rasmiylashtirish	Me’yoriy talabga mosligi	10
	Jami	100

6-mavzu: Tasviriy san’at darslarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanish

1. Mavzuning maqsadi: – Talabalarda tasviriy san’at ta’lim jarayonida hamkorlikda o‘qitish (kooperativ ta’lim) texnologiyasining mazmuni, tamoyillari va uni darslarga qo‘llashning samaradorligini tushunish; guruhda ishlash orqali ijodiy masalalarni yechish ko‘nikmasini shakllantirish.

2. O‘rganish vazifalari. Talaba quyidagilarni anglashi va tahlil qilishi kerak:

1. Hamkorlikda o‘qitishning nazariy-metodik asoslari.
2. Jamoa, kichik guruh, juftlikda ishlash shakllari.
3. Tasviriy san’at darslarida hamkorlikning afzalliklari (ijodkorlik, muloqot, mas’uliyat).
4. Guruh bilan bajariladigan ijodiy topshiriqlar turlari.
5. O‘qituvchining tashkilotchilik roli.

3. Topshiriq mazmuni.

A) Tahliliy yozma ish (1,5-2 bet). Talaba quyidagilarni yoritadi:

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining mazmuni, tarixi va asosiy g‘oyalari (Johnson & Johnson modeliga ko‘ra).

Tasviriy san’at darslarida ushbu texnologiya qaysi jarayonlarda samaraliroq qo‘llanishi (kompozitsiya yaratish, eskizlar, guruhiy loyiha, muhokama).

Guruhda ishlashning o‘quvchi psixologiyasiga ta’siri: o‘zaro yordam, ijobiy raqobat, mas’uliyat.

Hamkorlikning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi roli.

B) Amaliy topshiriq. Talaba tasviriy san’at darsidan bir guruhiy mashg‘ulot modeli yaratadi. Unda quyidagilar bo‘ladi:

1. Mavzu (masalan: “Bir kompozitsiyani guruh bo‘lib yaratish”).
2. Guruhlarga bo‘lish mezonlari.
3. Har bir guruhning vazifasi:

birinchi guruh – asosiy shakllar kompozitsiyasini tuzadi;
ikkinchi guruh – rang yechimini taklif qiladi;
uchinchi guruh – yakuniy umumiy variantni ishlab chiqadi.

4. Yakuniy taqdimot va baholash mezonlari.

4. Bajarish tartibi:

1. Hamkorlikda o‘qitish bo‘yicha nazariy manbalarni o‘rganish.

2. Tahliliy matnni reja asosida tuzish.

3. Tanlangan mavzu bo‘yicha guruhiy dars modeli ishlab chiqish.

4. Ishning yakunida qisqa xulosa berish.

5. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirish.

5. Metodik ko‘rsatmalar:

– Guruh topshiriqlari individual ijodiy ish emas, o‘zaro bog‘langan vazifalar tizimi bo‘lishi kerak.

– Har bir talabaning ishtiroki aniq belgilanadigan “Rol taqsimoti” modeli qo‘llanishi maqsadga muvofiq (rahbar, rassom, tahlilchi, taqdimotchi).

– Ish jarayoni yakunida “refleksiya” – guruhning o‘z-o‘zini tahlili tashkil etilishi kerak.

– Kooperativ ta’lim o‘quvchilarda muloqot madaniyati, estetik fikrlash va ijodiy tashabbusni rivojlantirishi hisobga olinadi.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Tursunov Q., Jo‘rayev R. – Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.

2. O‘qitishda kooperativ ta’lim texnologiyalari bo‘yicha xalqaro manbalar (Johnson, Slavin).

3. G‘oziyev E. – Pedagogik psixologiya.

4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.

5. O‘zbekiston Respublikasi DTS, O‘quv dasturlari.

7. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Tahliliy yondashuv	Hamkorlikda o‘qitishning nazariy asoslarini tahlil qilishi	30
Amaliy topshiriq	Guruhiy mashg‘ulot modelini to‘g‘ri yaratishi	25
Metodik asos	Rol taqsimoti, jarayon va natijani aniq ko‘rsatishi	20
Mustaqillik	Talabaning ijodiy takliflari	15
Rasmiylashtirish	Me’yoriy talabga mosligi	10
	Jami	100

7-mavzu: Tasviriy san’at darslarida didaktik o‘yin texnologiyasidan foydalanish

1. Mavzuning maqsadi – Talabalarda didaktik o‘yin texnologiyasining mazmuni, vazifalari va tasviriy san’at darslarida uni qo‘llash imkoniyatlari haqida bilim va amaliy ko‘nikma hosil qilish; o‘quvchilarni qiziqtirish, faollashtirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda o‘yin metodlarining ahamiyatini tushuntirish.

2. O‘rganish vazifalari. Talaba quyidagilarni anglashi va tahlil qilishi kerak:

1. Didaktik o‘yinlarning nazariy asoslari va pedagogik ahamiyati.

2. O‘yin elementlarining o‘quvchilar psixologiyasiga ta’siri (motivatsiya, emotsional fon, faollik).

3. Tasviriy san’at darslariga mos didaktik o‘yin turlari.

4. O‘yin asosidagi mashg‘ulot tuzilmasi.

5. O‘qituvchining boshqaruv, yo‘naltirish va baholashdagi roli.

3. Topshiriq mazmuni:

A) Tahliliy yozma ish (1,5-2 bet). Talaba quyidagilarni yoritadi:

– Didaktik o‘yin texnologiyasining mohiyati va asosiy tamoyillari.

– Tasviriy san’at fanida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan o‘yinlar: – “Ranglarni toping”, “Kompozitsiyani tiklang”, “Kim tez topadi?”, “Eskizdan asarga”, “Yarim rasmni davom ettiring”. O‘yin elementlarining ijodkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni. O‘yin usullarining afzalliklari va cheklovlari.

B) Amaliy topshiriq. Talaba tasviriy san’at darsiga oid 1 ta didaktik o‘yin ssenariysi tuzadi. Ssenariy quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘yin nomi.
2. Maqsad.
3. Kerakli materiallar.
4. O‘yin tartibi (bosqichma-bosqich).
5. O‘quvchilarning kutilayotgan faoliyati.
6. Baholash mezonlari.

Misol:

O‘yin: – “Rang juftligini top”

Maqsad: – ranglar uyg‘unligini aniqlash.

Jarayon: – guruhlarga rang kartochkalari tarqatiladi, ular to‘g‘ri rang juftligini topadi va amaliy misolda qo‘llaydi.

Natija:– ranglarni sezish, tahlil va tanlash malakasi oshadi.

4. Bajarish tartibi:

1. Didaktik o‘yinlar bo‘yicha metodik manbalarni o‘rganish.
2. Tahliliy matnni reja asosida yozish.
3. Tanlangan o‘yin uchun ssenariy tuzish.
4. Yakuniy xulosa yozish va adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirish.
5. Metodik ko‘rsatmalar:

– O‘yin tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi.

– O‘yin jarayonida dars maqsadi yo‘qolib ketmasligi uchun, uning mazmuni tasviriy san’atning real mavzusiga moslashtirilishi shart.

– O‘yin yakunida “refleksiya” – o‘quvchilarning o‘z o‘yin tajribasini baholashi o‘tkaziladi.

– Ko‘p hollarda o‘yinlar 5-10 daqiqalik “faollashtiruvchi texnika” sifatida qo‘llaniladi.

– O‘yin ortidan qisqa amaliy ish yoki chizish mashqi berilishi samaradorlikni oshiradi.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Yuldasheva M. – Didaktik o‘yinlar metodikasi.
2. Tursunov Q., Jo‘rayev R. – Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.
3. G‘oziyev E. – Psixologiya asoslari.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha qo‘llanmalar.
5. Davlat ta’lim standartlari (DTS).

7. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Tahliliy yondashuv	Didaktik o‘yin mohiyatini ilmiy asosda ochib berishi	30
Amaliy ssenariy	O‘yin tartibi va maqsadini to‘g‘ri ishlab chiqishi	25

Metodik asos	Yoshga moslik, materiallar, jarayonning aniqligi	20
Mustaqillik	Talabaning ijodiy yondashuvi	15
Rasmiylashtirish	Me'yoriy talabga mosligi	10
	Jami	100

8-mavzu: Tasviriy san'atni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish

1. Mavzuning maqsadi: – Talabalarda tasviriy san'at ta'limida axborot texnologiyalari (AT) imkoniyatlari, ulardan samarali foydalanish tamoyillari va o'quv jarayoniga integratsiya qilish yo'llari haqida bilim va amaliy ko'nikma hosil qilish.

2. O'rganish vazifalari. Talaba quyidagilarni anglashi kerak:

1. Axborot texnologiyalarining ta'limdagi roli va san'at ta'limiga ta'siri.

2. Grafik dasturlar (Photoshop, Illustrator, Krita, Procreate) va ularning o'qitishdagi imkoniyatlari.

3. Multimediadan foydalanish: video darslar, animatsiyalar, virtual ko'rgazmalar.

4. Onlayn platformalar: Google Classroom, Padlet, ArtStation, Canva.

5. Raqamli vositalarning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni.

3. Topshiriq mazmuni:

A) Tahliliy yozma ish (2 bet atrofida). Talaba quyidagilarni yoritadi:

– Axborot texnologiyalarining tasviriy san'atni o'qitishdagi dolzarbligi.

– Raqamli grafik dasturlar yordamida chizishning afzalliklari: tezkorlik, rang tanlash, kompozitsiyani oson tuzish, xatoni tez tuzatish.

– O'qituvchi AT vositalaridan foydalanganda dars samaradorligining ortishi.

– AT o'quvchilarda motivatsiya, qiziqish va kreativ yondashuvni kuchaytirishi.

B) Amaliy topshiriq. Talaba bir raqamli vosita asosida kichik dars modeli yaratadi. Variantlardan biri tanlanadi:

Variant 1: Grafik dasturdan foydalanish.

Mavzu: – "Rang uyg'unligini toplar orqali o'rganish"

Talaba ko'rsatadi: – dastur nomi; dars bosqichlari; qanday amaliy vazifa bajarilishi (masalan, gradient yaratish, rang tonlarini taqqoslash); o'quvchilardan kutilgan natijalar.

Variant 2: Multimedia asosida dars.

Mavzu: – "Dunyo rassomlari asarlari bo'yicha onlayn ko'rgazma tahlili"

Talaba tuzadi: – ishlatiladigan platforma (masalan, Google Arts & Culture); darsning borishi; o'quvchilarning tahlil faoliyati; yakuniy kichik ijodiy topshiriq.

4. Bajarish tartibi:

1. Axborot texnologiyalariga oid manbalarni o'rganish.

2. Tahliliy matnni reja asosida yozish.

3. Amaliy dars modelini ishlab chiqish.

4. Yakuniy xulosa berish.

5. Adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirish.

5. Metodik ko'rsatmalar:

– AT vositalari dars mazmunini boyitishi, murakkab tushunchalarni yengillashtirishi va ko'rgazmalilikni kuchaytirishi kerak.

– Dars faqat texnika bilan cheklanib qolmasligi, badiiy maqsad asos bo‘lishi shart.

– Grafik dasturlardan foydalanishda yoshga mos murakkablik tanlanadi.

– O‘yin elementlariga ega onlayn mashqlar o‘quvchini faollashtirishi mumkin.

– O‘quvchilarning ishlari raqamli portfolioda saqlansa, rivojlanishni kuzatish yengillashadi.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tursunov Q., Jo‘rayev R. – Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.
2. Raqamli pedagogika bo‘yicha xalqaro qo‘llanmalar.
3. Grafik dasturlar bo‘yicha amaliy o‘quv qo‘llanmalar.
4. “Raqamli ta’lim” bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hukumat qarorlari.
5. Google Arts & Culture, ArtStation, Canva kabi platformalar.

7. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Tahliliy yondashuv	ATning o‘qitishdagi o‘rnini ilmiy asosda tahlil qilishi	30
Amaliy model	Raqamli dars modeli yoki metodini to‘g‘ri tuzishi	25
Innovatsionlik	Tanlangan AT ijodiy jarayonga mos bo‘lishi	20
Mustaqillik	Talabaning kreativ yondashuvi	15
Rasmiylashtirish	Me’yoriy talabga mosligi	10
	Jami	100

9-mavzu: Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish yo‘llari

1. Mavzuning maqsadi: – Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (ZPT) va axborot texnologiyalari (AT)ni uyg‘un qo‘llashning mazmuni, tamoyillari, afzalliklari va ularni tasviriy san’at ta’limida samarali integratsiya qilish yo‘llarini tushunish ko‘nikmasini shakllantirish.

2. O‘rganish vazifalari. Talaba quyidagilarni tahlil qilishi kerak:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmuni (hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta’lim, klaster, loyiha metodi, interfaol metodlar).
2. Axborot texnologiyalarining ta’limga ta’siri va yangi imkoniyatlari.
3. ZPT va AT o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik.
4. Ta’lim mazmunini multimedia, virtual muhit va onlayn resurslar bilan boyitish yo‘llari.
5. O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga yo‘naltiruvchi integratsion usullar.

3. Topshiriq mazmuni:

A) Tahliliy yozma ish (2-2,5 bet):

Talaba quyidagilarni yoritadi:

– ZPT va AT uyg‘unlashtirilganda ta’lim jarayonida yuzaga keladigan samaradorlik (ko‘rgazmalilik, interfaollik, tezkor qayta aloqa, motivatsiya).

– AT vositalari yordamida loyihaviy ta’lim, guruhiy ta’lim va muammoli o‘qitishni yakdil integratsiya qilish mumkinligi.

Masalan: – Multimedia + Muammoli ta’lim. Onlayn platforma + Hamkorlikda o‘qitish. Grafik dastur + Loyiha metodi. O‘quvchi shaxsining kompetensiyalariga ta’siri: – kreativlik, media savodxonlik, tahlil qilish, o‘zini ifoda etish.

B) Amaliy topshiriq. Talaba ZPT va AT uyg‘unlashtirilgan 1 ta dars modelini ishlab chiqadi. Model quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Dars mavzusi
2. Asosiy pedagogik texnologiya (masalan: loyiha metodi)
3. Axborot texnologiyasi (masalan: Canva, Procreate, Google Classroom)
4. Uyg‘unlashtirish mexanizmi; – qanday bosqichda ZPT qo‘llaniladi? – qaysi bosqichda AT yordam beradi?
5. O‘quvchilarning faoliyati va natija
6. Yakuniy ijodiy mahsulot (raqamli poster, eskiz, elektron papka). Misol:

Mavzu: – “Milliy naqsh asosida zamonaviy dizayn yaratish”.

Texnologiya: – loyiha metodi

AT: – Canva platformasi

Uyg‘unlashuv: – o‘quvchilar Canva’da naqsh variantlarini yaratadi, guruhlar loyiha sifatida himoya qiladi.

Natija: – ijodiy yondashuv, raqamli dizayn malakasi, jamoaviy ish.

4. Bajarish tartibi:

1. ZPT va AT bo‘yicha ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish.
2. Tahliliy yozma ishni reja asosida tuzish.
3. Integratsiyalangan dars modelini ishlab chiqish.
4. Xulosa yozish.
5. Adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirish.

5. Metodik ko‘rsatmalar:

– AT vositalari maqsadga xizmat qilishi kerak, darsni murakkablashtirmasligi lozim.

– Uyg‘unlashtirish jarayonida pedagogik texnologiya asosiy o‘zak, AT – quvvatlovchi vosita bo‘ladi.

– Talaba interfaollikni oshiruvchi AT turlarini tanlashi maqsadga muvofiq.

– Ijodiy mahsulotga ega bo‘lgan integratsion darslar yuqori samaradorlikka ega.

– Har bir bosqichda o‘quvchi faol bo‘lishi kerak – bu integratsiyaning bosh tamoyili.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.
2. Raqamli ta’lim bo‘yicha xalqaro va mahalliy manbalar.
3. Grafik dizayn va multimediyaga oid adabiyotlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’lim”ga oid farmon va qarorlari.
5. Tasviriy san’at metodikasi bo‘yicha ilmiy manbalar.

7. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Tahliliy yondashuv	ZPT va AT uyg‘unlashuvini ilmiy asosda aniqlashi	30
Amaliy model	Integratsiyalangan darsni to‘g‘ri ishlab chiqishi	25
Innovatsionlik	Yechimning yangiligi va kreativligi	20
Mustaqillik	Shaxsiy tahlil, ijodiy takliflar	15

Rasmiylashtirish	Akademik me’yorlarga mosligi	10
	Jami	100

10-mavzu: O‘zbekistonda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasining mavjud ahvolini tahlili

1. Mavzuning maqsadi: – Tasviriy san’at o‘qitish metodikasining O‘zbekiston sharoitidagi hozirgi holatini tahlil qilib, kuchli jihatlarni aniqlash, asosiy muammolarni ko‘rsatish va amaliy, uslubiy hamda siyosiy takliflar ishlab chiqish.

2. O‘rganish vazifalari:

1. Davlat ta’lim standartlari va milliy ta’lim siyosati kontekstida metodikaning mosligini baholash.

2. O‘qituvchi malakasi, material-texnik baza va o‘quv dasturlarini tahlil qilish.

3. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik usullarning joriy etilishi darajasini baholash.

4. Muammolar asosida amaliy tavsiyalar yaratish (qisqa va uzoq muddatli).

3. Qisqacha tahliliy xulosalar – mavjud ahvol (asosiy fikrlar).

Kuchli tomonlari. Rasmiy qoidalar va DTS mavjudligi: – tasviriy san’at faniga oid davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari ishlab chiqilgani va yangilanayotgani ta’lim tizimi uchun asosiy poydevor hisoblanadi.

Ilmiy-metodik materiallarning oshishi: – so‘nggi yillarda metodik va ilmiy maqolalar, konferensiyalar materiallari hamda amaliy qo‘llanmalar chop etilmoqda. Bu akademik suhbat va tajriba almashinuvini rag‘batlantiradi.

Raqamli yo‘naltirilgan tashabbuslar: – maktablar va oliy ta’limda raqamli vositalarni integratsiya qilish bo‘yicha joylarda kichik loyihalar va tajribalar o‘tkazilmoqda.

Zaif tomonlari:

Material-texnik baza yetishmovchiligi: – ko‘plab maktab va ixtisoslashtirilgan muassasalarda jihozlar, ustaxona vositalari va raqamli qurilmalar cheklangan. Bu dars jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchilarni qayta tayyorlash zarurati: – yangi pedagogik va IT yondashuvlarini keng tatbiq etish uchun o‘qituvchilarni muntazam qayta tayyorlash, malaka oshirish dasturlari yetarli emas.

O‘quv dasturlarining ba’zi jihatlari eskirganligi: – amaliy va zamonaviy texnologiyalarni chuqur integratsiya qilishga yo‘naltirilgan yangilanishlar talab etiladi.

Imkoniyatlar:

Milliy ta’lim islohotlari: – hukumatning ta’limga oid islohotlari va “raqamli ta’lim” tashabbuslari metodikani yangilash uchun platforma yaratadi.

Ilmiy hamkorlik va xalqaro tajriba: – mahalliy universitetlar, ilmiy markazlar va xalqaro hamkorlik orqali yangi metodlarni joriy etish imkoniyati mavjud.

Tahdidlar:

Resurslar taqchilligi – agar moddiy-texnik va kadrlar yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmasa, islohotlar sekin kechishi mumkin.

4. Topshiriq mazmuni (Talaba uchun – amaliy ish):

A) Tahliliy yozma ish (2-3 bet).

O‘zbekistonning rasmiy DTS hujjatlari va so‘nggi o‘quv dasturlari kontekstida

metodikaning qaysi jihatlari yangilanishi kerakligini ilmiy asoslab tahlil qiling.

O‘z mintaqangizdagi (yoki tanlangan ixtisoslashtirilgan maktabdagi) holat bo‘yicha material-texnik va kadrlar tahlilini keltiring (real misollar bilan).

Raqamli vositalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari va cheklovlarini baholang.

B) Amaliy topshiriq:

Variant 1: – Mahalliy san’at maktabi yoki sinf uchun “Metodik takomillashtirish reja” tuzing (1 yillik), unda: – malaka oshirish, texnika ta’minoti, AT integratsiyasi, ijodiy tadbirlar (plener, ko‘rgazma) bo‘lsin.

Variant 2: – Raqamli integratsiya bo‘yicha mini-dars modeli ishlab chiqing (masalan: – Canva yoki Krita yordamida loyiha). Dars bosqichlari, resurslar, baholash mezonlarini ko‘rsatib bering.

5. Bajarish tartibi:

1. Davlat hujjatlari va ilmiy maqolalarni o‘rganish (kamida 5 manba).

2. Mahalliy yo‘nalish bo‘yicha maydoncha (yaqin maktab)dan ma’lumot yig‘ish (intervyu, fotosurat, jihozlar ro‘yxati).

3. Tahliliy yozma ish va amaliy reja/modelni rasmiylashtirish.

4. Yakuniy takliflarni xulosaga jamlash.

6. Metodik ko‘rsatmalar:

– Tahlilda hujjatli asos (DTS, hukumat qarorlari) va amaliy dalillarni birga keltirish majburiy.

– Takliflar aniq, amalga oshirilishi mumkin va byudjet jihatdan bosqichma-bosqich (qisqa muddatli → o‘rta → uzoq muddatli) bo‘lishi lozim.

– Raqamli yechimlar (onlayn darslar, portfoliolar, virtual ko‘rgazmalar) alohida bo‘limda ko‘rsatilishi kerak.

7. Tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar (minimal 5)

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Davlat Ta’lim Standartlari

2. “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi” – so‘nggi ilmiy maqolalar va kollektiv ishlanmalar.

3. Raqamli ta’lim va AT integratsiyasi haqidagi ilmiy maqolalar va konferensiya materiallari.

4. Vazirlik va hukumat portallari – ta’lim islohotlari haqidagi rasmiy bayonotlar.

5. Mintaqaviy amaliy tajribalar, maktablar hisobotlari va o‘qituvchilarning metodik tavsiyalari.

8. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Huquqiy-nazariy asos	DTS va hukumat hujjatlaridan foydalanganlik	25
Amaliy tahlil	Mahalliy holat (foto/ma’lumot) bilan asoslangan	25
Innovatsion takliflar	AT va pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish	20
Amalga oshirish realchiligi	Takliflar byudjet va bosqichlarni hisobga oladi	20
Rasmiylashtirish	Akademik va uslubiy talabga mos	10
	Jami	100

O‘zbekiston tasviriy san’at metodikasi – asosiy huquqiy-metodik poydevori

mavjud va soha uchun ijobiy ilmiy-metodik materiallar ishlab chiqilmoqda; – bir-oq real tatbiq uchun material-texnika, o‘qituvchilarning malaka oshishi va AT integratsiyasida sezilarli qo‘shimcha resurslar talab etiladi. Islohotlar va “raqamli ta’lim” tashabbuslari bu sohani yangilash uchun imkoniyatlar ochadi – lekin ular samarali bo‘lishi uchun aniq reja, kadrlar tayyorlash va moliyalashtirish zarur.

11-mavzu: Oliy o‘quv yurtlarida tasviriy san’atni o‘rganishning metodik asoslari

1. Mavzuning maqsadi: – Talabalarda oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at fanlarini o‘qitishning metodik poydevori, tamoyillari, mazmuni va o‘qituvchi faoliyatining ilmiy-metodik asoslari haqida chuqur tasavvur hosil qilish.

2. O‘rganish vazifalari. Talaba quyidagilarni o‘rganishi kerak:

1. Oliy ta’limning umumiy pedagogik tamoyillari va san’at ta’limiga xos metodik yondashuvlar.

2. Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan nazariy va amaliy metodlar tizimi.

3. Modellashtirish, tahliliy yondashuv, kompozitsion tafakkurni rivojlantirish usullari.

4. O‘quv reja va dasturlar bilan ishlash, kredit-modul tizimi talablari.

5. IJodiy laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

6. Talabalar mustaqil ishlari, loyiha faoliyati va portfolio tahlili.

3. Topshiriq mazmuni:

A) Tahliliy yozma ish (2 bet atrofida). Talaba quyidagilarni yoritadi:

– Oliy ta’limda tasviriy san’at metodikasining ilmiy asoslari.

– O‘qituvchi faoliyatining metodik modeli: – nazariy bilim → amaliy mashg‘ulot → tahlil → ijodiy loyiha; Pedagogik texnologiyalar (muammoli ta’lim, loyiha metodi, klaster, hamkorlikda o‘qitish)ning oliy ta’limda tutgan o‘rni. San’at pedagogikasida kompetensiya asosli yondashuv va kredil-modul tizimi.

B) Amaliy topshiriq. Talaba quyidagi variantlardan birini tanlaydi:

Variant 1: – Oliy ta’limdagi tasviriy san’at fanidan 1 ta amaliy mashg‘ulot modeli tuzadi:

– Mavzu.

– Maqsad (nazariy + amaliy).

– Zarur jihozlar.

Mashg‘ulot bosqichlari:

1. Kirish (motivatsiya).

2. Tahliliy ko‘rsatma.

3. Amaliy ijodiy faoliyat.

4. Yakuniy tahlil (kritik baholash)

Variant 2: – “Talaba mustaqil ijodiy loyihasini tashkil etish” bo‘yicha mini-qo‘llanma yaratish: – loyiha mavzusi; bajarish bosqichlari; baholash mezonlari; yakuniy portfolio shakli.

4. Bajarish tartibi:

1. Oliy ta’lim bo‘yicha o‘quv dasturlarini, metodik qo‘llanmalarni o‘rganish.

2. Tahliliy yozma ishni reja asosida tuzish.

3. Tanlangan amaliy topshiriqni puxta ishlab chiqish.



IZOHLI LUG‘AT

– A –

Analiz (Tahlil)

Ta’rif: – Asar yoki mavzuni qismlarga ajratib, har bir qismini chuqur o‘rganish jarayoni.

Misol: – Rasm kompozitsiyasini shakl, rang va ritm bo‘yicha tahlil qilish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – O‘quvchilarga badiiy tafakkur va sinchkovlikni rivojlantirish.

Annotatsiya

Ta’rif: – Asar yoki bob mazmunining qisqa bayoni.

Misol: – Darslik bobining 3-5 jumlali tavsifi.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – O‘quvchilarga asosiy ma’lumotni tez qabul qilishda yordam beradi.

Aqliy hujum (Brainstorming)

Ta’rif: – Muammoni yechish uchun ko‘p g‘oyalarni tezkor tarzda ishlab chiqish metodi.

Misol: – Rasm mavzusi uchun 10 turli g‘oya ishlab chiqish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar ijodiy fikrini faollashtiradi.

Axborot manbasi

Ta’rif: – Ilmiy yoki amaliy ma’lumotlarni olish mumkin bo‘lgan resurslar.

Misol: – Kitob, maqola, internet resursi.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Mavzularni chuqur o‘rganishda foydalaniladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

Ta’rif: – Ma’lumotni uzatish va qayta ishlashda zamonaviy vositalar.

Misol: – Kompyuter dasturlari, projektor, raqamli palitrlar.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Rasm va dizayn mashg‘ulotlarida qo‘llaniladi.

– B –

Baholash

Ta’rif: – O‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakasini mezon asosida aniqlash jarayoni.

Misol: – Ijodiy ishni 5 ballik tizimda baholash.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabaning o‘zlashtirish darajasini aniqlash.

Badiiy idrok

Ta’rif: – San’at asarini his qilish, tushunish va baholash qobiliyati.

Misol: – Rang uyg‘unligini yoki kompozitsiya ritmini anglash.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar estetik tafakkurini rivojlantiradi.

Badiiy tafakkur

Ta’rif: – Tasviriy ifoda orqali fikrlash, obraz yaratish qobiliyati.

Misol: – Rasm chizishdan oldin g‘oya va konsepsiya yaratish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Ijodiy va analitik fikrlashni rivojlantiradi.

Badiiy tasvir

Ta’rif: – Ob’ekt, tabiat yoki insonni san’at vositalari bilan ifodalash.

Misol: – Manzara, portret, natyurmort.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: Amaliy mashg‘ulotlarning asosiy obyekti.

Badiiy ta’lim

Ta’rif: – San’atni o‘rgatishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Misol: – Tasviriy san’at mashg‘ulotlari.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalarning badiiy va estetik ko‘nikmalarini shakllantirish.

Badiiy did

Ta’rif: – Nafislikni anglash va baholash qobiliyati.

Misol: – Ranglarning uyg‘unligini tanlash.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalarda estetik qadriyatlarni rivojlantiradi.

Bilim

Ta’rif: – O‘rganilgan ma’lumotlar va tushunchalar yig‘indisi.

Misol: – Rang aralashmasi qonuniyatlarini bilish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Dars mazmunining asosiy elementi.

Bilimlar monitoringi

Ta’rif: – O‘quvchilarning natijalarini muntazam kuzatish va baholash.

Misol: – Oraliq nazorat ishlari.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – O‘quvchilarning rivojlanishini aniqlash.

Bilim, ko‘nikma va malaka

Ta’rif: – O‘qitish natijasida shakllanadigan kompetensiya uchligi.

Misol: – Rang aralashtirish ko‘nikmasi.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi.

Blits-so‘rov

Ta’rif: – Tezkor savol-javob orqali bilimni aniqlash usuli.

Misol: – “Bugungi mavzu nima edi?” savoli.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Dars boshida yoki yakunida qo‘llanadi.

Blooms taksonomiyasi

Ta’rif: – Bilim darajalarini 6 bosqichda tasniflovchi pedagogik model.

Misol: – Bilim, tushunish, tatbiq, tahlil, sintez, baholash bosqichlari.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Dars maqsadlarini aniqlashda ishlatiladi.

Boshqaruv faoliyati (pedagogik)

Ta’rif: – O‘quv jarayonini rejalash, tashkil etish va nazorat qilish faoliyati.

Misol: – Dars rejasi tayyorlash va amalga oshirish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – O‘qituvchining asosiy pedagogik vazifasi.

Bosqichma-bosqich o‘qitish

Ta’rif: – Murakkab mavzuni soddadan murakkabga o‘rgatish tamoyili.

Misol: – Avval shakl, so‘ng yorug‘-soya, keyin rang.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish.

Badiiy kompozitsiya

Ta’rif: – Rasm elementlarini uyg‘un tartibda joylashtirish san’ati.

Misol: – Markaziy kompozitsiya, uch chiziqli kompozitsiya.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Har bir rasmning asosiy tuzilmasi.

Badiiy an’ana

Ta’rif: – Avloddan-avlodga o‘tgan san’at uslublari va qadriyatlar.

Misol: – Sharq miniatyura maktabi.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – San’at tarixini o‘rganishda qo‘llaniladi.

– C –

Cad (Computer-Aided Design)

Ta’rif: – Kompyuter yordamida rasm, dizayn yoki chizma yaratish texnologiyasi.

Misol: – CorelDRAW yoki AutoCAD dasturida grafika chizish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalarga zamonaviy dizayn ko‘nikmalarini o‘rgatish.

Chizma

Ta’rif: – Grafik vositalar yordamida ob’ekt yoki manzaraning vizual tasviri.

Misol: – Portret, natyurmort yoki manzara chizish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Perspektiva va shakl tushuntirish mashg‘ulotlarida asosiy faoliyat.

Chiziqli perspektiva

Ta’rif: – Ikki o‘lchamli sirtga uch o‘lchamli chuqurlik berish usuli.

Misol: – Yo‘l yoki bino chizmasida ufqqa yo‘naltirilgan chiziqlar.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Manzara va interyer rasmlarida chuqurlik yaratish.

Chora-tadbirlar kompleksi

Ta’rif: – O‘quv jarayonini yaxshilash va o‘quvchi bilimini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmui.

Misol: – Dars rejasi, ko‘rgazmali materiallar, mashq topshiriqlari.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish.

Chuqurlik (Fazoviylik)

Ta’rif: – Rasmda ob’ektlar orasidagi masofa va joylashuv orqali uch o‘lchamli fazoni sezdirish.

Misol: – Tabiat manzarasida old, o‘rta va orqa fon.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Perspektiva va kompozitsiya mashg‘ulotlarida.

– D –

Dars loyihasi

Ta’rif: – Darsning to‘liq texnologik xaritasi: maqsad, vazifa, metod va baholash mezonlari.

Misol: – Rang aralashmasi mavzusida 45 daqiqalik dars rejasi.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Har bir darsni tizimli va samarali tashkil etish.

Dars tahlili

Ta’rif: – O‘tilgan darsning samaradorligini baholash va kuchli/zaif tomonlarini aniqlash.

Misol: – Talabalar rasm chizishdagi muvaffaqiyatini tahlil qilish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Pedagogik mahorat va dars sifatini oshirish.

Dominanta (Asosiy markaz)

Ta’rif: – Kompozitsiyada e’tibor qaratiladigan asosiy qism.

Misol: – Portretning yuz qismi yoki manzara markazidagi ob’ekt.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Rasm mazmunini diqqat markaziga qaratish.

Didaktika

Ta’rif: – O‘qitish va ta’lim nazariyasi.

Misol: – O‘quv jarayonida qo‘llaniladigan metodlar va tamoyillar.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Darsni ilmiy asosda tashkil etish.

Didaktik o‘yin

Ta’rif: – Bilimni o‘yinga asoslangan usulda o‘rgatish.

Misol: – “Ranglarni to‘g‘ri tanlang” yoki “Ob’ektlarni joylashtiring”.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar ijodkorligini rivojlantirish.

Diagnostika (Pedagogik)

Ta’rif: – O‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini aniqlash jarayoni.

Misol: – Sinov ishlari, test va amaliy mashqlar.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – O‘quv jarayonini monitoring qilish.

Dizayn

Ta’rif: – Ob’ekt, makon yoki grafikni estetik va funksional jihatdan loyihalash san’ati.

Misol: – Logo, interyer, grafik dizayn.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Ixtisoslashgan san’at mashg‘ulotlarida qo‘llanadi.

Divergent fikrlash

Ta’rif: – Bir muammoni yechishda turli ijodiy variantlarni ishlab chiqish qobiliyati.

Misol: – Bir mavzu bo‘yicha turli kompozitsiya variantlarini yaratish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar ijodkorligini rivojlantirish.

Dinamika (Rasmda)

Ta’rif: – Ob’ekt yoki chizmada harakat, ritm va energiya hissini berish.

Misol: – Diagonal chiziqlar orqali harakatni ko‘rsatish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Rasm mazmunini jonli qilish.

Dramatizm

Ta’rif: – Asarda kuchli hissiyot va emotsiyani ifodalash.

Misol: – Yorug‘-soyada keskin kontrastlar.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Rasm mazmunini ta’sirli yetkazish.

Rang uyg‘unligi

Ta’rif: – Ranglarning bir-biri bilan vizual mosligi va estetik uyg‘unligi.

Misol: – Issiq va sovuq ranglarni muvozanatli qo‘llash.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Kompozitsiyada estetik qoniqish hosil qilish.

Kompozitsion markaz

Ta’rif: – Rasmning e’tibor markazi, tomoshabinni jalb qiluvchi qism.

Misol: – Portretning markaziy qismi yoki manzara obyekti.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Diqqat markazini belgilash.

Ko‘rgazmalilik

Ta’rif: – Dars mavzularini vizual vositalar orqali tushuntirish usuli.

Misol: – Slaydlar, rasmlar, real ob’ektlar.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar e’tiborini oshirish va mavzuni oson tushunish.

Ko‘rgazmali vositalar

Ta’rif: – O‘quv jarayonida ishlatiladigan materiallar: rasmlar, predmetlar, videolar.

Misol: – Rang palitrasi, skretchlar, model obyektlar.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Amaliy mashg‘ulotlarda asosiy yordamchi vosita.

Kuzatuvchanlik

Ta’rif: – Atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatish va tafakkurda tasvirlash qobiliyati.

Misol: – Tabiat manzarasini chizishda kichik detallarni e’tiborga olish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirish.

– E –

Effekt (Vizual)

Ta’rif: – Rasm yoki kompozitsiyada hissiy ta’sir, dramatiklik yoki estetik sezgi hosil qiluvchi vosita.

Misol: – Yorug‘-soya kontrasti bilan dramatik muhit yaratish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalarni rasm orqali hissiy tajriba qilishga o‘rgatish.

Eskiz

Ta’rif: – Tezkor chizma yoki loyihaviy rasm, asosiy g‘oya va kompozitsiyani ifodalaydi.

Misol: – Rasm loyihasini boshlashdan oldingi tezkor chizma.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar ijodiy jarayonini boshlash uchun asosiy vosita.

Estetika

Ta’rif: – Go‘zallik, nafislik va san’at qadriyatlarini o‘rganadigan nazariya.

Misol: – Rang uyg‘unligi va shakl nisbati orqali estetik qoniqish hosil qilish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar badiiy didini shakllantirish.

Fazoviylik (Chuqurlik)

Ta’rif: – Rasmda uch o‘lchamli fazoni anglash hissi.

Misol: – Old, o‘rta va orqa fon orqali chuqurlik yaratish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Perspektiva va manzara mashg‘ulotlarida.

Fon

Ta’rif: – Rasmning asosiy ob’ektidan tashqari joylashgan hudud.

Misol: – Portret atrofidagi bo‘shliq yoki manzara fon.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Asarning umumiy muvozanati va kompozitsiyasini yaratish.

– G –

Gamut

Ta’rif: – Ranglar doirasi yoki palitradagi barcha ranglar.

Misol: – Issiq va sovuq ranglar palitrasi.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar rang uyg‘unligini o‘rganadi va qo‘llaydi.

Grafik dastur

Ta’rif: – Kompyuterda rasm, grafik yoki dizayn yaratish uchun dasturiy vosita.

Misol: – Adobe Photoshop, CorelDRAW.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar raqamli ijodiy ishlarni amalga oshiradi.

Grafika

Ta’rif: – Chizma, linolyum, qalam yoki boshqa vositalar bilan yaratilgan ikki o‘lchamli tasvir.

Misol: – Qalam bilan portret chizish, linoleum bosma.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar asosiy amaliy mashg‘ulotlarni o‘rganadi.

Gradiyent

Ta’rif: – Rang yoki soyalar asta-sekin o‘zgarishi.

Misol: – rangining oqdan quyuq rangga o‘tishi.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar tasvirga chuqurlik va yumshoqlik beradi.

G‘oya

Ta’rif: – Asar yoki rasmning asosiy maqsadi, mavzusi yoki mazmuni.

Misol: – Tabiat manzarasini tinchlik va osoyishtalikni ifodalash.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar rasmning mazmunini yaratadi va tushuntiradi.

– H –

Hissiyot (Emotsiya)

Ta’rif: – Asarda namoyon bo‘lgan ruhiy holat va kayfiyat.

Misol: – Yorug‘-soya kontrastlari orqali dramatik ta’sir.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar rasm orqali emotsiyalarni yetkazishni o‘rganadi.

Illyustratsiya

Ta’rif: – Matnni vizual vosita orqali qo‘llab-quvvatlash.

Misol: – Kitobdagi rasmli izohlar.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Darslarda mavzuni vizual tushuntirish.

Ijodiy loyiha

Ta’rif: – Talaba tomonidan mustaqil yaratiladigan rasm yoki dizayn ishlari.

Misol: – Shaxsiy kompozitsiya yoki portret yaratish.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Ijodiy tafakkur

Ta’rif: – Yangi, original va badiiy g‘oyalar yaratish qobiliyati.

Misol: – Bir mavzu bo‘yicha bir nechta kompozitsiya variantlari.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar ijodiy yechimlarni ishlab chiqadi.

Ijodiy faoliyat

Ta’rif: – Talabaning yangi, estetik qiymatga ega ish yaratish jarayoni.

Misol: – Rasm, haykaltaroshlik yoki dizayn ishlari.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati

Ta’rif: – San’at va metodika sohasida bilimlarni chuqur o‘rganish va tahlil qilish.

Misol: – Rasm tarixi bo‘yicha maqola tayyorlash.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar ilmiy asos bilan ijod qiladi.

Inkubatsiya (Ijodiy)

Ta’rif: – Ijodiy g‘oya shakllanishi uchun vaqt berish jarayoni.

Misol: – Rasm loyihasini chizishdan oldin g‘oyani o‘ylash.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar ijodiy fikrni rivojlantiradi.

Innovatsion metod

Ta’rif: – Yangi pedagogik va badiiy usullarni qo‘llash.

Misol: – STEAM loyihalari, dizayn mashg‘ulotlari.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Darslarni samarali va qiziqarli qilish.

Interfaol metod

Ta’rif: – O‘quvchilarning faol ishtirokini talab qiluvchi pedagogik metod.

Misol: – Bahs, debate, klaster ishlari.


Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalarni faol va ijodiy faoliyatga jalb qilish.

Ixtisoslashgan san’at maktabi

Ta’rif: – Tasviriy san’at bo‘yicha ixtisoslashgan o‘quv muassasasi.

Misol: – Rassomchilik yoki dizayn yo‘nalishidagi maktablar.

Tasviriy san’atda qo‘llanilishi: – Talabalar maxsus mashg‘ulotlar va amaliy ishlarni bajaradi.



TEST SAVOLLARI

1. Oliy ta’limda o‘qitish metodikasining asosiy maqsadi nima?
A) O‘qituvchi faoliyatini nazorat qilish
B) Ta’lim jarayonini rejalashtirish
C) Mutaxassislik bo‘yicha yuqori malakali kadr tayyorlash
D) Talabalar sonini oshirish

2. Ta’limning kompetensiyaviy yondashuvi nimani nazarda tutadi?
A) Bilimlarni yodlash
B) Qobiliyat va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish
C) Fanlar sonini ko‘paytirish
D) Mustaqil ta’limni kamaytirish

3. Oliy ta’limda o‘qitish metodlarining eng muhim xususiyati?
A) Nazariy bilimga tayangan holda amaliy natijaga qisqartirish
B) Faqat auditor dasturlarini topshirish
C) Faqat ma’ruza shaklida ta’lim berish
D) Talabalarni passiv holatda ushlash

4. Oliy ta’limda muloqotga asoslangan metodlar qaysi?
A) Diktant, tanqid
B) Ma’ruza, seminar, munozara
C) Texnik rasmlar tahlili
D) Rejalashtirish va hisoblash

5. Ma’rostaj va pedagogik innovatsiya tushunchalari qaysi jihatda uyg‘un?
A) Ikkalasi ham an’anaviy usul
B) Har ikkalasi amaliy faoliyatga asoslangan
C) Ikkalasi talabani passivlashtiradi
D) Ta’limni bir xil metodga yo‘naltiradi

6. Tasviriy san’at ta’limining o‘ziga xosligi nimada?
A) Faqat nazariy bilim talab etiladi
B) Amaliy mashg‘ulotlar ustuvor
C) Dastur barcha fanlar bilan bir xil
D) Ta’lim faqat auditoriyada olib boriladi

7. Loyihalash va ijodiy fikrlash qaysi usulda keng qo‘llaniladi?
A) Reproduktiv usul
B) Interaktiv va dizaynga asoslangan usul
C) Mehnat ta’limi usuli
D) Naqsh chizishni yodlash usuli

8. Oliy ta’limda baholash mezonlari nimaga asoslanishi zarur?
A) Faqat imtihon natijasiga
B) Talabaning barcha faoliyat ko‘rsatkichlariga
C) Hozir bo‘lishga

D) Faqat kotirovkalarga

9. «Portfolio» baholash shakli qaysi natijani ko‘rsatadi?

A) Talabaning faqat bitta ishini
B) Ijodiy o‘sish dinamikasini
C) Bir martagi natijani
D) Faqat nazariy bilimni

10. Xalqaro ta’lim standartlari asosida qanday natija kutilgan?

A) Mehnat bozoriga mos kadr tayyorlash
B) Talabalar sonini oshirish
C) Fanlarni qisqartirish
D) Auditoriyalarda o‘rin ko‘payishi

11. Ma’ruza turlaridan biri to‘g‘ri ko‘rsatilgan javob?

A) Ijodiy tanlov
B) Problemali ma’ruza
C) Plener mashg‘uloti
D) Muzey darsi

12. «Mustaqil ta’lim»ning maqsadi?

A) Talabani o‘qituvchiga qaram qilish
B) Talabada izlanish va ijodkorlikni shakllantirish
C) Dars vaqtlarini kamaytirish
D) Fanni yodlashni talab qilish

13. Darsda multimediya vositalaridan foydalanishning asosiy afzalligi?

A) Talabani chalg‘itish
B) Vizual idrokni rivojlantirish
C) Yodlashni oshirish
D) Fanni mavzusini qisqartirish

14. Munozara usulining asosiy vazifasi?

A) Fikr bildirish va asoslash
B) Tinglashni yodlash
C) Rasmni to‘g‘ri chizish
D) Faqat o‘qituvchi fikrini qabul qilish

15. Tasviriy san’atda tasavvurni rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?

A) Nusxa ko‘chirishni ko‘paytirish
B) Kuzatish, tahlil va ijodiy tajribalar orqali
C) Tayyor formulalarni yodlash
D) Faqat nazariy darslar bilan

16. Ta’lim texnologiyasining asosiy maqsadi nima?

A) Fanni yengillashtirish
B) Pedagogik jarayon samaradorligini oshirish
C) Dars soatini kamaytirish
D) Faqat reyting ball yig‘ish

17. Interaktiv usullar qaysi jihatni kuchaytiradi?

A) Passiv eshitishni
B) Talabalarning faol ishtirokini

C) Faqat tezkorlikni
D) Yodlashni

18. Tasviriy san’at ta’limining pirovard natijasi:
A) CHizishni biraz o‘rganish
B) Malakali ijodkor va pedagog tayyorlash
C) Faqat baholashdan o‘tish
D) Portret chizishni biladi

19. Seminar mashg‘ulotining maqsadi?
A) Talabaga tayyor bilim berish
B) Mustahkamlash va fikr almashish
C) Faqat test yechish
D) Rasm chizishdan foyda yo‘q

20. Talabaning “Soft skills” ko‘nikmalari qayerda rivojlanadi?
A) Faqat ma’ruzalarda
B) Jamoaviy va ijodiy ishlar orqali
C) Bir martagi nazoratda
D) Reyting yig‘ishda

21. Oliy ta’limda “Amaliy mashg‘ulot” nima?
A) Nazariy materialni qayta eshitish
B) Amalda ijodiy faoliyat bajarish
C) Daftarga ko‘chirish
D) Faqat imzo qo‘yish

22. Multimedia vositalarining asosiy vazifasi?
A) Axborotni ko‘paytirish
B) Vizual taassurot va anglashni kuchaytirish
C) Dars vaqti qisqarishi
D) Talabani chalg‘itish

23. Innovatsion ta’lim shakllari qaysi?
A) Diktant, ko‘chirish
B) Vebinar, virtual dars, AR/VR
C) Faqat ma’ruza
D) Faqat plener

24. “Didaktik materiallar” nima?
A) Ta’til rejasi
B) O‘quv jarayonini qo‘llovchi resurslar
C) Tanishtiruv qog‘ozi
D) Xossada turish

25. Kompetensiyaviy yondashuvda asosiy e’tibor:
A) Bahoga
B) Qobiliyat, malaka, amaldagi natijaga
C) Fan soatiga
D) Formaga

26. Muzey darsi nimaga xizmat qiladi?
A) Faqat vaqt o‘tkazish
B) Kuzatish va tahlil ko‘nikmasini rivojlantirish

C) Reja to‘ldirish
D) Fanni almashtirish

27. Portfolio qaysi muhitda yuritiladi?
A) Faqat qog‘ozda
B) Elektron va an’anaviy formatda
C) Faqat internetda
D) Yuritilmaydi

28. Talabalarni baholashda shaffoflik nima?
A) Baxolashni yashirish
B) Aniq mezon va ochiqlik
C) Faqat o‘qituvchi bilsin
D) Ballarni tasodifan berish

29. Keys-stadi usulining o‘ziga xosligi?
A) Real vaziyatga asoslangan tahlil
B) Faqat nazariy yodlash
C) Qoidalarni o‘zgartirish
D) Gapirmaslik

30. Oliy ta’limda yo‘l qo‘yilmaydigan holat?
A) Akademik adolat
B) Plagiat
C) Mustaqil fikr
D) Ijodkorlik

31. Ma’ruzada talabaning vazifasi?
A) Faqat eshitish
B) Fikr yuritish va savol berish
C) Hech narsa qilmaslik
D) Telefon bilan ovunish

32. San’at ta’lim metodikasida “ko‘rgazmali usul”:
A) So‘z orqali tushuntirish
B) Turli vizual namuna, jonli namoyish
C) Faqat yechim berish
D) Tinglash

33. Muvofiqlashtiruvchi o‘qitish nimani anglatadi?
A) Fanlarni bog‘lamaslik
B) Fanlararo integratsiya
C) Faqat bir manbadan foydalanish
D) Noto‘g‘ri rejalashtirish

34. Pedagogik refleksiya nima?
A) Darsni o‘tkazib qo‘yish
B) O‘z faoliyatini tahlil qilish
C) Hisobot yozish
D) Faqat tanqid qilish

35. Autentik baholash:
A) Natijani haqiqiy faoliyatda tekshirish
B) Qisqa test

C) Yozma diktant
D) Faqat reyting balli

36. “Blum taksonomiyasi” qaysi jarayonga oid?
A) Psixomotorik harakatlarga
B) Tafakkur bosqichlari rivojiga
C) Hissiyotga
D) Nazorat ishlariga

37. Pedagog uchun eng muhim malaka:
A) Faqat gapirish
B) Metodik tayyorgarlik va muloqot qobiliyati
C) Yo‘riqnoma tuzish
D) Faqat jurnal to‘ldirish

38. Talabani rag‘batlantirish nimaga xizmat qiladi?
A) Ishtirokni kuchaytirish va ijodiy motivatsiya
B) Faqat ball yig‘ish
C) Jazolash
D) Ruxiy tushkunlik

39. San’at ta’limini baholashda nimani hisobga olish zarur?
A) Faqat natijani
B) Ijodiy jarayon + natija
C) Faqat xato soni
D) Faqat mavzu nomi

40. Oliy ta’limda o‘qituvchining asosiy vazifasi:
A) Faqat nazariy ma’lumot berish
B) Rivojlantiruvchi va yo‘naltiruvchi vazifani bajarish
C) Ball qo‘yish
D) Faqat nazorat

40 ta test savolining javoblar kaliti

№	Javob	№	Javob	№	Javob	№	Javob
1	C	11	B	21	B	31	B
2	B	12	B	22	B	32	B
3	A	13	B	23	B	33	B
4	B	14	A	24	B	34	B
5	B	15	B	25	B	35	A
6	B	16	B	26	B	36	B
7	B	17	B	27	B	37	B
8	B	18	B	28	B	38	A
9	B	19	B	29	A	39	B
10	A	20	B	30	B	40	B

Modulli baholash uchun savollar (20 ta)

Fan: Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi.

1. Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasining asosiy vazifalarini bayon qiling?
2. Tasviriy san'atta'liminitakomillashtirishdakompetensiyaviyyondashuvning ahamiyati.
3. Oliy ta'limda seminar darslarini samarali tashkil etish metodlari.
4. Amaliy mashg'ulotlarda talabalarning ijodiy faolligini oshirish usullari.
5. Tasviriy san'atda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari.
6. Portfolio usulining amaliy ahamiyati va baholash mezonlari.
7. San'at ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning afzalliklari.
8. Dars ssenariysi (konspekt)ni ishlab chiqish talablari va namunasi.
9. Tasviriy san'at bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari.
10. Pedagogik tajriba-tahlil usullarini qo'llash va natijalarni baholash.
11. Oliy ta'limda multimediya vositalari imkoniyatlari va qo'llash uslubiyati.
12. San'at ta'limda faol baholash (autentik baholash)ning roli.
13. Mutaxassislik fanlarining fanlararo integratsiyasi misollar bilan.
14. Blum taksonomiyasi asosida dars maqsadlarini belgilash tartibi.
15. Pedagogik refleksiyaning mazmuni va dars samarasiga ta'siri.
16. Talabalarning Soft skills ko'nikmalarini san'at ta'limida rivojlantirish usullari.
17. Muzey darsini rejalashtirish: maqsad, vazifa va amalga oshirish bosqichlari.
18. Talabalar ijodiy ishlarini namoyish qilish va baholash mezonlari.
19. Ta'lim jarayonida fan va ishlab chiqarish bog'liqligini ta'minlash.
20. Virtual ta'lim muhitini yaratishda tasviriy san'atning vizual resurslaridan foydalanish.

Eslatma: Bu savollar modulli reyting tizimiga mos:

– Yozma izohli javoblar.
– Prezentatsiya yoki ijodiy topshiriq.
– Amaliy namuna bilan himoya ko'rinishida bajarilishi mumkin.

Oliy ta'limga xos tahliliy keys savollari (20 ta)

Fan: Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi

1. Talaba amaliy mashg'ulotga asbob-anjomsiz keldi. O'qituvchi qanday yondashishi maqsadga muvofiq?
2. Guruhda ijodiy daraja va malaka farqi yuqori. O'qituvchi qanday differensial yondashuv qo'llaydi?
3. Talabalar seminarda passiv ishtirok etmoqda. Faollashtirish uchun qanday metodlar tanlanadi?
4. Talaba portret chizishda qiyinlayapti. O'qituvchi qaysi pedagogik yordam turini qo'llaydi?
5. Porfolio baholash jarayonida talabalar baholashni sub'ektiv deb hisoblamoqda. Shaffoflikni qanday ta'minlaysiz?
6. Guruhda munozara paytida ayrimlar o'z fikrini erkin bayon qila olmayapti. Qanday muhit yaratiladi?

7. Talabalar AR/VR texnologiyalaridan foydalanishga qiziqmoqda, lekin texnik jihatdan imkoniyat kam. Qanday yechim?

8. Muzey darsida talabalar diqqati chalg‘iyapti. Pedagog qanday interaktiv vazifalar beradi?

9. Talaba plagiat qilib topshiriqni taqdim etdi. O‘qituvchining to‘g‘ri munosabati?

10. Amaliy mashg‘ulotda vaqt taqsimoti noto‘g‘ri bo‘ldi – topshiriqlar bitmadi. Keyingi darsni qanday rejalashtirish kerak?

11. Talabaning Soft skills ko‘nikmalari past. Qanday rivojlantirish choralari ko‘riladi?

12. Talabalar onlayn darsda faol emas. Qanday interaktiv platformalar va mexanizmlar joriy etasiz?

13. San’at asarini tahlil qilishda talabalar faqat tavsif bermoqda. Tahliliy fikrlashni qanday rivojlantirasiz?

14. Jamoa bilan ishlashda kelishmovchilik yuzaga keldi. O‘qituvchi qanday tarbiyaviy yondashuv qo‘llaydi?

15. Talaba muxtoriyatga ega bo‘lganda mas’uliyati kamaymoqda. Mustaqillik va nazorat muvozanati qanday ta’minlanadi?

16. Ijodiy loyiha himoyasida talabalar texnik jihatga ahamiyat berib, g‘oyani ochmay qoldi. Qanday fidbek beriladi?

17. Talaba san’at nazariyasiga qiziqmay, faqat chizishni istaydi. Qanday motivatsiya ishlatish mumkin?

18. Muzey ekspozitsiyasi mavzusidan chetga chiqdi. Dars maqsadini saqlab qolish uchun qanday usul qo‘llanadi?

19. Elektron portfoliolar to‘liq yuritilmayapti. Qanday rag‘bat va nazorat mexanizmi joriy etasiz?

20. Talaba ijodiy ishini ommaviy namoyishdan qo‘rqmoqda. Psixologik qo‘llab-quvvatlash qanday bo‘ladi?

Bu keyslar magistrlarga:

– Tahliliy kompetensiya;

– Pedagogik qaror qabul qilish;

– Ijodiy va professional fikr qobiliyatlarini baholashga yordam beradi.

4. Xulosa yozish.

5. Adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirish.

5. Metodik ko‘rsatmalar:

– Oliy ta’limda talaba mustaqilligi va ijodkorligi asosiy tamoyil hisoblanadi.

– Mashg‘ulot modelida “ko‘rsatma → ijod → tahlil” zanjiri asos bo‘lishi kerak.

– Ijodiy ishlarni baholashda rubrikalar, portfolio va jarayon bahosi qo‘llanilishi samarali.

– Darslarga AT vositalarini integratsiya qilish (grafik dasturlar, virtual ko‘rgazmalar) tavsiya etiladi.

– Nazariy yondashuv bilan bir qatorda kompozitsion tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashqlar ko‘proq o‘rin olishi kerak.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tasviriy san’at metodikasi bo‘yicha oliy ta’lim qo‘llanmalari.

2. Rassomchilik, grafik va dizayn bo‘yicha nazariy-adabiy manbalar.
3. Pedagogika va psixologiya asoslari.
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va oliy ta’lim standartlari.
5. Raqamli san’at va dizayn bo‘yicha zamonaviy manbalar.
7. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Tahliliy yondashuv	Ilmiy-metodik asoslarni chuqur tahlil qilishi	30
Amaliy topshiriq	Mashg‘ulot/Loyiha modelini aniq tuzishi	25
Metodik asos	Oliy ta’lim tamoyillariga mosligi	20
Mustaqillik	Talabaning ijodiy fikrlari, takliflari	15
Rasmiylashtirish	Me’yoriy talablarga mosligi	10
	Jami	100

12-mavzu: Tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashdagi ayrim muammolar

1. Mavzuning maqsadi: – Talabalarda tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida mavjud bo‘lgan pedagogik, metodik, moddiy-texnik va tashkilotchilik muammolarini anglash va ularni bartaraf etishga oid takliflar ishlab chiqish ko‘nikmasini shakllantirish.

2. O‘rganish vazifalari. Talaba quyidagilarni tahlil qilishi kerak:

1. O‘qituvchilarni tayyorlash dasturlaridagi metodik yetishmovchiliklar.

2. Amaliy mashg‘ulotlar sifati, laboratoriya va ustaxona ishlaridagi kamchiliklar.

3. Raqamli texnologiyalar bo‘yicha yetarli tayyorgarlik yo‘qligi.
4. O‘quvchi yosh psixologiyasi bo‘yicha tayyorgarlik darajasi.
5. Malaka oshirish tizimidagi muammolar va yangilanish zarurati.
6. Ustoz-shogird maktabining sustligi.

3. Topshiriq mazmuni:

A) Tahliliy yozma ish (2-2,5 bet). Talaba quyidagilarni yoritadi:

1. Metodik muammolar:

– Oliy ta’lim dasturlarida tasviriy san’at metodikasi modullarining yetarli emasligi;

– Amaliy darslarning nazariya bilan bog‘lanish darajasi past bo‘lishi;

– Dars ishlanmasini tuzish, baholash mezonlarini qo‘llash bo‘yicha yetarli amaliyot berilmasligi.

2. Kadrlar tayyorlashdagi amaliy muammolar:

– Naturadan ishlash, kompozitsiya, rangtasvir bo‘yicha yetarli soatlar ajratilmasligi;

– Ustaxona jihozlari, chizmachilik hamda raqamli grafik vositalar yetishmasligi;

– Real maktab amaliyotining sust tashkil etilgani.

3. Axborot texnologiyalariga oid muammolar:

– Grafik dasturlar bo‘yicha yetarli malaka berilmasligi;

– Onlayn ta’lim, multimedia, virtual ko‘rgazmalar bilan ishlash tajribasining

kamligi.

4. Psixologik-pedagogik tayyorgarlikdagi kamchiliklar: – O‘quvchi yosh xususiyatlari, motivatsiya, ijodiy tafakkur, muammoli ta’lim kabi psixologik yo‘nalishlar yetarli esh o‘rganilmasligi.

5. Malaka oshirish tizimidagi muammolar: – O‘qituvchilar uchun muntazam seminar va amaliy treninglar kamligi; – Innovatsion texnologiyalar bo‘yicha qayta tayyorlash kurslari tizimli emas.

B) Amaliy topshiriq. Talaba quyidagi variantlardan birini bajaradi:

Variant 1: – Muammo – Yechim jadvali (3-5 muammo asosida). Har bir muammo quyidagicha bayon qilinadi: – Muammo mazmuni. Uning sabab(lar)i. Taklif etilayotgan yechim. Kutilayotgan natija. Misol:

Muammo: – Grafik dasturlar bo‘yicha tayyorgarlikning pastligi.

Sabab: – O‘quv dasturlarida AT modullarining kamligi.

Yechim: – Photoshop/Krita bo‘yicha amaliy modul joriy etish.

Natija: – O‘qituvchi zamonaviy raqamli vositalarni darsda talabalarga o‘rgata oladi.

Variant 2: “Ideal tasviriy san’at o‘qituvchisi” modeli. Talaba quyidagilarni aniqlaydi:

– Zarur nazariy bilimlar;
– Amaliy kasbiy ko‘nikmalar;
– Axborot texnologiyalari bo‘yicha kompetensiyalar;
– Psixologik-pedagogik fazilatlar;
– Innovatsion yondashuvlar;
– Ustoz-shogird tizimidagi roli.

Model sxema, diagramma yoki jadval shaklida bo‘lishi mumkin.

4. Bajarish tartibi:

1. Oliy ta’lim dasturlari va amaliy mashg‘ulotlarni tahlil qilish.
2. Tahliliy yozma ishni reja asosida tuzish.
3. Tanlangan variant bo‘yicha jadval yoki model yaratish.
4. Yakuniy xulosa berish.
5. Adabiyotlar ro‘yxatini tartibli rasmiylashtirish.

5. Metodik ko‘rsatmalar:– Talaba real holatlardan (o‘qish jarayoni, ustaxonalar, maktab amaliyoti) misollar keltirishi yuqori baholanadi. Muammolarni tanlashda ularning dolzarbligi va real ta’lim jarayoniga ta’sirini hisobga olish kerak. Takliflar amaliy va amalga oshirishga mos bo‘lishi lozim. Agar mumkin bo‘lsa, modernizatsiya takliflariga AT, loyiha metodi, kreativ yondashuv qo‘shilishi maqsadga muvofiq.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi bo‘yicha OTM qo‘llanmalari.
2. Amaliy san’at, rangtasvir, kompozitsiya bo‘yicha klassik va zamonaviy manbalar.
3. Pedagogika va psixologiya asoslari bo‘yicha qo‘llanmalar.
4. O‘zbekistonda o‘qituvchilar malakasini oshirish markazlari materiallari.
5. Raqamli ta’lim bo‘yicha xalqaro metodik manbalar.

7. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Tahliliy yondashuv	Muammolarni aniq va ilmiy asosda tahlil qilishi	30
Amaliy topshiriq	Jadval yoki metodik modelni to‘g‘ri tuzishi	25
Takliflar	Yechimlarning real, asosli va innovatsion bo‘lishi	20
Mustaqillik	Talabaning shaxsiy kuzatuvlari va fikrlari	15
Rasmiylashtirish	Me’yoriy talablarga mosligi	10
	Jami	100

13-mavzu: Mutaxassislik fanlari mashg‘ulotlarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish

1. Mavzuning maqsadi: – Talabalarda mutaxassislik fanlari (rangtasvir, kompozitsiya, chizmachilik, dizayn, dekorativ san’at va boshqalar) orqali ijodiy fikrlash, tasavvur, badiiy tafakkur va innovatsion yondashuvlarni shakllantirish mexanizmlarini tushunish va amaliy qo‘llash ko‘nikmasini hosil qilish.

2. O‘rganish vazifalari. Talaba quyidagilarni o‘rganishi kerak:

1. Ijodiy qobiliyat tushunchasining psixologik va pedagogik asoslari.

2. Mutaxassislik fanlarining ijodiy tafakkurga ta’sir etuvchi omillari.

3. Mashg‘ulotlarda ijodiy vaziyat yaratish usullari (muammoli topshiriqlar, variantli yechimlar, eskizlar tizimi).

4. Individual va guruhiy ijodiy faoliyatning o‘ziga xosligi.

5. Ijodiy loyihalar, portfoliolar va mustaqil ishlarning ahamiyati.

6. O‘qituvchining yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi, motivatsiya yaratuvchi roli.

3. Topshiriq mazmuni:

A) Tahliliy yozma ish (2 bet atrofida). Talaba quyidagilarni tushuntirib beradi:

– Ijodiy qobiliyatning psixologik jarayonlari: tasavvur, tafakkur, assotsiatsiya, emotsional sezgirlik.

– Mutaxassislik fanlarining ijodiy tafakkurga ta’siri (kompozitsiya – muammoli fikrlashni, rangtasvir – sezgirlikni, dasturiy grafik – innovatsiyani rivojlantiradi).

– Ijodiy muammo qo‘yishning o‘rni: “Bitta kompozitsiyaning uchta yechimi”, “Rang variantlari bilan ishlash”, “Eskizdan final asarga o‘tish”.

– Raqamli texnologiyalar orqali ijodiy faoliyatni faollashtirish imkoniyatlari (Procreate, Krita, 3D-dizayn dasturlari).

B) Amaliy topshiriq. Talaba quyidagi variantlardan birini tanlaydi:

Variant 1: – Ijodiy mashg‘ulot modeli. Talaba mutaxassislik fanlaridan biri

bo‘yicha ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi dars modeli ishlab chiqadi. Unda:

– Mavzu;

– Maqsad (ijodiy malaka + texnik malaka);

– Qiyinlashuvchi topshiriqlar ketma-ketligi;

– Ijodiy yondashuvni faollashtiruvchi usullar (alternativ yechim, eskizlar seriyasi, rang variantlari);

– Yakuniy baholash: “ijodiy portfolioga qo‘shish” mezoni.

Variant 2: “Ijodiy topshiriqlar banki” (3 ta topshiriq). Talaba uchta mustaqil ijodiy topshiriq ishlab chiqadi:

Misol topshiriqlar:

1. “Rang orqali kayfiyat yaratish” – bir mavzuning uch xil rang yechimi.

2. “Shakl transformatsiyasi” – real obyektni geometrik shakllar orqali qayta yaratish.

3. “Eskizdan final tasvirga” – 3 bosqichli ijodiy loyiha.

Variant 3: – Talabaning shaxsiy ijodiy loyihasi. Loyiha mavzusi. Tadqiqot va ijodiy izlanish bosqichlari. Amaliy kompozitsiya yaratish. Yakuniy tahlil va taqdimot mezonlari.

4. Bajarish tartibi:

1. Ijodiy qobiliyatga oid ilmiy manbalarni o‘rganish.

2. Tahliliy matnni ilmiy izohlar bilan yozish.

3. Tanlangan ijodiy topshiriq variantini ishlab chiqish.

4. Yakuniy xulosa yozish.

5. Adabiyotlar ro‘yxatini tartibli rasmiylashtirish.

5. Metodik ko‘rsatmalar:

– Mashg‘ulotlarda “variantlilik” tamoyili (bir nechta yechimlar bo‘lishi) ijodiy fikrlashni kuchaytiradi.

– Talabaga mustaqillik berish, tanlov imkoniyati (rang, material, kompozitsiya, shakl) ijodiy qo‘llanma uchun juda muhim.

Ijodiy jarayonning uch asosiy bosqichi yoritilishi kerak:

1. G‘oya izlash.

2. Eskizlar tizimi.

3. Final badiiy yechim.

Raqamli vositalar ijodiy jarayonni osonlashtirishi mumkin – ayniqsa rang sinovlari, kompozitsiya eskizlari uchun.

6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Ijod psixologiyasi bo‘yicha ilmiy manbalar (E. G‘oziyev, L.S. Vygotskiy).

2. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi bo‘yicha OTM qo‘llanmalari.

3. Rassomchilik, rangshunoslik, kompozitsiya bo‘yicha zamonaviy adabiyotlar.

4. Kreativ pedagogika va loyiha metodiga doir qo‘llanmalar.

5. Raqamli grafik dasturlar bo‘yicha amaliy manbalar.

7. Baholash mezonlari:

Mezon	Tavsif	Ball
Tahliliy yondashuv	Ijodiy qobiliyatning ilmiy asoslarini to‘g‘ri ochishi	30
Amaliy topshiriq	Mashg‘ulot yoki topshiriq modelining puxtaligi	25
Innovatsionlik	Yechimlarning kreativligi va yangiligi	20
Mustaqillik	Talabaning ijodiy fikri va shaxsiy yondashuvi	15
Rasmiylashtirish	Me’yoriy talablarga mosligi	10
	Jami	100



TALABA MUSTAQIL TA’LIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA UMUMIY METODIK TAVSIYALAR

1. Mustaqil ta’limning maqsadi va ahamiyati. Oliy ta’lim tizimida talaba mustaqil ta’limi (TMT) – ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, talabaning:

– mustaqil fikrlashi;

– ijodiy izlanishi;

– ilmiy tahlil ko‘nikmasi;

– mas’uliyat va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantiradi.

Mustaqil ta’lim talaba shaxsini professional va badiiy jihatdan tobora yetuklashtirishga xizmat qiladi. TMT tushunib va rejali bajarilgan taqdirda, ta’lim samaradorligi ikki barobar ortgani ilmiy manbalarda ta’kidlangan.

2. Mustaqil ta’limni bajarishning umumiy bosqichlari. Quyidagi bosqichlar har bir talaba uchun samarali yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qiladi:

1-bosqich. Mavzu bilan tanishish:

– Mavzuning maqsadi, vazifalari va ahamiyatini o‘qib, unda nimani o‘rganish kerakligini ilmiy asosda tushunish.

– TMTning aynan qaysi ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishiga e’tibor qaratish.

2-bosqich. Reja tuzish:

– Ishning tuzilishi, ketma-ketligi, muhim manbalari aniqlanadi.

– Reja talabaning vaqtni to‘g‘ri tashkil etishiga yordam beradi.

3-bosqich. Manbalarni tanlash va tahlil qilish:

– Ilmiy manbalar, elektron resurslar, maqolalar, darsliklardan 3-7 tasi tanlanishi tavsiya etiladi.

– Tahlil paytida muhim g‘oyalar, nazariy yondashuvlar, ijodiy fikrlar ajratib olinadi.

– Manbalarni ko‘chirib emas, tahlil qilib, xulosalarga kelish kerak.

4-bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish:

– Mushohada, tahlil, eskiz, kompozitsiya, rang yechimlari va raqamli ishchilar amalga oshiriladi.

– Talaba o‘z ijodiy yondashuvini qo‘shishi majburiy – bu TMTning eng muhim talabi.

5-bosqich. Yakuniy umumlashtirish va tahlil:

– Olingan natijalarni tizimli ko‘rinishga keltirish.

– Shaxsiy xulosalar, muammolar, kelgusidagi takliflar ko‘rsatiladi.

6-bosqich. Rasmiylashtirish va topshirish:

– Matnning tuzilishi, imlo, havolalar, titullar va adabiyotlar ro‘yxati standartga mos rasmiylashtiriladi.

– Grafik yoki ijodiy ishlar portfolioga joylanadi.

3. Ilmiy manbalar bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar:

– Faqat ishonchli va ilmiy manbalardan foydalaning: – darsliklar, maqolalar, konferensiya materiallari, davlat hujjatlari.

– Matndagi fikrni o‘z so‘zlaringiz bilan sharhlang – bu ijodiy va ilmiy kompetensiyani oshiradi.

– Manbaga tayangan holda tahlil qilish kerak, ammo so‘zma-so‘z ko‘chirish mumkin emas.

– Manbalarni rasmiylashtirishda abzas, havola va bibliografik normaga amal qilinadi.

4. Ijodiy topshiriqlarni bajarish bo‘yicha tavsiyalar:

Tasviriy san’at yo‘nalishidagi TMTning asosiy qismi – ijodiy izlanish. SHunday ekan:

– Bir mavzuning kamida 2-3 ta yechimini sinab ko‘ring (variantlilik tamoyili).

– “Eskiz → sinov → final ishlanma” ketma-ketligiga qat’iy amal qiling.

– Rang, shakl, kompozitsiya bo‘yicha eksperimental yondashuv qo‘llang.

– Raqamli vositalardan foydalaning: Canva, Krita, Procreate, Photoshop.

– Har bir ijodiy ish yakunida o‘z-o‘zini tahlil qilish majburiy.

5. Vaqtni samarali rejalashtirish bo‘yicha tavsiyalar:

– Har bir TMT mavzusi uchun haftalik vaqt rejasini tuzing.

– Vazifalarni murakkablik darajasi bo‘yicha guruhlarga ajrating: – oson → o‘rta → murakkab.

– Eng samarali vaqt: – ertalabgi 2-3 soat yoki jimjit kechki vaqt.

– Ortiqcha charchoqda ijodiy natija past bo‘lishi mumkin – tanaffuslar shart.

6. Baholash mezonlarini to‘g‘ri tushunish. Talaba yuqori baho olishi uchun quyidagilarga e’tibor qaratishi kerak:

– Nazariy tahlilning to‘liqligi;

– Ijodiy yondashuvning mavjudligi;

– Amaliy topshiriqning sifatli bajarilishi;

– Manbalar bilan ishlash madaniyati;

– Mustaqil xulosa va takliflar;

– Matnning rasmiylashtirilish sifati.

Baholash mezonlari TMT vazifalari oldindan tushuntirilgan bo‘lishi kerak.

7. O‘qituvchi bilan maslahatlashish tartibi. Talaba mustaqil ta’lim davomida:

– savollarni o‘qituvchiga o‘z vaqtida berishi;

– oraliq natijalarni ko‘rsatib borishi;

– kerakli metodik yordam va yo‘naltirishni olishi talab qilinadi.

Bu jarayon talabaning noto‘g‘ri yo‘nalishda ketib qolishining oldini oladi.

8. Mustaqil ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy ta’lim sharoitida AT vositalari mustaqil ta’lim samaradorligini oshiradi:

– Online galereyalar: Google Arts & Culture;

– Grafik dasturlar: Krita, Photoshop, Procreate;

– Ta’lim platformalari: Google Classroom, YouTube darslari;

– Virtual ko‘rgazmalar va 3D modellar.

Talaba ushbu resurslardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgansa, ijodiy ishlari ham, tahliliy matnlari ham yuqori sifatda bo‘ladi.

9. Ko‘p uchraydigan xatolar va ularni oldini olish:

– Fikrlarni manbalardan ko‘chirib olish – ijodiylikni susaytiradi.

– Rejasiz ishlash – vaqt yetishmasligiga olib keladi.

– Nazariy va amaliy qismlarni uyg‘unlashtirmaslik.

– Eskizsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri final ishga o‘tish.

– Rasmiylashtirishga e’tiborsizlik.

Yechim:

– Har bir ishni reja asosida bajaring.

– Tahlil + amaliy ish + xulosa – uch bosqichlik tamoyilni qo‘llang.

10. Yakuniy xulosa. Mustaqil ta’lim – nafaqat topshiriq, balki talabaning kasbiy shakllanishining bosh poydevoridir. U mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, tahlil, tadqiqot, mas’uliyat va professional kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Talabalar ushbu umumiy tavsiyalarga amal qilsa, har bir TMT mavzusi yuqori sifat bilan bajariladi va natijalar portfolioda ravshan aks etadi.



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni Xalq so‘zi gazetasi: 28 (6722). 08.02.2017 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // www. Ziyonet.uz. 2020 yil, 6 noyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida. PQ–4884. – Toshkent, 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: Tasviriy san’at fani dasturi. – T.: 2022. – 45 b.

5. I.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O‘zbekiston”, 1997. –150 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsan javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.

8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

11. Qurbonov T. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 232 b.

12. Axmedov X. Badiiy tafakkurni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Tasvir”, 2018. – 210 b.

13. Safarov I. Tasviriy san’at ta’limida kreativ kompetensiyalar. – Buxoro: BuxDU nashri, 2020. – 198 b.

14. G‘oziyev A. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2013. – 300 b.

15. Jamolov T. Kompozitsiya nazariyasi. – Toshkent: Kamalak, 2021. – 180 b.

16. Hasanboyeva O. Pedagogik texnologiya va kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent.: Innovatsiya-Ziyo, 2018. – 256 b.

17. Abduqodirov A. Zamonaviy ta’lim metodlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 240 b.

18. Nishonov A. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: TDPU, 2020. – 210 b.

19. Halimova D. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim. – Toshkent: TDPU, 2019. – 160 b.

20. Abdullayev S. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” NMIU, 2022. – 264 b.

21. Hasanov R., Nurtaev U. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 156 b.

22. Biggs, J. (2012). Teaching for Quality Learning at University (4th ed.). Open University Press.

23. Yo‘ldoshev J.G. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – T.: Fan, 2018. – 240 b.

24. Qosimov B. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2015. – 184 b.

25. Abdullayev A. Tasviriy san’at darslarida badiiy tafakkurni rivojlantirish. – T.: Yangi asr avlodi, 2021. – 152 b.

26. Nazarov R. San’atshunoslikka kirish. – T.: G‘afur G‘ulom, 2014. – 220 b.

27. Arnheim R. San’at va vizual idrok. – M.: Progress, 2018. – 330 b.

28. Dewey J. Art as Experience (San’at – tajriba sifatida). – New York: Penguin, 2005. – 360 p.

29. Zamonaviy grafik dasturlar: O‘quv qo‘llanma. – T.: Aloqa, 2022. – 110 b.

30. ICT in Art Education. – London: Cambridge Press, 2020. – 198 p.

31. Eisner, E. (2002). The Arts and the Creation of Mind. Yale University Press.

32. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing. Longman.

33. La Pierre, S. D., & Zimmerman, E. (Eds.). (2012). Research Methods and Methodologies for Art Education. National Art Education Association.

34. Ross, W. P. (2018). Using Art as Research in Learning and Teaching. Intellect Books.

35. Выготский Л.С. Психология воображения и творчества. – М.: Педагогика, 2019. – 280 с.

36. Shovdirov S.A. Tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi. Buxoro.: Kamolot, 2025. – 153 b.

MUNDARIJA

KIRISH **5**

I-BOB. MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH METODIKASI FANI TO‘G‘RISIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI. MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH METODIKASI FANINING RIVOJLANISH TARIXI **7**

1.1 § Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fani to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar 7

1.2 § Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi, uning boshqa fanlar bilan aloqalari va tadqiqot metodlari 13

1.3 § Metodologiya haqida tushuncha. Tasviriy san’at o‘qitishning metodologik tamoyillari 17

1.4 § Metodologiya va zamonaviy yondashuvlarni tanqidiy tahlil qilish va sintezlash 21

1.5 § Oliy ta’limda va ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlarni o‘qitishning xususiyatlari 27

1.6 § Tasviriy san’at fanidan pedagogik tadqiqot metodlari: pedagogik tajribalarni o‘rganish metodlari 31

1.7§ Tasviriy san’at fanidan pedagogik tadqiqot metodlari: nazariy tadqiqotlar metodlarini tashkil qilish 37

II-BOB. OLIY TA’LIMDA VA IXTISOSLASHGAN SAN’AT MAKTABLARIDA «TASVIRIY SAN’AT» TSIKLIDAGI FANLAR BO‘YICHA DASTURLAR MAZMUNINING TAHLILI VA ULARNING XUSUSIYATLARI HAMDA IMKONIYATLARI **44**

2.1§ Oliy ta’limda va ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlar bo‘yicha dasturlar mazmunining tahlili 44

2.2 § Ixtisoslashgan san’at maktablaridada «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlarning maxsus adabiyotlar va darsliklar bilan ta’minlanishi 51

2.3 § Zamonaviy grafik dasturlar va ularning xususiyatlari hamda imkoniyatlari 56

2.4 § Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda ilg‘or pedagogik metodlar 60

2.5 § Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlar 74

2.6 § Adabiyot manbalarini o‘rganish metodikasi 85

2.7 § Pedagogik amaliyotda dalillar yig‘ish metodikasi 93

2.8 § Tasviriy san’at bo‘yicha o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar 98

III-BOB. AMALIY MASHG‘ULOTLARI BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR **106**

3.1 § Ilmiy muammo va ilmiy mavzu. IImiy texnikaviy axborotni izlash 106

3.2 § Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlarining shakllanishi hamda o‘quv va bilim olish faoliyatini tashkil qilish, rag‘batlantirish va nazorat qilish..... 110
3.3§ Zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma’lumot va ularni tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda qo‘llash 116
3.4§ Tasviriy san’atga o‘rgatish metodikasining umumiy vazifalari. Tasviriy san’atga o‘rgatishning maqsad va vazifalari va darslarni tashkil qilish va o‘qitishning zamonaviy metodlari..... 120
3.5§ Tasviriy san’at darslarida muammoli vaziyatlarni yaratish. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish. Ularning tafakkurida obraz va tushunchalarni shakillantirish usullari..... 127
3.6§ Tasviriy san’at fanidan o‘quvchi va talabalarning o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirishini baholash tizimi. O‘quvchi va talabalar o‘tilgan mavzularni o‘zlashtinshini aniqlash tizimi..... 133
3.7§ Talabalar o‘zlashtinshini baholashning hozirgi ahvoli va uni takomillashtirish tizimlari 143
3.8§ Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda axborot va kompyuter texnologivalarini tutgan o‘rni 158
3.9§ Zamonaviy grafik dasturlar va ularning turlari 160
3.10§ Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda ilg‘or va zamonaviy pedagogik metodlar 166
3.11§ Oliy ta’lim va ixtisoslashgan san’at maktablaridagi «Tasviriy san’at» siklidagi fanlar bo‘yicha adabiyot, dastur hamda darsliklar mazmunining taxlili 179
3.12§ Tasviriy san’at fanidan dastur va darslik mazmuni bilan tanishish 183
3.13§ Tasviriy san’at bo‘yicha o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimum talablar..... 187
3.14 § Ixtisoslashgan san’at maktablarida «Tasviriy san’at» tsiklidagi fanlarni o‘qitishning xususiyatlari 196
3.15§ Mutaxassislik yo‘nalishiga asosan fan mazmuni va mohiyatining o‘zgarishi..... 212
Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar 223
Izohli lug‘at..... 238
Ilovalar.....245
Talaba mustaqil ta’limini samarali tashkil etish bo‘yicha umumiy metodik tavsiyalar 257
Adabiyotlar ro‘yxati 260

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ 5

I-ГЛАВА. ОБЩИЕ СВЕДЕНИЯ О ДИСЦИПЛИНЕ «МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН», ЕЁ ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ. ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН 7

1.1§ Общие сведения о дисциплине «Методика преподавания специальных дисциплин 7

1.2§ Связь методики преподавания специальных дисциплин с другими науками и её исследовательские методы 13

1.3§ Понятие методологии. Методологические принципы преподавания изобразительного искусства 17

1.4§ Критический анализ и синтез методологии и современных подходов 21

1.5§ Особенности преподавания дисциплин цикла «Изобразительное искусство» в высших учебных заведениях и специализированных школах искусств 27

1.6§ Методы педагогического исследования в преподавании изобразительного искусства: изучение педагогического опыта 31

1.7§ Методы педагогического исследования: организация теоретических исследований в области изобразительного искусства 37

II-ГЛАВА. АНАЛИЗ СОДЕРЖАНИЯ УЧЕБНЫХ ПРОГРАММ ДИСЦИПЛИН ЦИКЛА «ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО» В ВУЗАХ И СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛАХ ИСКУССТВ: ОСОБЕННОСТИ И ВОЗМОЖНОСТИ 44

2.1§ Анализ содержания учебных программ дисциплин цикла «Изобразительное искусство» в ВУЗах и специализированных школах 44

2.2§ Обеспечение дисциплин цикла «Изобразительное искусство» специальной литературой и учебниками в специализированных школах 51

2.3§ Современные графические программы: особенности и возможности 56

2.4§ Передовые педагогические методы в преподавании изобразительного искусства 60

2.5§ Современные педагогические методы в преподавании изобразительного искусства 74

2.6§ Методика изучения литературных источников 85

2.7§ Методика сбора фактических данных в педагогической практике 93

2.8§ Минимальные требования к уровню подготовки учащихся по изобразительному искусству 98

III-ГЛАВА. МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПРОВЕДЕНИЮ

ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ 106
3.1§ Научная проблема и тема исследования. Поиск научно-технической информации 106
3.2§ Формирование методов преподавания специальных дисциплин, организация учебной деятельности, стимулирование и контроль 110
3.3§ Современные педагогические технологии и их применение в преподавании изобразительного искусства 116
3.4§ Общие задачи методики обучения изобразительному искусству. Цели и задачи, организация и современные методы проведения занятий 120
3.5§ Создание проблемных ситуаций на уроках изобразительного искусства. Обучение критическому мышлению, формирование образов и понятий 127
3.6§ Система оценки усвоения изученного материала учащимися и студентами по изобразительному искусству 133
3.7§ Современное состояние и совершенствование системы оценки успеваемости студентов 143
3.8§ Роль информационных и компьютерных технологий в преподавании изобразительного искусства 158
3.9§ Современные графические программы и их типы 160
3.10§ Передовые и современные педагогические методы в преподавании изобразительного искусства 166
3.11§ Анализ содержания литературы, программ и учебников по дисциплинам цикла «Изобразительное искусство» в ВУЗах и специализированных школах 177
3.12§ Ознакомление с программами и содержанием учебников по изобразительному искусству 183
3.13§ Минимальные требования к уровню подготовки учащихся по изобразительному искусству 184
3.14§ Особенности преподавания дисциплин цикла «Изобразительное искусство» в специализированных школах искусств 196
3.15§ Изменение содержания и сущности дисциплины в зависимости от направления подготовки 212
Самообразование и самостоятельные работы 223
Толковый словарь терминов 238
Приложения 245
Общие методические рекомендации по эффективной организации самостоятельного обучения студентов 257
Список литературы 260

CONTENTS

INTRODUCTION 5
CHAPTER I. GENERAL INFORMATION ABOUT THE METHODOLOGY OF TEACHING PROFESSIONAL SUBJECTS, ITS AIMS AND OBJECTIVES. THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE METHODOLOGY OF TEACHING PROFESSIONAL SUBJECTS.....7
1.1§ General information on the methodology of teaching professional subjects 7
1.2§ Interdisciplinary relations and research methods of teaching methodology 14
1.3§ The concept of methodology. Methodological principles of teaching fine arts 17
1.4§ Critical analysis and synthesis of methodology and modern approaches 21
1.5§ Features of teaching the “Fine Arts” cycle subjects in higher education and specialized art schools 27
1.6§ Pedagogical research methods in fine arts education: study of pedagogical experience.....31
1.7§ Pedagogical research methods: organization of theoretical studies in the field of fine arts.....37
CHAPTER II. ANALYSIS OF THE CONTENT OF “FINE ARTS” CYCLE COURSES IN HIGHER EDUCATION AND SPECIALIZED ART SCHOOLS: FEATURES AND OPPORTUNITIES 44
2.1§ Analysis of curriculum content of “Fine Arts” cycle subjects in higher education and art schools.....44
2.2§ Provision of specialized art schools with textbooks and literature on the “Fine Arts” cycle.....51
2.3§ Modern graphic software: features and opportunities.....56
2.4§ Advanced pedagogical methods in teaching fine arts 60
2.5§ Contemporary pedagogical methods in teaching fine arts....74
2.6§ Methodology of studying literature sources.....85
2.7§ Methods of data collection in pedagogical practice 93
2.8§ Minimum requirements for students’ level of proficiency in fine arts 96
CHAPTER III. METHODOLOGICAL GUIDELINES FOR PRACTICAL TRAINING 106
3.1§ Scientific problem and research topic. Search for scientific-

technical information 106
3.2§ Formation of teaching methods, organization of educational activities, motivation and assessment 110
3.3§ Information on modern pedagogical technologies and their application in teaching fine arts 116
3.4§ General tasks of fine arts teaching methodology. Objectives and organization of lessons using modern methods 120
3.5§ Creating problem-based situations in fine arts lessons. Teaching critical thinking, formation of imagery and concepts 127
3.6§ System of assessing students' mastery of studied topics in fine arts 133
3.7§ Current state and improvement of students' assessment systems 143
3.8§ Role of information and computer technologies in teaching fine arts 158
3.9§ Modern graphic software and their types 160
3.10§ Advanced and modern pedagogical methods for teaching fine arts 166
3.11§ Analysis of program content, literature and textbooks on the "Fine Arts" cycle in higher education and art schools 179
3.12§ Familiarization with the content of curricula and textbooks on fine arts 183
3.13§ Minimum requirements for students' proficiency in fine arts 184
3.14§ Teaching features of "Fine Arts" cycle subjects in specialized art schools 196
3.15§ Changing the content and essence of the subject depending on the specialization 212
Independent learning and independent tasks 238
Glossary 239
Appendices 245
General methodological guidelines for the effective organization of students' independent learning 257
References 260

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

S.A.SHOVDIROV

OLIY TA’LIMDA MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH METODIKASI

O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan
“70110501 – Tasviriy san’at” magistratura mutaxassisligimagistrantlari uchun
DARSLIK

Mas’ul muharrir: Shahina Usmonova
Sahifalovchi va korrektor: Ziyodulla Xamidullayev

Nashriyot litsenziyasi: № 2323743 / N1087007

«Ta’lim innovatsiyalari» nashriyotida tayyorlandi
va “Sharq Nashr” MChJ tomonidan chop etildi.

Manzil: 111800, Toshkent viloyati,
Zangiota tumani, Nurafshon MFY,
Mustaqillik ko‘chasi, 27-uy.

Buyurtma №38. Adadi: 200 nusxa.
E-mail: sharqnashr@gmail.com.

ISBN 978-9910-5051-5-7